ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
Q. Almardanov	4	O'quvchilarni davlat va xususiy maktablarga qabul qilishning o'ziga xos mexanizmlari (Analitik tahlil)
U. G'oyimov	9	Pedagog kadrlarni tayyorlashda ta'limni fundamentallashuv yondashuvining ahamiyati
B. Boltayev	12	O'quvchilarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning artpedagogik imkoniyatlari
Z. Nurmamatov	18	Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga bo'lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish
A. Raxmonov	22	Milliy tarbiya – jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishining asosi
A. Dustboboyev	26	Akademik litseylarda o'quvchilarning axborotni xavfsiz qidirish kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot mazmunining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili
S. Ruzmetova	31	Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida muhandislik tafakkurining shakllanishida kognitiv jarayonlarning o'rni
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
K. Abdullayeva	35	Milliy hunarmandchilik faoliyati orqali o'quvchilarning tadbirkorlikka motivatsiyasini oshirish usullari (8-9-sinflar misolida)
Sh. Uchqurova	40	Chet tilini o'qitishda raqamli vositalar agregatorining nazariy asoslari
A. Karimova	45	Adabiy ta'limda jahon adabiyoti namunalarini o'qitishning metodik muammolari
F. Sultonova	48	Fizika fanini shakllanishida Osiyo allomalarining o'rni
Z. Bobomurodov	55	Oliy ta'limda qalam tasvirni o'qitish metodikasini takomillashtirish: kompetensiyaviy yondashuv va rubrikali baholash
S. Tog'aymurodova	58	Muqobilsiz leksikaga va lingvistik paradigmaga oid birliklarni lug'atlarda talqin qilish tamoyillari
G. Shomalikova	60	Didaktik asarlar asosida o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ko'nikmalarini rivojlantirish
A. Eskulova	64	Qozoq tili darslarida o'quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirish masalalari
L. Sunnatova	69	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda "Stem" yondashuv
M. Obidova	73	Pedagogık loyıhalash asosıda bo'lajak o'qıtuvchılarnıng nutqıy faolıyatını rıvojlantırısh metodıkasını takomıllashtırıshda mustaqıl ta'lım
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
R. Mo'minov, Z. Bobayeva	77	Gospital maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'yin texnologiyalari orqali nutqiy faoliyatini faollashtirish
M. Xasanova	81	Oliy badiiy ta'lim tizimida talabalarning tasviriy san'atga oid kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari

M. Nishanova, D. Ko‘charova,	85	Sun’iy intellekt va “Ilm” modellarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
Z. Rahmonova	88	Shaxs axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati
N. Begmatova	91	O‘quvchilarning milliy tuyg‘ularini o‘stirishda adabiy asarlar mazmunining pedagogik tahlili – muhim vosita sifatida
D. Adilova	95	Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari vositasida talabalarning vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirish
		TA’LIMDA MENEJMET
X. Bo‘ronboyeva	98	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
R. Davletov	101	Axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining dasturlash malakasini oshirish
		MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI
Sh. Bekmuratova	104	Tasviriy san’at mashg‘ulotlarini o‘qitishda talabalarga differensial yondashuvning avzaliklari
		MAKTABGACHA TA’LIM
N. Mamadaliyeva	108	Maktabgacha ta’lim jarayonida iqtisodiy mazmundagi ertak va rolli o‘yinlardan foydalanish texnologiyalari
D. Xakimova	113	O‘yin faoliyati asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda xorijiy til kompetensiyasini shakllantirishning afzalliklari
		KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH
Z. Temirova	117	Kasb-hunar ta’limida raqamlashtirish sharoitida mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida
		PSIXOLOGIYA
Z. Yulchiyeva	121	Ta’limda innovatsion pedagogikani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Г. Шахмурова, Б. Абдуллаев	124	Развитие системы общебиологических понятий: преемственный подход в школьном курсе биология (на примере раздела “Наследственность и изменчивость”)
И. Нарзуллаева	130	Методические аспекты формирования компетенций самообучения студентов-педагогов в процессе изучения микробиологии
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Г. Шахмурова, Х. Зулфкоров	135	Адаптация и применение метода “5 s” в образовательной среде: международный опыт и практика Узбекистана
		MARKETING IN EDUCATION
D. Umnov	139	Stories and the impact of marketing on the formation of consumer culture among preschool children

Qahramon ALMARDANOV,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

O‘QUVCHILARNI DAVLAT VA XUSUSIY MAKTABLARGA QABUL QILISHNING O‘ZIGA XOS MEXANIZMLARI (Analitik tahlil)

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarni davlat va xususiy maktablarga qabul qilish jarayonining o‘ziga xos mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda davlat maktablariga qabul qilishda hududiy tamoyil, yosh chegarasi, belgilangan kvotalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladigan tartiblar yoritiladi. Shuningdek, xususiy maktablarga qabul qilish jarayonining nisbatan moslashuvchanligi, tanlov asosida saralash, ota-onalar bilan tuziladigan shartnomalar va ta’lim xizmatlari sifati bilan bog‘liq talablar muhokama qilinadi. Muallif ikki turdagi ta’lim muassasalarida qabul mexanizmlarining afzallik va kamchiliklari qiyosiy tahlil asosida ochib bergan.

Tayanch so‘zlar. Davlat maktablari, xususiy maktablar, o‘quvchilarni qabul qilish, qabul mexanizmlari, hududiy tamoyil, ta’lim siyosati, normativ-huquqiy asoslar, ta’lim sifati.

В статье анализируются специфические механизмы процесса приема учащихся в государственные и частные школы. В нем будут освещены процедуры приема в государственные школы на основе территориального принципа, возрастных границ, установленных квот и нормативно-правовых актов. Также будут обсуждаться требования, связанные с относительной гибкостью процесса приема в частные школы, конкурсным отбором, договорами с родителями и качеством образовательных услуг. Автор на основе сравнительного анализа выявил преимущества и недостатки механизмов приема в два типа образовательных учреждений.

Ключевые слова. Государственные школы, частные школы, прием учащихся, механизмы приема, территориальный принцип, образовательная политика, нормативно-правовая база, качество образования.

The article analyzes the specific mechanisms of the process of admitting students to public and private schools. It will highlight the procedures for admission to public schools based on territorial principles, age limits, established quotas, and regulatory legal documents. Requirements related to the relative flexibility of the admission process to private schools, competitive selection, contracts with parents, and the quality of educational services will also be discussed. The author, based on a comparative analysis, revealed the advantages and disadvantages of admission mechanisms in two types of educational institutions.

Key words. Public schools, private schools, student admission, admission mechanisms, territorial principle, educational policy, regulatory framework, quality of education.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘quvchilarni qabul qilish mexanizmlarining adolatli, shaffof va samarali tashkil etilishi ta’lim sifati hamda ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘quvchilarni davlat va xususiy maktablarga qabul qilish jarayonlarining o‘ziga xos jihatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Davlat maktablariga qabul qilish asosan normativ-huquqiy hujjatlar, hududiy tamoyil va belgilangan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon aholining barcha qatlamlari uchun bepul va majburiy

ta’lim olish huquqini kafolatlashga qaratilgan. Biroq ayrim hududlarda o‘quvchi sig‘imi, resurslar yetishmasligi yoki byurokratik to‘siqlar qabul jarayonida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususiy maktablar esa ta’lim xizmatlari bozorining muhim subyekti sifatida qabul jarayonida nisbatan moslashuvchan mexanizmlarni qo‘llaydi. Ularda tanlov, suhbat, test sinovlari hamda ota-onalar bilan shartnoma tuzish amaliyoti keng tarqalgan bo‘lib, bu ta’lim sifati va raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda davlat va xususiy maktablarga qabul qilish mexanizmlarining o‘zaro farqlari, afzallik va cheklovlari tizimli tahlil qilinadi. Maqola ta’lim siyosatini takomillashtirish, qabul jarayonlarida shaffoflik va teng imkoniyatlarni ta’minlash hamda ota-onalar va jamiyatning ta’lim tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida maktab ta’limi tizimida davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish, ularning ochiqligi va qulayligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2022-yil 1-iyunda 295-sonli qaror qabul qilingan[1]. Mazkur qaror Prezidentning PF-62692 va PF-6079-son[3] farmonlari ijrosini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida maktab ta’limida davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirishni ko‘zda tutadi. Davlat maktablariga qabul qilish mexanizmlarining asosiy xususiyati bu jarayonning elektron shaklda, markazlashgan va shaffof tizim orqali amalga oshirilishi hisoblanadi. Qarorga muvofiq, bolalarni 1-sinfga qabul qilish hamda o‘quvchilarni bir umumta’lim maktabidan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining elektron xizmatlar portali (MMTV) orqali ko‘rsatiladi. Ayrim xizmatlar Davlat xizmatlari markazlari orqali ham taqdim etilishi belgilangan.

Mazkur mexanizmning muhim jihatlaridan biri bu mikrohudud tamoyili asosida qabul qilish tartibining joriy etilishidir. Mikrohudud tuman yoki shahar hokimliklari qarori bilan umumta’lim maktablariga biriktirilgan hudud hisoblanadi. Ariza beruvchining doimiy yashash manzili bo‘yicha ro‘yxatga olingan farzandlari aynan shu mikrohudud doirasidagi maktablarga joylashtiriladi. Bu yondashuv maktablarning teng yuklama bilan ishlashini, o‘quvchilar soni va infratuzilma imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Bolalarni 1-sinfga qabul qilish yoshi ham aniq belgilangan: ular yetti yoshga to‘lgan vaqtda qabul qilinadi. Qabul jarayoni har yili 20-iyundan 31-iyulgacha mikrohudud doirasida, 1-avgustdan 31-avgustgacha esa mikrohududdan tashqaridagi bo‘sh o‘rinlar asosida amalga oshiriladi[4]. Bu bosqichma-bosqich mexanizm ota-onalarga aniq muddatlar asosida rejalashtirish imkonini beradi.

Davlat maktabiga qabul qilish jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati bu inson omilini minimallashtirishdir. Ariza beruvchi so‘rovnomani mustaqil ravishda elektron shaklda to‘ldiradi, shaxsiy ma’lumotlar esa “Elektron hukumat” tizimi orqali avtomatik tarzda olinadi. Bu esa subyektiv yondashuvlar, noqonuniy aralashuv va korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Qabul jarayonida maktablarda maxsus qabul komissiyalari

[1] 295-son 01.06.2022. Maktab ta’limi tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-6044094

[2] PF-6269-son 24.07.2021. Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/ru/docs/-5530487

[3] PF-6079-son 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/ru/docs/-5030957

[4] 295-son 01.06.2022. Maktab ta’limi tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-6044094

faoliyat yuritadi. Ularning tarkibi maktab direktori, direktor o‘rinbosari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, maktab psixologi va hamshiradan iborat bo‘lib, zaruratga ko‘ra mahalla vakillari va kuzatuv kengashi a’zolari ham jalb etilishi mumkin[5]. Bu mexanizm qabul jarayonining oshkoraligini va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda (jumladan, rus tilida) bolaning tanlangan tilda boshlang‘ich so‘zlashuv ko‘nikmasi mavjudligi suhbat asosida baholanadi. Agar bola yetarli darajada til ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, u mos sinfga yoki boshqa maktabga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv bolalarning ta’lim jarayoniga moslashuvini yengillashtiradi va sifatli ta’lim olishiga sharoit yaratadi. Davlat maktabiga qabul qilish mexanizmlarida ijtimoiy himoya omili ham inobatga olingan. Xususan, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi talabnomasiga asosan reabilitatsiya markazlariga joylashtirilgan ayollarning voyaga yetmagan farzandlari eng yaqin hududdagi umumta’lim maktablariga joylashtiriladi[6]. Bu norma ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida nodavlat ta’lim muassasalarining o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa umumiy o‘rta ta’lim sohasida xususiy maktablar sonining ko‘payishi, ta’lim xizmatlari bozorida sog‘lom raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda bolalarni xususiy maktablarga qabul qilish mexanizmlarining aniq huquqiy asosga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur sohada muhim yangiliklarni belgilab berdi. Qonunda bolalarning maktabga qabul qilish yoshiga oid yagona qoida joriy etildi. Unga ko‘ra, endilikda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Mazkur talab faqat davlat maktablari uchun emas, balki nodavlat, ya’ni xususiy maktablarga ham bir xil darajada tatbiq etiladi[7]. Bu holat ta’lim tizimida tenglik va adolat tamoyillarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xususiy maktablarga qabul qilish mexanizmlarining huquqiy jihatdan mustahkamlanishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son[8] va 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son[9] qarorlari nodavlat ta’lim xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan asosiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu qarorlarga muvofiq, nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun keng ko‘lamli imtiyozlar belgilangan bo‘lib, ular bevosita xususiy maktablarning barqaror faoliyat yuritishiga va o‘quvchilarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. 2025-yil 1-yanvarga qadar nodavlat maktablar barcha turdagi soliqlardan (ijtimoiy soliqdan tashqari) va ayrim bojxona to‘lovlaridan ozod etilishi belgilangan edi. Keyinchalik Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ushbu imtiyozlarning amal qilish muddatini 2030-yil 1-yanvarga qadar uzaytirish taklifi ilgari surildi va ma’qullandi[10]. Natijada xususiy maktablar uzoq

[5] 295-son 01.06.2022. Maktab ta’limi tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-6044094

[6] 295-сон 01.06.2022. Maktab ta’limi tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-6044094

[7] O‘RQ-637-son 23.09.2020. Ta’lim to‘g‘risida https://lex.uz/docs/5013007

[8] PQ-3276-son 15.09.2017. Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-3343077

[9] PQ-3931-son 05.09.2018. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-3893416

[10] Nodavlat maktabgacha va maktab tashkilotlari barcha turdagi soliq va yig‘imlardan ozod qilinadi. 2024-yil, 23-noyabr. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/23/tax/

muddatli rejalashtirish asosida o‘z moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va sifatli ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Xususiy maktablarga qabul mexanizmlarining yana bir muhim jihati bu xorijiy pedagog va mutaxassislarni jalb qilish masalasi hisoblanadi. 2025-yil 1-yanvardan boshlab nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan doimiy asosda jalb etiladigan xorijiy mutaxassislar uchun “A-2” toifadagi o‘qituvchilar vizasini berish amaliyoti joriy etildi Bundan tashqari, ularga mehnat faoliyati uchun ruxsatnoma berishda undiriladigan yig‘im miqdorining keskin kamaytirilishi xususiy maktablarning malakali kadrlar bilan ta’minlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat o‘z navbatida ta’lim sifati oshishiga, ota-onalarning xususiy maktablarga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanishiga olib keladi.

Qabul mexanizmlarini samarali tashkil etishda pedagog kadrlarning malakasini oshirish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Belgilangan tartibga ko‘ra, nodavlat maktablarning rahbar va pedagog xodimlari malakasini oshirish Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu esa xususiy maktablar uchun qo‘shimcha moliyaviy yukni kamaytirib, qabul jarayonida sifatli ta’lim kafolatlarini ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, nodavlat maktablarni qurish va ularning infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlarning qisqartirilishi ham qabul mexanizmlariga bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va transport infratuzilmasini yaratish uchun to‘lovlarning nodavlat maktablar loyihalariga tatbiq etilmasligi yangi xususiy maktablar ochilishiga turtki bo‘lmoqda.

Davlat va xususiy maktab ta’lim muassasalarida qabul mexanizmlarining afzallik va kamchiliklari

Qabul mexanizmi jihatlari	*Davlat maktablarida afzallik va kamchiliklar*	*Xususiy maktablarda afzallik va kamchiliklar*
Huquqiy asos va tartib	**Afzalligi:** Qabul jarayoni qat’iy normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi, shaffoflik va tenglik tamoyillari kafolatlanadi. **Kamchiligi:** Qat’iy reglamentlar moslashuvchanlikni cheklaydi, individual yondashuv imkoniyati past bo‘ladi.	**Afzalligi:** Ichki nizomlar asosida moslashuvchan va tezkor qarorlar qabul qilinadi. **Kamchiligi:** Ayrim hollarda yagona standart yo‘qligi subyektivlik va adolatsizlik xavfini kuchaytiradi.
Hududiy biriktirish (mikrohudud)	**Afzalligi:** Bolalarning yashash joyiga yaqin maktabda o‘qishi ta’minlanadi, ijtimoiy tenglik mustahkamlanadi. **Kamchiligi:** Ota-onalarda maktab tanlash erkinligi cheklanadi.	**Afzalligi:** Hududiy cheklov yo‘q, ota-onalar maktabni erkin tanlaydi. **Kamchiligi:** Kuchli maktablarga talab haddan tashqari oshib, tenglik buzilishi mumkin.
Moliyaviy omil	**Afzalligi:** Ta’lim bepul yoki minimal to‘lov asosida, barcha qatlamlar uchun ochiq. **Kamchiligi:** Moliyaviy resurslar cheklangani sababli individual tanlov mexanizmlari sust.	**Afzalligi:** To‘lov asosida sifatli tanlov va saralash mexanizmlari joriy etiladi. **Kamchiligi:** Yuqori shartnoma narxlari kam ta’minlangan oilalar uchun to‘siq bo‘ladi.
Tanlov va saralash usullari	**Afzalligi:** Asosan tenglikka asoslangan qabul, diskriminatsiya xavfi past. **Kamchiligi:** Iqtidorli bolalarni chuqur aniqlash imkoniyati cheklangan.	**Afzalligi:** Test, suhbat, psixologik baholash orqali bolaning salohiyati aniqlanadi. **Kamchiligi:** Ba’zan haddan tashqari tanlov bolaga ruhiy bosim keltiradi.
Ijtimoiy adolat va inklyuzivlik	**Afzalligi:** Maxsus ehtiyojli va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun kvotalar mavjud. **Kamchiligi:** Resurs yetishmasligi inklyuziv ta’lim sifatiga ta’sir qiladi.	**Afzalligi:** Ayrim maktablarda zamonaviy inklyuziv yondashuvlar mavjud. **Kamchiligi:** Ko‘pchilik xususiy maktablar bunday bolalarni qabul qilmasligi mumkin.

Ota-onalar va bolalar uchun qulaylik	**Afzalligi:** Rasmiy platformalar orqali markazlashgan qabul tizimi mavjud. **Kamchiligi:** Texnik va tashkiliy muammolar navbat va norozilikka olib keladi.	**Afzalligi:** Individual suhbat va maslahatlar orqali qulay qabul jarayoni. **Kamchiligi:** Qarorlar ko‘pincha maktab manfaatlariga ko‘proq yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni davlat va xususiy maktablarga qabul qilish mexanizmlarining huquqiy, tashkiliy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari tizimli va qiyosiy tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida davlat maktablariga qabul qilish jarayoni qat’iy normativ-huquqiy hujjatlar, hududiy (mikrohudud) tamoyil va raqamlashtirilgan elektron tizimlar asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu mexanizm qabul jarayonida shaffoflikni ta’minlash, inson omilini kamaytirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda maktab sig‘imining cheklanganligi, texnik muammolar va byurokratik jarayonlar ota-onalar uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xususiy maktablarga qabul qilish mexanizmlari esa nisbatan moslashuvchan bo‘lib, tanlov, suhbat, test sinovlari va shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bu holat ta’lim sifati va raqobat muhitining kuchayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, yuqori kontrakt to‘lovlari sababli barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda cheklovlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim xususiy maktablarda qabul jarayonining shaffofligi va yagona standartlarga rioya etilishi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq: birinchidan, davlat maktablariga qabul qilish tizimida elektron platformalarning texnik barqarorligini yanada kuchaytirish va ota-onalar uchun maslahat xizmatlarini kengaytirish lozim; ikkinchidan, xususiy maktablarda qabul jarayonining shaffofligini ta’minlash maqsadida minimal umumiy standartlar va monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur; uchinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari uchun xususiy maktablarda grant yoki subsidiya asosidagi qabul mexanizmlarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar ta’lim tizimida teng imkoniyatlarni kengaytirish va qabul jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Melikulov N. L. (2024). Ichki ishlar organlarida migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyati (o‘quv qo‘llanma). O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Malaka Oshirish Instituti.

2. Nodavlat maktabgacha va maktab tashkilotlari barcha turdagi soliq va yig‘imlardan ozod qilinadi. 2024-yil 23-noyabr https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/23/tax

3. O‘RQ-637-son, 23.09.2020. Ta’lim to‘g‘risida https://lex.uz/docs/5013007

4. PF-6079-son, 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/ru/docs/-5030957

5. PF-6269-son, 24.07.2021. Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/ru/docs/-5530487

6. PQ-3276-son, 15.09.2017. Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-3343077

7. PQ-3931-son, 05.09.2018. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida https://lex.uz/docs/-3893416

Umar G‘OYIMOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi, v.v.b dotsent, p.f.f.d (PhD)

PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA TA’LIMNI FUNDAMENTALLASHUV YONDASHUVINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ta’limni fundamentallashuv yondashuvining nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik ta’limni rivojlantirishda fundamental bilimlar, kompetensiyaviy yondashuv hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar integratsiyasining muhimligi asoslab berilgan. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimining hozirgi holati, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik ta’lim, fundamentallashuv, pedagog tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta’lim, pedagogik kompetensiya.

В статье рассматривается значение фундаментализации образования в подготовке педагогических кадров в условиях современной системы образования. Обоснована необходимость интеграции фундаментальных знаний, компетентностного подхода и инновационных педагогических технологий. Проанализировано современное состояние подготовки педагогов и предложены пути совершенствования системы педагогического образования.

Ключевые слова. Педагогическое образование, фундаментализация образования, подготовка педагогов, компетентностный подход, инновационные технологии.

This article analyzes the importance of the fundamentalization approach in the training of pedagogical personnel in the modern education system. The study substantiates the necessity of integrating fundamental knowledge, competency-based approaches and innovative pedagogical technologies in teacher education. The current state of teacher training, existing problems and possible solutions are examined. Based on international experience, recommendations for improving the teacher training system are proposed.

Key words. Pedagogical education, fundamentalization of education, teacher training, competency-based education, innovative teaching.

Ta’lim tizimi har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy davrda fan va texnologiyalar taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli ta’lim tizimining samaradorligini oshirish hamda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltira olishi zarur. Shu nuqtayi nazardan pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida fundamental bilimlar tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limni fundamentallashuv yondashuvi pedagoglarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda pedagogik faoliyatning ilmiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqaro statistik ma’lumotlarga ko‘ra, UNESCO tashkilotining prognozlariga muvofiq, 2030-yilga qadar dunyo bo‘yicha ta’lim tizimida 44 million nafar yangi o‘qituvchiga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu esa pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’limni fundamentallashuv konsepsiyasi pedagogik ta’lim tizimida fundamental bilimlar tizimini shakllantirishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv pedagoglarni tayyorlash jarayonida chuqur nazariy bilimlarni egallash, ilmiy tafakkurni rivojlantirish hamda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi.

Fundamental bilimlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik faoliyat murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, u pedagoglardan keng qamrovli bilim, analitik fikrlash hamda pedagogik muammolarni ilmiy asosda hal etish qobiliyatini talab etadi.

Ta’limni fundamentallashuv yondashuvi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

– ta’lim mazmunining ilmiy asoslanganligi;

– fundamental bilimlar tizimini shakllantirish;

– nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi;

– innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

– pedagogik faoliyatning ilmiy asoslarini mustahkamlash.

Mazkur tamoyillar pedagogik ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, pedagogik ta’lim jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasida muayyan nomutanosiblik kuzatilmoqda.

Ko‘plab pedagogik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar nazariy bilimlarga ega bo‘lsada, amaliy pedagogik faoliyatda ularni samarali qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa pedagogik ta’lim jarayonida amaliy tayyorgarlikka yetarli e’tibor qaratilmayotganini ko‘rsatadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda pedagogik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar soni 300 ming nafardan ortiqni tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’lim tizimida 700 mingdan ortiq pedagog kadrlar faoliyat yuritmoqda.

Shunga qaramay, zamonaviy ta’lim muhitida pedagoglardan raqamli texnologiyalarni qo‘llay olish, innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish hamda o‘quv jarayonini samarali boshqarish ko‘nikmalari talab etilmoqda.

Fundamental bilimlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik kompetensiya pedagogning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi.

Fundamental bilimlar pedagoglarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– pedagogik jarayonni ilmiy asosda tahlil qilish;

– ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash;

– o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

– ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish pedagog kadrlarni tayyorlash tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda fundamental bilimlar muhim o‘rin egallaydi. Fundamental bilimlar pedagoglarga pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur anglash, ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda o‘quvchilar faoli-

yatini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu sababli pedagogik ta’lim jarayonida fundamental bilimlar bilan bir qatorda pedagogik innovatsiyalarni ham o‘zlashtirish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi pedagoglarning kasbiy faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish, masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan pedagogik ta’lim tizimida fundamental bilimlar bilan bir qatorda raqamli kompetensiyalarni ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagogik ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar pedagoglarga o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogik ta’lim tizimini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Birinchidan, pedagogik ta’lim jarayonida fundamental fanlarning ulushini oshirish muhim hisoblanadi. Bu pedagoglarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Uchinchidan, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim muhitida pedagoglardan raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari talab etiladi.

To‘rtinchidan, pedagogik ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta’limni fundamentallashuv yondashuvi pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv pedagoglarning fundamental bilimlarini mustahkamlash, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida fundamental bilimlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report.
5. OECD. Education at a Glance.
6. Darling-Hammond L. Teacher Education Around the World.
7. Slastenin V.A. Pedagogika.

Baxtiyor BOLTAYEV,
Samarqand davlat pedagogika instituti, dotsent, (PhD)

O‘QUVCHILARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ARTPEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘smirlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda artpedagogikaning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, ayniqsa badiiy to‘garaklar faoliyatining o‘smirlarda millatlararo muloqot madaniyati, milliy o‘zlikni anglash, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat, bag‘rikenglik va insonparvarlik sifatlarini shakllantirishdagi o‘rnini asoslab beradi. Shuningdek, maktabdan tashqari muassasalar badiiy to‘garaklarining ijodiy muhiti, milliy va jahon madaniyatini o‘zaro bog‘liq holda o‘zlashtirish imkoniyati, jamoaviy muloqot va amaliy faoliyat orqali o‘smirlarda baynalmilal muloqot tajribasini rivojlantirishga xizmat qilishi ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Millatlararo totuvlik, artpedagogika, badiiy to‘garaklar, millatlararo muloqot madaniyati, milliy o‘zlikni anglash, bag‘rikenglik, insonparvarlik, maktabdan tashqari ta’lim, badiiy ijod, milliy madaniyat, madaniyatlararo muloqot, estetik tarbiya.

В статье проанализированы воспитательные возможности артпедагогики в формировании у подростков духа межнационального согласия. Автор обосновывает роль школы и учреждений внешкольного образования, особенно деятельности художественных кружков, в формировании у подростков культуры межнационального общения, осознания национальной идентичности, уважения к культуре других народов, а также качеств толерантности и гуманизма. Кроме того, раскрывается, что творческая среда художественных кружков во внешкольных учреждениях, возможность взаимосвязанного освоения национальной и мировой культуры, а также коллективное общение и практическая деятельность способствуют развитию у подростков опыта интернационального общения.

Ключевые слова. Межнациональное согласие, артпедагогика, художественные кружки, культура межнационального общения, национальная идентичность, толерантность, гуманизм, внешкольное образование, художественное творчество, национальная культура, межкультурное общение, эстетическое воспитание.

The article analyzes the educational potential of art pedagogy in fostering a spirit of interethnic harmony among adolescents. The author substantiates the role of schools and extracurricular educational institutions, particularly art clubs, in developing adolescents’ culture of interethnic communication, awareness of national identity, respect for the cultures of other peoples, as well as the qualities of tolerance and humanism. Furthermore, it reveals that the creative environment of art clubs in extracurricular institutions, the opportunity to master national and world culture in an interconnected way, and collective communication and practical activities contribute to the development of adolescents’ experience in international communication.

Key words. Interethnic harmony, art pedagogy, art clubs, culture of interethnic communication, national identity awareness, tolerance, humanism, extracurricular education, artistic creativity, national culture, intercultural communication, aesthetic education.

Globallashuv sharoitida o‘quvchi-yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash nafaqat ma’naviy vazifa, balki ijtimoiy barqarorlikning muhim shartidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yildagi maxsus qarori uzluksiz ta’lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini yangi bosqichga ko‘ta-

rishni nazarda tutadi.

O‘quvchilarning jahon va milliy madaniyat bilan tanishishi, unda milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi, ijodiy shaxsiyatning rivojlanishi u a’zo bo‘lgan tarbiya beruvchi jamoalar, birinchi navbatda sinf jamoasi, u ixtiyoriy ravishda, sevimli mashg‘uloti bilan shug‘ullanish uchun kelgan badiiy to‘garaklar faoliyati jarayonida yuz beradi. Maktab, obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, ko‘p millatli san’at asosida o‘quvchilarning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmaydi va maktabdan tashqari muassasalar badiiy to‘garaklarining muayyan ko‘magiga muhtojlik sezadi. Badiiy to‘garaklar insonni madaniylashtirishning muhim unsuri sifatida o‘smirlarning qiziqishlariga qarab ijod qilish asosida shaxslararo munosabatlarga jalb qiladi.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interkultural yondashuv (Intercultural approach) ta’limda madaniy xilma-xillikni boylik sifatida ko‘rishga yordam beradi. D.Rader ta’kidlaganidek, yoshlarning qalbi va tafakkurini uyg‘otish orqali madaniyatlararo tushunishga erishish mumkin. Markaziy Osiyo mintaqasidagi ta’lim islohotlari tahlili ham milliy qadriyatlarni umuminsoniy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Badiiy to‘garaklarda ularning ijodiy qobiliyati ro‘yobga chiqadi, nafaqat ularning millatlararo muloqot sohasi kengayadi, uning mazmuni boyib boradi, balki shaxs sifatlarining butun majmuasi shakllanadi, zero u barcha to‘garak a’zolari uchun sevimli mashg‘ulotlar asosida kechadi. “Ayrim qobiliyatlar, - deb ta’kidlagan edi taniqli psixolog B.M. Teplov, - shunchaki bir-biriga qo‘shni va bir-biridan mustaqil ravishda mavjud bo‘la olmaydi. Har bir qobiliyat boshqa qobiliyatlarning mavjudligi va rivojlanish darajasiga bog‘liq ravishda sifat jihatdan o‘zgacha xususiyat kasb etadi”.

O‘quvchida o‘z ona yurtiga, uning madaniyatiga bo‘lgan muhabbatini tarbiyalamay turib, millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning imkoni yo‘q. O‘quvchilar o‘z xalqining tarixini, madaniyatining manbalarini, xalq san’atining ilg‘or an’analarini bilishlari zarur. Biroq, shu bilan birga, ular umuman mamlakat va jahon badiiy madaniyatining taraqqiyot tarixini, uning atoqli vakillarini bilishlari lozim. Ijtimoiy yo‘nalishdagi darsliklar, umuman olganda, o‘quvchilarda axloqiy ong, tuyg‘u va xatti-harakatlar birligini shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Ular o‘quvchilarni o‘ziga xos vositalar orqali axloqiy madaniyatga o‘rgatadilar. Ijtimoiy yo‘nalishga ega fanlar guruhi millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish doirasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: birinchidan, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning axloqiy muammolariga qiziqishni shakllantiradi, ikkinchidan, qadriyatlarning ijtimoiy tizimini, shaxsning insonparvarlik sifatlarini tarbiyalaydi.

Ma’lumki, o‘qitishning ta’sirchanligi nafaqat uning mazmuni, balki ish uslublari va uning tashkiliy shakllari bilan teng miqdorda aniqlanadi, chunki bitta ma’lumot tarbiyaviy nuqtai nazardan qanchalik mazmunga boy bo‘lmasin, yuksak fikrlar va his-tuyg‘ularni shakllantirish uchun yetarli emas. Shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim berishdan tashqari, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega faoliyat turlariga jalb qilish va muayyan treninga ega bo‘lish imkonini beruvchi tegishli maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat zarur. Dasturlar, darsliklar, uslubiy qo‘llanmalarni qiyoslash shuni ko‘rsatdiki, biz muhokama qilayotgan mavzu doirasidagi tarbiyaviy jihatlar yetarli darajada amalga oshirilmayapti, uslubiy jihatdan sust yo‘lga qo‘yilmoqda. Alohida holda o‘quvchilarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash tamoyillarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqara oladigan, tarbiya imkoniyatlariga mos keladigan artpedagogik ishlov berilmagan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, maktab millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish omili sifatida xilma-xil ta’sir vositalariga ega. Ulardan eng muhimi – bu “o‘qituvchi - o‘quvchi” pedagogik muloqotidir. Bu yerda gap nafaqat muayyan fanni o‘qitish jarayo-

nini faollashtirishda, - deb ta’kidlaydi V.A.Razumniy, - balki o‘z suhbatdoshini tinglay va qadrlay oladigan madaniyatli inson bo‘lish, zarurat tug‘ilganda dadil va obro‘sini saqlagan holda rad etish, o‘z xatosi yoki kamchiligin anglash, boshqalarga tanqidiy ko‘z bilan qarash bilan birga, o‘z ishlariga ham tanqidiy nazar tashlash, o‘ziga nisbatan xushmuomalalikni (u yoki bu darajada anglab) talab qilgan holda, “boshqalar”ga nisbatan ham shunday bo‘lib qolishga intilishni o‘rgatishda ketmoqda”.

O‘smirlar millatlararo muloqotning amaliy ko‘nikmalariga ega bo‘layotgan, shaxslararo aloqalarga kirishayotgan soha – ular uchun amaliy jihatdan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatga ularni jalb qilmay turib, ularda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalab bo‘lmaydi. Aynan maktabdan tashqari muassasalar to‘garaklaridagi mashg‘ulotlarda tarbiyalanuvchilar millatlararo muloqot tajribasi, xatti-harakatlarning baynalmilallashgan namunalarini mustahkamlash tajribasiga ega bo‘ladilar.

Maktablar bilan bir qatorda, zikr etilganidek, artpedagogikaning eng muhim va o‘ziga xos instituti – maktabdan tashqari muassasalar bo‘lib, ularning funksiyalari juda ham keng qamrovlidir. Shaxsni tarbiyalash jarayonida maktabdan tashqari muassasalarning asosiy vazifasi hamma vaqt uning ijodiy o‘ziga xosligini rivojlantirish bo‘lib kelgan.

Nima uchun aynan ta’lim va madaniyat? Chunki ta’lim – yoshlarga bilim beradi. Madaniyat va san’at – yoshlarga ilhom, zavq, ijodiy ruh beradi. Aqlni bilim bilan to‘ldirish mumkin, qalbni esa qadriyat tarbiyalaydi.

Biz yaxshi bilamizki, milliy qadriyatlarning asosiy tashuvchisi – madaniyat, san’at. Ularni tizimli singdiradigan eng kuchli maydon esa – Prezidentimiz asos solgan “Besh muhim tashabbus” tizimi. Turli to‘garaklar tizimi. Badiiy to‘garaklar ta’lim va san’atni birlashtiradi, tarbiyaning emotsional negizini mustahkam qiladi”.

Darhaqiqat, o‘smirlarning millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayonida maktabdan tashqari muassasalar badiiy to‘garaklarining o‘ziga xos vazifalari, hamda shu asosda badiiy ijod mashg‘ulotlari va muloqotning o‘ziga xosligi bilan yuzaga keladigan vazifalarni tahlil etish bizda alohida qiziqish uyg‘otdi. Bular – tasviriy san’at, fotosurat, adabiyot, puflab chalinadigan asboblar orkestri, xalq musiqasi, drama, xalq og‘zaki ijodi, etnografiya, dutorchi qizlar, changchilar, doirachilar ansambllari, zargarlik, gilamdo‘zlik, zardo‘zlik, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi va naqsh, mis o‘ymakorligi, so‘zana, ipak to‘qimachiligi, kulolchilik, Farg‘ona kigizchiligi, ko‘nga bosib naqsh solish, sandiqchilik va sh.k. to‘garaklar tizimini tashkil qiladi. Keltirilgan ro‘yxat milliy san’at mashg‘ulotlariga ko‘proq ahamiyat berilayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu, shubhasiz, maktabdan tashqari muassasaga ijod bilan shug‘ullanish uchun kelgan o‘smirlarning milliy o‘zlikni anglashlari muayyan darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Maktabdan tashqari muassasalar bir va ko‘p millatli muhitda o‘smirlarni ijtimoiylashtirishning o‘ziga xos institutlari hisoblanadi. Bu yerda ularning muloqot sohalari kengayadi, uning mazmun-mohiyati boyib boradi. Zero u, millatidan qat’iy nazar, barcha to‘garak a’zolari uchun sevimli mashg‘ulot asosida yuz beradi. Maktabdan tashqari muassasalar badiiy to‘garaklarining imkoniyati, avvalo, ularda badiiy-ijodiy mashg‘ulotlarning keng turdagi to‘plami taklif etilishi bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo respublikalarining maktabdan tashqari muassasalar badiiy to‘garaklari ro‘yxatlarini qiyosiy tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning asosini milliy san’at – milliy musiqa asboblari, xalq og‘zaki ijodi ansambllari, xalq-badiiy hunarmandchiligi asosida amaliy ijodiyot, badiiy to‘garaklar tashkil etadi.

San’atning ko‘p qirrali tabiatini hisobga olib, uning jamiyatdagi butun faoliyat yuritish jarayonini tahlil etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar uning quyidagi funksiyalarini ajratib

ko‘rsatadilar: ijtimoiy-shakllantiruvchi va o‘rnini to‘ldiruvchi (san’at faoliyat va taskin sifatida); tarbiyaviy (shaxsni shakllantiruvchi vosita sifatida); bilim-tafakkur (san’at dunyo holatining tahlili sifatida); oldindan bilish (san’at bashorat sifatida); axborot va kommunikativ (san’at xabar berish va muloqot sifatida). Muloqot, yaratuvchanlik va bilish funksiyalari badiiy, jumladan havaskorlik faoliyatining barcha shakllariga birday xosdir.

Badiiy yo‘nalishdagi maktabdan tashqari birlashmalar bolalarning yoshi, rivojlanish darajasidan qat’iy nazar, ularni qiziqishlariga qarab jamoalarga birlashtiradi. Bunday jamoalarda pedagog o‘z ishining ustasi bo‘lib, bolalar kabi ularga qiziqsa, san’at va badiiy ijod orqali muloqotga kirishiladi. Tengdoshlari va to‘garak rahbari tajaribasi orqali gavdalangan jamoaviy tajriba tarbiyalanuvchiga dunyoga kengroq nigoh tashlashga ko‘maklashadi. Aniqrog‘i, qiziqishlarga asoslangan bunday shaxslararo muloqot inson hayotining yuksak me’yorlariga to‘la mos kelgan holda «boshqalarga bo‘lgan ehtiyoji»ni mustahkamlaydi.

Badiiy to‘garaklarning tarbiyaviy qiymati shundaki, ular o‘smirlarning bilimlarini boyitadi, ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi. Bugungi kunda milliy o‘zlikni anglashning ortishi, ma’naviy ildizlarga bo‘lgan katta qiziqish o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda ming yillar mobaynida xalqlar tomonidan yaratilgan badiiy qadriyatlardan foydalanishni ko‘zda tutadi. Bu esa tarbiyachilar oldiga “madaniyat ekologiyasi” muammosini bilish va O‘zbekiston tarixiga tayangan holda, ilg‘or madaniyat arboblarining ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik haqidagi g‘oyalaridan foydalanib, uni tarbiya ishida qo‘llash vazifasini qo‘yadi.

Maqsadga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:



Tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, artpedagogika o‘smirlarning millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishda shunchaki yordamchi vosita emas, balki asosiy emotsional-didaktik mexanizm vazifasini o‘taydi.


Maktabdan tashqari ta’lim muassasalaridagi (masalan, “Barkamol avlod” bolalar maktablari) turli millat vakillari bo‘lgan o‘smirlar ishtirokidagi badiiy to‘garaklar faoliyati tahlil qilinganda, quyidagi natijalar aniqlandi:

Ijodiy hamkorlik: Jamoaviy ijod (ansamblda kuy chalish, birgalikda so‘zana tikish) jarayonida o‘quvchilar o‘rtasidagi milliy stereotiplar va to‘siqlar o‘z-o‘zidan barham topadi. Chunki diqqat-e’tibor umumiy estetik mahsulot yaratishga qaratiladi.

Muloqot sifati: San’at vositasida muloqot qilish “subyekt-subyekt” munosabatini

shakllantiradi. Natijada boshqa millat vakiliga “begona” sifatida emas, balki “ijodiy sherik” sifatida qarash ko‘nikmasi rivojlanadi.

O‘smirlarda millatlararo totuvlik fazilatlarini shakllantirishda san’at turlarining imkoniyatlari quyidagicha tabaqalandi:




Tahlillar shuni tasdiqladiki, maktabdagi nazariy bilimlar (tarix yoki adabiyot darslari) maktabdan tashqari badiiy to‘garaklardagi amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashganda samaradorlik 40-50 foizga ortadi.

Nazariya: “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” g‘oyasini bilish.

Amaliyot (Artpedagogika): Ushbu g‘oyani ijodiy mahsulot (rasm, kuy, raqs) orqali yashash va his qilish.

Artpedagogik diskurs asosida tashkil etilgan tarbiya modeli natijasida o‘smirlarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:



Xulosa qilib aytganda, o‘smirlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda artpedagogika – bu shunchaki san’at turlari bilan tanishish emas, balki yosh avlodning qalbini tarbiyalash texnologiyasidir. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalaridagi badiiy to‘garaklar o‘zining ixtiyoriyligi, ijodiy erkinligi va jamoaviyligi bilan bu borada eng samarali maydon hisoblanadi.

O‘smirlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda artpedagogik imkoniyatlarni tadqiq etish natijasida quyidagi nazariy va amaliy xulosalarga kelindi:

San’at vositasida tarbiyalash shunchaki bilim berish emas, balki o‘quvchining ichki

emotsional olamini o‘zgartirish, unda boshqa millat vakillariga nisbatan tabiiy yaqinlik va hurmatni shakllantirishning eng ta’sirchan yo‘lidir.

Badiiy to‘garaklar o‘zining ixtiyoriyligi va ijodiy erkinligi bilan ko‘p millatli muhitda ijtimoiy integratsiyani ta’minlovchi eng qulay maydon ekanligi isbotlandi.

Milliy hunarmandchilik va folklor namunalarini o‘rganish o‘smirda o‘z xalqiga nisbatan g‘urur uyg‘otish bilan birga, boshqa millatlar madaniyatiga nisbatan qiziqish va tolerantlikni oshiradi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va “Barkamol avlod” bolalar maktablari hamkorligida “San’at – do‘stlik ko‘prigi” nomli artpedagogik loyihalarni ishlab chiqish hamda darsdan tashqari faoliyatga tatbiq etish.

Turli viloyatlardagi (masalan, Samarqand va Farg‘ona) ko‘p millatli badiiy to‘garaklar o‘rtasida “Virtual ijodiy muloqot” maydonchalarini yaratish orqali o‘smirlarning masofaviy madaniyatlararo muloqotini yo‘lga qo‘yish.

San’at va musiqa yo‘nalishidagi pedagog-kadrlarni tayyorlash darsliklariga “Artpedagogika va millatlararo muloqot psixologiyasi” nomli maxsus kurslarni kiritish hamda ularda madaniyatlararo empatiyani rivojlantirish.

Badiiy to‘garaklardagi o‘smirlarning tolerantlik darajasini muntazam ravishda art-terapiya usullari (masalan, proyektiv rasmlar testi) orqali kuzatib borish va ijtimoiy-pedagogik korreksiyalash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Maktab va maktabdan tashqari muassasalarda turli millat vakillari tomonidan birgalikda tayyorlangan ijodiy mahsulotlardan iborat “Millatlararo hamjihatlik galereyalari”ni tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, artpedagogik imkoniyatlardan tizimli foydalanish Yangi O‘zbekiston yoshlarida bag‘rikenglik, insonparvarlik va millatlararo muloqot madaniyatini yuksaltirishning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akkari A., Radhouane M. Intercultural Approaches to Education: From Theory to Practice. – Cham: Springer, 2022. – 310 p.

2. Ibraimov X.I. Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash: hamkorlik va istiqbollar. // Respublika ilmiy seminari materiallari. TPMI. – Toshkent, 2026.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 312 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to‘g‘risida”. 2026-yil 10-fevral.

5. Portera A., Trevisan M., Milani M. Intercultural Education, Curriculum Development, Assessment and Teaching: Global Perspectives. – London: Routledge, 2025. – 368 p.

6. Rader D. Teaching and Learning for Intercultural Understanding: Engaging Young Hearts and Minds. – London: Routledge, 2018. – 256 p.

7. Реформирование образования в постсоветских странах: Сентралная Азия. Монография. – СПб: Питер, 2010.

8. Разумный В.А. Красота образа и воспитание. – Санкт-Петербург: «Азимут», 2004. – 76 с.

Zuxriddin NURMAMATOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD)

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB BO‘LAJAK “TEXNOLOGIYA” FANI O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA BO‘LGAN KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti, raqamli pedagogik vositalar hamda innovatsion yondashuvlarning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligiga ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kasbiy kompetensiyalarning shakllanishida samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Tayanch so‘zlar. Sun’iy intellekt, texnologiya fani, kasbiy kompetensiya, innovatsion faoliyat, raqamli ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi.

В данной статье рассматриваются вопросы развития профессиональных компетенций для инновационной деятельности будущих учителей предмета “Технология” с использованием технологий искусственного интеллекта. В ходе исследования проанализировано влияние образовательной среды, цифровых педагогических инструментов и инновационных подходов, организованных на основе искусственного интеллекта, на профессиональную подготовку будущих учителей. Результаты исследования показали, что использование образовательных технологий на основе искусственного интеллекта эффективно в формировании профессиональных компетенций.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, технологическая наука, профессиональная компетентность, инновационная деятельность, цифровое образование, будущий учитель.

This article examines the development of professional competencies for innovative activities of future technology teachers using artificial intelligence technologies. The study analyzes the impact of the educational environment, digital pedagogical tools, and innovative approaches based on artificial intelligence on the professional training of future teachers. The study results showed that the use of educational technologies based on artificial intelligence is effective in developing professional competencies.

Key words. Artificial intelligence, technological science, professional competence, innovation, digital education, future teachers.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Texnologiya” fanining mazmuni va metodikasi zamonaviy ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning innovatsion faoliyatga bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilishi ta’lim tizimidan innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, umumiy o‘rta va professional ta’lim muassasalarida o‘qitiladi-

gan “Texnologiya” fani o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar, muhandislik tafakkuri, kreativ fikrlash va texnologik madaniyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning innovatsion faoliyatga bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ushbu vazifani samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt – bu ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘rganish, qaror qabul qilish va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiya bo‘lib, pedagogik faoliyatda yangi metod va shakllarni joriy etishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, sun’iy intellektdan foydalanish orqali bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining innovatsion kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim sohasiga jadal kirib kelishi o‘qitish jarayonini individuallashtirish, moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish hamda o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan samarali foydalanish o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab etadi.

Tadqiqot maqsadi – sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik yo‘llarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

– innovatsion faoliyat va kasbiy kompetensiya tushunchalarini tahlil qilish;

– sun’iy intellektning ta’limdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

– bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

– tajriba-sinov ishlari orqali model samaradorligini aniqlash.

Mazkur maqolaning maqsadi – sun’iy intellektdan foydalanish orqali bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

– nazariy tahlil (ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili);

– pedagogik kuzatish;

– anketa va so‘rovnoma;

– tajriba-sinov ishlari;

– statistik tahlil.

Tadqiqot oliy ta’lim muassasasining “Texnologik ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida olib borildi. Tajriba-sinov jarayonida sun’iy intellekt asosida faoliyat yurituvchi platformalar (masalan, aqlli ta’lim tizimlari, virtual laboratoriyalar, adaptiv o‘quv dasturlari) o‘quv jarayoniga joriy etildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Diagnostik bosqich-talabalar kasbiy kompetensiyalarining dastlabki holati aniqlandi.

2. Amaliy bosqich-sun’iy intellektga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari qo‘llanildi.

3. Nazorat bosqichi-erishilgan natijalar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologik asosi kompetensiyaviy, tizimli va innovatsion yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

– nazariy metodlar: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va

umumlashtirish;

– empirik metodlar: pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, test;

– tajriba-sinov metodi: diagnostik, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda;

– statistik metodlar: natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilari ishtirokida olib borildi. Talabalar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi.

Shakllantiruvchi bosqichda quyidagi sun’iy intellekt vositalaridan foydalanildi:

– adaptiv o‘quv platformalari;

– sun’iy intellekt asosidagi virtual laboratoriyalar;

– loyiha asosida o‘qitishga yo‘naltirilgan raqamli muhitlar;

– avtomatik tahlil va refleksiya vositalari.

Tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

– bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash darajasi oshdi;

– axborot-kommunikatsiya va raqamli kompetensiyalar rivojlandi;

– mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari shakllandi;

– ta’lim jarayonini loyihalash va tahlil qilish malakalari takomillashdi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida kasbiy kompetensiyalar darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim muhitida tahsil olgan talabalar innovatsion faoliyatga yuqori tayyorgarlik darajasini namoyon etdi.

Xususan, tajriba guruhida:

– innovatsion fikrlash darajasi 28 foizga;

– raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari 32 foizga;

– mustaqil loyiha faoliyatini amalga oshirish kompetensiyasi 30 foizga oshgani aniqlandi.

Nazorat guruhi bilan solishtirilganda, tajriba guruhi talabalarida kasbiy faollik va ijodiy yondashuv sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy izlanishlar bilan solishtirilganda, sun’iy intellektdan foydalanish o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini berishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarni faollikka undaydi, ularning ijodiy salohiyatini ochib beradi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiradi.

Olingan natijalar sun’iy intellekt texnologiyalarining bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish imkonini beradi.

Shuningdek, SI asosidagi ta’lim muhitlari bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, refleksiya va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining innovatsion

faoliyatga bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni tizimli joriy etish orqali:

– pedagog kadrlarning raqamli savodxonligi oshadi;

– innovatsion fikrlash shakllanadi;

– ta’lim sifati va samaradorligi ta’minlanadi.

Kelgusida sun’iy intellekt asosida o‘qituvchilarni tayyorlashning metodik ta’minotini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

– sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalari kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi;

– innovatsion faoliyatga tayyor o‘qituvchi zamonaviy ta’limning asosiy subyekti hisoblanadi;

– ta’lim jarayoniga raqamli va aqlli tizimlarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston, 2016.

3. Xabibullayev A., Qodirova N. (2023). “Raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanma”.

4. Nurmamatov Z.Sh. “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” nomli monografiya “IMPRESS MEDIA” MCHJ NMIU bosmaxonasida chop etildi. UO‘K: 373.1:745 KBK 74.204 37.27 Z 94 ISBN 978-9943-7244-9-5.

5. Nurmamatov Z.Sh. Texnologik ta’lim yo‘nalishlarida umumkasbiy, maxsus hamda tanlov fanlarning o‘zaro integratsiyasi Eurasian journal of academic research. - Angliya. 2022 - y. B. 1-3.

6. Nurmamatov Z.Sh. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi Maqola Ilm sarchashmalari. - Urganch. 3/2022. –B. 1-3. (13.00.00:№31)

7. Nurmamatov Z.Sh. Process of Preparation of Future Technology Teachers for Innovative Activite Maqola Eurasian Journal of Engineering and Technology volume.4 -Belgiya. ISSN 2795-7640. 2022. Page.1-5.

8. Nurmamatov Z.Sh. Innovatsiyalarning ro’li va ahamiyati ta’limda. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427 . 1/2023. –B. 645-650.(13.00.00:№30).

9. Nurmamatov Z.Sh. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.

10. Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. International Conference of Scientific and Management Current Affairs. - Angliya. 2022 - y. B. 1-4.

Azamat RAXMONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Pedagogika, psixologiya va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi, dotsent, p.f.f.d. (PhD)

MILLIY TARBIYA – JAMIYATNING MA’NAVIY-MA’RIFIY RIVOJLANISHINING ASOSI

Annotatsiya

Maqolada muallif tarbiya o‘z davomida fazilatli kishilik jamiyatini barqaror maqsadlarini ro‘yobga chiqarishi va jamiyatning qanday faoliyatidan qattiy nazar, bugun eng oliy maqsadlari haqida fikr yuritgan. Shuningdek, o‘z navbatida tarbiya komillik sari barqaror maqsad ekanligini yuksak e’tirof etib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Tarbiya, inson komiligi, aqliy-axloqiy tarbiyada, qayta tarbiyalash, insonning axloq kamolatida,nafosat tarbiyasini, inson va komillik.

В статье автор размышляет о том, что воспитание в своем ходе реализует устойчивые цели добродетельного человеческого общества и высшие цели общества сегодня, независимо от его деятельности. В свою очередь, он высоко оценил, что воспитание является устойчивой целью к совершенству.

Ключевые слова. Воспитание, совершенствование человека, интеллектуальное и нравственное воспитание, перевоспитание, нравственное совершенствование человека, воспитание изящества, человек и совершенство.

In the article, the author reflects on the fact that education, in its course, leads to the realization of the stable goals of a virtuous human society and, regardless of the activities of society, its highest goals today. Also, in turn, he highly appreciated that upbringing is a stable goal towards perfection.

Key words. Upbringing, human perfection, in intellectual and moral education, re-education, in the moral perfection of a person, in the upbringing of aesthetics, human and perfection.

Avvalo so‘z boshi sifatida o‘zbek xalqining mehnatsevarligi, oilaparvarligi, oliy janobligi, mehmondo‘stligi, xalqparvarligi, bolajonligi, vatanparvarligi va erksevarligi kabi fazilatlariga alohida ixtibos keltirishni maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Albatta, fazilat o‘zidan-o‘zi kishida paydo bo‘lmaydigan jarayon. Barchasi uchun muhim vosita aslida tarbiyadir. Bugungi zamon xohlayotgan talab va imkoniyat o‘z navbatida tarbiyani zarur ehtiyojidir.

Ma’lumki o‘tgan tarixiy davrda ham yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimiz tarbiyani yuksak darajaga qo‘yishgan. Bu esa Sharq Uyg‘onish davrida yashagan allomalarimiz, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Muhammad al-G‘azzoliy, Nasriddin Tusiy, Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy asarlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, Abu Nasr Farobiy bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm xikmatni o‘rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”.

Bu fikrlardan Abu Nasr Farobiyning ta’lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy-axloqiy tarbiyada alohida e’tibor berganligi ko‘rinib

turibdi. Uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezalmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. U bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy- ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota- onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatga bo'lish unga nasihat qilishdir. Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun, u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi. Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishi hamda kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir birlariga bo'lgan ruhiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Husayn Voiz al-Koshifiyning fikricha, insonni ta'lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobilyatni o'stirishi mumkin. Koshifiy o'zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota-onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o'rin tutadi. Bola to'g'ri so'zli, vadaga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerak.

Jaloliddin Davoniy ota-onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to'xtalgan. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko'maklashishi ilm-fan va kasb-hunar egallashining moddiy asosi bo'lmish oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko'rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslihiddin Sad'iy Sheroziy Sheroz shahrida 1184-yilda tug'ildi. Sa'diyning fikricha, oila – bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchi. Oilada asosiy tayanch – ota. U ma'suliyatli tarbiyachidir. Ota o'z bolalarini tarbiyalashi, o'qitishi, hunarga o'rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak.

Sa'diyning pedagogik qarashicha, bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo'lishi mumkin. Qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat so'nadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo'ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ya'ni oilaviy tarbiyaga katta e'tibor beradi. Sa'diy ota-onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi. Xarakter shakllangach, bolaga ta'sir etmasligini alohida uqtirib o'tadi.

O'tgan qariyb XXI asr mobaynida ularni asarlarini tahliliy va tadrijiy jihatdan o'rgangan holda kelajak avlodlarni tarbiyalayapmiz. Shular jumlasidan, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va an'analari dunyo tamaddunida ko'z ochdi. To'g'ri, o'tgan davrda xalqimiz ayrim jihtlarda to'sqinliklarga duch kelsada, lekin o'z harakati yo'lida qattiy

qadam tashladi. Ayniqsa, XVII – XIX asrda o‘zbek fan- madaniyati keskin tanazzulga uchradi. Eng ayanchli tomoni esa, o‘zbek milliy tilimizga tahdid solinishidir. O‘sha davrda mamlakatga Chorrossiyasi inqilobini kirib kelishi, millatni ruslashtirishga bo‘lgan maqsad butunlay xalqni taqib ostiga olgandi. Shunga qaramasdan o‘sha davr namoyondalari milliylikni ilgari surishda qat’iy turdilar. Turkiston Uyg‘onishini o‘z g‘oyalari sifatida yangi Jadid harakatlarini uyushtirishga intildilar.

Jadid mafkurachilari, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad, Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupovlar milliylik uchun jiddiy kurashdilar. Lekin ularning milliy uyg‘onish uchun say-harakatlari ayovsiz zulmga duchor qilindi. O‘sha davrda Turkiston bolalarini o‘qitishga nisbatan jonkuyarlik istaklarini benihoya anglaymiz. Eng muhim jihati bolalarni o‘quvsiz qoldirmaslik maqsadida o‘z o‘quv dastur va adabiyotlarini yaratish zarur hisoblangan. Mohiyatidan o‘ylash mumkinki, o‘zbek tarbiyachiligi va inson komilligida eng zarur ehtiyoj sifatida ajdodlar merosining zaruriyati edi va biz bu vazifalarni yanada muhim takomillashtirayapmiz. Orada ma’lum davrda sobiq ittifoq tuzimi ham boshimizdan kechgandi. Uni ortida ham qancha zulm oqibatsizliklar kuzatildi. Zamon o‘zida o‘quvni, madaniyat va san’atni, milliylikni, til va dinni qattiq qoralab keldi. Buning uchun oramizdan chiqqan fuzalo-olimlar-u arboblarni o‘z iskanjasiga olgan edi. Xalq o‘z qahramonligida, qora mehnatiga lozim ko‘rildi. Nimagaki, ilm-fan va madaniyat yo‘lida hech kim qahramon sifatida ko‘rilmagan, chunki manqurtlik toboro avjlangan davr hisoblandi. Aynan shu davrda eng yuksak obro‘ga ega hisoblangan Sharof Rashidovni sha’niga nohaq tuxmatlar yog‘diriladi. Axir, bugungi milliy merosimiz va mafkuramizni tiklanishida, Sharof Rashidovni yuksak mehnat bor, albatta. Qancha vaqt va zamon o‘tsada lekin inson ortida mehnati va komilligi umrboqiy yashaydi. Jumladan, keyingi tarixiy davr o‘z o‘tmishi bilan diqqatga sazovordir.

Xalqimiz ko‘p yillar mobaynida mustaqillikni orzu – havas tutib o‘ylab keldi. Buni faqatgina kimlar o‘yladi, kimlar o‘zida zikr qila oldi. Bu esa, albatta, ta’lim-tarbiya sohasining ustoz-murabbiylari, adabiyot va san’at namoyondalari, davlatni faxriylari kabi hamyurtlarimizni og‘riqli ichki dunyosida yashadi. Bunday jiddiy og‘riqni o‘sha vaqtda Birinchi prezident Islom Karimov o‘zida kechdi va xalqimizni o‘g‘ir tashvishdan olib chiqa oldi. Yurt qahramoni mustaqil davlatni o‘zidan-o‘zi tashabbus qilmadi, turli ma’naviy shiorlarni bekorga chiqarmadi, orqasida kuchli davlatchilikning da’vati bor edi. Eng asosiy maqsad O‘zbekistonni mustaqil davlat istagini ro‘yobga chiqarish bo‘ldi. Hatto, bu yo‘lda qat’iy faoliyat jamiyatning muhim ishonchi sifatida belgilandi. Xalq uchun istiqlol buyuk ne’matligini va bu yo‘lda shashtdan qaytmaslik asosiy maqsad ekanligini uqtirdi.

O‘z navbatida shunday fikrlash mumkin, davlat faoliyatida kishi o‘zining mustaqil fikri, mushohadasi, oliy xizmati bilan ishonchga sazovor ko‘riladi. Shunday ishonchli vazifalarda shogird jonkuyarlik va vatanparvarlik fazilati birga xizmat ko‘rsatadi. Zero, olib borilayotgan hozirgi kundagi adolatli siyosat birga qilinayotgan ishlar avvalo farzandlarimizni kelajagi uchun, mamlakat taraqqiyotiga bag‘ishlangan. Davlat boshqaruvining asosida, eng avvalo, ta’lim-tarbiya buyuk maqsadlardan biri sifatida ko‘riladi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq ham shuncha baxtli yashaydi!” – iborasini qayd etish zaruriyat ekanligini o‘rni joiz

o‘ylayman.Ayni vaqtda bola tarbiyasi jamiyat ko‘zgusi va gavharidir.

Ma’lumki Yangi O‘zbekistonda inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, demokratiya, ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot, insonparvarlik kabi asosiy qoidalar va g‘oyalarga e'tibor qaratgan demokratik jamiyat barpo etilmoqda. Ushbu asosiy tamoyillar odamlarning yer yuzidagi hayotini hozir va yaqin kelajakda belgilashi kerak. Insonparvarlik insonning rivojlanish, baxtiyorlik, o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, dunyo va jamiyat hayotida erkin va mas’uliyatli ishtirok etish huquqini asosiy qadriyat deb hisoblaydigan dunyoqarash sifatida qaraladi. Olimlarning fikricha, insonparvarlik dunyo evolyutsiyasining tabiiy natijasidir. Insonparvarlik ijtimoiy, ilmiy, madaniy, axloqiy hodisa sifatida tabiat, jamiyat va inson haqidagi qarashlarning yig‘indisidir. Gumanistik g‘oyalar qadim zamonlardan ma’lum bo‘lgan, lekin dunyoni gumanistik tushunish Uyg‘onish davrida eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi, uning rahbarlari shaxsning qadr-qimmatini, bilish va rivojlanishda, dunyoni o‘zgartirishda insonning cheksiz imkoniyatlarini e’lon qildi. Xalqimizda bejiz aytilmagan axir, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona hisoblanadi.”

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz // – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 7, 534.

2. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi // – Toshkent: O‘zbekiston. 2019. – B. 372.

3. Munavvarova M. Milliy g‘oyaning ma’naviy ildizlari // – Toshkent. Ma’naviyat. 2011. – B. 3- 22, 94.

4. Raxmonov A.R. Uzluksiz ta’lim tizimida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Uzluksiz ta’limil miy-uslubiy jurnal// – Toshkent Furqat ko‘chasi 174-uy 2020 yil maxsus son.

5. Raxmonov A.R. Luxmanov D.B. Maktabda ta’limning ijtimoiy sheriklik modelini yaratishda klaster yondashuv. 244-249 VOLUME 1, ISSUE 4DECEMBER 2020

Aziz DUSTBOBOYEV,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

AKADEMIK LITSEYLARDA O‘QUVCHILARNING AXBOROTNI XAVFSIZ QIDIRISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI DASTURIY TA’MINOT MAZMUNINING SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada akademik litsey o‘quvchilarining axborotni xavfsiz qidirish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning asoslanish tavsifi, axborotni xavfsiz qidirish tamoyillari, shakllari va ularni rivojlantirishning ilmiy-nazariy mazmuni, axborotdan foydalanish, qayta ishlash, uni saqlash hamda uning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha soha olimlarining ilmiy qarashlari keltirilib tahlil qilinib, subyektiv munosabat bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. Axborotni xavfsiz qidirish omillari, dasturiy ta’minot, texnologiyalar, axborot xavfsizligi tamoyillari, axborot shakllari, axborot resurslari, axborotni saqlash, ilmiy qarash, tahliliy yondashuv.

В данной статье представлены и проанализированы обоснования факторов, влияющих на эффективность учащихся академических лицеев в безопасном поиске информации, принципы, формы и научно-теоретическое содержание их разработки в этой области, научные взгляды ученых в данной сфере на использование, обработку, хранение и защиту информации, а также высказаны субъективные мнения.

Ключевые слова. Факторы безопасного поиска информации, программное обеспечение, технологии, принципы информационной безопасности, формы информации, информационные ресурсы, хранение информации, научный подход, аналитический подход.

This article presents and analyzes the justifications for the factors influencing the effectiveness of academic lyceum students in secure information search, the principles, forms, and scientific and theoretical content of their developments in this area, the scientific views of scientists in this field on the use, processing, storage, and protection of information, and also expresses subjective opinions.

Key words. Factors of secure information retrieval, software, technologies, principles of information security, information forms, information resources, information storage, scientific approach, analytical approach.

Yangi O‘zbekiston sharoitida va Uchinchi Renessans davrida axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda uning rivojlanishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta‘minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ushbu soha albatta rivojlanishi kerak va buni qilamiz”, degan so‘zida ko‘plab vazifalar ijrosi belgilangan. Shuningdek, akademik litseylarda o‘quvchilarning axborotni xavfsiz qidirish kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot mazmunining samaradorligiga ta’sir qiluvchi metodologik asosni takomillashtirishda asosiy tushunchalar va uning tahlili, sintezi, funksionalligi bilan xarakterlanadi. Avvalo, akademik litsey o‘quvchilariga axborot xavfsizligi tushunchasining izohli tavsifiga to‘xtalish zarur. “Axborot xavfsizligi - axborotning nomaqbul (axborot munosabatlarining tegishli subyektlari uchun) oshkor qilinishidan (konfídensialligining buzilishidan), buzilishidan (yaxlitligining buzilishidan), sizib chiqishidan, yo‘qotilishidan,

modifikatsiyalanishidan yoki foydalanuvchanlik darajasining pasayishidan hamda noqonuniy tirajlanishidan himoyalanganligi. Ushbu hodisalarning sababchisi tasodifiy ta'sirlar yoki buzg'unchining (niyati buzuqning) atayin ruxsatsiz foydalanishi natijasidagi ta'sirlar bo'lishi mumkin"[1]. Olib borilgan tadqiqot ishi tahliliga ko'ra, akademik litsey o'quvchilarining axborotni xavfsiz qidirishdagi muayyan bir tushunmovchiliklar, axborotni qidirishni to'g'ri anglamaslik holatlarining guvohi bo'ldik. Shuning uchun ularga noqonuniy tirajlardan, himoyalanmagan ma'lumotlarni olishi, ularni o'qishi, jamlashi va umumlashtirishi mumkin emasligi uqtirilishi lozim. Ularda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun ta'lim jarayonida muntazam axborotni qidirishni to'g'ri amalga oshiradigan video matn, multimediali va videolavhali darslarni tashkil qilish ayni muddaodir.

"Axborot xavfsizligini ta'minlash muntazam va kompleks xarakterga ega ko'p qirrali faoliyatni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Uni amalga oshirishda axborot xavfsizligidan manfaatdor taraflar oldiga qo'yiladigan vazifalarga alohida e'tibor berish zarur. Ushbu turli-tuman vazifalarni bir necha quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

1) axborotdan foydalanishni ta'minlash, ya'ni maqbul vaqt mobaynida axborot xizmatini olish hamda axborotni olishda ruxsatsiz taqiqlashni bartaraf etish;

2) axborot yaxlitliligini ta'minlash, ya'ni axborotning ruxsatsiz modifikatsiyalanishini yoki buzilishini bartaraf etish;

3) axborot konfidensialligini ta'minlash, ya'ni axborotdan ruxsatsiz tanishishni bartaraf etish"[2]. Bizningcha, axborot xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi omillarga amal qilish samara beradi:

– axborot xavfsizligini ta'minlash zamonaviy axborotlashgan jamiyatning eng muhim talablaridan biridir. Avvalo, axborotdan foydalanishni ta'minlash, ya'ni foydalanuvchilarning maqbul vaqt mobaynida axborot xizmatidan erkin va uzluksiz foydalanish imkoniyatini yaratish zarur. Bunda axborotni olish jarayonida sun'iy to'siqlar yoki ruxsatsiz cheklovlarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

– axborot yaxlitliligini ta'minlash dolzarb masaladir. Bu axborotning ruxsatsiz o'zgartirilishi, buzilishi yoki soxtalashtirilishining oldini olishni anglatadi. Axborotning ishonchliligi va aniqligi aynan uning yaxlitligiga bog'liq bo'lib, noto'g'ri yoki buzilgan ma'lumotlar jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

– axborot konfidensialligini ta'minlash zarur. Bu esa axborotdan ruxsatsiz foydalanish, uni oshkor qilish yoki begona shaxslar tomonidan o'qib chiqilishining oldini olishni bildiradi. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlar, tijorat sirlari va davlat ahamiyatiga ega ma'lumotlar himoyasi yuqori darajada tashkil etilishi lozim. Demak, tadqiqot natijasi samadorligidan kelib chiqib, axborotdan foydalanish imkoniyati, yaxlitlik va konfidensiallik o'zaro bog'liq bo'lgan uch asosiy tamoyil bo'lib, ular birgalikda axborot xavfsizligining mustahkam tizimini shakllantiradi. Axborotni xavfsiz qidirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

– ma'lumotlarni vaqt berligiga amal qilmasdan qidirish;

– jamoaviy ishlashdagi qidiruv mexanizmini to'g'ri tashkil etmaslik;

– kommunikativ faoliyat bo'yicha jarayonni boshqara olmaslik;

– tajribalarga asoslanib axborotlarni to'play olmaslik qobiliyati.

Tadqiqotimiz davomidagi o'rganishlarga asoslanib aytish joizki, axborotlarni xavfsiz qidirishda me'yor va mezonlarga amal qilish samara beradi.

Akademik litsey o'quvchilarining axborotni xavfsiz qidirish bo'yicha bilim, ko'nikma

[1] Ganiyev S.K, Karimov M.M, Tashev K.A. Axborot xavfsizligi – T.: Fan va texnologiya, 2016, -3 bet

[2] Ganiyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligL – T.: Fan va texnologiya, 2016, -9 bet

va malakalarini hosil qilish, axborotlar bilan ishlash bo‘yicha o‘z o‘zini tahliliy o‘rganish bo‘yicha shaxsiy tayyorgarligini rivojlantirishni zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bilan uyg‘unlashtirish kerak. “Axborot xavfsizligi – ko‘p qirrali faoliyat sohasi bo‘lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etishda huquqiy, ma’muriy, protsedurali va dasturiy-texnik choralarni qo‘llaniladi”. Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta’minlaydigan uchta asosiy tamoyil mavjud:

– ma’lumotlar butunligi. Axborotni yo‘qotilishiga olib keluvchi buzilishlardan, shuningdek ma’lumotlarni mualliflik huquqi bo‘lmagan holda hosil qilish yoki yo‘q qilishdan himoya qilish;

– axborotning konfidensialligi. Axborot va uning tashuvchisining holatini belgilaydi va unda axborot bilan ruxsatsiz tanishishning yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa ko‘chirishning) oldini olish ta’minlangan bo‘ladi;

– foydalanish huquqlariga (mualliflikka) ega barcha foydalanuvchilar axborotdan foydalana olishliklari.

“Axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislarning axborot xavfsizligi madaniyati asosan shaxs dunyoqarashining – muayyan vaziyatlarda o‘z-o‘zini ifoda qilish, o‘zligini namoyon qilish motivlari, maqsad, ehtiyoj, qiziqish va qobiliyatlari bilan namoyon bo‘ladigan etik, kasbiy, subyektiv-shaxsiy va boshqa komponentlarini tashkil etishdan iborat”[3]. Bu axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislarning virtual xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizimning o‘ziga xos tamoyillarini qo‘shimcha tasniflashni talab etadi. Akademik litseylarda o‘quvchilarning axborotni xavfsiz qidirish kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot mazmunining samaradorligiga ta’sir etuvchi texnologiyalar va axborot xavfsizligi madaniyati nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalar bilan, balki mutaxassisning shaxsiy dunyoqarashi, kasbiy mas’uliyati va yetik qadriyatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Axborot xavfsizligi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar o‘z bilim va qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishi, xavfsizlik talablariga mas’uliyat bilan yondashishi hamda professional madaniyatga amal qilishi orqali axborot tizimlarining ishonchli himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Axborot xavfsizligini ta’minlaydigan asosiy tamoyillar



T.L. Partyka va I.I. Popovlar o‘z tadqiqotlarida axborot xavfsizligi bo‘yicha ta’lim mazmunini ishlab chiqish uchun asos sifatida quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratganlar:[4]

– universallik – predmet tayyorgarligining kasbiy, umumiy ta’lim dasturlari birgalikda

[3] Бачило И.Л., Лопатин В.Н., Федотов М.А. Информационное право: Учебник для вузов / Под ред. Б.Н. Топорнина. 2-е изд., с изменениями и доп. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2005. – 723 с.

[4] Партыка Т.Л. Попов И.И. Информационная безопасность. Учебное пособие для студентов учреждений среднего профессионального образования. 2-е изд. - М.: ФОРУМ: ИНФРА, 2007. - 368 с.

tayanch tayyorgarligini ta’minlovchi gumanitar va texnik fanlar jamlanmasining to‘liqligi;

– integratsiyalovchi – axborot xavfsizligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va o‘quv predmetlarining fanlararo hamkorligi, o‘quv jarayonining mazmuni, tarkibiy funksional birligi;

– fundamentallik – ilmiy, psixologik-pedagogik, ijtimoiy-gumanitar va umumiy madaniy tayyorgarlikning yuqori sifati;

– professionalizm – turli pedagogik va maxsus texnologiyalarni o‘zlashtirish;

– o‘zgaruvchanlik – majburiy asosiy kurslar, psixologik-pedagogik, gumanitar-madaniy va maxsus kasbiy ixtisosliklar o‘quv predmetlari tanlovi bo‘yicha qo‘shimcha fanlarning muvofiqlashgan kombinatsiyasi, talabalarning individual imkoniyatlariga mos ravishda o‘qitish algoritmlarining ko‘pligi, ta’lim olish hajmi, sur’atlari, usullari va shakllarining erkin tanlashi;

– ko‘p darajalilik – umumiy, asosiy-bakalavriat va to‘liq-magistratura oliy ta’lim, doktorantura, oliy o‘quv yurtidan keyingi malaka oshirishning turli shakllari darajasida kadrlarni bosqichma-bosqich tayyorlab borish.

“Axborot xavfsizligi ta’minlash sohasidagi tahlil qilish masalalariga bo‘lgan talab, o‘zida mos ta’limiy dasturlarni amalga oshirishni va oliy ta’limni resurslar bilan ta’minlanish sohasi bo‘yicha integratsiyalashtirilgan strukturani”[5]: pedagogik kadrlarning hislatlari tavsifi, me’yor va mezonlarni mos tarzda amalga tadbiq etish parametrlari, oliy ta’limning infratuzilmasi hamda axborot-ta’lim muhiti parametrlarini o‘zida namoyon etgan umumiy tavsiflar, oliy ta’limda talab etiladigan me’yoriy-huquqiy va ilmiy-metodik baza va ta’lim jarayoni ishtirokchilari bog‘lanish tavsiflari bo‘lgan axborotlar to‘plamini namoyon etadi.

A.Axmetzyanovning ilmiy qarashlarida, “axborot xavfsizligini kompyuter texnologiyasi yordamida o‘rganishda gap bu jarayonning yuqori darajada texnologiyalashtirilgani haqida boradi, agar texnologiyalashtirish jarayonining o‘zi pedagog faoliyati bilan muvofiqlashtirilgan holda bo‘lsa, u faqat shunday sharoitda amalga oshirilishi mumkin”[6], degan g‘oyalar ilgari surilgan.

“Hozirgi vaqtda, asosan elektron ta’limning ko‘plab tizimlari taqdim etilgan. Ular dasturlashning turli xil tillarida yozilgan va qo‘shimcha dasturiy ta’minotning ko‘p yoki kam miqdorini talab etadigan operatsion tizimlardan foydalanishadi. O‘qitish imkoniyatida bunday tizimlardan foydalanish axborot xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarni hal qilishni nazarda tutadi”[7]. Akademik litseylarda o‘quvchilarning axborotni xavfsiz qidirish kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot mazmunining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillardan kelib chiqib aytish mumkinki, elektron ta’lim tizimlarining samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan ma’lumotlar bazasini boshqaruv tizimining ishonchli ishlashiga bog‘liq. Chunki aynan ma’lumotlar bazasida ta’lim jarayoniga oid muhim axborotlar saqlanadi va ular bilan ishlash operatsion tizim hamda boshqa dasturiy komponentlar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Shu sababli elektron ta’lim tizimlarida axborot xavfsizligini ta’minlash, ayniqsa ma’lumotlar bazasini himoyalash, yangilab borish va foydalanuvchi huquqlarini to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. “Elektron ta’lim tizimining muhim qismlaridan biri ma’lumotlar bazasini boshqaruv

[5] Богословский В.И., Бордовский Г.А., Власова Е.З., Извозчиков В.А., Смолянова Л.В., Челны Р.Р., Шилова О.Н. Инфосоциум, информатика и образование: Справочное учебное пособие. – СПб.: КАРО, 2004. — 304 с.

[6] Ахметзянов А. Информационные ресурсы и образование // Высшее образование в России, 1996, № 2. – С. 34–37.

[7] Басторинес П.В., Ильюков Ю.В. Методика обучения основам безопасности жизнедеятельности.: Метод. пособие. – М.: Гуманит, изд. центр ВЛАДОС, 2003. — 272 с.

tizimi hisoblanib, unda ta’lim oluvchilar haqidagi ma’lumotlar saqlanadi. Ma’lumotlar bazasini himoyalash, yangilashni o‘z vaqtida amalga oshirib borish va foydalanuvchining moslanishlarini to‘g‘ri bajarishidan tashkil topadi. Ma’lumotlar bazasini boshqaruv tizimi operatsion tizim bilan izchil bog‘langan bo‘lib, u adminiga operatsion tizimda faoliyat yuritish imkonini beradi”.

“Xavfsizlik nuqtai nazardan tizimga eng ko‘p ta’sirni veb-serverning o‘zi emas, balki bajarilishi uchun u javobgar bo‘lgan ilovalar ko‘rsatadi. Ko‘pchilik hujumlar va tahdidlarni bo‘lishida skriptlarning dasturiy kodini noto‘g‘ri yozilishi sabab bo‘ladi. Bunday hollarda hujum uyushtirayotgan tomon serverda ishlayotgan skriptlar uchun noto‘g‘ri ma’lumotlar to‘plamini jo‘natadi. Ularni noto‘g‘ri shakllantirilishi admin xuquqiga ega bo‘lgan boshqa amaliy tizimlarga olib keladi”[8]. Akademik litseylarda o‘quvchilarning axborotni xavfsiz qidirish kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minot mazmunining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar va axborot tizimlari xavfsizligida asosiy xavf ko‘pincha veb-serverning o‘zidan emas, balki unda ishlayotgan ilovalar va skriptlarning dasturiy kodidan kelib chiqadi. Agar dasturiy kod to‘g‘ri va xavfsiz yozilmasa, tizimga noto‘g‘ri yoki maxsus shakllantirilgan ma’lumotlar yuborish orqali turli hujumlarni amalga oshirish mumkin. Natijada bu holat tizimda ruxsatsiz kirish yoki yuqori darajadagi huquqlarga ega bo‘lish kabi jiddiy xavfsizlik muammolariga olib kelishi mumkin.

Demak, axborotni xavfsiz qidirishda elektron ta’lim tizimlarining keng qo‘llanilishi ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Biroq bunday tizimlar turli dasturlash tillari va operatsion tizimlarga asoslanganligi sababli ularni qo‘llash jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli elektron ta’lim platformalarida ma’lumotlarning himoyasi, foydalanuvchi huquqlarini nazorat qilish va tizim barqarorligini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ganiyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016, -3 bet

2. Karimov I.M. Axborot xavfsizligi asoslari: Ma’ruzalar kursi / – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 7 b.

3. Бачило И.Л., Лопатин В.Н., Федотов М.А. Информационное право: Учебник для вузов / Под ред. Б.Н. Топорнина. 2-е изд., с изменениями и доп. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2005. – 723 с.

4. Партыка Т.Л., Попов И.И. Информационная безопасность. Учебное пособие для студентов учреждений среднего профессионального образования. 2-е изд. - М.: ФОРУМ: ИНФРА, 2007. - 368 с.

5. Михайлов Л.А., Соломин В.П., Малышева Т.В. Психологическая безопасность. Учебное пособие для вузов. - СПб.: ПРОФА, 2008. — С.238.

6. Басторинес П.В., Ильюков Ю.В. Методика обучения основам безопасности жизнедеятельности.: Метод. пособие. – М.: Гуманит, изд. центр ВЛАДОС, 2003. — 272 с.

9. Олифер В.Г., Олифер Н.А. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы. Юбилейное 6 издание. – СПБ. Издательский дом “Питер”. 2020. -1010с.

10. Мамаев М., Петренко С. Технологии зашиты информации в Интернете: Специальный справочник. – СПБ.: Питер – пресс. 2001. -848 с.

[8] Мамаев М., Петренко С. Технологии зашиты информации в Интернете: Специальный справочник. – СПБ.: Питер – пресс. 2001. -848 с.

Sayyoraxon RUZMETOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti , “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi, dotsent, p.f.f.d (PhD)

TEXNIKA YO‘NALISHIDAGI OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MUHANDISLIK TAFAKKURINING SHAKLLANISHIDA KOGNITIV JARAYONLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada texnika universiteti talabalarida muhandislik tafakkurining shakllanishida kognitiv jarayonlarning o‘rni ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Shuningdek, sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur talabalarning muhandislik tafakkurini shakllantirishdagi psixologik asosini tashkil qilinishi va muhandislik tafakkurining mazmuni, tarkibiy qismlari va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqligi aytib o‘tilgan. Muallif pedagogik yondashuvlar va ta’lim texnologiyalarining ahamiyatini yoritib bergan.

Tayanch so‘zlar. Muhandislik tafakkuri, kognitiv jarayonlar, texnik ta’lim, tafakkur, diqqat, xotira, tasavvur, muhandis kadrlar, bilish faoliyati, innovatsion yondashuv.

В статье научно-теоретически анализируется роль когнитивных процессов в формировании инженерного мышления у студентов технических вузов. Также было отмечено, что ощущение, восприятие, внимание, память, мышление и воображение составляют психологическую основу формирования инженерного мышления студентов и связаны с содержанием, компонентами и когнитивными процессами инженерного мышления. Автор осветил значение педагогических подходов и образовательных технологий.

Ключевые слова. Инженерное мышление, когнитивные процессы, техническое образование, мышление, внимание, память, воображение, инженерные кадры, познавательная деятельность, инновационный подход.

The article provides a scientific and theoretical analysis of the role of cognitive processes in the formation of engineering thinking in students of technical universities. It is also noted that sensation, perception, attention, memory, thinking, and imagination form the psychological basis of the formation of students’ engineering thinking and are connected with the content, components, and cognitive processes of engineering thinking. The author highlights the importance of pedagogical approaches and educational technologies.

Key words. Engineering thinking, cognitive processes, technical education, thinking, attention, memory, imagination, engineering personnel, cognitive activity, innovative approach.

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida muhandis mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Texnika universitetlarining asosiy vazifasi zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlay oladigan va texnik muammolarga ijodiy yondasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda muhandislik tafakkurini shakllantirish muhim pedagogik masala sifatida qaraladi. Muhandislik tafakkuri talabaning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.Muhandislik tafakkurining shakllanishi tasodifiy jarayon emas, balki tizimli va maqsadli tashkil etilgan ta’lim jarayonining natijasidir. Ushbu jarayonda kognitiv jarayonlar muhandislik tafakkurining psixologik asosini tashkil etadi. Shuning uchun texnik ta’lim tizimida kognitiv jarayonlarning rivojlanish mexanizmlarini o‘rganish

dolzarb hisoblanadi.

Muhandislik tafakkuri tushunchasi va uning mazmuni

Muhandislik tafakkuri zamonaviy texnik faoliyatning intellektual asosi bo‘lib, u shaxsning murakkab texnik muammolarni anglash, tahlil qilish va amaliy jihatdan asoslangan yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan fikrlash faoliyatini ifodalaydi. Ushbu tafakkur turi muhandisning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan real vaziyatlarni ilmiy-nazariy bilimlar asosida tushunish, mavjud texnik resurslarni baholash va optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini ta’minlaydi. Muhandislik tafakkuri faqatgina texnik bilimlar majmuasi bilan cheklanib qolmay, balki ularni yangi sharoitlarda qo‘llash, muammoga tizimli yondashish va natijaga yo‘naltirilgan fikrlashni o‘z ichiga oladi. Muhandislik tafakkurining mazmuni uning ko‘p qirrali va kompleks xarakterga ega ekanligi bilan belgilanadi. Bu tafakkur shaklida mantiqiylik, tizimlilik, aniqlik va amaliy yo‘naltirilganlik muhim o‘rin egallaydi. Muhandislik tafakkuri jarayonida muammo alohida elementlarga ajratiladi, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi va texnik tizim yaxlit holda tahlil qilinadi. Bunday yondashuv muhandisga murakkab jarayonlarni soddalashtirish, ularni modellashtirish va samarali boshqarish imkonini beradi.

Muhandislik tafakkurining muhim jihatlaridan biri bu sabab-oqibat munosabatlarini chuqur anglashdir. Texnik obyektlar va jarayonlar tasodifiy emas, balki muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatadi. Muhandislik tafakkuri ana shu qonuniyatlarni aniqlash, texnik jarayonlarning barqarorligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan fikrlash faoliyatini shakllantiradi. Bu esa muhandisning qabul qilayotgan qarorlari ilmiy asoslangan va xavfsiz bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, muhandislik tafakkuri analitik va sintetik fikrlashning uyg‘unlashuvi bilan tavsiflanadi. Analitik fikrlash orqali muammo tarkibiy qismlarga ajratilib o‘rganilsa, sintetik fikrlash jarayonida ushbu qismlar yagona tizimga birlashtiriladi. Natijada muhandis texnik obyekt yoki jarayonning umumiy ishlash mexanizmini anglaydi. Bu xususiyat muhandislik tafakkurini boshqa tafakkur turlaridan ajratib turadi.

Kognitiv jarayonlar va ularning muhandislik tafakkuridagi o‘rni

Kognitiv jarayonlar insonning bilish faoliyatini tashkil etuvchi asosiy psixik mexanizmlar bo‘lib, ular orqali shaxs tashqi muhit haqidagi axborotni qabul qiladi, qayta ishlaydi va undan maqsadli faoliyatda foydalanadi. Texnika universiteti talabalarining o‘quv va kasbiy tayyorgarligi jarayonida kognitiv jarayonlar muhandislik tafakkurining psixologik poydevorini tashkil etadi. Aynan ushbu jarayonlar orqali talaba texnik bilimlarni o‘zlashtiradi, ularni tahlil qiladi va amaliy vaziyatlarda qo‘llaydi.Muhandislik tafakkurining shakllanishi kognitiv jarayonlarning alohida-alohida rivojlanishi bilan emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali amalga oshadi. Sezgi va idrok texnik axborotni qabul qilishni ta’minlasa, diqqat ushbu axborotga yo‘naltirilganlikni belgilaydi, xotira esa bilimlarni saqlash va qayta tiklash imkonini yaratadi. Tafakkur va tasavvur esa ushbu bilimlar asosida yangi texnik yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bois kognitiv jarayonlar muhandislik tafakkurining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sezgi va idrok jarayonlarining muhandislik tafakkuridagi ahamiyati

Sezgi va idrok muhandislik tafakkurining boshlang‘ich bosqichini tashkil etadi. Texnik faoliyat jarayonida talaba turli fizik ko‘rsatkichlar, mexanik harakatlar, vizual modellar va grafik tasvirlar bilan ishlaydi. Sezgi jarayoni orqali texnik obyektlarning alohida xususiyatlari aks ettirilsa, idrok jarayonida ushbu xususiyatlar yagona va yaxlit obraz sifatida shakllanadi.Muhandislik ta’limida idrokning aniqligi va to‘liqligi alohida ahamiyatga ega. Chizmalar, sxemalar, diagrammalar va texnik modellar bilan ishlashda

idrok jarayonining rivojlanganligi talabaning texnik fikrlash darajasini belgilaydi. Idrok yetarli darajada shakllanmagan holatlarda texnik obyektlarning tuzilishini noto‘g‘ri tushunish, hisob-kitoblarda xatoliklarga yo‘l qo‘yish holatlari yuzaga keladi. Shu sababli texnika universitetlarida vizual ta’lim vositalaridan samarali foydalanish muhandislik tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Diqqatning muhandislik tafakkurini shakllantirishdagi roli

Diqqat muhandislik faoliyatida muhim tartibga soluvchi kognitiv jarayon bo‘lib, u talabaning bilish faoliyatini maqsadga yo‘naltiradi. Texnik masalalar ko‘pincha murakkab, ko‘p bosqichli va yuqori aniqlikni talab etganligi sababli, diqqatning barqarorligi va boshqarilishi muhandislik tafakkurining samaradorligini belgilaydi.Muhandislik tafakkurida diqqatning taqsimlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba bir vaqtning o‘zida bir nechta parametrlarni, texnik shartlarni va cheklovlarni hisobga olishi lozim. Diqqatning yetarli darajada rivojlanmaganligi texnik jarayonlarda muhim jihatlarning e’tibordan chetda qolishiga olib keladi. Shu bois diqqatni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar muhandislik tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Xotiraning muhandislik faoliyatidagi ahamiyati

Xotira texnik bilimlarni saqlash, mustahkamlash va zarur vaziyatda qayta tiklash imkonini beruvchi kognitiv jarayon hisoblanadi. Texnika fanlarida katta hajmdagi nazariy va amaliy axborot bilan ishlash talab etiladi. Formulalar, texnik qonuniyatlar, algoritmlar va me’yoriy talablar xotira orqali o‘zlashtiriladi va muhandislik faoliyatida qo‘llaniladi. Muhandislik tafakkurida ayniqsa mantiqiy va operativ xotiraning roli katta. Mantiqiy xotira bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashni ta’minlasa, operativ xotira muhandislik masalalarini tez va samarali hal etishga yordam beradi. Xotiraning rivojlanganligi talabaning texnik muammolarga kompleks yondashish qobiliyatini oshiradi.

Tafakkurning muhandislik faoliyatidagi markaziy o‘rni

Tafakkur muhandislik tafakkurining asosiy va markaziy komponenti hisoblanadi. Aynan tafakkur jarayonida texnik muammolar aniqlanadi, ularning sabab-oqibat aloqalari tahlil qilinadi va yechim variantlari ishlab chiqiladi. Muhandislik tafakkuri tafakkurning mantiqiy, tanqidiy va tizimli shakllarini o‘z ichiga oladi.Texnika universiteti talabalarida tafakkurni rivojlantirish orqali ularni standart bo‘lmagan vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish mumkin. Tafakkurning rivojlanganligi muhandislik faoliyatida aniqlik, asoslanganlik va samaradorlikni ta’minlaydi. Shu bois tafakkur muhandislik tafakkurining intellektual yadrosi sifatida qaraladi.

Texnika ta’lim yo‘nalishi universitetlarida ta’lim jarayonida kognitiv jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatlari.

Texnika ta’lim yo‘nalishi universitetlarida ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish talabalarining kognitiv jarayonlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda texnik sohalarda faoliyat yuritadigan mutaxassislar nafaqat nazariy bilimlarga, balki chuqur tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tez va samarali hal etish hamda innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Ushbu sifatlarning shakllanishi esa ta’lim jarayonida kognitiv jarayonlarni ongli va tizimli rivojlantirishni taqozo etadi.Texnika universitetlarida kognitiv jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatlaridan biri ta’lim mazmunining amaliy yo‘naltirilganligi bilan bog‘liqdir. O‘quv fanlarida nazariy bilimlarning real texnik vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirilishi talabalar tafakkurining faollashuviga olib keladi. Amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari va ishlab chiqarish amaliyotlari orqali talabalar sezgi va idrok jarayonlari asosida texnik obyektlarni bevosita o‘rganadi, bu esa bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishini

ta’minlaydi.Muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kognitiv jarayonlarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar talabalarning tafakkur jarayonini faollashtiradi, ularni mustaqil tahlil qilish, farazlar ilgari surish va optimal yechimlarni topishga undaydi. Bunday yondashuvda diqqat, xotira va tafakkur jarayonlari bir vaqtning o‘zida faol ishlaydi, natijada muhandislik tafakkuri kompleks tarzda rivojlanadi.

Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati va metodik tayyorgarligi kognitiv jarayonlarning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan dars jarayonida savollarni to‘g‘ri qo‘yish, muammoli vaziyatlar yaratish va talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish kognitiv faollikni oshiradi. O‘qituvchi talabaning bilish jarayonlarini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, texnika ta’lim yo‘nalishi universitetlarida ta’lim jarayonida kognitiv jarayonlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ularni samarali tashkil etish muhandislik tafakkurining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim mazmuni, metodlari va texnologiyalarining uyg‘unligi talabalarni zamonaviy texnik faoliyatga puxta tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, texnika universiteti talabalarida muhandislik tafakkurining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning psixologik asosini kognitiv jarayonlar tashkil etadi. Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvurning uyg‘un rivoji talabaning kasbiy tayyorgarligini yuqori bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, texnik ta’lim tizimida kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhandis kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E. (2018). Psixologiya (tafakkur jarayonlari bo‘limi). – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.

2. Yulchiyeva Z.N. “Professional psychology”. Study guide.

3. Axmedov D. (2021). Kognitiv jarayonlar tushunchasi va ularning ta’limdagi roli. – Toshkent: Ilmiy Nashriyot.

4. Tursunov R. (2015). Talabalar psixologiyasi va ularning kommunikatsiya qobiliyatlari. – Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.

5. Nikitina A. A., & Mannanova, E. A. (2025). The phenomenon of engineering thinking in the modern world: Psychological content, structure, components. Russian Journal of Education and Psychology, 3(2), 45–60.

6. Chakrabarti S., Soni, S., & Kaur, P. (2025). Influence of cognitive and emotional factors on design thinking in engineering education.

Komila ABDULLAYEVA,
“Iqtisodiyot va pedagogika universiteti” nodavlat oily ta’lim muassasasi,
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi, dotsent

MILLIY HUNARMANDCHILIK FAOLIYATI ORQALI O‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIKKA MOTIVATSIYASINI OSHIRISH USULLARI (8–9-sinflar misolida)

Annotatsiya

Maqolada 8-9-sinf o‘quvchilarida tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirishda milliy hunarmandchilik faoliyatining pedagogik salohiyatini chuqur o‘rganilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv, loyiha-metodikasi, STEAM integratsiyasi, iqtisodiy tafakkur va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan metodik model batafsil tavsiflangan.

Tayanch so‘zlar. Milliy hunarmandchilik, tadbirkorlik motivatsiyasi, iqtisodiy savodxonlik, kreativ fikrlash, loyiha-metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy yo‘naltirish.

В статье рассматривается углубленное изучение педагогического потенциала национального ремесленничества в формировании предпринимательской мотивации у учащихся 8-9 классов. Также подробно описаны компетентностный подход, проектная методика, интеграция STEAM, экономическое мышление и методическая модель, ориентированная на практическую деятельность.

Ключевые слова. Национальное ремесленничество, предпринимательская мотивация, экономическая грамотность, креативное мышление, проектная методика, компетентностный подход, профессиональная ориентация.

The article discusses the in-depth study of the pedagogical potential of national handicraft activities in the formation of entrepreneurial motivation in students of grades 8-9. Also, a methodological model focused on a competency-based approach, project methodology, STEAM integration, economic thinking, and practical activity is described in detail.

Key words. National crafts, entrepreneurial motivation, economic literacy, creative thinking, project methodology, competency-based approach, professional orientation.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi o‘quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni real hayotiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bugungi davrda o‘quvchilarda tadbirkorlik tafakkuri, iqtisodiy savodxonlik va mustaqil tashabbuskorlik ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

8–9-sinf bosqichi shaxs rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu davrda o‘quvchilar:

– kasbiy qiziqishlarini aniqlay boshlaydi;
– o‘z imkoniyatlarini baholaydi;
– mustaqil qaror qabul qilishga intiladi;
– ijtimoiy rolini shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga milliy hunarmandchilik faoliyatini integratsiya qilish nafaqat madaniy merosni saqlash, balki o‘quvchilarni iqtisodiy jihatdan fikrlashga, qiymat yaratishga va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy hunarmandchilik faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiylik, mehnatsevarlik,

iqtisodiy hisob-kitob, estetik did va amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlaydi. Aynan shu jihatlar uni tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun tabiiy pedagogik platformaga aylantiradi.

Amaliy pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘quvchilarda tadbirkorlik tushunchasi tor doirada – faqat biznes ochish yoki savdo bilan shug‘ullanish sifatida talqin qilinadi. O‘quvchilar: mahsulot yaratish jarayonini; qiymat shakllanish mexanizmlarini; xarajat va foyda tushunchalarini; bozor talabini; yetarlicha chuqur anglamaydi.

Natijada tadbirkorlikka nisbatan ichki motivatsiya sust shakllanadi. Bu esa kelajakda iqtisodiy faol, tashabbuskor va innovatsion fikrlovchi yoshlar sonining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Milliy hunarmandchilik asosidagi ta’lim esa o‘quvchilarga:

1. Real mahsulot yaratish.
2. Mehnat natijasini baholash.
3. Iqtisodiy hisob-kitob qilish.
4. Savdo jarayonini tushunish.
5. Imkoniyatini beradi.

UNESCO 2020-yilda nomoddiy madaniy merosni o‘rganish va ta’lim tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha hisobot e’lon qilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik asosidagi ta’lim: yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi; amaliy ko‘nikmalarni oshiradi; o‘quvchilarni mustaqil va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi.

OECD (2019) tadqiqotlarida yoshlar tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy komponentlari: kreativlik, resurslarni boshqarish va amaliyotni amalga oshirish deb belgilangan. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik ushbu barcha komponentlarni bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi.

World Bank (2021) hisobotlarida yoshlar bandligi va iqtisodiy faolligini oshirish uchun amaliy iqtisodiy ko‘nikmalarni erta bosqichda shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi. Hunarmandchilik faoliyati bu vazifani amalga oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Islomova N. (2022) – Hunarmandchilik mashg‘ulotlari orqali 8–9-sinf o‘quvchilarining ijtimoiy kommunikatsiyasi va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari o‘sadi, bu esa tadbirkorlik faoliyatini samarali amalga oshirishga zamin yaratadi.

Tadbirkorlik motivatsiyasi tushunchasi

Tadbirkorlik motivatsiyasi – bu shaxsning mustaqil iqtisodiy faoliyatga kirishish, risklarni qabul qilish, yangi g‘oyalarni amalga oshirish va tashabbus ko‘rsatishga tayyorlik darajasi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, motivatsiya quyidagi omillar orqali shakllanadi:

$$M=f(I,Q,R,S)$$

Bu yerda:

M – motivatsiya darajasi

I – ichki qiziqish va ijodiy intilish

Q – qobiliyat va bilim

R – rag‘bat, qo‘llab-quvvatlash

S – ijtimoiy muhit va atrof-muhit omillari

Milliy hunarmandchilik ushbu omillarga integratsiyalashgan tarzda ta’sir qiladi. Masalan, qo‘l mehnati va dizayn jarayoni o‘quvchilarda ichki qiziqishni uyg‘otadi, tayyor mahsulot esa rag‘batni oshiradi, jamoaviy ishlash esa ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv

Tadbirkorlikni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv muhim hisoblanadi.

OECD tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchida quyidagi kompetensiyalar rivojlantirilishi lozim:

1. Kreativlik va innovatsiya – yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
2. Iqtisodiy savodxonlik – xarajat, daromad, foyda va rentabellikni tushunish.
3. Tashabbuskorlik – o‘zini boshqarish va mas’uliyatni qabul qilish.
4. Ijtimoiy kommunikatsiya – jamoada ishlash, mahsulotni taqdim etish va sotish.

Hunarmandchilik faoliyati ushbu kompetensiyalarni tabiiy ravishda shakllantiradi, chunki o‘quvchi: mahsulot dizaynini yaratadi, xarajat va foyda hisoblaydi, o‘z mahsulotini jamoaga taqdim qiladi, savdo va targ‘ibot jarayonida ishtirok etadi.

Milliy hunarmandchilikning pedagogik ahamiyati

UNESCO tadqiqotlariga ko‘ra, milliy hunarmandchilik yoshlarning shaxsiy rivojlanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Hunarmandchilik orqali o‘quvchilar:

1. Psixologik rivojlanadi: sabr, mas’uliyat va mehnatsevarlikni o‘rganadi.

2. Kognitiv rivojlanadi: texnologik va iqtisodiy bilimlar egallaydi.

3. Ijtimoiy rivojlanadi: jamoa bilan ishlash va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Iqtisodiy tafakkuri rivojlanadi: xarajat, foyda va mahsulot qiymatini tushunadi.

Shuningdek, o‘quvchilar o‘z mahsulotlariga egalik hissini sezadi, bu esa ichki motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi.

Amaliy iqtisodiy hisob-kitob modeli. O‘quvchilarni tadbirkorlikga o‘rgatishda amaliy iqtisodiy hisob-kitob muhim. Asosiy formulalar:

1. Foyda hisoblash

$$F=D-X$$

Bu yerda:

F – Foyda

D – daromad

X – xarajat

2. Rentabellik

$$R=F/X\times100\%$$

O‘quvchilar ushbu formulalar orqali real hayotiy biznes jarayonlarini tushunadi, mahsulot yaratish jarayonini rejalashtiradi va natijalarni baholaydi.

Tadbirkorlik kompetensiyasining pedagogik modeli

Pedagogik nazariya va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirishda quyidagi komponentlar muhim:

1. Ichki motivatsiya (I) – o‘quvchi o‘z qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga intiladi.
2. Kreativlik va innovatsiya (K) – yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amalda sinash.
3. Iqtisodiy savodxonlik (E) – xarajat, daromad, foyda va rentabellikni tushunish.
4. Tashabbuskorlik va mas’uliyat (T) – mustaqil qaror qabul qilish va o‘z mahsulotiga egalik hissi.
5. Ijtimoiy kommunikatsiya (S) – jamoa bilan ishlash va mahsulotni taqdim etish.

Ushbu komponentlar o‘quvchilarning umumiy motivatsiya darajasini belgilaydi va quyidagi formulada ifodalanadi:

$$M=\alpha I+\beta K+\gamma E+\delta T+\varepsilon S$$

Bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \delta, \varepsilon$ – har bir komponentning motivatsiyaga ta’sir koeffitsiyentlari.

Hunarmandchilikning pedagogik imkoniyatlari

Milliy hunarmandchilik nafaqat estetik va madaniy jihatdan ahamiyatga ega, balki pedagogik nuqtai nazardan quyidagi afzalliklarga ega:

Afzallik	Pedagogik ta’sir
Ijodiy fikrlash	Mahsulot dizayni va bezaklar yaratish
Amaliy iqtisodiy hisob-kitob	Material, vaqt va xarajatlarni hisoblash
Tashabbuskorlik	Mahsulot yaratish va sotishga tayyorlanish
Ijtimoiy kommunikatsiya	Jamoaviy ishlash va mahsulotni taqdim etish

Natijada o‘quvchi nafaqat amaliy ko‘nikma, balki iqtisodiy va ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

STEAM integratsiyasi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi milliy hunarmandchilik faoliyatini yanada samarali qiladi. Misol uchun:

– Science – materiallar xususiyatini o‘rganish

– Technology – amaliy ishlab chiqarish texnologiyasi

– Engineering – mahsulot dizayni va ishlab chiqish jarayoni

– Arts – estetik va madaniy elementlar

– Mathematics – xarajat va foyda hisob-kitobi

Amaliy metodik model

1. Bosqichlar

Bosqich	Faoliyat tavsifi	Maqsad
1	Tanishtirish va motivatsiya	O‘quvchilarni hunarmandchilik bilan qiziqtirish
2	Mahsulot dizayni	Kreativ fikrlashni rivojlantirish
3	Iqtisodiy hisob-kitob	Xarajat va foyda tushunchalarini o‘rgatish
4	Mahsulot tayyorlash	Amaliy ko‘nikma shakllantirish
5	Savdo va taqdimot	Tashabbuskorlik va ijtimoiy kommunikatsiyani rivojlantirish

O‘quvchilarga bu formulalar orqali mahsulot qiymati va foydasini tushuntirish, real iqtisodiy tafakkur shakllantirish mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

– hunarmandchilik asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytiradi;

– amaliy iqtisodiy hisob-kitob va mahsulot yaratish jarayoni iqtisodiy tafakkurni rivojlantiradi;

– savdo va taqdimot mashg‘ulotlari tashabbuskorlik va ijtimoiy kommunikatsiyani mustahkamlaydi;

– shu bilan birga, STEAM integratsiyasi o‘quvchilarning ilmiy, texnologik va ijodiy ko‘nikmalarini birlashtiradi, bu esa ularni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradi.

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, milliy hunarmandchilik faoliyati 8-9-sinf o‘quvchilarini tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirishda juda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilarda ichki motivatsiyani faollashtirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va iqtisodiy savodxonlikni oshirish jarayonlari hunarmandchilik mashg‘ulotlari orqali tabiiy va tizimli tarzda amalga oshiriladi:

Birinchidan, kreativlik va ijodiy tafakkur o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Hunarmandchilik faoliyati ularga yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, mahsulot dizayni yaratish va estetik jihatlarni hisobga olish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchida innovatsion fikrlashni rivojlantiradi, yangi tashabbuslarni amalga oshirishga tayyorlaydi va shaxsiy ishonchni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, iqtisodiy savodxonlik va amaliy hisob-kitob ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchilarni real hayotga tayyorlaydi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar xarajat va daromadni, foyda va rentabellikni o‘lchash, mahsulot narxini belgilash va biznes jarayonini boshqarish bo‘yicha tajriba oladi. Bu jarayon, natijada, iqtisodiy tafakkur va mas’uliyatni rivojlantiradi, shuningdek, pul va resurslarni samarali boshqarish qobiliyatini oshiradi.

Uchinchidan, tashabbuskorlik va ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalari rivojlanadi. Hunarmandchilik mashg‘ulotlari o‘quvchilarni jamoa bilan ishlashga, mahsulotlarini taqdim etishga va o‘z ishini targ‘ib qilishga undaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda o‘z mehnatiga egalik hissi shakllanadi va bu ichki motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi. Jamoaviy ishlash va mahsulotni bozorga chiqarish tajribasi ularni nafaqat maktabda, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham samarali bo‘lishga tayyorlaydi.

To‘rtinchidan, STEAM integratsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv hunarmandchilik faoliyatining samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar ilmiy, texnologik, muhandislik, san’at va matematik ko‘nikmalarni birlashtirgan holda amaliy ish olib boradi. Bu esa nafaqat tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni kompleks, tizimli va innovatsion fikrlashga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy hunarmandchilik faoliyati 8-9-sinf o‘quvchilarini tadbirkorlikka tayyorlashning murakkab va integratsiyalashgan tizimi sifatida samarali ishlaydi. Bu nafaqat iqtisodiy va psixologik kompetensiyalarni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ularni kelajakdagi tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlaydi, ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi va ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva K.T. Umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilarini xalq hunarmandchiligi asosida mehnatga tayorlash //international journal of integrated sciences. – 2025. – T. 1. – №. 1.

2. Abdullayeva K. T. Technological education in the processes of directing students to the profession and business activities //Экономика и социум. – 2024. – №. 11-1 (126). – С. 11-20.

3. Абдуллаева К. Т. Инновационная стратегия-центральное звено стратегического управления инновационной деятельностью современной организации //Социально-экономическое развитие России: проблемы, тенденции, перспективы. – 2023. – С. 9-11.

4. Абдуллаева К. Т. К Вопросу о сущности инноваций //Будущее науки: взгляд молодых ученых на инновационное развитие общества. – 2023. – С. 10-12.

5. Abdullayeva K. Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo‘llashning umumiy mezonlari //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – С. 674384.

6. Ишмурадова Г. И. и др. О роли профессиональной педагогики в технических вузах : дис. – БарГУ, 2021.

7. Вардияшвили А. А. и др. Энергосбережение и энергоэффективность в системах пароснабжения //Материалы II Международной научной конференции» Технические науки: проблемы и перспективы». – 2014. – С. 53-55.

8. Саматова Ш. Ю., Абдуллаева К. Т. Изменение гидродинамики парового котла бкз-75/39 и реконструкция хвостовых поверхностей нагрева //Молодой ученый. – 2017. – №. 3. – С. 156-158.

Shahnoza UCHQUROVA,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti, “Chet tillarni o‘qitish kafedrasi”,
katta o‘qituvchi, p.f.f.d (PhD)

CHET TILINI O‘QITISHDA RAQAMLI VOSITALAR AGREGATORINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada chet tilni o‘qitishda raqamli vositalar agregatorining nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli platformalar va ta’limiy ilovalarni yagona tizimga jamlash orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli vositalar agregatori ta’lim samaradorligini oshirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quv jarayonini individuallashtirishga xizmat qilishi muhokama etildi.

Tayanch so‘zlar. Raqamli ta’lim, chet tilini o‘qitish, nofilologik ta’lim, raqamli vositalar agregatori, kommunikativ kompetensiya, Aralash ta’lim.

В данной тезисной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования агрегатора цифровых инструментов при обучении иностранному языку студентов нефилологических высших учебных заведений. В исследовании анализируются возможности развития коммуникативной компетенции студентов посредством интеграции цифровых платформ и образовательных приложений в единую систему. Также обсуждается роль агрегатора цифровых инструментов в повышении эффективности обучения, формировании навыков самостоятельного обучения и индивидуализации образовательного процесса.

Ключевые слова. Цифровое образование, обучение иностранному языку, нефилологическое образование, агрегатор цифровых инструментов, коммуникативная компетенция, смешанное обучение.

This thesis article examines the theoretical and practical aspects of using a digital tools aggregator in teaching foreign languages to students of non-philological higher educational institutions. The study analyzes the possibilities of developing students’ communicative competence by integrating digital platforms and educational applications into a unified system. Furthermore, the role of a digital tools aggregator in enhancing educational effectiveness, fostering independent learning skills, and individualizing the learning process is discussed.

Key words. Digital education, foreign language teaching, non-philological education, digital tools aggregator, communicative competence, blended learning.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya va xalqaro akademik hamkorlikning kengayishi oliy ta’lim tizimida chet tillarni o‘qitishga bo‘lgan talabni tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, nofilologik oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun chet tilini bilish nafaqat umumiy kommunikativ vosita, balki kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Muhandislik, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, tibbiyot va boshqa sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun xorijiy ilmiy manbalar bilan ishlash, xalqaro hamkorlikda ishtirok etish hamda professional muloqotni amalga oshirish chet tilini yuqori darajada egallashni talab etadi.

Shu bilan birga, nofilologik yo‘nalishlarda chet tilini o‘qitish jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda: o‘quv soatlarining cheklanganligi, talabalarning til tayyorgarligi darajasidagi tafovutlar, motivatsiya masalalari hamda an’anaviy metodlarning kommunikativ yondashuvni to‘liq ta’minlay olmasligi shular jumlasidandir. Mazkur

muammolarni bartaraf etishda raqamli ta’lim texnologiyalari muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Raqamli pedagogika konsepsiyasiga ko‘ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish va talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. So‘nggi yillarda Learning Management System (LMS), mobil ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi til o‘rgatish platformalari, interaktiv test tizimlari, multimodal resurslar kabi vositalar chet tilini o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. Biroq ushbu vositalarning alohida-alohida qo‘llanilishi ularning didaktik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli vositalarni yagona tizimga integratsiyalovchi raqamli vositalar agregatori konsepsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli vositalar agregatori – bu turli platforma, ilova va ta’limiy resurslarni metodik jihatdan asoslangan holda yagona muhitga birlashtiruvchi tizim bo‘lib, u o‘quv jarayonining uzviyligi, tizimliligi va monitoringini ta’minlaydi. Bunday yondashuv blended learning (aralash ta’lim), flipped classroom (teskari sinf) hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari bilan uyg‘unlashgan holda samarali natija berishi mumkin.

Nofilologik OTM sharoitida raqamli vositalar agregatoridan foydalanish talabalarning kasbiy yo‘naltirilgan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, leksik va pragmatik ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda o‘quv jarayonini differensiallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt elementlari asosida tezkor teskari aloqa (feedback) berish va o‘quv natijalarini avtomatik tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Chet tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika, kognitiv lingvistika va ta’lim texnologiyalari sohasida faol tadqiq qilinmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv doirasida kommunikativ kompetensiya (Canale & Swain, 1980; Bachman, 1990) til o‘qitish jarayonining markaziy komponenti sifatida talqin etiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, til o‘rganish faqat grammatik bilimlarni emas, balki sotsiolingvistik, diskursiv va strategik ko‘nikmalarni ham qamrab olishi zarur.

Raqamli pedagogika konsepsiyasi (Selwyn, 2016; Siemens, 2005) ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash orqali o‘quv muhitini moslashuvchan va interaktiv shaklga keltirish mumkinligini asoslaydi. Siemens tomonidan ilgari surilgan konnektivizm nazariyasiga ko‘ra, bilim tarmoqlar orqali shakllanadi va raqamli muhit bu jarayonni tezlashtiradi.

Blended learning modeli (Graham, 2006) an’anaviy va onlayn ta’limni integratsiyalashni nazarda tutadi hamda u chet tilini o‘qitishda samarali metod sifatida e’tirof etilgan. Flipped classroom modeli esa (Bergmann & Sams, 2012) auditoriya vaqtini amaliy va kommunikativ faoliyatlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi til o‘rgatish vositalari (Godwin-Jones, 2018) individual feedback, adaptiv topshiriqlar va o‘quv natijalarini avtomatik monitoring qilish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalardan tizimli foydalanish talabalarning motivatsiyasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshiradi (Dörnyei, 2001).

O‘zbek olimlari tomonidan ham chet tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash masalalari o‘rganilgan. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish hamda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar talabalarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishi va ta’lim jarayonini individuallashtirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

“Aggregator” atamasi ingliz tilidagi “aggregate” so’zidan kelib chiqqan bo‘lib, lotin-

cha aggregare – “bir joyga jamlamoq”, “qo‘shmoq”, “to‘plamoq” ma’nolarini anglatadi. Etimologik manbalarda ushbu tushunchaning mazmuniy asosi turli unsurlarni yagona tizim yoki umumiy to‘plamga birlashtirish g‘oyasi bilan izohlanadi. Zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlarda esa “aggregator” tushunchasi turli manbalar, xizmatlar, ma’lumotlar yoki raqamli resurslarni yig‘ib, ularni foydalanuvchi uchun yagona platforma, tizim yoki interfeys ko‘rinishida taqdim etuvchi vosita sifatida qo‘llanadi. Xususan, OECD materiallarida agregator platformalar foydalanuvchiga qo‘shimcha qiymat yaratish bilan birga, uchinchi tomon ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchilar bilan o‘zaro aloqani tashkil etuvchi platformalar sifatida tavsiflanadi.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida raqamli vositalar alohida platformalar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, ularni yagona didaktik tizim – raqamli vositalar agregatori asosida integratsiyalash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot raqamli vositalarni metodik jihatdan asoslangan holda yagona agregator tizimiga birlashtirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida chet tilini o‘qitishni raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash masalasi so‘nggi yillarda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika va kasbiy tayyorgarlik integratsiyasini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bermoqda.

Botirova Zebo Xakimjon qizining tadqiqotida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari kompleks tahlil qilingan. Muallifning ta’kidlashicha, “sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari bo‘lajak pedagoglarning metodik refleksiyasi, adaptiv fikrlashi va individual pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi”. Tadqiqotda kasbiy kompetensiya lingvistik bilimlar bilan bir qatorda, axborot-kommunikativ va texnologik tayyorgarlikni ham qamrab olishi zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, muallif raqamli vositalarni tizimli integratsiya qilmasdan turib, ularning pedagogik samaradorligini to‘liq ta’minlab bo‘lmasligini qayd etadi.

Anarbekova Ayjan Azizbek qizining tadqiqotida esa raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi asoslangan. Muallifning qayd etishicha, “raqamli muhitda tashkil etilgan sinxron va asinxron muloqot shakllari talabalarning nutqiy faolligini oshirib, real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi”. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiya sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlar birligi sifatida talqin qilinadi hamda onlayn hamkorlik platformalari ushbu komponentlarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholanadi. Muallif raqamli muhitning sotsial-konstruktivistik xususiyatlarini asoslab, bilim almashinuvi jarayonining interaktiv xarakter kasb etishini ilmiy jihatdan izohlaydi.

Uchqurova Shahnoza Shavkat qizining tadqiqotida chet tilini egallash jarayonida talabalarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini raqamli kontentlar asosida takomillashtirish masalasi o‘rganilgan. Muallifning ta’kidlashicha, “ta’limiy raqamli kontentlar talabalarning metakognitiv strategiyalarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini rejalashtirish va refleksiya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi”. Tadqiqot natijalari raqamli resurslardan maqsadli va tizimli foydalanish talabalarning akademik mustaqilligi va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Muallif, ayniqsa, individual feedback mexanizmlarining mustaqil o‘rganish jarayonidagi rolini alohida e’tirof etadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar

quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy asoslangan:

– kasbiy kompetensiyani sun’iy intellekt asosida rivojlantirish;

– leksik kompetensiyani raqamli muhitda shakllantirish;

– kommunikativ kompetensiyani interaktiv platformalar orqali rivojlantirish;

– mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini ta’limiy raqamli kontent asosida takomillashtirish.

Biroq mazkur izlanishlarning aksariyati ma’lum bir kompetensiya yoki metodik komponent doirasida olib borilgan bo‘lib, turli raqamli vositalarni yagona metodik tizim – raqamli vositalar agregatori shaklida integratsiyalash masalasi kompleks yondashuv asosida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlanmalarni umumlashtirgan holda, nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalariga chet tilini o‘qitishda raqamli vositalarni yagona agregator modeliga birlashtirishning nazariy asoslari va amaliy samaradorligini aniqlashga qaratilganligi bilan ilmiy yangilik kasb etadi.

Mazkur tadqiqot aralash metodologiya (mixed-methods approach) asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida sifat va miqdoriy tahlil usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqot nofilologik oliy ta’lim muassasasining 1-bosqich talabalarini qamrab oldi. Umumiy ishtirokchilar soni 60 nafar bo‘lib, ular tasodifiy tanlash asosida tajriba guruhi (30 nafar) va nazorat guruhiga (30 nafar) ajratildi.

Diagnostik bosqich – talabalar bilim darajasi va kommunikativ kompetensiyasi aniqlash uchun kirish testi va so‘rovnoma o‘tkazildi.

Amaliy bosqich – tajriba guruhida chet tilini o‘qitish jarayoni raqamli vositalar agregatori asosida tashkil etildi.

Nazorat bosqichi – yakuniy test va tahlil orqali natijalar solishtirildi.

Raqamli vositalar agregatori modeli

Agregator quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oldi:

LMS platforma (Google Classroom) – o‘quv materiallarini boshqarish;

Quizlet – kasbiy leksikani mustahkamlash;

Kahoot – interaktiv baholash;

ChatGPT yoki AI chatbot – yozma nutq va feedback;

YouGlish – talaffuz va autentik nutq namunalari;

Grammarly – yozma ishlarni avtomatik tahrirlash.

Ushbu vositalar metodik jihatdan yagona o‘quv sikliga integratsiyalandi (pre-task, while-task, post-task bosqichlari asosida).

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish usullari:

– kirish va yakuniy test natijalarini statistik tahlil qilish;

– so‘rovnoma natijalarini foizli ko‘rsatkichlarda aniqlash;

– talabalarning yozma ishlari va og‘zaki chiqishlarini mezonli baholash;

– taqqoslama tahlil (tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida).

Natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, samaradorlik darajasi aniqlashtirildi.

Amaliy bosqich yakunida o‘tkazilgan nazorat testlari natijalari esa tajriba guruhida ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Xususan:

– kommunikativ kompetensiya ko‘rsatkichlari 22 foizga oshdi;

– kasbiy yo‘naltirilgan leksik birliklarni o‘zlashtirish darajasi 25 foizga yaxshilandi;

– yozma nutq sifat ko‘rsatkichlari (grammatik aniqlik, mantiqiylik, terminologik to‘g‘rilik) 18 foizga oshdi;

– mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining shakllanish darajasi so‘rovnoma natijalariga

ko‘ra 30 foizga yuqoriladi.

Nazorat guruhida esa an’anaviy metod asosida o‘qitish davom ettirilganligi sababli o‘sish ko‘rsatkichi nisbatan past bo‘ldi (o‘rtacha 8–10 foiz).

Statistik tahlil natijalari (taqqoslama foiz ko‘rsatkichlari va o‘rtacha ball dinamikasi) tajriba guruhida o‘zgarishlar sezilarli ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa raqamli vositalarni yagona agregator tizimiga integratsiyalash o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi. Shuningdek, sifat tahlili natijalari talabalar tomonidan quyidagi omillar ijobiy baholanganini ko‘rsatdi:

– tezkor va individual feedback olish imkoniyati;

– interaktiv topshiriqlar orqali faol ishtirok;

– kasbiy kontekstga mos autentik materiallardan foydalanish;

– o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya imkoniyatining mavjudligi.

Olingan natijalar raqamli vositalar agregatori asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos kelishini ko‘rsatadi. Xususan, kommunikativ va kasbiy kompetensiyaning integrativ rivojlanishi kuzatildi.

Umuman olganda, natijalar raqamli vositalar agregatori nofilologik oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodik model ekanligini ko‘rsatdi. Kelgusida mazkur modelni sun’iy intellekt asosidagi adaptiv algoritmlar bilan boyitish va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish istiqbolli yo‘nalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anarbekova A. A. (2023). Raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi 13.00.02. Avtoref. PhD dis. GulDU, 59 bet.

2. Bergmann J., & Sams, A. (2012). Flip your classroom: Reach every student in every class every day. International Society for Technology in Education.

3. Botirova Z. X. (2023). Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi (ingliz tili misolida) 13.00.02. Avtoref. DSc dis. NamDU, 89 bet

4. Dörnyei Z. (2001). Motivational strategies in the language classroom. Cambridge University Press.

5. Madmusayev J. M. (2022). Raqamli ta’lim muhitida talabalarga ingliz tili leksikasini o‘rgatish metodikasi (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida) 13.00.02. Avtoref. PhD dis. NamDU, 68 bet.

6. Selwyn N. (2016). Education and technology: Key issues and debates (2nd ed.). Bloomsbury Academic.

7. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10

8. Srnicek N. Platform Capitalism. – Cambridge: Polity Press, 2017. – 254 p.

9. Uchqurova Sh. Sh. (2023). Chet tilni egallashda talabalarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini ta’limiy raqamli kontentlar asosida takomillashtirish 13.00.06. Avtoref. PhD dis. TDPU, 47 bet.

10. Parker G., Van Alstyne M., Choudary S. Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy. – New York: W.W. Norton & Company, 2016. – 352 p.

Arujan KARIMOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, talaba

ADABIY TA’LIMDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘QITISHNING METODIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarini o‘qitish muammolari va badiiy asarni o‘qitishning ayrim usullari yoritib berilgan. Shuningdek, muallif adabiyot darslarida asarni o‘rganishda qo‘llaniladigan samarali o‘qitish metodlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Mustaqil firklash, esetik did, dunyoqarash, metod, loyha metodi, ijodiy o‘qish metodi, evristik metodi, tadqiqot metodi.

В статье освещены проблемы преподавания образцов мировой литературы в общеобразовательных школах и некоторые методы преподавания художественных произведений. Также автор остановился на некоторых эффективных методах обучения, используемых при изучении произведения на уроках литературы.

Ключевые слова. Самостоятельное мышление, эстетический вкус, мировоззрение, метод, проектный метод, метод творческого чтения, эвристический метод, метод исследования.

The article highlights the problems of teaching examples of world literature in general education schools and some methods of teaching literary works. The author also touched upon some of the effective teaching methods used in literature lessons when studying a work.

Key words. Independent thinking, aesthetic taste, worldview, method, design method, creative reading method, heuristic method, research method.

Zamonaviy maktab olidada turgan vazifalardan biri yosh avlodni axloqiy-ma’naviy va estetik tarbiyalash masalasi bo‘lib, bunda adabiyot fani yetakchilik qilishi hech kimga sir emas. Adabiyot fanining vazifasi – o‘quvchilarni milliy va jahon adabiyoti namunalari bilan tanishtirish negizida ularning badiiy didini o‘stirish, millat va insoniyat hayotida o‘ziga xos o‘rin egallaydigan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tasavvurlarini shakllantirishdir. Adabiyot madaniyatning bir qismi sifatida aynan umuminsoniy qadriyatlarni amalga oshirishga yordam beradigan fandir.

Hozirgi paytda umumta’lim maktablarida xorij adiblari ijodini o‘rganishidagi muammolar o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishning susayishi va adabiyot dasturiga kiritilgan jahon adabiyoti namunalarini o‘qitishda metodik adabiyotlarning deyarli yo‘qligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda adabiyot darslarida jahon adabiyoti durdonalariga murojaat qilish imkoniyatiga ega.

Hozirgi kunda maktablarda jahon adabiyoti namunalarini o‘qitishning asosiy muammosi shundaki, “Maktablarda jahon adabiyoti namunalari qay tarzda o‘qitilmoqda?”, “Ularni o‘qitishda o‘qituvchi qaysi usul va metodik adabiyotlarga suyanadi?” kabi savollarga javob topishdan iborat. Afsuski, ushbu savollarga javob topish ancha murakkabdir. Chunki, jahon adabiyoti namunalarini o‘qitish bo‘yicha deyarli metodik adabiyotlar yo‘q. Shu bilan birga ilmiy-metodik juranlarda ham bu masalaga deyarli e’tibor yo‘q. Bu esa o‘z navbatida ushbu masalaning bugungi kunda naqadar dolzarb

ekanligining isbotidir.

Kuzatishlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, maktabda jahon adabiyoti namunalarini o‘qitish boshlang‘ich sinfdan boshlanib, o‘rta va yuqori sinflarda bir necha yo‘nalishlarda o‘rganilishining guvohi bo‘ldik. Ular xalq og‘zaki ijodi bilan hamohang adabiy ertaklardan, lirik she’rlar va nasriy asarlardan iborat. Ya’ni, o‘quv dasturining aksariyat qismida turli hil hajmda bo‘lsa ham, jahon adabiyoti namunalari kiritilgan degan xulosaga keldik.

Adabiyot kursining vazifalaridan biri bu adabiyotning faol tarbiyaviy ro‘li orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishdir. Shuning uchun taklif etilayotgan matnlar o‘quvchilarni o‘z fikrini bildirishga, o‘z nuqtayi nazarlarini qo‘llab-quvvatlashga undashi kerak. Bu muammoni hal etishda ma’lum bir darajada jahon adabiyoti namunalarini o‘rganish ham alohida o‘rin tutadi.

Adabiyot o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilarning milliy adabiyotimiz bilan bir qatorda jahon adabiyotiga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, o‘qitish, mutolaa qilish asosida o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini va estetik didini shakllantirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarning yechimini topishga undash, yosh kitobxonlarning dunyoqarashini kengaytirishdan iborat. Agarda jahon adabiyoti namunalari o‘quvchilarning mutolaa doirasidan tushib qolar ekan, bu muammoni ijobiy hal etishning imkoniyati bo‘lmaydi. Bu esa maktab o‘qituvchisi oldiga bir qator yechimini topish zarur bo‘lgan muammolarni ko‘ndalang qiladi. Chunki o‘qituvchi, avvalo, jahon adabiyoti namunalarini o‘qitishning samarali metodlarini ham o‘zi bilishi, ham o‘quvchisiga tushuntira olishi zarur.

Quyida biz adabiyot darslarida asarni o‘rganishda qo‘llaniladigan samarali o‘qitish metodlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

1. Loyiha metodi. Ushbu metod o‘quvchilarni faol mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, maktabda olgan bilimlarini yodda saqlash va takrorlashga, shuningdek, olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishga qaratilgan. Loyiha ustida ishlash jarayonida o‘quvchi o‘zini mustaqil shaxs sifatida namoyon etadi. Bu metodning afzallik tomoni shundaki, o‘qituvchi o‘quvchilarni loyiha ustida ishlashga tayyorlaydi, mavzuni tanlashga va reja tuzishga o‘rgatadi, shuningdek, loyiha ustida ishlash paytida o‘quvchilarni nazorat qiladi va maslahatlar beradi. Ushbu metodning asosiy maqsadi – loyiha ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarni faol aqliy faoliyatga o‘tkazishdir.

2. Ijodiy o‘qish metodi. Bu adabiyot darslarida mavzuni yoritib berishda katta xarakterga ega. Ushbu metod badiiy matnni o‘qishning barcha turlarini o‘z ichiga qamrab oladi. So‘z, ibora va ritmga e’tibor berishga, ifodali o‘qish va yozishga, badiiy qobiliyatlarini shakllantirishga, adabiy so‘zni tinglash va idrok qilishni, so‘zni qadrlash va undan zavqlanishga o‘rgatadi.

Ijodiy o‘qish metodining qo‘yidagi turlari mavjud:

– o‘qituvchining ifodali o‘qishi;

– badiiy so‘z ustalarning ifodali o‘qishi;

– o‘quvchining ifodali o‘qishi;

– o‘qiganlari haqidagi taa’ssurotlarni suhbat asosida mutolaa qilish.

3. Evristik metod – asar muallifi tomonidan ilgari surilgan axloqiy, badiiy, ijtimoiy yoki falsafiy muammolarni aniqlash asosida matnni o‘rganish.

O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarga ushbu muammolarni izlab topshiga yordam berish va badiiy matn asosida yechimini topishga ko‘maklashishi.

Shuningdek, badiiy matnni tahlil qilishga, uning tarkibiy qismlarning xilma-xilligi mohiyatini tushuntirishga. Asarning kompozitsiya va syujeti tamoyillarini tahlil qilishga, fikrlarni izchil, ketma-ketlikda, dalillarga asoslangan holda javob berishga o‘rgatadi.

Maktab tajribasida jahon adabiyoti namunalarini o‘qitishda eng samarali metodlardan biri – evristik metod. Chunki, ushbu metod yordamida ma’lum bir asarni tahlil qilar ekanmiz, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosi va estetik didini shakllantirishga, ularni faol fikrlashga, muammolarning yechimini topishga, badiiy nutqini boyitishga, maxsus lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga erishgan bo‘lamiz. Shuningdek, loyiha, ijodiy o‘qish, tadqiqot metodlari ham jahon adabiyoti namunalarini har tomonlama o‘rganishga yordam beradi.

4. Tadqiqot metodi. Bu metod o‘rganilayotgan mavzuning dars jarayonida muhokama qilinmagan ba’zi yangi qirralarini ochib beradi. Ko‘pincha yuqori sinflarda qo‘llaniladi. Ushbu metodning afzalliklari – asarni mustaqil tahlili qilishga, asarlarni bir-biri bilan taqqoslashga, badiiy dini o‘stirishga, savollarga mustaqil ravishda javob topishga, keltirilgan dalillarni saralab, to‘g‘ri javobni topishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytgandai, adabiy ta’lim jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, badiiy-estetik tafakkurini o‘stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, badiiy matn mazmunini ilmiy-mantiqiy o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Abduvalitov N. B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyotini o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. buy. fals. dok.(PhD)... diss. (2021).

2. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: “Fan”, 2006.

3. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: “Kamalak”, 2016. – 464 b.

Feruzaxon SULTONOVA,
Andijon davlat texnika instituti, katta o‘qituvchi

FIZIKA FANINI SHAKLLANISHIDA OSIYO ALLOMALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarga fizika fanini o‘qitishda fizikaviy jarayonlarni o‘rganish tarixi, ularning xususiyatlari, turlari, ularni tashkil qilish va o‘tkazilishining didaktik va tashkiliy muammolari, o‘quvchilarning fizikani asosan mustaqil o‘rganishi, ya’ni o‘quvchilarning mustaqil faoliyati bo‘yicha aspektlar, fizika tarixini o‘rganishdagi pedagogik, ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili keltirilgan. Shuningdek, fizika tarixini o‘rganishga oid ilmiy ishlarning mazmuni va o‘rganilganlik darajasi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Fizikaviy jarayonlari, areometr, aspektlar, sivilizatsiya, mukammallashgan texnika, suv ta’minoti, ensiklopediya.

В статье представлен анализ истории изучения физических процессов в преподавании физики учащимся, их особенностей, видов, дидактических и организационных проблем их организации и проведения, самостоятельного изучения учащимися физики, то есть аспектов самостоятельной деятельности учащихся, педагогической, научной и научно-методической литературы по изучению истории физики, а также научно-исследовательских работ. Также освещены содержание и степень изученности научных работ по изучению истории физики.

Ключевые слова. Физические процессы, ареометр, аспекты, цивилизация, совершенная техника, водоснабжение, энциклопедия.

The article presents an analysis of the history of studying physical processes in teaching physics to students, their characteristics, types, didactic and organizational problems of their organization and implementation, aspects of students’ main independent study of physics, i.e., aspects of students’ independent activity, pedagogical, scientific and scientific-methodological literature on the study of the history of physics, as well as scientific research works. The content and degree of study of scientific works on the study of the history of physics are also highlighted.

Key words. Physical processes, hydrometer, aspects, civilization, advanced technology, water supply, encyclopedia.

Fizika tarixini umumiy o‘rta ta’lim maktablarda yetarli darajada o‘quvchilarning o‘zlashtirishi uchun imkoniyatlari yetarli emasligi ta’kidlangan. Bunda, birinchidan, fizikani o‘quv jarayonida o‘rganish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining kamligi bo‘lsa, ikkinchidan, o‘quv vositalari: ma’lumotnomalar, o‘quv qo‘llanmalari, ensiklopediya va boshqalarning yetarli darajada bo‘lmasligidir.

Fizika tarixini o‘rganish va shu asosda o‘quvchilardagi ma’naviy va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan. Mavjud ilmiy, ilmiy-uslubiy hamda uslubiy adabiyotlarni tahlilidan quyidagi muammolar mavjud va ularni hal qilish uslub, usul va vositalarini yaratish kerakligini ta’kidlandi:

– o‘quvchilarning o‘quv adabiyotlarini hamda qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash va o‘zlashtirish, tahlil qilish malakasining yetarli darajada emasligi;

– o‘quvchilarning fizika tarixini mustaqil o‘rganishlari uchun ma’lumotlarning yetarli emasligi;

– fizika tarixini o‘rganishda adabiyotlardan foydalanish, qisqacha annotatsion konspekt yozish va xulosalar qilish ko‘nikmasining yetarli emasligi;

– o‘quvchilarning bilimini fizika tarixidan xolisona baholash tizimining yo‘qligi.

Shularni zikr qilgan holda bugungi kunda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, fizika tarixini o‘rganishi uchun zarur bo‘lgan hamda didaktik tamoyillarga javob beruvchi o‘quv qo‘llanmani yaratish, ularni qo‘llanish metodikasini ishlab chiqish va amalga oshirish dolzarb ilmiy – pedagogik hamda tashkiliy muammo bo‘lib qolmoqda va bu muammoni hamda yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish mazkur dissertatsiya ishining asosiy vazifasi bo‘ldi.

Tadqiqot ishining ushbu bo‘limida o‘quvchilarning ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarni fizika tarixini o‘rganish ko‘nikmasini shakllantirish omillari bayon qilingan. Juda katta keng qamrovli amaliy bilimlarning va texnik ko‘nikmalarning mavjudligi va to‘planishi hamda o‘sha davr uchun yuqori hisoblangan madaniyat tili miloddan avvalgi IV asrlarda Gretsiyada tabiat hodisalarini yozish, ma’lumotlarni tartibga keltirish va tushuntirish uchun imkon berdi. Buning atrofida, hozirgi kunda, “Fizika” deb ataladigan fanning yuzaga kelishiga asos yaratildi. Amaliy bilim va texnik ko‘nikma Yunonlarga ulardan ham qadimiy bo‘lgan Misr, Xitoy va Hind xalqlaridan kelgan. Eramizdan 3000 yil avvaldan pishiq g’isht, kulolchilik, g’ildirakli narvonlar kabi ixtirolar yetib kelgan. Bu ixtirolarni qo‘llash texnika tarixida birinchi ishlab chiqarish revolyutsiyasi nomi bilan iz qoldirgan. Bir muncha keyinroq esa metallar eritish va qayta ishlash, yelkanli va eshkakli qayiqlar ixtiro qilindi, omoch, tarozi, burchak o‘lchash moslamalari, sirkul kabi ishlab chiqarish asbob anjomlari yaratildi. Eramizdan avvalgi 2000-1000-yillarda temirchilik bosqonlari, richag, pona, ko‘tarish moslamalari, bloklar, suv soatlari ixtiro qilindi. O‘zbek olimlari, Xitoy olimlarining taraqqiy ishlari fizik asbob uskunalar yasalishi bilan qator tabiat hodisa va jarayonlarini tushuntirishda harakat qilindi. Lekin bu ma’lumotlar adabiyotlarda yetarlicha berilmagan.

Fizika fani ham nazariy, ham eksperimental fan bo‘lgani uchun fizik ashyolarining kashf qilinishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritildi. Shuningdek, kompos, g’ildirak, termometr, tarozi va uning toshlari, areometr, xom ashyolar sifatida foydalanilgan porox, shisha va qimmatbaho toshlarning fizikaviy xususiyatlarini o‘rganishda ularning yaratgan asarlarini tahliliy o‘rganish maqsadga muvofiq.

Pedagogik tajriba sinovning maqsadi – ishlab chiqilgan va chop etilgan ilmiy-tadqiqot natijalari hamda “Fizika fanini shakllanishida Osiyo allomalarning o‘rni” nomli monografiyani o‘quvchilarning fizikadan bilimlarini orttirishdagi hamda ularning mustaqil faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Pedagogik tajriba sinovning 3 ta tajriba maydonida olib borildi.

Pedagogik tajriba sinovning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

1. Yaratilgan monografiya hamda ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy ishlarni o‘quvchilarni fizikani tarixini mustaqil o‘rganish sharoitida qo‘llash imkoniyatlari va samarasini hamda o‘quvchilarning fizikani tarixini o‘zlashtirish darajasigi rolini tekshirib ko‘rish.

2. Yaratilgan monografiya hamda metodikalarning fizika ta’limida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishi nazarda tutilgan.

Pedagogik tajriba sinovi o‘tkazildi. Har bir bosqichda tadqiqot muammolari buyicha o‘quv adabiyotlar, qo‘shimcha adabiyotlar, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi, o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazildi, o‘quvchilarning mustaqil ishlari muammolari bo‘yicha anketa so‘roqlar o‘tkazilib, ular tahlil qilindi, pedagogik tajriba sinovning o‘tkazish tartibi va metodikasi aniqlashtirildi, pedagogik tajriba sinovning o‘tkaziladigan muassasada o‘qituvchilar tarkibi aniqlandi, o‘quvchilar bilan suhbat va maslahatlar tashkil qilindi, mustaqil ishlar tashkil qilindi, uy-tajriba vazifalari berildi, nazorat ishlari olindi,

o‘quvchilar o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha baholandi, olingan natijalar matematik- statistik qayta ishlanib pedagogik tajriba sinovning maqsadlari aniqlashtirildi.

Pedagogik tajriba sinovning yakunlovchi bosqichi o‘quvchilarning fizikani tarixini o‘rganish metodikasining aprobatsiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda tajriba guruhidagi o‘quvchilar fizikani o‘qitishda ‘‘Fizika fanini shakllanishida Osiyo allomalarning o‘rni’’ nomli monografiya asosida ma’lumotlar bilan tanishdilar, shu jumladan qiyinchilik darajasi har xil bo‘lgan test vazifalarini hal qilishdi.

Pedagogik eksperiment jarayonida o‘quvchilarning tarixiy materiallarini o‘rganish va ular bo‘yicha test vazifalarini bajarish orqali tashkil qilindi. O‘quvchilarning darsdagi faoliyatini o‘rganish bo‘yicha uslubiy ishlanmalar amalda sinab ko‘rildi. 9-sinf o‘quvchilari uchun qo‘shimcha qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan “Fizika fanining shakllanishida Osiyo allomalarining o‘rni” monografiyasi asosida suhbat o‘tkazildi va prezentatsiya namoyish qilindi. O‘quvchilarga tanishib chiqishlari uchun taqdim qilindi. Bu asosida tuzilgan test variantlari berildi va bu variantlar asosida 15 ta savoldan iborat bo‘lib, baho tizimida tekshirildi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tajriba-sinov ishlarini Andijon viloyati, Namangan viloyati va Sirdaryo viloyati maktablarida olib borildi. Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha so‘rovnomalar yuzasidan shu bobda berilgan statistik ma’lumotlarni matematik statistik tahlil qilish uchun umumlashgan dastlabki va yakuniy javoblari viloyatlar kesimida keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqich va yakuniy bosqich natijalari (viloyatlar kesimida)

Tajriba-sinov maydonlari	Guruhlar	O`quvchilar soni	Baholash mezonlari							
			“5”- baho		“4”- baho		“3”- baho		“2”- baho	
			d.b.	ya.b.	d.b.	ya.b.	d.b.	ya.b.	d.b.	ya.b.
Andijon viloyati	Tajriba guruhi	58	6	18	15	21	26	12	11	7
	Nazorat guruhi	56	6	3	13	19	27	27	10	7
Namangan viloyati	Tajriba guruhi	56	5	17	12	24	31	10	8	5
	Nazorat guruhi	52	5	5	11	15	25	23	11	9
Sirdaryo viloyati	Tajriba guruhi	64	9	22	17	24	25	14	13	4
	Nazorat guruhi	68	7	6	16	14	33	36	12	12
Jami	Tajriba guruhi	**178**	20	**57**	44	**69**	82	**36**	32	**16**
	Nazorat guruhi	**176**	18	**14**	40	**48**	85	**86**	33	**28**

Izoh: d.b. – dastlabki bosqichda, ya.b. – yakuniy bosqichda

Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichdagi statistik ko‘rsatkichlar taqqoslandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval. Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichdagi ma’lumotlarning solishtirma jadvali


Tajriba guruhi	**Tadqiqot obyektlari**	“5”- baho	“4”- baho	“3”- baho	“2”- baho	Jami
	Andijon viloyati	6	15	26	11	58
	Namangan viloyati	5	12	31	8	56
	Sirdaryo viloyati	9	17	25	13	64
	Jami	**20**	**44**	**82**	**32**	**178**
Nazorat guruhi	**Tadqiqot obyektlari**	“5”-baho	“4”-baho	“3”-baho	“2”-baho	Jami
	Andijon viloyati	6	13	27	10	56
	Namangan viloyati	5	11	25	11	52
	Sirdaryo viloyati	7	16	33	12	68
	Jami	**18**	**40**	**85**	**33**	**176**

Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqich natijalar tahlili (son va foizlarda)keltirildi (3-jadval).

3-javal. Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqich (d.b.) natijalar tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)			
		“5”- baho	**“4”- baho**	**“3”- baho**	**“2”- baho**
Tajriba guruhi	178	20 11	44 25	82 46	32 18
Nazorat guruhi	176	18 8	40 27	85 44	33 21

Tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi. Bu jadval asosida diagramma quyidagi ko‘rinishni oldi.



Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichdagi natijalarining diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, yakuniy bosqichda nazorat guruhidagi 5 va 4 baho ko‘rsatkichlari dastlabki bosqichdagi nazorat guruhi ko‘rsatkichlari orasidagi farq

sezilarli emas ekan.

Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichdagi statistik ko‘rsatkichlarning taqqoslandi (4-jadvalga qarang):

4-jadval. Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo`yicha tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichdagi natijalarni solishtirma jadvali


Tajriba guruhi	Tadqiqot obyektlari	“5”- baho	“4”- baho	“3”- baho	“2”- baho	Jami
	Andijon viloyati	18	21	12	7	58
	Namangan viloyati	17	24	10	5	56
	Sirdaryo viloyati	22	24	14	4	64
	Jami	**57**	**69**	**36**	**16**	**178**
Nazorat guruhi	Tadqiqot obyektlari	“5”- baho	“4”- baho	“3”- baho	“2”- baho	Jami
	Andijon viloyati	3	19	27	7	56
	Namangan viloyati	5	15	23	9	52
	Sirdaryo viloyati	6	14	36	12	68
	Jami	**14**	**48**	**86**	**28**	**176**

Endi Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba va nazorat guruhi tajriba-sinov natijalarining yakuniy tahlilini keltiriladi (5-jadval).

5-jadval. Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining yakuniy tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)			
		“5”- baho	**“4”- baho**	**“3”- baho**	**“2”- baho**
Tajriba guruhi	178	57 32	69 39	36 20	16 9
Nazorat guruhi	176	14 8	48 27	86 49	28 16

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan yakuniy bosqichda tajriba guruhidagi talabalarning dastlabki bosqichdagi tajriba guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.



Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi asosida rivojlanganlik diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, yakuniy bosqichda tajriba guruhidagi 5 va 4 baho ko‘rsatkichlari nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda tajriba yakunida statistik ko‘rsatkichlarning o‘rta qiymati, tanlanma dispersiya, variasiya ko‘rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari quyidagi jadvalda aks ettirildi (6-jadval).

6-jadval. Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko‘rsatkichlari

$\overline{X}$	$\overline{Y}$	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
3,94	3,27	0,8764	0,6771	1,79	1,89	7,44	352	53,57	0,14	0,12

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lum $\overline{O}$ =3,94; $\overline{Y}$ =3,27; $\Delta_x = 0,14;\ \Delta_y = 0,12$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

O‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$\hat{E}_{\text{óñá}} = \frac{(\overline{X} - \Delta_x)}{(\overline{Y} + \Delta_y)} = \frac{3,94 - 0,14}{3,27 + 0,12} = \frac{3,80}{3,39} \approx 1,12 > 1;$$

Bilish darajasini ko‘rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$\hat{E}_{\text{áãä}} = (\overline{O} - \Delta_x) - (\overline{Y} - \Delta_y) = (3,94 - 0,14) - (3,27 - 0,12) = 3,80 - 3,15 = 0,65 > 0;$$

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligi bilan ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, Osiyoda fizika tarixi, mazmuni va o‘qitish metodikasi bo‘yicha tajriba guruhlaridagi o‘zlashtirish nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan.

Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan xulosalar tajriba-sinov ishlari samarador(13,4 foizga) ekanligini va bizning ko‘zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari hamda o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinovlari asosida quyidagi xulosalar qilish mumkin:

Osiyoda fizika fanining shakllanishidagi Osiyo allomalarining ilmiy ishlari, qo‘lyozma, tarjima nusxalari, ular haqida o‘rgangan olimlarning ilmiy-uslubiy-tarixiy ishlari tahliliy o‘rganildi va Osiyo allomalarining ilmiy qarashlari va ishlari tizimli o‘rganilishi kerakligi asoslandi.

Osiyo allomalarining Fizika bo‘yicha izlanishlari va dunyoqarashlari mualliflar kesimida o‘rganildi. Al-Xoziniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xaysam, Umar Xayyomlarning ilmiy faoliyatining yo‘nalishlari va ularning yaratgan asarlarini o‘quvchi va talabalarning qisqa vaqtda o‘rganishlari va eslab qolishlari uchun integrativ shaklda yoritildi.

Osiyo allomalarining asarlari diagramma shaklda, integrativ ko‘rinishda tavsiflanib, ularda ko‘rilgan masalalar va g‘oyalar yoritildi.

Osiyo allomalari tomonidan kashf qilingan va yaratilgan yangiliklar alohida mavzular: Poroxning yaratilishi, Kompasning kashf qilinishi, Pallali tarozi va tarozi toshlari-

ning yaratilish tarixi, Shishaning yaratilishi, Minerallarning kashf qilinishi va qo‘llanilishi tarixlari yoritildi va barcha o‘quv bosqichlarida o‘rganish uchun qulay, imkoniyatli darajada yoritildi.

Osiyoda fizika bo‘limlari: mexanika, molekulyar fizika, elektr va magnetizm hamda optika bo‘limlarining shakllanishi, ya’ni fizikani uning bo‘limlari bo‘yicha shakllanish tarixi tavsiflandi.

Demak, Osiyo allomalarining ilmiy tadqiqotlari mualliflar, fizika fanining bo‘limlari va ayrim kashfiyotlar kesimida yoritildi va bu “Fizika tarixi”ni har xil metodik usullarda o‘qitish va o‘rgatishga shart-sharoit yaratildi.

Ta’limning barcha bosqichlarida “Fizika tarixi” materiallaridan foydalanish va bunda o‘quvchi va talabalarni allomalarning og‘ir sharoitlarda qilgan ilmiy faoliyatlarini yoritish tavsiya qilinadi. Shuningdek, fizika ma’ruza darslarida mavzular va bo‘limlar kesimida berilgan integrativ materiallardan, mustaqil ta’limda esa mualliflar hamda mavzular kesimida berilgan materiallardan foydalanish taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunmetov K.A., Sultonova F.M. How to achieve competitive Quality education- international experience and Uzbekistan education. // Journal of Pharmaceutical Negative Results. Volume 14, Issue 3,2023. 3610-3613.

2. Sutonova F.M. Composs and the history of its invention. // Norwegian journal of development of the international science. 7/2017. 63-66.

3. Sultonova F.M. Prospects for training and development of educational skills. European journal of Research and Reflection and educational sciences. 8/2020. 37-38.

4. Sultonova F.M., Gulomov F. Student engagement in online learning: whwt it means to students. ERPA Internetional journal of multidisciplinary research. Volume 6, issue 12. 2020. 99-102.

5. Tursunmetov K.A., Sultonova F.M. Abu Ali Ibn Sinoning fizika fani shakllanishidagi o‘rni. // “Xalq ta’limi” jurnali 2/2022. Toshkent. 64-68 b.

6. Sultonova F.M. Osiyoda fizika fanining shakllanish bosqichlarini o‘rganish va ularning mazmuni. // “Mashinasozlik” ilmiy texnik jurnali. 5-son (maxsus son) I tom 2022 yil. Andijon. 380-383 b.

7. Tursunmetov K.A., Sultonova F.M. Tarozi toshlarining shakllanish tarixi. // “Fan va jamiyat” jurnali. 3/2022. 67-69 b.

8. Tursunmetov K.A., Sultonova F.M. Fizika fanini shakllanishida Osiyo allomalarining o‘rni. // Journal of new century innovations. Volume 18. Issue 5. 2022. 18-19 b.

9. Tursunmetov K.A., Sultonova F.M. History of the formation optics. // Asian Journal of research in social Sciences and Humanities. Volume 8. Issue 5. 2022.

10. Tursunmetov K.A., Sultanova F.M. Istorii formirovanii optiki. // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyayalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 16/2023. 275-283 b.

11. F. Sultonova. Fizika ta’limini rivojlantirishda allomalarning tutgan o‘rni.// Eurasian Journal of technology and innovation. Volume 1. Issue 2. 2023. 66-69.

12. Sultonova F.M. Fizika fanining rivojlanish bosqichlari. “Nauchniy impuls” 8(100), 2023. 518-523.

13. Sultonova F.M. Tarozi va og’irlik o‘lchovlarining takomillashishida Osiyo allomalarining qo‘shgan hissalari. // “Fizika, matematika va informatika”. 3/2021. 65-71 b.

Ziyodulla BOBOMURODOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedrasi, mudir

OLIY TA’LIMDA QALAM TASVIRNI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA RUBRIKALI BAHOLASH

Annotatsiya

Maqolada universitetlarda tasviriy pedagogika yo‘nalishida qalamtasvir fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Qalamtasvir bo‘yicha nazariy bilimlar (konstruktsiya, proporsiya, perspektiva, yorug‘-soya, faktura) hamda amaliy ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik model taklif etiladi. Shuningdek, model kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvga tayangan holda “kuzatish–tahlil–konstruktsiya–tonal yechim–refleksiya” ketma-ketligi asosida tashkil etiladi.

Tayanch so‘zlar. Qalamtasvir, o‘qitish metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv, akademik rasm, rubrika, portfolio.

В статье освещаются вопросы совершенствования методики преподавания рисования в направлении изобразительной педагогики в университетах. Предлагается методическая модель, служащая поэтапному формированию теоретических знаний по рисунку карандашом (конструкция, пропорция, перспектива, свет-тень, фактура) и практических навыков. Также модель организуется на основе последовательности «наблюдение-анализ-конструкция-тональное решение-рефлексия» с опорой на компетентностный и деятельностно-ориентированный подход.

Ключевые слова. Рисунок карандашом, методика обучения, компетентностный подход, академический рисунок, рубрика, портфолио.

The article highlights the issues of improving the methodology of teaching drawing in the field of visual pedagogy at universities. A methodological model is proposed that serves the phased formation of theoretical knowledge (construction, proportion, perspective, light and shadow, texture) and practical skills in pencil drawing. Also, the model is organized based on the sequence “observation-analysis-construction-tonal solution-reflection,” relying on a competency-based and activity-oriented approach.

Key words. Drawing, teaching methodology, competency-based approach, academic drawing, section, portfolio.

Oliy ta’lim tizimida tasviriy pedagogika yo‘nalishida bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayoni qalamtasvir fanini chuqur o‘zlashtirishni talab qiladi. Qalamtasvir – tasviriy san’atning poydevori bo‘lib, u talabaning shaklni ko‘rish, tahlil qilish va qurish madaniyatini, proporsiya hamda perspektiva qonuniyatlarini amalda qo‘llash, yorug‘-soya orqali hajmni ifodalash, chiziq va ton vositasida obraz yaratish kompetensiyalarini shakllantiradi. Shuning uchun qalamtasvirni o‘qitish metodikasi faqat “ko‘chirib chizish” emas, balki kuzatish va mantiqiy konstruksiyaga tayangan professional faoliyat tizimi bo‘lishi zarur.

Amaliyotda uchraydigan muammolardan biri – mashg‘ulot mazmunining bosqichliligi yetarli darajada rejalashtirilmasligi: talaba perspektiva-konstruksiya asoslarini mustahkamlab ulgurmasdan, murakkab naturaga o‘tib ketadi yoki tonal yechim chiziqli qurilishdan ajralib qoladi. Yana bir muammo – baholashning subyektivligi: aniq mezon bo‘lmaganda talaba “nima uchun bal past/yuqori”ligini tushunmaydi, refleksiya susayadi.

Shunday sharoitda rubrikali baholash va portfolioga yo‘naltirilgan o‘qitish qalamtasvir ta’limi sifatini oshirishning samarali yo‘li sifatida ko‘riladi.

Mazkur maqolaning maqsadi universitetlarda qalamtasvirni o‘qitish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, mashg‘ulotlar algoritmi va rubrikali baholash tizimini taklif etishdan iborat.

2. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti

Maqsad: qalamtasvir fanini o‘qitishda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi metodik model hamda baholash rubrikasini ishlab chiqish.

Vazifalar:

– qalamtasvir bo‘yicha asosiy kompetensiyalar tarkibini aniqlash;

– mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich qurish algoritmini taklif etish;

– portfolioga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

– rubrikali baholash mezonlari orqali natijani o‘lchash mexanizmini asoslash.

Obyekt: universitetlarda tasviriy pedagogika ta’lim jarayoni.

Predmet: qalamtasvirni o‘qitish metodikasi (mazmun, metod, vosita, baholash).

3. Qalamtasvir kompetensiyalari (maqsadli natijalar)

Universitet bosqichida qalamtasvir bo‘yicha quyidagi kompetensiyalar ustuvor hisoblanadi:

Kuzatuv kompetensiyasi: naturani ko‘rish, asosiy-proportsional munosabatlarni ajratish.

Konstruktsion kompetensiya: shaklni geometrik asosda qurish, o‘qlar, tekisliklar, kesimlarni mantiqan belgilash.

Perspektiva kompetensiyasi: ufq chizig‘i, yo‘nalishlar, qisqarish qonuniyatlarini amalda qo‘llash.

Tonal kompetensiya: yorug‘-soya, yarimsoya, refleks, tushuvchi soya orqali hajmni ifodalash.

Grafik madaniyat: chiziq sifati, shtrix yo‘nalishi, faktura va materialni berish.

Refleksiya: ish jarayonini tahlil qilish, xatoni ko‘rish va tuzatish strategiyasini tanlash.

4. Taklif etilayotgan metodik model

Metodik model “kuzatish–tahlil–konstruktsiya–tonal yechim–refleksiya” ketma-ketligida quriladi:

Kuzatish: natura (yoki predmetlar guruhi)ni umumiy ko‘rish; eng katta o‘lchamlar, umumiy siluet.

Tahlil: proporsiya va nisbatlarni aniqlash; asosiy tekisliklar va o‘qlar.

Konstruktsiya: shaklni “skelet” bo‘yicha qurish (geometrizatsiya); perspektiv qisqarishlar.

Tonal yechim: yorug‘-soya xaritasini belgilash; tonlar iyerarxiyasi; material/faktura.

Refleksiya: rubrika bo‘yicha o‘zini baholash; xatolarni qayd etish; qayta ishlash.

5. Mashg‘ulotlar tizimi (bosqichma-bosqich)

5.1. 1-bosqich: chiziqli qurilish (2–3 hafta)

Mavzular: kub, prizma, silindr, konus, shar; oddiy natyurmort.

Asosiy ko‘nikma: o‘qlar, tekisliklar, konstruktiv chiziqlar; proporsiya.

Topshiriq: 10–15 daqiqalik tezkor eskizlar + 1 ta akademik ish (A3).

5.2. 2-bosqich: perspektiva va kompozitsiya (2–3 hafta)

Mavzular: 1 nuqtali/2 nuqtali perspektiva elementlari; predmetlar guruhida joylashuv.

Topshiriq: natyurmort kompozitsiyasini 3 variant eskizda topish, so‘ng yakuniy qurilish.

5.3. 3-bosqich: ton va hajm (3–4 hafta)

Mavzular: yorug‘-soya, yarimsoya, refleks, tushuvchi soya; tonlar gradatsiyasi.

Topshiriq: tonal shkala + natyurmortni 3 asosiy ton bilan bloklash, keyin noziklashtirish.

5.4. 4-bosqich: material va faktura (2–3 hafta)

Mavzular: metall, shisha, mato, yog‘och fakturasini shtrix orqali berish.

Topshiriq: bir natyurmortda kamida 2 xil material kontrasti.

5.5. 5-bosqich: pedagogik integratsiya (1–2 hafta)

Talaba o‘zi kelajakda maktabda o‘qitadigan mavzuga mos mini-dars ishlanmasi tayyorlaydi: maqsad, jarayon, ko‘rgazma, xatolar bilan ishlash, baholash mezoni.

6. Rubrikali baholash (100 ballik namunaviy mezon)

Mezon	Tavsif (qisqa)	Ball
Kompozitsiya va joylashuv	Formatdan foydalanish, markaz, muvozanat.	15
Proporsiya va konstruksiya	Nisbatlar, o‘qlar, tekisliklar, xatolarni tuzatish.	25
Perspektiva	Qisqarish, yo‘nalishlar, fazoviy mantiq.	15
Tonal yechim	Tonlar iyerarxiyasi, yorug‘-soya mantiqi, hajm.	25
Grafik madaniyat	Chiziq sifati, shtrix, tozalik.	10
Refleksiya va portfolio	Izoh, xatolar ro‘yxati, o‘sish dinamikasi.	10

Amaliy tavsiya: har topshiriqdan keyin talaba rubrika bo‘yicha 1 daqiqalik o‘z-o‘zini baholash yozadi (3–5 gap). Bu refleksiyani kuchaytiradi va baholashni shaffof qiladi.

7. Muhokama

Taklif etilgan modelning kuchli tomoni shundaki, u qalamtasvirni “bosqichli mahorat” sifatida ko‘radi: avval konstruktsiya, so‘ng ton, keyin material. Rubrikali baholash esa natijani mezonlar orqali ko‘rsatib, talabaning o‘z xatosini anglashiga yordam beradi. Portfolioga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning semestr davomida o‘sishini vizual dalillar bilan mustahkamlaydi hamda pedagogik amaliyotga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, universitetlarda qalamtasvirni o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich qurish, “kuzatish–tahlil–konstruktsiya–tonal yechim–refleksiya” algoritmini joriy etish, portfolioga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini kengaytirish hamda rubrikali baholash orqali baholashning shaffofligini ta’minlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov B.N. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “ILM ZIYO”, 2005/2013. (ISBN 978-9943-16-127-6).

2. Xo‘janiyozov Sh.R. Qalamtasvir: o‘quv qo‘llanma. – (Arxitektura va madaniy meros yo‘nalishlari uchun).

3. Shomurodov O.N. Tasviriy san’at tarixi: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2021. – 140 b.

4. Hakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi (kitob-albom). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi FA San’atshunoslik instituti, (nashr ma’lumoti bo‘yicha).

5. Kamoliddin Behzod (1455–1535) ijodi bo‘yicha ilmiy maqola va manbalar: Zokirova S.O.T.Q. “Kamoliddin Behzod – buyuk musavvir”. – 2021 (elektron manba).

6. Maxkamova Saodat Baxtiyarovna Qalamtasvir fanida grafik rassomlar ishlarini badiiy tahlil qilishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.Vol. 9 No. 1 (2026): Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali 3-10 https://wosjournals.com/index.php/ptj/issue/view/56

Sevara TOG‘AYMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

MUQOBILSIZ LEKSIKAGA VA LINGVISTIK PARADIGMAGA OID BIRLIKLARNI LUG‘ATLARDA TALQIN QILISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya prizmasi orqali muqobilsiz leksikaga oid birliklarni lug‘atlarda tadqiq etiladi. Ingliz va o‘zbek tillari misolida ekvivalentga ega bo‘lmagan birliklarning tarjimashunoslikdagi o‘rni va ularning tizimli guruhlanishi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Muqobilsiz leksika, ekvivalent, tarjimashunoslik, milliymadaniy, lisoniy manzara.

В данной статье лексические единицы, не имеющие эквивалентов в словарях, изучаются через призму лингвокультурологии, одного из современных направлений лингвистики. Роль единиц, не имеющих эквивалентов, в переводоведении и их систематическая группировка анализируются на примерах английского и узбекского языков.

Ключевые слова. Неальтернативный лексикон, эквивалент, переводоведение, национально-культурный контекст, языковой ландшафт.

This article examines lexical units without dictionary equivalents through the lens of cultural linguistics, a modern field of linguistics. The role of unequipped units in translation studies and their systematic grouping are analyzed using examples from English and Uzbek.

Key words. Non-alternative lexicon, equivalent, translation studies, national-cultural context, linguistic landscape.

Bugungi kunda tilshunoslik muqobilsiz leksika va lingvokulturologik paradigmaga o‘tishi natijasida “til va madaniyat” muammosi tadqiqotlar markaziga chiqdi. Ushbu tendensiya nafaqat nazariy yondashuvlar doirasini kengaytirdi, balki til va tafakkur, til va ijtimoiy xotira, til va lug‘at o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni yangicha ko‘rinishda talqin etish imkonini berdi. Til birliklaridagi milliy-madaniy momentlarni aniqlash xalqning dunyoqarashi va lisoniy manzarasi (“oynayi jahoni”) ni tushunishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday komponentlar konseptual tizim, ramzlar va stereotiplar majmuasini yoritib, ma’naviy meros, urf-odatlar, qadriyatlar hamda kommunikativ xulq-atvor me’zonlarini izchil tahlil etish uchun mustahkam asos yaratadi.

1. Lingvistik paradigmaning o‘zgarishi.
2. Muqobilsiz leksika tushunchasining talqini.
3. Leksik fon va ikkilamchi ma’no.

Jahon tilshunosligida ushbu termin turli olimlar tomonidan o‘ziga xos tarzda ta’riflangan. V.N. Komissarov: tarjima tilida muntazam yozishmalarga (match) ega bo‘lmagan birliklar, ya’ni boshqa tilda to‘liq funksional ekvivalenti topilmaydigan, kontekstga kuchli bog‘langan va ko‘pincha milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi unsurlar. S.Vlahov va S. Florin: Realiyalarni muqobilsiz leksikaning asosi va eng keng qamrovli qismi sifatida ko‘rsatadi; ular fikricha, bunday birliklar aniq bir xalqning maishiy hayoti, tarixiy taraqqiyoti, an’anaviy urf-odatlari hamda geografik-madaniy muhitini aks ettirib, tarjimada ko‘pincha tavsifiy yo‘l, transkripsiya yoki izoh orqali beriladi. Ye.M.Veresha-

gin va V.G. Kostomarovlar ta'limotiga ko'ra, leksika ikki qatlamga bo'linadi:

– umumtil (neytral) qatlam, ya'ni ko'pchilik til jamoalari uchun umumiy bo'lgan, universallikka yaqin birliklar;

– milliy-madaniy qatlam, ya'ni realiya va muqobilsiz birliklardan tashkil topgan, kommunikativ jarayonda madaniy konnotatsiyalarni tashuvchi so'z va iboralar.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur terminlar tarjimashunoslikda ekvivalentlik darajasi, uslubiy moslik, interpretativ izoh va madaniyatlararo kompetensiya kabi masalalarni qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Muqobilsiz leksika: faqat ma'lum bir madaniyatgagina xos bo'lgan voqeliklar bo'lib, ular boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega emas, ko'pincha faqat izoh, tavsif yoki kontekstual sharh orqali tushuntiriladi; bunday birliklar xalqning tarixi, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari, ijtimoiy tuzilishi va maishiy hayotiga chuqur singib ketgan ma'nolarni ifodalaydi.

Leksik fon: umuminsoniy tushunchalar (masalan, maktab, kitob) bo'lsa-da, ularning turli xalqlardagi shakllanishi, qo'llanish sohasi, madaniy va tarixiy konnotatsiyalari hamda mazmuniy yuklamasi (foni) farq qiluvchi birliklar. Bu farqlar muayyan jamiyatning qadriyatlari, ijtimoiy tajribasi, ta'lim tizimi, an'analari va til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, so'zning semantik qatlamlarida yashirin ma'no, assotsiativ ranglar, uslubiy ohang hamda pragmatik nuanslar tarzida namoyon bo'ladi.

4. Muqobilsiz leksikaning guruhlanishi (L.S. Barxudarov tasnifi). Ingliz va o'zbek tillarini qiyoslash jarayonida muqobilsiz birliklar quyidagi uchta asosiy guruhga ajratiladi:

Atoqli otlar (Proper names): tarjima tilida muqobili yo'q bo'lgan geografik nomlar, tashkilot va nashr nomlari (masalan, The Times, London, Oloy bozori).

Realiyalar (Realities): milliy madaniyatning moddiy va ma'naviy unsurlari. Jumladan, milliy taomlar (palov, pudding), kiyimlar (do'ppi, kilt) va ijtimoiy tushunchalar.

Tasodifiy lakunalar (Accidental gaps): Bir tilda mavjud bo'lgan leksik birlikning qandaydir sabablarga ko'ra ikkinchi tilda lug'aviy shaklda aks etmasligi (konsept mavjud, lekin maxsus so'z yo'q).

Muqobilsiz leksika – bu shunchaki "tarjima qilinmaydigan" so'zlar emas, balki tilning boyligi, tarixiy xotirasi va xalqning o'ziga xos dunyoqarashini ko'rsatuvchi bebaho lingvistik xazinadir. Bunday birliklar ko'pincha milliy madaniyat, urf-odatlar, diniy va ijtimoiy amaliyotlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'no qatlamlarini o'zida mujassam etadi. Tarjima jarayonida ushbu birliklarni to'g'ri guruhlash, ularning semantic doirasini aniqlash, konnotativ ranglarini farqlash hamda madaniy yukini chuqur anglash asliyat mazmunini to'laqonli yetkazishning eng muhim garovidir. Zarur hollarda izohiy tarjima, kalkalash, transkripsiya yoki ekvivalent topish kabi strategiyalarni uyg'un qo'llash matnning estetik ohangini, uslubiy xususiyatlarini va kommunikativ maqsadini saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.

3. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. - М.: Международные отношения, 1973.215 с.

5. Гвоздович Е.Н. Безэквивалентная лексика: теория и практика перевода. – Минск: ТетраСистемс, 2010. – 84 с.

Gulchehra SHOMALIKOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, o‘qituvchi

DIDAKTIK ASARLAR ASOSIDA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA TARBIYAVIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarining ko‘nikmalari rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar zarur muhit va o‘quvchida olijanob fazilatlarni tarbiyalashga ta’sir qiluvchi omillari ochib berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich maktabning o‘quv jarayoniga etnopedagogik komponentning kiritilishi o‘quvchilarning odob va axloqiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishi, ularning shaxsiyatining ichki dunyosini boyitilishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik tizimlar faoliyatini takomillashtirish muammolari, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar, faoliyat, muvaffaqiyatini ta’minlaydigan pedagogik sharoitlar.

В статье раскрываются педагогические условия, необходимая среда для развития навыков учащихся, и факторы, влияющие на воспитание благородных качеств у учащихся. Также высказывается мнение о том, что включение этнопедагогического компонента в учебный процесс начальной школы значительно повышает этический и нравственный потенциал учащихся, обогащает внутренний мир их личности.

Ключевые слова. Проблемы совершенствования деятельности педагогической системы, современные педагогические исследования, деятельность, педагогические условия, обеспечивающие ее успех.

The article reveals the pedagogical conditions necessary for the development of students' skills, the environment, and the factors influencing the cultivation of noble qualities in the student. It is also argued that the introduction of an ethnopedagogical component into the primary school educational process significantly increases the moral and ethical potential of students and enriches the inner world of their personality.

Key words. Problems of improving the activity of pedagogical systems, modern pedagogical research, activity, pedagogical conditions that ensure its success.

Zamonaviy pedagogikani tadqiq qilishda didaktik sharoitlar mavjud o‘quv sharoitlari hisobga olinadigan holatlar, shart-sharoitlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu shartlarni o‘quv maqsadlari yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgartirish usullari ta’minlanadi, tarkibiy elementlar, usullar va ta’limning tashkiliy shakllari hisobga olingan holda quriladi va qo‘llaniladi, ya’ni ular didaktik maqsadlarga erishish uchun kontent elementlarini, usullarini (texnikasini), shuningdek, o‘qitishning tashkiliy shakllarini maqsadli tanlash, loyihalash va qo‘llash natijasida harakat qiladi.

Pedagogik tizimlar faoliyatini takomillashtirish muammolari bilan bog‘liq zamonaviy pedagogik tadqiqotlarga katta qiziqish uyg‘otadigan jihatlardan biri – bu amalga oshirilayotgan faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan pedagogik sharoitlarni aniqlash, asoslash va tekshirishdir.

Psixologik-pedagogik sharoitlar olimlar tomonidan pedagogik jarayon subyektlari yoki obyektlari (o‘qituvchilar yoki maktab o‘quvchilari) shaxsining rivojlanishiga, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga muayyan pedagogik ta’sir choralarini ta’minlash uchun mo‘ljallangan sharoitlar sifatida qaraladi.

Sh.A. Amonashvilining ta’kidlashicha, pedagogik jarayonning samaradorligi uchun

maxsus pedagogik sharoitlarni aniqlash, asoslash va yaratish kerak. Olim rivojlanish shartlarini zarur va yetarli deb ajratadi.

Rivojlanayotgan ta'lim va tarbiyani belgilaydigan boshlang'ich sinf o'quvchilarining paydo bo'lishi, mavjudligi va rivojlanishining samaradorligining ichki ob'ektiv muntazamligi zarur shart-sharoitlardir. Kerakli pedagogik sharoitlarga quyidagilar kiradi:

– o'qituvchining bolalarga bo'lgan cheksiz sevgisi.

– bola diqqatini jamlashi, o'zini chuqur o'rganishi, aks ettirishi, yaratishi uchun tinch muhit yaratish;

– boshlang'ich sinf o'quvchilarining nuqtai nazari va ular bilan muloqotda bo'lgan o'qituvchining nutqi;

– ijodiy sabr-toqat, buning yordamida odam o'zini "nihoyat g'azabdan" xalos qilishi mumkin. U bizning yashirin ta'lim energiyamizni o'z ichiga oladi.

– boshlang'ich sinf o'quvchilarini kelajakda maktab bilimlariga, shuningdek, o'zlari hayotni rag'batlantirish va o'z manfaatlari va sharoitlariga muvofiq ravishda oladigan bilimlarga asoslangan hayotga tayyorlash.

Taklif etilayotgan pedagogik shart-sharoitlarni samarali tashkil etish va qo'llash bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni yaxshilanadi. yetarli sharoitlar rivojlanishning sabablari, asoslari, qarama-qarshiliklari bilan bog'liq. Kerakli va yetarli sharoitlarning yo'qligi yoki yetishmasligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining, shu jumladan, ta'lim, o'qitish va ijtimoiylashuvning rivojlanishini to'xtatish yoki sekinlashtirishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalari rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar zarur muhit va o'quvchida olijanob fazilatlarni tarbiyalashga ta'sir qiluvchi omillarni yaratishda o'z aksini topadi. Sh.A. Amonashvili boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining odob va axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'quvchilar bilan ishlash tamoyillari, shartlari va mazmunini ilmiy asoslab berdi va maktab amaliyotida sinovdan o'tkazdi.

Boshlang'ich maktabning o'quv jarayoniga etnopedagogik komponentning kiritilishi o'quvchilarning odob va axloqiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishi, ularning shaxsiyatining ichki dunyosini boyitishi mumkin. Hissiy idrok bilish jarayonida ham, ta'lim jarayonida ham ta'minlanadi. Shunday qilib, muloqot didaktik asarlardan foydalanishga asoslangan odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Didaktik asarlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida uch bosqich kuzatilmoqda.

Birinchi bosqichda asosiy e'tibor o'quvchilarni o'quvchilar uchun tegishli va muhim ma'noga ega bo'lgan turli xil faoliyat va shakllarga, hukmlar, baholar, motivlar, intilishlar va ma'lum bilim va odob-axloqiy ma'nolarga jalb qilishga qaratiladi.

Ikkinchi bosqichda barqaror xulq-atvor usullarini birlashtirish va odob-axloqiy ma'noda yangi, yuqori xulq-atvor motivlarining paydo bo'lishi uchun odob-axloq ko'nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va kengaytirish mavjud.

Uchinchi bosqichda odob-axloq ko'nikmalari tajribasini chuqurlashtirish va tarbiyalash, muayyan sharoitlardan qat'i nazar, nafaqat mazmunan, balki mukammal ma'noda ham ishtiyoq bilan shakllanadi.

Odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida uch davr kuzatiladi:

Birinchi davrda muhim va mazmunli g'oyalar, mulohazalar, baholar, motivlar, intilishlar va o'quvchilarni ma'lum bir kognitiv va odob-axloqiy ma'noga ega bo'lgan faoliyatning turlari va shakllariga kiritishga e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi davrda barqaror xulq-atvor usullarini mustahkamlash va xulq-atvorning yangi, yuqori odob-axloqiy motivlarini tug‘ilishi uchun odob-axloq ko‘nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va kengaytirish mavjud.

Uchinchi davrda esa odob-axloq ko‘nikmalari harakatlar tajribasini chuqurlashtirish va tarbiyalash, muayyan vaziyatlardan qat’i nazar, nafaqat mazmunga, balki bajarilgan ishlarning ma’nosiga ham ishtiyoq shakllanadi.

N.I. Boldirev, I.F. Xarlamov, T.ye. Konnikova turli yosh davrlarida odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli xil imkoniyatlar mavjudligini aniqladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari ustida ishlashda ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Misol uchun, o‘yinga qiziqish.

O‘yin munosabatlari sharoitida bola ixtiyoriy ravishda mashq qiladi, normativ xatti-harakatlarni o‘rganadi. O‘yinlarda, boshqa joylarga qaraganda, boladan qoidalarga rioya qilish qobiliyati talab qilinadi. Ular o‘yindagi xatolarni alohida keskinlik bilan payqashadi va murosasiz ravishda qoidabuzarni qoralashlarini bildiradilar.

Agar bola ko‘pchilikning fikriga bo‘ysunmasa, u juda ko‘p yoqimsiz so‘zlarni tinglashi va hatto o‘yinni tark etishi kerak. Shunday qilib, bola boshqalar bilan hisoblashni o‘rganadi, haqiqat, halollik, adolat saboqlarini oladi. O‘yin o‘z ishtirokchilaridan qoidalarga muvofiq harakat qilishni talab qiladi.

Psixologlarning fikriga ko‘ra, 6-7 yoshli bolalar 7-10 daqiqadan ko‘proq vaqt davomida biron bir mavzuga e’tibor qarata olmaydilar. Keyin ular chalg‘ishni boshlaydilar, e’tiborini boshqa fanlarga o‘tkazadilar, shuning uchun darslar davomida faoliyatni tez-tez o‘zgartirish zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik sharoitlar turlarining xususiyatlarini umumlashtirish ilmiy-pedagogik ishlarda ilmiy yangilik va maxsus tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini belgilaydigan eng muhim vazifalardan birini aniqlashga imkon beradi.

Umuman olganda, pedagogik sharoitlar – bu o‘quv jarayoni natijasining turli bosqichlarida uning samaradorligiga erishishni birgalikda belgilaydigan pedagogik faoliyatga qaratilgan maxsus asoslangan va uyushgan holatlar majmui. Shunday qilib, har tomonlama tahlil natijalari “sharoit” tushunchasi umumiy ilmiy va uning pedagogik jihatdagi mohiyati bir nechta qoidalar bilan tavsiflanadi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

– sabablar, holatlar, har qanday obyektlarning umumiyligi;

– belgilangan umumiylik insonning rivojlanishi, tarbiyasi va tarbiyasiga ta’sir qiladi;

– sharoitlarning ta’siri rivojlanish, tarbiyalash va o‘qitish jarayonlarini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi, shuningdek, ularning dinamikasi va yakuniy natijalariga ta’sir qilishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligining asosiy pedagogik shartlari barcha darslarda maktab soatlarida (o‘qitish usullari, tashkiliy shakllar) yuqori darajadagi bilim faolligi, jamoaviy hayot muhiti, faoliyatning ijtimoiy qimmatli maqsadlariga intilish, o‘zaro munosabatlarning gumanistik uslubi, o‘qituvchi va o‘quvchilar, har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatidagi faol pozitsiyasi kabilardan iborat.

Shunday qilib, “psixologik-pedagogik sharoitlar” atamasini tushuntirishga tahliliy yondashuvlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, quyidagilar belgilanishi mumkin: psixologik-pedagogik sharoitlar pedagogik jarayonning zarur tarkibiy qismi sifatida hamda psixologik va pedagogik sharoitlar tuzilishi quyidagilarga ta’sir qiladi:

a) ta’lim tizimi ob’ektlarining protsessual komponentlari;

b) o‘quv jarayonida sub’ektning shaxsiy rivojlanishi.

Ushbu paragrafda biz didaktik asarlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shartlarni aniqladik:

– ta’lim mazmuni va usullarini takomillashtirishda folklorning axloqiy mazmunini aktuallashtirish;

– maktabda va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning etno-pedagogik yo‘nalishini ta’minlash;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini didaktik asarlarning odob va axloqiy qadriyatlari bilan tanishtirishda oila va maktabning birgalikdagi faoliyatini ta’minlash.

Shunday qilib, didaktik asarlar orqali boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalari xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– boshlang‘ich maktab o‘quvchilarini odob va axloqiy munosabatlarni ongli ravishda faol o‘zlashtirish uchun samarali tarbiyalash istagi;

– atrof-muhitga ta’sir qilish istagi, ularning yutuqlarini boshqalar tomonidan tan olish;

– vatanparvarlik, mehribonlik, qarindoshlar, fuqarolikka hurmat, ekologik sharoitlar, kompetensiya, bag‘rikenglik, ijtimoiy birdamlik, hayotiy qadriyatlarni tizimini egallash;

– o‘quvchi shaxsiyatiga va boshqalarning qo‘llab-quvvatlashiga kognitiv e’tibor.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini eng samarali odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi pedagogik sharoitlar aniqlandi:

– didaktik asarlar (she’rlar, hikoyalar, maqollar, afsonalar) yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob va axloqiy g‘oyalari asoslarini shakllantirish uchun 4-sinf o‘quv materialining tarkibiy tahlilini o‘tkazish;

– didaktik vositalar (she’rlar, hikoyalar, maqollar, afsonalar) materialining mazmuni va shakllarini tanlashda boshlang‘ich maktab o‘quvchilari o‘rtasida odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan odob va axloqiy tushunchalar tizimidan xabardor qilish va faol o‘zlashtirishga qaratilgan eng samarali usul va usullarni qo‘llash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. www.lex.uz

2. Hasanboeva O. Milliy-ma’naviy qadriyatlarda komil inson tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2011. -141-b.

3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi 4. nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. -447-b.

4. Usmonov M. Avestoda inson madhi. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 5. 2000 yil 20 dekabr.

5. Boboev H., G‘ofurov Z. O‘zbekistonda siyosiy-ma’rifiy va ma’naviy-ma’rifiy 7. ta’limotlar taraqqiyoti. – T.: Yangi avlod, 2001. -322-b.

Aziza ESKULOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistrant

QOZOQ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVOMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada qozoq tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, lingvomadaniyat tushunchasining mazmuni hamda ta’lim jarayonida uni rivojlantirish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, qozoq tili darslarida milliy madaniy birliklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish, matn bilan ishlash metodlari hamda interfaol pedagogik yondashuvlarning lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarda milliy madaniyatga hurmat, madaniy tafakkur va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda lingvomadaniy yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar. Lingvomadaniyat, lingvomadaniy kompetensiya, qozoq tili ta’limi, milliy madaniyat, til va madaniyat, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, madaniyatlararo kommunikatsiya.

В статье анализируются теоретические и методические основы формирования лингвокультурной компетенции учащихся на уроках казахского языка. Освещается неразрывная связь языка и культуры, содержание понятия лингвокультуры и пути ее развития в образовательном процессе. Также проанализирована роль национальных культурных единиц, использования образцов устного народного творчества, методов работы с текстом и интерактивных педагогических подходов в формировании лингвокультурной компетенции на уроках казахского языка. Результаты исследования показывают важность лингвокультурного подхода в развитии у учащихся уважения к национальной культуре, культурного мышления и коммуникативной компетенции.

Ключевые слова. Лингвокультура, лингвокультурная компетенция, обучение казахскому языку, национальная культура, язык и культура, педагогические технологии, интерактивные методы, межкультурная коммуникация.

The article analyzes the theoretical and methodological foundations of the formation of students’ linguocultural competence in Kazakh language lessons. The inextricable link between language and culture, the content of the concept of linguoculture, and ways of its development in the educational process are highlighted. The role of national cultural units, the use of examples of oral folk art, methods of working with texts, and interactive pedagogical approaches in the formation of linguocultural competence in Kazakh language lessons is also analyzed. The research results show the importance of the linguocultural approach in the development of respect for national culture, cultural thinking, and communicative competence in students.

Key words. Linguoculture, linguocultural competence, Kazakh language education, national culture, language and culture, pedagogical technologies, interactive methods, intercultural communication.

Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda ta’lim jarayonining mazmuni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, til ta’limi ham faqat grammatik qoidalar va leksik birliklarni o‘rgatish bilan chegaralanmay, balki til orqali xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, qadriyatlar tizimi va milliy tafakkurini o‘rgatishni ham o‘z ichiga oladi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi zamonaviy tilshunoslikda alohida ilmiy yo‘nalish – lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishiga asos bo‘ldi. Lingvomadaniyatshunoslik til birliklari orqali xalqning mentaliteti, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari hamda madaniy qadriyatlarini o‘rganishga qaratilgan fanlararo yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yo‘nalish tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki milliy madaniyatni aks ettiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qiladi. Til birliklarida xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va milliy identifikatsiyasi mujassam bo‘lganligi sababli, tilni o‘qitish jarayonida lingvomadaniy yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning til kompetensiyasini chuqurlashtirish bilan bir qatorda, ularning madaniy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shu jihatdan, qozoq tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki qozoq tili xalqning boy tarixiy-madaniy merosi, asrlar davomida shakllangan an’analari, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan til sifatida o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, madaniy identifikatsiyani shakllantirish hamda tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi matnlardan, folklor va adabiy manbalardan samarali foydalanish o‘quvchilarning lingvomadaniy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, qozoq tili ta’limida lingvomadaniy yondashuvni joriy etish o‘quvchilarning nafaqat kommunikativ kompetensiyasini, balki madaniy kompetensiyasini ham shakllantirishga imkon yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, yosh avlodni milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning madaniyatlararo muloqotga tayyorligini ta’minlash hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda shakllangan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvomadaniy kompetensiya – bu o‘quvchining til birliklari orqali milliy madaniyatni anglash, madaniy qadriyatlarni idrok etish hamda ularni kommunikativ jarayonda maqsadga muvofiq va to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatini ifodalovchi murakkab integrativ kompetensiyadir. Mazkur kompetensiya til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida shakllanadi hamda shaxsning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda uning madaniy dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va kommunikativ faoliyatini ham qamrab oladi. Shu jihatdan lingvomadaniy kompetensiya zamonaviy til ta’limining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilib, o‘quvchilarda til orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash imkonini yaratadi.

Ma’lumki, har bir til muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy tajribasi, urf-odatlari, an’analari va dunyoqarashini o‘zida mujassam etadi. Til birliklari – xususan, maqol va matallar, frazeologik birikmalar, milliy-madaniy leksika, folklor namunalarida xalqning turmush tarzi, mentaliteti, axloqiy me’yorlari va qadriyatlar tizimi aks etadi. Shuning uchun ham tilni o‘qitish jarayonida nafaqat uning grammatik va leksik tizimini o‘rgatish, balki ushbu birliklarning madaniy-semantik mazmunini ochib berish muhim ilmiy-metodik vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, qozoq tili darslarida til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligini ochib berish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lingvomadaniy kompetensiya o‘z tuzilishiga ko‘ra bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni qamrab oladi:

Madaniy bilimlar – xalqning urf-odatlari, an’analari, tarixiy taraqqiyoti, milliy qadriyatlari va madaniy merosi haqidagi tizimli bilimlar majmui;

Til-madaniy birliklarni anglash – maqol, matal, frazeologik birliklar, milliy realiyalar hamda madaniy semantikaga ega bo‘lgan til birliklarining ma’nosini tushunish va ularning mazmunini izohlash qobiliyati;

Kommunikativ ko‘nikmalar – til birliklarini muayyan ijtimoiy va madaniy kontekstda maqsadga muvofiq qo‘llay olish, nutq jarayonida madaniy me’yorlarga rioya etgan holda muloqot olib borish qobiliyati;

Madaniy tafakkur – turli madaniyatlarni anglash, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, madaniyatlararo muloqot jarayonida tolerantlik va ochiq fikrlilikni namoyon etish.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, qozoq tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish o‘quvchilarning til hamda madaniyatga oid bilimlarini integratsiyalash, ularning kommunikativ faolligini oshirish va milliy madaniyatni chuqur anglashiga xizmat qiladi. Natijada ta’lim jarayonida til o‘rganish nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki madaniy identifikatsiyani shakllantirish hamda madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxsni tarbiyalashning muhim vositasiga aylanadi.

Mazkur tadqiqotda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish jarayonini o‘rganish hamda uning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator umumilmiy va pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodlari tanlanishida til va madaniyat o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil qilish, shuningdek, qozoq tili darslarida lingvomadaniy yondashuvning amaliy samaradorligini aniqlash mezonlari asos qilib olindi.

Jumladan, tahlil va sintez metodlari orqali lingvomadaniyat, lingvomadaniyatshunoslik hamda lingvomadaniy kompetensiya masalalariga oid ilmiy-nazariy manbalar o‘rganildi, mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilinib, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari tizimlashtirildi. Mazkur metod yordamida til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, lingvomadaniy birliklarning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda ularning o‘quvchilarning madaniy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi.

Pedagogik kuzatish metodi esa qozoq tili darslarida lingvomadaniy materiallardan foydalanish jarayonini o‘rganishda qo‘llanildi. Ushbu metod orqali dars jarayonida maqol va matallar, frazeologik birliklar, milliy realiyalar hamda folklor namunalaridan foydalanishning o‘quvchilarning nutqiy faolligi, madaniy tafakkuri va kommunikativ ko‘nikmalariga ta’siri kuzatildi hamda tegishli xulosalar chiqarildi.

Shuningdek, taqqoslash metodi yordamida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan turli metodik yondashuvlar o‘zaro solishtirildi. Bu jarayonda an’anaviy til o‘qitish usullari bilan lingvomadaniy yondashuv asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi hamda o‘quvchilarning bilim darajasi, madaniy tasavvurlari va kommunikativ faoliyatidagi o‘zgarishlar aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda pedagogik tajriba metodi ham muhim o‘rin tutdi. Mazkur metod orqali qozoq tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus topshiriqlar, mashqlar hamda metodik yondashuvlar amaliyotga joriy etildi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning maqol va matallarni sharhlash, frazeologik birliklarning madaniy mazmunini izohlash, milliy qadriyatlar bilan bog‘liq matnlar ustida ishlash kabi faoliyatlari tashkil etildi.

Tadqiqot natijasida qozoq tili darslarida lingvomadaniy materiallardan samarali foydalanishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilindi hamda o‘quvchilarning madaniy tafakkurini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni anglash va madaniyatlararo muloqotga tayyorlashga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlab berildi. Bu esa lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish til ta’limining muhim pedagogik vazifalaridan biri ekan-

ligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qozoq tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning til bilimlari bilan bir qatorda ularning milliy madaniyatni anglash, madaniy qadriyatlarni idrok etish hamda madaniy kontekstda to‘g‘ri muloqot qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvni talab etadi. Shu bois mazkur jarayon bir necha metodik yo‘nalishlar asosida tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Avvalo, dars jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maqol va matallar, afsona va rivoyatlar, xalq qo‘shiqlari, ertaklar hamda boshqa folklor namunalarida xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va turmush tarzi o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun bunday materiallardan foydalanish o‘quvchilarda milliy madaniyatga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, ularning til birliklarining madaniy-semantik mazmunini anglashiga yordam beradi hamda xalqning mentaliteti va qadriyatlar tizimini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, matn bilan ishlash metodlari lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda muhim metodik vositalardan biri hisoblanadi. Qozoq xalqining urf-odatlari, tarixiy voqealari, milliy an’analari yoki madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi matnlar asosida tahlil, muhokama va interpretatsiya jarayonlarini tashkil etish o‘quvchilarning analitik fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish hamda madaniy mazmunni idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar nafaqat til birliklarini o‘rganadilar, balki ular orqali ifodalangan madaniy axborotni ham anglay boshlaydilar.

Uchinchidan, interfaol pedagogik metodlardan foydalanish lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishda samarali natija beradi. Jumladan, rol o‘yinlari, munozaralar, loyiha ishlari, guruhiy muhokamalar hamda madaniy mavzularga bag‘ishlangan taqdimotlar o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etadi. Bunday metodlar o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi, ularni turli madaniy vaziyatlarda muloqot olib borishga tayyorlaydi hamda til birliklaridan madaniy kontekstda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish ham lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Multimedia materiallari, videodarslar, elektron ta’lim resurslari, virtual taqdimotlar va madaniy mazmundagi interaktiv platformalar orqali o‘quvchilarga milliy madaniyat elementlarini vizual hamda eshitish orqali idrok etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning lingvomadaniy bilimlarini chuqurlashtirish, o‘quv jarayonining qiziqarli va samarali tashkil etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, qozoq tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish folklor materiallari, matn bilan ishlash metodlari, interfaol pedagogik yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kompleks foydalanish asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini anglash, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish hamda madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, lingvomadaniy materiallardan foydalanish o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqol va matallar, frazeologik birliklar, milliy-madaniy leksika kabi til birliklarini o‘rganish va ularni nutq jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytiradi, nutqning obrazliligi va ifodaliligini oshiradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat tilning grammatik tizimini, balki uning madaniy-semantik imkoniyatlarini ham o‘zlashtira boshlaydilar.

Bundan tashqari, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Til orqali ifodalangan madaniy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlar bilan tanishish o‘quvchilarda milliy merosga hurmat, tarixiy xotira va madaniy identifikatsiya hissini kuchaytiradi. Bu esa yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning madaniy dunyoqarashini kengaytirish hamda madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, qozoq tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy til ta’limining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning madaniy dunyoqarashi, tafakkuri hamda kommunikativ faoliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv tilni o‘rganish jarayonini faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklab qo‘ymasdan, uni madaniy qadriyatlarni anglash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish vositasiga aylantiradi.

Lingvomadaniy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda milliy madaniyatga hurmat, tarixiy merosga qiziqish, xalqning urf-odatlari va an’analariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarning til birliklarining madaniy mazmunini anglash, ularni nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llay olish hamda turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorligini oshirib, ularni turli madaniy muhitda erkin va samarali kommunikatsiya olib borishga tayyorlaydi. Bu esa globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglay oladigan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli qozoq tili ta’limida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda madaniy mazmundagi ta’lim materiallarini keng joriy etish muhim ilmiy-pedagogik vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bu esa til ta’limining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosga hurmat hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarov Q. Tilvatafakkur.–Toshkent: O‘zbekiston Milliyensiklopediyasi, 2012.

2. Jumamuratova S. Lingvomadaniy kompetensiyaning mazmuni va nazariy asoslari. https://inlibrary.uz/index.php/mmms/article/view/52749

3. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent, 2019. 168 bet.

4. Дуйсабаева Д.У. Тұлғаның лингвомәдени құзыерттілігін қалыптастыру мәселесі. https://cyberleninka.ru/article/n/t-l-any-lingvom-deni-zyrettiligin-alyptasty-ru-m-selesi/viewerю

5. Арынова Г. Қазақ тілі сабақтарында оқу диалогы арқылы оқушылардың әлеуметтік интеллектісін дамыту. – Алматы, 2024.

6. Жолдасбекова К. Қазақ тілі сабақтарында оқушылардың коммуникативтік құзыреттіліктерін қалыптастыру мен дамыту жолдары. https://ust.kz/word/qazaq_tili_sabaqtarynda_oqysylardyng_kommynikativtik_quzyrettilikterin_qalyptasty-ry_men_damyty_joldary-291417.html

Lola SUNNATOVA,
Samarqand davlat universiteti, tayanch doktarant

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA “STEM” YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda STEM yondashuvining ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, fizika fanining STEM fanlar tizimidagi markaziy o‘rnini asoslanadi va elektr hamda magnit hodisalarni (Ersted tajribasi, Amper va Lorens kuchlari) amaliy modellashtirish orqali o‘qitish usullarini taklif qilingan. Bundan tashqari, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, o‘quvchilarning muhandislik ko‘nikmalarini va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. STEM ta’limi, fizika, integratsiya, muhandislik, elektr va magnetizm, Ersted tajribasi, Amper kuchi, Lorens kuchi, loyihaga asoslangan ta’lim, innovatsiya.

В статье анализируется значение и эффективность STEM-подхода в преподавании физики в общеобразовательных школах. Также обоснована центральная роль физики в системе STEM-наук и предложены методы обучения посредством практического моделирования электрических и магнитных явлений (опыт Эрстеда, силы Ампера и Лоренца). Кроме того, освещены вопросы связи теоретических знаний с практикой, развития инженерных навыков и критического мышления учащихся.

Ключевые слова. STEM-образование, физика, интеграция, инженерия, электричество и магнетизм, опыт Эрстеда, сила Ампера, сила Лоренца, проектное обучение, инновации.

The article analyzes the importance and effectiveness of the STEM approach in teaching physics in general secondary schools. It also substantiates the central place of physics in the system of STEM disciplines and proposes teaching methods through practical modeling of electrical and magnetic phenomena (Ersted experiment, Ampere and Lorentz forces). In addition, issues of linking theoretical knowledge with practice, developing students' engineering skills and critical thinking are highlighted.

Key words. STEM education, physics, integration, engineering, electricity and magnetism, Oersted experiment, Ampere force, Lorentz force, project-based learning, innovation.

Bugungi kunda fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalarini birlashtirgan STEM ta’limi (S-science – fan, T-technology – texnologiya, E-engineering – muhandislik, M-mathematics – matematika) jahon ta’limida keng ommalashib bormoqda. Rivojlangan davlatlarning taraqqiyparvar vakillari tomonidan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy yutuqlarga erishishda aynan STEM yo‘nalishidagi bilim va ko‘nikmalarni ustuvor deb e’tirof qilinmoqda.

STEM ta’limi o‘zi nima? STEM ta’limi kim uchun va nima uchun kerak? STEM ta’limini qanday amalga oshirish mumkin? – kabi savollarning javobi bugungi kunda keng jamotchilikni qiziqtirmoqda.

“STEM” atamasi 2001-yilda AQSHda Tadqiqotlarning Milliy Kengashi (NRC –National Research Council) va Milliy Fan Fondi (NSF – National Science Foundation) tomonidan targ‘ib qilingan. 2000-yillardan boshlab Evropa davlatlarida Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Avstriya, Ispaniyada STEM ta’limini joriy etish bo‘yicha milliy va global ta’lim standartlari ishlab chiqilgan hamda innovatsion xalqaro (In Genious, MASCIL, INSTEM, Mind the Gap, ER4STEM kabi) loyihalar bajarilgan. Albatta bu kabi tadbirlarning zaminida strategik maqsad sifatida ijodkor va tanqidiy fikrlovchi mutaxasislarni tarbiyalash, raqobatbardosh innovatorlarni yetishtirish vazifalari qo‘yilgan.

STEM atamasi tarkibidagi har bir komponenti(Science, Technology, Engineering, Mathematics)ning mohiyati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Fanlar tarkibi	Fanning mohiyati va vazifasi
Science – Fan	Fan – olamning mavjud qonuniyatlarini kashf etish va tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. *Asosiy usullari:kuzatish, tajriba o‘tkazish, ilmiy tadqiqot va kashfiyot*.
Technology – Texnologiya	Texnologiya – fanlarda ochilgan qonuniyatlarga tayangan holda, inson hayotiga qulaylik yaratadigan vositalar taklif qiladi va ilmiy kashfiyotlar asosida qurilmalar ixtiro qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtiriladi. *Texnologiyaga xos jarayonlar: ixtiro qilish, innovatsiya kiritish, loyihalashtirish.*
Engineering – Muhandislik	Muhandislik – fan va matematika bilimlarini amaliyotga joriy etib, yangi qurilmalar yaratadi. Muhandislik “nima qurish mumkin?” degan savolga innovatsion yechimlar taklif etadi. *Muhandislik jarayonida muammoni tahlil qilish, texnik yechimni rejalashtirish, konstruktsiya yaratish va sinovdan o‘tkazish ishlari amalga oshadi.*
Mathematics – Matematika	Matematika – bu miqdor, tarkib va o‘zgarishlar haqidagi fan. *Matematika hisob-kitob, modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish orqali fan, texnologiya va muhandislikka aniqlik kiritadi.*

Yuqoridagi har bir yo‘nalish o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalarni talab qilsa-da, STEM ta’limining asosiy g‘oyasi – bu to‘rt fanlar majmuini yaxlit bir tizim sifatida integratsiyalashgan holda o‘qitilishidir. Ya’ni, an’anaviy ta’limda fanlar alohida o‘qitilsa, STEM yondashuvi ularni o‘zaro bog‘liq va amaliy bir kontekstda birlashtiriladi. Natijada, o‘quvchilar nazariy bilimlarni bir-biriga bog‘laydi, haqiqiy muammolar yechimi uchun zarur bo‘lgan o‘lchov asboblar va jihozlardan foydalanishni o‘rganadi. STEM ramziy ma’noda “turli asbob-uskunalar solingan duradgor qutisi” deb qaralsa, agar o‘quvchi har bir asbobning vazifasini (ya’ni har bir fan asosini) yaxshi o‘zlashtirsa, kelgusida qutidan kerakli asboblarni tanlab olib, istalgan muammoni hal qiluvchi yechimni mustaqil topadi.

Fizika fani STEM tarkibidagi “Science” yo‘nalishi qismi bo‘lib, tabiatning fundamental qonunlarini o‘rganuvchi fan sifatida texnologiya va muhandislik sohalarining asosiy ilmiy asosini ta’minlaydi. STEM fanlar tizimida fizika o‘zining universalligi bilan alohida o‘rin tutadi. Fizika qonunlarini bilish zamonaviy texnika vositalarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi, ya’ni fan texnologiyalarning ilmiy asosini ta’minlaydi.

STEM yondashuv asosida fzika fanini darslarni tashkil etilganda, albatta o‘quvchilar real hayotga yaqin bo‘lgan amaliy STEM tajribalarida ishtirok etishadi. Pedagogik tajribamizda (fizika ta’limida) maktab o‘quvchilarida elektr va magnit hodisalariga bo‘lgan kattaqiziqishi borligini kuzatilgan. Bunga sabab bo‘lishi mumkin, yaratilgan juda ko‘p zamonaviy qurilmalar va jihozlarning ishlash tamoyillari elektr va magnit hodisalariga asoslangan. Masalan, elektrodvigatel, generator, transformator, aloqa tizimlari va kundalik uy jihozlar va boshqalar. Olib borilgan pedagogik tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, STEM yondashuvi orqali o‘rganish o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi va fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlaydi. Bularning natijasida o‘quvchilardao‘quv faniga bo‘lgan qiziqishini ortadi, chiqurroq nazariy bilimlarni o‘rganadi hamda ularning fikrlash va amaliy ko‘nikmalari rivojlanadi.

STEM ta’limida eksperiment alohida o‘rin tutadi. Ilm-fan va texnika asoslari nazariy bilim bilangina cheklanmaydi. Nazariy qarashlar va real tabiat o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishda eksperiment vositasida o‘qitish muhim. Aaynan real tajribalar orqali o‘quvchi “ilmiy amaliyot” bilan tanishadi. Laboratoriyada tajriba o‘tkazish nazariya tushunchalarni amaliyot bilan bog‘laydi. Masalan, elektrga oid (Ersted tajribasi, Amper kuchi, Lorens kuchi, elektroliz) hodisani kitobdan o‘qigandan ko‘ra, laboratoriya

sharoitida tajriba qilib ko‘rganda bu kabi hodisalarni o‘quvchi chuqurroq tushunadi va eslab qoladi.

Ko‘p hollarda fizika darslarida elektr va magnit hodisalariga oid bo‘lgan sodda tajribalar har doim ham o‘quvchilarga namoyish qilinmaydi, masalan, Ersted tajribasi, Amper kuchi va Lorens kuchining mavjudligini ko‘rsatuvchi namoyishli tajribalar. Umuman olganda, magnit maydondagi zaryad va tok harakatini modellashtirish mavzusini STEM integratsiyasida o‘qitish o‘quvchilarga fizik qonunlarni real sharoitda ko‘rsatishni ta’minlaydi. Ular bir vaqtning o‘zida matematik modellashtirish (hisob-kitob qilish), muhandislik (qurilmalar yig‘ish) va fan (fizika qonunlari) o‘zaro integratsiyasini ko‘radilar. Elektr-magnit hodisalarni bunday yo‘l bilan amaliy o‘qitish usuli o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni tushunish qobiliyatini oshiradi, muhandislik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi va fizika faniga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

Elektromagnit hodisalarni o‘qitishning samarali metodologiyasini ishlab chiqish uchun ta’lim standartlari, darsliklar, shuningdek, STEM ta’limi sohasidagi pedagogik tadqiqotlar ishlar ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi. Tadqiqot o‘quv jarayonini loyihalashga kompleks yondashuvni ta’minlaydigan bir nechta o‘zaro bog‘liq metodologik asoslarga tayanadi.

Birinchi manba, mamlakatimizda umumta’lim maktablarida qo‘llanib kelayotgan fizika fanini o‘qitish bo‘yicha spiral o‘quv dasturining tuzilishi tahlil qilindi. Spiral yondashuv shuni anglatadiki, asosiy tushunchalar fizika fanini o‘qitishning ilk bosqichlarida 7-,8-, 9- sinflarda sifat darajasida kiritiladi, so‘ngra yuqori10-, 11-sinflarda (mazmunan vamatematik) murakkabligi bo‘yicha ortib borilishi ta’minlangan. Magnetizm bilan bog‘liq mavzularning kiritilish ketma-ketligini aniqlash maqsadida 7, 8, 10 va 11-sinflar uchun nashr qilingan fizika darsliklarining mazmunan tahlili o‘tkazildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 7-sinfda magnetizm mavzulari o‘rganilmaydi. 8-sinfda magnit maydonlari va Ersted tajribasi bilan dastlabki sifatli tanishuv bo‘lib o‘tadi. 10-sinfda magnit maydonining miqdoriy xarakteristikalarini beruvchi Amper kuchi va Lorens kuchini mavzulari kiritilgan. 11-sinfda ushbu hodisalar zaryadlangan zarrachalar kinematikasi va elektromagnit induksiya hodisalari bilan integratsiya qilish orqali chuqurlashtirilgan.

Ikkinchi manba, Khoiri N., Roshayanti F., Widati R,Shiang-Kwei Wang., Hui-Yin Hsu va boshqalar tomonidanolib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganib chiqish davomida aniqlangan integratsiyalashgan STEM ta’limi tamoyillariga tayanadi. Metodologiyada muhandislik loyihalash jarayoniga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, unda shunchaki qurilmalarni yig‘ish emas, balki uni sinovdan o‘tkazish va optimallashtirishni o‘z ichiga olgan muammolar e’tiborga olingan, jumladan, loyihaning samaradorligini baholash uchun kreativlik, funksionallik va jamoada ishlash qobiliyatini baholovchi maxsusro‘lchovlar belgilab olingan.

Uchinchidan, metodologiya “Teskari aloqa” yondashuvni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuvda maqsad o‘quv laboratoriya ishini tanlash bilan cheklanib qolish emas, balki o‘quv maqsadlariga ko‘ra o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni aniqlashtirib olishdan iborat.

Yuqorida ta’kidlanilgan metodologiyani qo‘llash natijasida umumiy o‘rta ta’limda magnetizm mavzularini qamrab oluvchi STEM ishlanmalari ishlab chiqildi: Ersted tajribasi va tokningg magnit maydoni, Amper kuchiva energiyaning elektromexanik harakatga aylanishi; Lorens kuch ta’sirida zaryadli zarralarning magnit maydonda harakarini kuzatish.Amper kuchi va Lorens kuchi Ersted tajrubasining mantiqan davomi hisoblanadi. Shu bois “teskari aloqa” yondashuviga ko’ra bu mavzular ketma-ket o‘rganilishi

maqsadga muvofiq hisoblanadi. 2-jadvalda dars ishlanmalarining nomi, mazmuni va yakuniy natijasi keltirilgan.

2-jadval

	G‘oyaning mazmuni	STEM loyiha natijasi
Ersted tajribasi	Elektr va magnetizm o‘rtasidagi sifatli bog‘liqlik ko‘rsatish	Tokning magnit ta’sirini namoyish qiluvhchi qurilma yasaladi.
Amper kuchi	Tok va magnit maydon o‘rtasidasi ta’siri natjasini baholash.	1.Amper kuchini namoyish qilish qurilmasini yasash. 2. Sodda tok generatorini yoki sodda elektr dvigateli qurilmasini yasash.
Lorens kuchi	Magnit maydonda zaryadlangan zarrachalar dinamikasini o‘rganish	Magnit maydonda zaryadlangan zarrachalarning harakatini kuzatish qurilmas yasaladi.

Har bir STEM loyiha faoliyati obyektiv baholanishiuchun baholash mezoni ishlab chiqilggan. 3-jadvalda “Tok generatori” yasalishi bo‘yicha baholash mezoni keltirilgan.

3-jadval

Mezon	**A’lo**	**Yaxshi**	**Qoniqarli**
Dizayn	Rotor va stator shakliga o‘ziga xos yondashuv, konstruksiyada yuqori barqarorlik.	Standart dizayn, kicik o‘zgartirishlar kiritilgan	Konstruksiya tayyor shablondan olingan ayrim kamchilklar mavjud
Funksionallik	Rotor barqaror, tez va tashqi aralashuvsiz aylanadi.	Motor aylanadi, lekin vaqti-vaqti bilan to‘xtab qoladi yoki turtki talab qiladi.	Motor faqat alohida tebranishlarni amalga oshiradi, lekin to‘liq aylanmaydi.
Fizik nuqtai nazardan tushuntirish	Rotorning ishlash tamoyillarini tushuntirib beradi, Amper kuchining formulasi va uning izohini(chap qo‘l qoidasi) tavsiflaydi	Rotorning ishlash tamoyillarini tushuntirishda ayrim noaniqliklar mavjud, Amper kuchining formulasi va uning izohini (chap qo‘l qoidasi) tavsiflaydi.	Tushunish yuzaki, o‘quvchi chap qo‘l qoidasini o‘z rotoriga qo‘llashda qiynaladilar.

Xulosa qilib aytganda, STEM yondashuv fizika ta’limining qator fundamental muammolarini hal qilishda, shu bilan birga tirli predmet, jumladan fizika, matematika, texnologiyao‘qituvchilarininge’tiborini talab qiladigan muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5032-son qarori. https://lex.uz/docs/5338558

2. O‘zbekistonRespublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 27-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida STEM ta’limi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 274-son buyrug‘i.

3. Xoliqov Q.T., Kuliyeva M.T., Qayumova K.A., Sunnatova L.M. STEAM yondashuv asosida fizika va astronomiyani o‘qitish metodikasi. Darslik. Buxora. Kamolot nashriyoti, 2026. –140 b.

4. Khoiri N., Roshayanti F., Widati R. Integration of STEAM and ESD: Improving the understanding of fluid concepts and creativity. Journal of Education and e-Learning Research, 2023. Vol. 10, № 3. – P. 578-584.

Maxsuda OBIDOVA
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

PEDAGOGIK LOYIHALASH ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING NUTQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIM

Annotatsiya

Maqolada pedagogik loyihalashtirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi, mavzu bo‘yicha ilmiy va uslubiy yangiliklar, mustaqil ta’limga oid fikrlar, mustaqil ta’limning talabalar bilim olishidagi o‘rni hamda mustaqil ta’lim bo‘yicha olimlarning ilmiy qarashlari keltirilib, ularga tahliliy munosabat bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. Mustaqil ta’lim, mustaqil faoliyat, mustaqil ish, oliy ta’lim, tajriba, ta’lim tizimi, talaba, natija, tahlil, raqamli texnologiya, yondashuvlar, ilmiy qarashlar, tahliliy munosabatlar.

В статье представлена методика развития речевой деятельности будущих учителей на основе педагогического проектирования, научно-методические новшества по теме, мнения о самостоятельном обучении, роль самостоятельного обучения в получении знаний студентами, а также научные взгляды ученых на самостоятельное обучение, и выражено аналитическое отношение к ним.

Ключевые слова. Самостоятельное обучение, самостоятельная деятельность, самостоятельная работа, высшее образование, опыт, система образования, студент, результат, анализ, цифровые технологии, подходы, научные взгляды, аналитические отношения.

The article presents the methodology for developing the speech activity of future teachers based on pedagogical design, scientific and methodological innovations on the topic, opinions on independent learning, the role of independent learning in students’ learning, and the scientific views of scholars on independent learning, providing an analytical response to them.

Key words. Independent study, independent activity, independent work, higher education, experience, educational system, student, result, analysis, digital technology, approaches, scientific views, analytical relations.

Pedagogik loyihalash asosida bo‘lajak o‘qituvchilar nutqiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda mustaqil ta’lim muhim o‘rin tutadi, chunki u o‘qituvchini nazariy bilimlarni amaliyotga taddiq etishga, muammolarni hal qilishga va kasbiy ko‘nikmalarini o‘stirishga undaydi. Loyihaviy yondashuv, jumladan, mustaqil izlanishlar orqali talabalar o‘z nutqini nazorat qilish, tovush, temp, diapazon kabi elementlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy

etish;”[1] konsepsiyaning asosiy talablaridan biridir.

Pedagogik loyihalash asosida bo‘lajak o‘qituvchilar nutqiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda mustaqil ta’lim nazariy bilimlar va amaliyot uyg‘unligi, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, muammolarni hal qilish, Kasbiy kompetensiya oshishi, o‘z-o‘zini takomillashtirishda muhim o‘rin egallaydi. Bunda loyihaviy yondashuv talabalarni o‘z ustida mustaqil ishlashga undaydi, bu esa o‘qituvchilik mahoratini oshirishga yordam beradi,mustaqil mashg‘ulotlar orqali talabalar o‘z nutqini tahlil qilib, aniqlik, ravonlik, tovush balandligi, tembr va tempni nazorat qilishni o‘rganadi,pedagogik loyiha doirasida mustaqil tadqiqot olib borish muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Loyihalash jarayoni talabani o‘qituvchilik faoliyatiga yanada chuqurroq tayyorlaydi, chunki u o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirishni o‘rganadi va mustaqil ta’lim talabani doimiy ravishda o‘z nutqiy faoliyatini baholash va yaxshilashga undaydi, bu esa samarali o‘qituvchi bo‘lishi ta’minlaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’limi kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Asosiy faoliyat turlariga referat va esse yozish, amaliy topshiriqlar, keys-tahlil, loyiha ishlari, prezentatsiya tayyorlash hamda elektron platformalar orqali mustaqil ishlash kiradi. Bu faoliyatlar talabada axborot bilan ishlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Ammo amalda mustaqil ta’lim ko‘p hollarda o‘qituvchi tomonidan qat’iy nazorat qilinadi va reproduktiv xarakterga ega. Talabaning akademik erkinligi cheklangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy faoliyati kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida ushbu faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan muayyan ishlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati tizimli pedagogik loyihalash asosida tashkil etilmagan. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, talabalarning nutqiy faoliyati ko‘proq nazariy bilimlar doirasida shakllanib, amaliy nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish ikkinchi darajali masala sifatida qaralmoqda. Natijada talabalarda fikrni og‘zaki va yozma shaklda aniq, ravon va ta’sirchan bayon etishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu bilan birga, pedagogik loyihalash asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning nutqiy faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali ekanligi aniqlanmoqda. Demak, mavjud holatni takomillashtirish uchun nutqiy faoliyatni rivojlantirish jarayonini maxsus loyiha asosida qayta tashkil etish zarur. Talabalarga pedagogik loyihalash orqali nutqiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda mustaqil ta’limning asosiy o‘rinlarda turadi. Bu yo‘nalishda talabaning nutqiy faoliyatni loyihalash, bo‘lajak o‘qituvchilik faoliyatini loyihalashtirish, bunda nutqiy aspektlarga alohida e’tibor berish, ayniqsa amaliy mashg‘ulotlarga ya’ni o‘z nutqini yozib olib, tahlil qilish, ovoz mashqlari, dialoglar tuzish kabi amaliy mustaqil mashg‘ulotlar amaliy nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda modulli ta’lim pedagogik yondashuvlari keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuvlarda talabaning mustaqil bilish faoliyati markaziy o‘rin tutadi. Talabaning mustaqil bilish faoliyatida muammoli topshiriqlar, tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan savollar, refleksiya (o‘z-o‘zini baholash), nazorat savollari va testlar kabi usullar qo‘llanilib kelinadi. Bizda talabalarimizga berilayotgan mustaqil ta’limni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribalaini tadbiq etish ham samaralidir.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ILOVA , “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”

Xorijiy Finlyandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh kabi mamlakatlarda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish tajribasi o'rganib chiqqanimizda Self-directed learning (o'zini o'zi boshqaradigan ta'lim) → talaba o'qish maqsadini, sur'atini va natijasini o'zi belgilaydi, Research-based learning→ talabalar ilmiy tadqiqotga erta jalb etiladi, Flipped classroom (teskari sinf) → nazariya uyda, muhokama va tahlil auditoriyada, Portfolio-based assessment→ talabaning barcha mustaqil ishlari elektron portfolioda jamlanadi hamda Peer learning (tengdoshlar orqali ta'lim) → talabalar bir-biriga ta'lim berish usullari samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Xorijda o'qituvchi, nazoratchi emas, mentor, tyutor, fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. Quyida mustaqil ta'lim jarayonlarining tahliliy taqqoslama jadvali berildi.

Mezon	O'zbekiston	Xorijiy tajriba
Ta'limni boshqarish	O'qituvchi markazda	Talaba markazda
Mustaqil ish turlari	Referat, test, topshiriq	Loyiha, tadqiqot, portfolio
Baho berish	Yakuniy natija	Jarayon + natija
Texnologiya	Qisman	To'liq raqamlashgan
Akademik erkinlik	Cheklangan	Yuqori

O'zbekistonda mustaqil ta'lim tizimli shakllanib bormoqda, ammo ko'p holatda reproduktiv xarakter ustun. Ya'ni bilimni mustahkamlaydi, takrorlash usuli qo'llaniladi. Xorijiy ta'limda mustaqil ta'lim ijodiy, tadqiqotga yo'naltirilib, eng muhim farq – talabaning akademik mustaqilligi darajasiga qaratilganligidadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi[2].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek talabaning mustaqil shug'ullanishi uchun chet el ta'limidagi Flipped classroom (teskari sinf) metodi bo'yicha ayrim usullarni ishlab chiqdik.

Masalan, talabaga bir necha kichik hajmdagi hikoyalar o'qish uchun tavsiya beriladi. Masalan, "Ikki sham" hikoyasida Bir kuni yangi sham yonib turgan eski shamdan so'radi: – Siz asta-sekin erib, yo'q bo'lib boryapsiz. Qo'rqmaysizmi? Ko'hna sham jilmayib javob berdi:

– Aslo! Agar men erimasam, atrof qorong'u bo'lib qolardi. Mening borlig'im – boshqalarga nur berishda. O'zini asragan sham hech qachon chinakam yorug'lik nimaligini bilmaydi.

Inson umri ham shunday: faqat o'zi uchun yashagan vujud aslida zulmatdir.

Bu kichik hikoya haqiqiy baxt va yashashdan maqsad – o'zgalarga foyda keltirish va yaxshilik ulashish ekanini anglatadi.


Yana bir usul Peer learning (tengdoshlar orqali ta'lim) usulida talabalar mavzu bo'yicha polilogga tayyorlanib kelishi,o'z fikrlarini erkin namoyon etishi orqali maqsadga erishiladi.O'qituvchi nazoratchi emas,balki tyutor sifatida kamchiliklarni bartaraf etadi. Mavzular jamiyatdagi turli sohalardan olinishi mumkin.Masalan,guruhga to'rt ta mavzu beriladi:

[2] Musaxanova G.M. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, 2020-yil.227-b

1.Tinchlik buyuk ne’mat.
2.Mamlakat iqtisodi haqida
3.Ekologik muammolar barchamizniki.
4.Bilim-kelajak poydevori.

Bu mavzularga ma’lumotlar topish,muhokamaga tayyorlanish,taqdimot tayyorlash talabalarga mustaqil ish sifatida beriladi.

Pedagogik loyihalashning nutqiy rivojlanishdagi afzalliklari



Xulosa qilib shuni aytamizki, tabiatni asrab,avaylash,ularni kelajak avlod uchun yaxshi holatda yetkazish bizning vazifamizdir. Ekologik madaniyatni butun jamiyatning har bir a’zosi onggiga singdirishimiz, targ’ibot ishlarini olib borishimiz shart.

O‘quvchilarning og’zaki nutqidagi kamchiliklar: so‘zlarning takroriyligi, sinonimlardan unumli foydalanish, ovoz tezligining bir xilligi, ohangdorligi, ta’sirchanligi talabalar tomonidan qayd etib borildi va nutq so‘nggida so‘zlovchiga tavsiyalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.06.2018-yildagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-son Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018-yildagi PQ-3775-son Qarori 11-band, 2-xatboshi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ILOVA , “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

5. Подласый И.П. Педагогика. – М.: “Владос”. 2007.

6. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2011

7. Muzaffarjon Mansurov. “Mustaqil ta’lim muammolari va o‘ziga xos yechimlar” 23.01.2023. https://uza.uz/uz/

8. Musaxanova G.M. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.227-b

9. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Sharq nashriyoti. –T., 2004 y. 148-b

Rustam MO'MINOV,
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi, rus tili fani o'qituvchisi
Zebuniso BOBAYEVA,
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

GOSPITAL MAKTABLARDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'YIN TEXNOLOGIYALARI ORQALI NUTQIY FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada gospital maktab sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruscha nutqiy faoliyatini rivojlantirish muammosi yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi o'quvchilarning passivligi, rus tilini ikkinchi til sifatida past darajada egallagani, uzoq muddatli davolanish sharoitida ta'lim jarayonining o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lgan o'quv vaqtining yetishmasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, o'yin texnologiyalarining nutqiy faoliyatni faollashtirish va kichik yoshdagi o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish vositasi sifatidagi samaradorligini asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar. Gospital maktab, boshlang'ich sinflar, rus tili ikkinchi til sifatida, nutqni rivojlantirish, o'yin texnologiyalari, kommunikativ ko'nikmalar, cheklangan o'quv vaqti.

В статье освещается проблема развития русской речевой деятельности учащихся начальных классов в условиях госпитальной школы. Актуальность исследования объясняется пассивностью учащихся, низким уровнем владения русским языком как вторым, отсутствием учебного времени, что связано со спецификой образовательного процесса в условиях длительного лечения. Также обоснована эффективность игровых технологий как средства активизации речевой деятельности и формирования коммуникативных навыков у младших школьников.

Ключевые слова. Госпитальная школа, начальные классы, русский язык как второй язык, развитие речи, игровые технологии, коммуникативные навыки, ограниченное количество учебного времени.

The article highlights the problem of developing the Russian speech activity of primary school students in the conditions of a hospital school. The relevance of the research is explained by the lack of study time associated with the passivity of students, low level of mastery of Russian as a second language, and the specifics of the educational process in the context of long-term treatment. The effectiveness of game technologies as a means of activating speech activity and forming communicative skills in younger students is also substantiated.

Key words. Hospital school, primary grades, Russian as a second language, speech development, game technologies, communication skills, limited learning time.

Zamonaviy ta'lim tizimi tobora ko'proq nostandart sharoitlarda bolalarni o'qitish zarurati bilan to'qnash kelmoqda, ular orasida gospital maktab alohida o'rin tutadi. Bunday turdagi ta'lim muassasalari, xususan, "Mehrli maktab", uzoq muddatli davolanayotgan bolalar ta'limining uzluksizligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Biroq o'quvchilarning jismoniy va psixoemotsional holatining o'ziga xosligi, shuningdek, dars vaqtining cheklanganligi (30 daqiqa) qo'shimcha metodik qiyinchiliklar tug'diradi, ayniqsa rus tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda.

Ta’lim tili o‘zbekcha bo‘lgan maktablarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun rus tili ko‘pincha murakkab fan sifatida qabul qilinadi. Kasallik sababli darslarni uzoq vaqt qoldirish vaziyatni yanada og‘irlashtiradi, bu bilimlarning pasayishiga, motivatsiyaning tushishiga va darslarda barqaror passivlik shakllanishiga olib keladi. Natijada ko‘plab bolalarda lug‘at boyligi yetarli darajada shakllanmagan, og‘zaki nutqda ishonchsizlik, xato qilishdan qo‘rquv va buning oqibatida nutqiy faollikdan voz kechish holatlari kuzatiladi.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, kichik yoshdagi o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va bolaning ijtimoiy moslashuvi uchun muhim shart hisoblanadi. Shu bilan birga, gospital pedagogikasi sharoitida nafaqat bilimlarni yetkazish, balki psixologik qulaylik va muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, o‘quv motivatsiyasini va o‘quvchining ta’limiy identifikatsiyasini saqlab qolishga yordam berish ustuvor vazifaga aylanadi.

Shu munosabat bilan qisqa vaqt ichida bolalarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, xavotir darajasini kamaytirish va hatto passiv o‘quvchilarni ham jarayonga jalb etishga imkon beradigan o‘yin texnologiyalari alohida dolzarblik kasb etadi. O‘yinli o‘qitish metodlariga va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni gospital maktab sharoitiga va cheklangan o‘quv vaqtiga moslashtirish muammosi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Maqolaning maqsadlaridan yana biri – gospital maktab sharoitida va o‘quv vaqti tanqisligi holatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faoliyatini faollashtirish vositasi sifatida o‘yin texnologiyalarining samaradorligini asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

• kichik yoshdagi o‘quvchilarda nutqni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilish;

• rus tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘yin texnologiyalarining metodiksalohiyatini aniqlash;

• 30 daqiqalik dars sharoitida o‘yinlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini asoslash;

• nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yin topshiriqlarining amaliy misollarini taqdim etish.

Kichik maktab yoshida nutqni rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u leksik, grammatik va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Aynan shu davrda og‘zaki va yozma nutqning asoslari qo‘yiladi, ular esa keyingi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilab beradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning nutqiy faoliyati eng samarali tarzda faol o‘zaro ta’sir, dialog va tilni u uchun ahamiyatli bo‘lgan vaziyatlarda amaliy qo‘llash sharoitida rivojlanadi.

Kommunikativ yondashuv doirasida tilni o‘rganish qoidalar tizimini o‘zlashtirish sifatida emas, balki muloqot vositasini egallash sifatida qaraladi. Bu, ayniqsa, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi muhitda rus tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu yerda o‘quvchilar ona tilining interferensiyasi, cheklangan lug‘at boyligi va til amaliyoti tanqisligi bilan to‘qnash keladilar.

Uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ushbu qiyinchiliklar kognitiv faollikning pasayishi, tez charchash va emotsional beqarorlik bilan yanada kuchayadi. Bunday sharoitda tushuntirish-illyustrativ turdagi an’anaviy metodlar kam samarali bo‘lib chiqadi, chunki ular yetarli darajada nutqiy faollikni ta’minlamaydi va o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olmaydi.

Nutqiy faoliyatni faollashtirish vositasi sifatida o‘yin texnologiyalari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘yin texnologiyalari ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritishga asoslangan metodlar va usullar tizimini tashkil etadi. Ularning didaktik qiymati shundaki, o‘yin nutqiy faoliyat uchun tabiiy motivatsion asos yaratadi, xavotir darajasini kamaytiradi va o‘rganilayotgan faniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Gospital maktab sharoitida o‘yin texnologiyalari quyidagi sabablarga ko‘ra alohida ahamiyat kasb etadi:

– o‘quv yuklamasini me’yorlash va topshiriqlarni bolaning jismoniy holatiga moslashtirish imkonini beradi;

– qisqa vaqt ichida o‘quvchilarning yuqori darajada jalb etilishini ta’minlaydi;

– o‘z-o‘zini baholashni oshirishga va o‘z nutqiy imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishga yordam beradigan muvaffaqiyat vaziyatini yaratadi;

– passiv lug‘at boyligini faollashtiradi, bu esa bilimlardagi bo‘shliqlar mavjud bo‘lganida ayniqsa muhimdir.

30 daqiqalik dars uchun eng maqsadga muvofiq variant – aniq tuzilishga ega, uzoq tayyorgarlikni talab qilmaydigan va 10–15 daqiqa davomida barcha o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga jalb etish imkonini beradigan dinamik o‘yinlardir. Bunday o‘yinlar dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga, tasvirlash, tasniflash, dalillash va elementar til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Gospital maktab sharoitida o‘yin topshiriqlarini tanlashning metodik prinsiplari. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalarining samaradorligi ko‘p jihatdan nafaqat o‘yinning o‘zi qo‘llanilishiga, balki uning metodik jihatdan qanday tashkil etilganiga ham bog‘liq. Gospital maktab sharoitida bu jihat alohida ahamiyat kasb etadi, chunki pedagog o‘quvchilarning jismoniy holati, ularning emotsional foni, tilni egallash darajasining bir xil emasligi va dars vaqtining qat’iy chegaralari bilan bog‘liq omillar majmuasini inobatga olishga majbur bo‘ladi.

Gospital maktabning boshlang‘ich sinflarida rus tili darslari uchun o‘yin topshiriqlarini tanlash quyidagi prinsiplarga asoslanishi lozim.

Kommunikativ yo‘naltirilganlik prinsipi. Har bir o‘yin so‘z va shakllarni mexanik takrorlashga emas, balki ularni oddiy nutqiy vaziyatda qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Hatto leksik birliklarni mustahkamlash jarayonida ham o‘quvchilarni minimal dialogga jalb etish, ularni sodda bayonotlar, savollar, javoblar va izohlar tuzishga undash muhimdir.

Vaqtga muvofiqlik prinsipi. 30 daqiqalik dars sharoitida o‘yin 10–15 daqiqadan ortiq vaqtni egallamasligi lozim. Shu bilan birga, u maksimal darajada ko‘p o‘quvchini nutqiy faoliyatga jalb etadigan tarzda tashkil etilishi kerak. Haddan tashqari murakkab qoidalar, tarqatma materiallarni uzoq tayyorlash va uzoq tushuntirishlarga ehtiyoj o‘yinni metodik jihatdan samarasiz qiladi.

Variativlik prinsipi. Bir xil o‘yin shakli bir nechta murakkablik darajasi va bajarish variantlarini nazarda tutishi kerak. Bu topshiriqni tilni egallash darajasi turlicha bo‘lgan o‘quvchilarga moslashtirish, shuningdek, motivatsion ta’sirni yo‘qotmagan holda o‘yinni bir necha bor qo‘llash imkonini beradi.

Emotsional qulaylik prinsipi. Gospital maktab sharoitida qat’iy baholash va raqobat muhitini istisno etadigan samimiy, do‘stona muhit yaratish alohida ahamiyatga ega. O‘yin topshiriqlari xato o‘quv jarayonining tabiiy elementi sifatida qabul qilinadigan, salbiy fikr-mulohazaga sabab bo‘lmaydigan tarzda tuzilishi lozim.

Mazkur prinsiplarga amal qilish o‘yinni darsning yordamchi elementi sifatida emas,

balki gospital pedagogikasining o‘ziga xos sharoitlarida kichik yoshdagi o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning to‘laqonli metodik vositasi sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Metodik ahamiyati. Mazkur o‘yin vizual-kinestetik qabul qilish kanaliga tayanadi, bu esa tez charchaydigan va diqqatni jamlash darajasi past bo‘lgan bolalar uchun ayniqsa muhimdir. Harakat va imo-ishoralardan foydalanish o‘quvchilarning emotsional sohasini faollashtiradi, xavotir darajasini pasaytiradi va leksik birliklarning yanada mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘yin tabiiy nutqiy vaziyatni yaratadi, unda o‘quvchi so‘zni shunchaki takrorlamaydi, balki uni bayonot kontekstida qo‘llaydi. Bu esa passiv lug‘at boyligidan aktiv lug‘at boyligiga o‘tish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, gospital maktab sharoitidagi boshlang‘ich sinflarida dars vaqtininig qisqaligi sababli, o‘yin texnologiyalarini qo‘llash pedagogga o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish vazifasini samarali hal etish imkonini beradi. O‘yin o‘quvchini passiv tinglovchi pozitsiyasidan faol muloqot ishtirokchisi pozitsiyasiga olib o‘tadi, bu esa ta’limdan kasallik sababli uzilgan bolalar uchun ayniqsa muhimdir.

Pedagogik tajribani umumlashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ yo‘naltirilganlik, vaqtga muvofiqlik va emotsional qulaylik prinsiplari asosida tuzilgan o‘yin topshiriqlari xavotirning pasayishiga, o‘quv motivatsiyasining oshishiga va barqaror nutqiy ko‘nikmalarning bosqichma-bosqich shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Leontyev A. A. Muloqot psixologiyasi. – Moskva: Smysl, 2007. – 365 b.

2. Zimnyaya I. A. Kalit kompetensiyalar – ta’lim natijasining yangi paradigmasi // Bugungi oliy ta’lim. – 2003. – № 5. – 34–42-b.

3. Shchukin A. N. Xorijiy tillarni o‘qitishning kommunikativ metodikasi. – Moskva: Flinta, 2004. – 256 b.

4. Lightbown P. M., Spada N. How Languages are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 351 p.

5. Dörnyei Z., Ushioda E. Teaching and Researching Motivation. – London: Routledge, 2011.

Munisa XASANOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi v.b dotsent, p.f.f.d. (PhD)

OLIY BADIIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALARNING TASVIRIY SAN’ATGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada oliy badiiy ta’lim tizimida talabalarning tasviriy san’atga oid kasbiy kompetensiyalarini (kognitiv, amaliy-texnik, ijodiy-refleksiv hamda kommunikativ-prezentatsion) tizimli rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar asoslab beriladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan studiya (mahoratxona) ta’limi, loyiha asosida o‘qitish (PBL), keys-stadi va muammoli o‘qitish, portfolio texnologiyasi, STEAM/ART-integratsiya hamda raqamli vositalar bilan boyitilgan didaktik yechimlarning mazmuni, qo‘llash bosqichlari va kutiladigan natijalari yoritiladi. Muallif kriterial-formativ baholash (rubrika, chek-list, tezkor feedback, o‘zaro baholash) orqali ta’lim natijalarini shaffof o‘lchash va refleksiya madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Badiiy ta’lim, tasviriy san’at, kompetensiya, pedagogik texnologiya, studiya ta’limi, PBL, portfolio, keys-stadi, formativ baholash, rubrika.

В статье обоснованы педагогические технологии, служащие системному развитию профессиональных компетенций (когнитивных, практико-технических, творческо-рефлексивных и коммуникативно-презентационных) студентов в области изобразительного искусства в системе высшего художественного образования. Также с точки зрения компетентностного подхода освещается содержание, этапы применения и ожидаемые результаты дидактических решений, обогащенных студийным (мастерской) образованием, проектным обучением (PBL), кейс-стади и проблемным обучением, технологией портфолио, STEAM/ART-интеграцией и цифровыми инструментами. Автор показал возможности прозрачного измерения результатов обучения и формирования культуры рефлексии посредством критериально-формирующей оценки (рубрика, чек-лист, быстрая обратная связь, взаимная оценка).

Ключевые слова. Художественное образование, изобразительное искусство, компетенция, педагогическая технология, студийное обучение, PBL, портфолио, кейс-стади, формативное оценивание, рубрика.

The article substantiates pedagogical technologies that serve the systematic development of students’ professional competencies in fine arts (cognitive, practical-technical, creative-reflexive, and communicative-presentational) in the higher art education system. Also, from the point of view of a competency-based approach, the content, stages of application, and expected results of didactic solutions enriched with studio (master class) education, project-based learning (PBL), case study and problem-based learning, portfolio technology, STEAM/ART integration, and digital tools are highlighted. The author showed the possibilities of transparent measurement of learning outcomes and the formation of a culture of reflection through criteria-formative assessment (rubric, checklist, quick feedback, peer assessment).

Key words. Art education, fine arts, competence, pedagogical technology, studio education, PBL, portfolio, case study, formative assessment, rubric.

Oliy badiiy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassisdan nafaqat akademik bilim, balki ijodiy fikrlash, vizual madaniyat, kompozitsion yechim topish, material va texnika bilan mustaqil ishlash, san’at asarini tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida metodik qarorlar qabul qilish kabi ko‘p qirrali kompetensiyalar talab etiladi. Shu bois tasviriy san’at ta’limida an’anaviy “ko‘rsat–takrorla” modeli bilan cheklanib qolmasdan, kompetensiyaviy natijalarga yo‘naltirilgan texnologiyalar majmuasini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi – oliy badiiy ta’limda talabalarning tasviriy san’atga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarni tizimlashtirish, ularni qo‘llash algoritmlari va baholash mezonlarini taklif qilish.

1. Tasviriy san’atga oid kompetensiyalar: mazmun va tuzilma

Tasviriy san’at kompetensiyasi – talabaning vizual-badiiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va ijodiy tafakkuri birligida namoyon bo‘ladigan integrativ sifatdir. Uni quyidagi tarkibiy qismlar orqali ifodalash mumkin:

Kognitiv komponent: san’at nazariyasi, tarix, janrlar, kompozitsiya qonun-qoidalari, kolorit, perspektiva, anatomiya asoslari, materialshunoslik.

Amaliy-texnik komponent: chizish, rangtasvir, grafika, haykal/dekorativ ish, dizayn elementlari; texnika va material bilan xavfsiz va unumli ishlash.

Ijodiy-refleksiv komponent: g‘oya yaratish, vizual obraz qurish, alternativ yechim topish, o‘z ishini tanqidiy tahlil qilish, refleksiya.

Kommunikativ-prezentatsion komponent: asarning himoyasi, portfolio tuzish, ijodiy loyihani taqdim etish, muloqot va hamkorlik.

Ushbu tuzilma texnologiya tanlashda “nima rivojlantirilmoqda?” savoliga aniq javob beradi: masalan, loyiha usuli ijodiy-refleksiv va kommunikatsiyani kuchaytirsa, studiya ta’limi amaliy-texnik komponentni chuqurlashtiradi.

2. Kompetensiyaviy yondashuvga mos pedagogik texnologiyalar

Quyida oliy badiiy ta’limda samarali deb qaraladigan texnologiyalar va ularning amaliy mexanizmi keltiriladi.

2.1. Studiya (mahoratxona) texnologiyasi

Mohiyati: ustoz rahbarligida ijodiy muhit, individual traektoriya, “demonstratsiya–amaliyot–mulohaza” sikli.

Amaliy qadamlar:

diagnostika: talabaning start ko‘nikmalarini aniqlash (chizish, ton, rang, kompozitsiya);

mini-mahorat darslari: 10–15 daqiqalik texnik mikromavzular (masalan, tonal gradatsiya, qo‘l soyalari);

mustaqil ijro: bir vazifaning 2–3 variativ yechimi;

umumiy ko‘rik (kritika): konstruktiv fikr-mulohaza, “kamchilik–sabab–yechim” formulasi;

refleksiya: ijodiy kundalik yoki qisqa yozma xulosa.

Natija: texnik mahorat va professional refleksiya shakllanadi.

2.2. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning)

Mohiyati: real ijodiy mahsulotga yo‘naltirilgan ta’lim (ko‘rgazma, seriya ish, illyustratsiya paketi, mualliflik uslubi).

Texnologik xarita:

Muammo yoki topshiriqni aniqlash (brif).

Tadqiqot (vizual referens, uslubiy tahlil, etyudlar).

Eskiz va konsept (variantlar, moodboard).

Ijro (material, texnika, time-menejment).

Taqdimot va himoya.

Post-loyiha refleksiya (nimani yaxshilash kerak?).

Natija: ijodiy mustaqillik, rejalashtirish va prezentatsiya kompetensiyasi rivojlanadi.

2.3. Keys-stadi va muammoli o‘qitish

Mohiyati: san’at ta’limida tipik muammolarni yechish (masalan, kompozitsiya buzilishi, koloritning noaniqligi, perspektiva xatosi, g‘oyaning banalligi). Usullar: muammoli savollar, muqobil yechimlar bahsi, tahlil kartasi (kompozitsiya–ritm–masshtab–aktsent).

Natija: analitik fikrlash va professional qaror qabul qilish ko‘nikmalari kuchayadi.

2.4. Portfolio texnologiyasi

Mohiyati: kompetensiyalarni dalillar orqali ko‘rsatish (ishlar to‘plami va refleksiya). Portfolioda faqat “eng yaxshi ish” emas, balki rivojlanish dinamikasi (eskiz–variant–yakun) ham aks etishi lozim.

Baholash: kriteriylar (mazmun, texnika, originallik, aniqlik/akkuratlik, mustaqillik, refleksiya sifati). Natija: o‘z-o‘zini baholash va professional identifikatsiya kuchayadi.

2.5. STEAM/ART-integratsiya va media-san’at elementlari

Mohiyati: san’atni texnologiya va fan bilan bog‘lash (rang fizikasi, perspektiva geometriyasi, vizualizatsiya, grafik dizayn). Vositalar: raqamli illyustratsiya, foto/video kompozitsiya, tipografika, AR/VR demonstratsiyalar (imkon doirasida).

Natija: zamonaviy vizual savodxonlik va raqamli kompetensiya shakllanadi.

2.6. Kriterial va formativ baholash texnologiyasi

Mohiyati: “baho”dan ko‘ra “rivojlantiruvchi fikr-mulohaza” ustuvor. Amaliyot: rubrika (mezonlar shkalasi), chek-list, tezkor feedback, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash. Natija: talaba maqsadni aniq anglaydi va mukammallashish strategiyasiga ega bo‘ladi.

3. Kompetensiyalarni rivojlantirishning texnologik modeli

Amaliyotda samarali natija beruvchi umumiy model quyidagi zanjirga tayangan holda tashkil etiladi:

Maqsad (kompetensiya) → Mazmun (bilim va material) → Faoliyat (topshiriq/loyiha/keys) → Refleksiya (tanqidiy tahlil) → Baholash (rubrika/portfolio) → Korreksiya (individual traektoriya).

Modelning muhim sharti – har bir mashg‘ulotda kamida bitta “ko‘rinadigan natija” (mini-ish, eskiz, tahlil varag‘i, portfolio yozuvi) qolishi.

4. Amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar

Kurrikulumni kompetensiya xaritasi asosida qayta tuzish: har mavzuda qaysi komponent rivojlanishi aniq belgilansin.

Topshiriqlarni variativ qilish: bir texnik vazifaga kamida ikki yechim yo‘li (an’anaviy va eksperimental) rejalashtirilsin.

Kritika madaniyatini joriy etish: mulohaza etikasi, dalil va tavsiyaga asoslangan fikr bildirish mezonlari qo‘llansin.

Portfolio standartini belgilash: format, davriylik, refleksiya hajmi va rubrika talablari aniqlashtirilsin.

Raqamli vositalarni maqsadga muvofiq tanlash: texnologiya maqsadni almashtirmasin, balki ta’lim natijasini kuchaytirsin.

Xulosa qilib aytganda, oliy badiiy ta’limda talabalarning tasviriy san’atga oid kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ko‘p komponentli bo‘lib, u samarali pedagogik texnologiyalar integratsiyasini talab qiladi. Studiya ta’limi texnik mahoratni chuqurlashtirsa, loyiha asosida o‘qitish ijodiy mustaqillik va prezentatsiya ko‘nikmalarini shakllantiradi;

keys-stadi tahliliy fikrlashni, portfolio esa rivojlanish dinamikasi va refleksiyani ta’minlaydi. Kriterial-formativ baholash texnologiyasi ushbu jarayonning barqarorligi va shaffofligini oshiradi. Taklif etilgan “maqsad–mazmun–faoliyat–refleksiya–baholash–korreksiya” modeli asosida tashkil etilgan ta’lim talabalarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Black P., & Wiliam D. (1998). Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 5(1), 7–74.

2. Black P., Harrison C., Lee, C., Marshall, B., & Wiliam, D. (2004). Working Inside the Black Box: Assessment for Learning in the Classroom. London: GL Assessment.

3. Sadler D. R. (1989). Formative assessment and the design of instructional systems. Instructional Science, 18(2), 119–144.

4. Nicol D. J., & Macfarlane-Dick D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. Studies in Higher Education, 31(2), 199–218.

5. Brookhart S. M. (2013). How to Create and Use Rubrics for Formative Assessment and Grading. Alexandria, VA: ASCD.

6. Wiggins G., & McTighe J. (2005). Understanding by Design (2nd ed.). Alexandria, VA: ASCD.

7. Biggs J., & Tang C. (2011). Teaching for Quality Learning at University (4th ed.). Maidenhead: Open University Press.

8. Kolb D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

9. Schön D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books.

10. Thomas J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael, CA: Autodesk Foundation.

11. Krajcik J. S., & Blumenfeld P. C. (2006). Project-based learning. In R. K. Sawyer (Ed.), The Cambridge Handbook of the Learning Sciences (pp. 317–334). Cambridge: Cambridge University Press.

12. Bell, S. (2010). Project-based learning for the 21st century: Skills for the future. The Clearing House, 83(2), 39–43.

13. Barrett, H. (2007). Researching electronic portfolios and learner engagement. The REFLECT Initiative (materials).

14. Paulson, F. L., Paulson P. R., & Meyer, C. A. (1991). What makes a portfolio a portfolio? Educational Leadership, 48(5), 60–63.

15. Eisner, E. W. (2002). The Arts and the Creation of Mind. New Haven, CT: Yale University Press.

16. Freedman, K. (2003). Teaching Visual Culture: Curriculum, Aesthetics, and the Social Life of Art. New York: Teachers College Press.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-son Farmoni (28.01.2022).

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–6108-son Farmoni (06.11.2020).

Mastura NISHANOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Pedagogika” kafedrasi, katta o‘qituvchi
Dilnura KO‘CHAROVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, talaba

SUN’IY INTELLEKT VA “LLM” MODELLARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan Large Language Models (LLM) modellarini talabalarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, unda LLM modellarining lingvistik, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Sun’iy intellekt, LLM modellari, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya, raqamli texnologiyalar.

В данной статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта, в частности моделей больших языковых моделей (LLM), в развитии коммуникативной компетенции учащихся, а также анализируется потенциал моделей LLM в формировании лингвистических, социолингвистических и дискурсивных компетенций.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, модели LLM, лингвистические, социолингвистические, дискурсивные и стратегические компетенции, коммуникативная компетенция, цифровые технологии.

This article examines the role of artificial intelligence technologies, particularly large language models (LLMs), in developing students’ communicative competence and analyzes the potential of LLMs for developing linguistic, sociolinguistic, and discursive competencies.

Key words. Artificial intelligence, LLMs, linguistic, sociolinguistic, discursive, and strategic competencies, communicative competence, digital technologies.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda raqamli texnologiyalarni o‘rni beqiyos ekanligi, umuman XXI asr ta’lim tizimi raqamli transformatsiya bosqichini boshdan kechirayotgani hech kimga sir emas. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xususan sun’iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) tizimlarining paydo bo‘lishi chet tillarini o‘qitish metodikasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda ayniqsa Large Language Models (LLM) deb ataluvchi yirik til modellarining rivojlanishi ta’lim jarayonida yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

Kommunikativ yondashuv nazariyasiga ko‘ra, til o‘rgatishning asosiy maqsadi grammatik bilimlarni berish emas, balki o‘quvchining real muloqot sharoitida til birliklaridan samarali foydalana olish qobiliyatini shakllantirishdir.

Ushbu yondashuv ilk bor Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini til bilimidan kengroq ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida talqin qilgan. Keyinchalik Michael Canale va Merrill Swain (1980) kommunikativ kompetensiyani lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarga ajratgan holda nazariy modelni ishlab chiqdilar. Mazkur model hozird ham chet tilini o‘qitish

metodikasining asosiy nazariy poydevorlaridan biri hisoblanadi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars jarayonida barcha o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish, individual xatolar ustida ishlash hamda real hayotga yaqin kommunikativ muhit yaratish qiyin kechadi. Aynan shu nuqtada sun’iy intellekt texnologiyalari, xususan LLM modellar samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. LLM modellar katta hajmdagi matn korpuslari asosida yaratilgan bo‘lib, ular tabiiy tilni tushunish va generatsiya qilish imkoniyatiga ega. Bu esa ularni virtual suhbatdosh, yozma nutq tahlilchisi va interaktiv mashq yaratuvchisi sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar sun’iy intellekt asosidagi til o‘rgatish vositalari talabalarning nutq faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada oshirganini ko‘rsatmoqda. Masalan, ingliz tilini o‘qitishda AI asosidagi interaktiv platformalardan foydalanish talabalar gapirish ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashi qayd etilgan. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning ayniqsa diskursiv va strategik komponentlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib LLM modellaridan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojiga ta’sirini aniqlash va ularning pedagogik samaradorligini baholashdagi imkoniyatlarini o‘rganish juda muhim hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor Dell Hymes tomonidan 1972-yilda ilgari surilgan bo‘lib, u til bilish tushunchasini kengaytirib, insonning tilni real ijtimoiy kontekstda qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga olishini ta’kidlagan. Hymes nazariyasiga ko‘ra, grammatik bilimning o‘zi yetarli emas, balki nutqning vaziyatga mosligi va ijtimoiy maqbul shaklda qo‘llanishi ham muhim hisoblanadi. Keyinchalik Michael Canale va Merrill Swain (1980) kommunikativ kompetensiyani to‘rtta asosiy komponentga ajratgan:

lingvistik kompetensiya (grammatika va leksika bilimi);

– sotsiolingvistik kompetensiya (ijtimoiy vaziyatga mos nutq);

– diskursiv kompetensiya (matnning mantiqiy bog‘langanligi);

– strategik kompetensiya (muloqot jarayonida muammolarni bartaraf etish qobiliyati).

Mazkur model bugungi kunda kommunikativ yondashuvning asosiy nazariy poydevori sifatida qo‘llaniladi.

Yevropa Kengashining (Council of Europe) tomonidan ishlab chiqilgan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tizimiga ko‘ra, B1–B2 darajadagi o‘quvchilar “independent user” (mustaqil foydalanuvchi) hisoblanadi. Ular tanish mavzularda muloqot qila olishi, fikrini oddiy, ammo mantiqiy shaklda bayon eta olishi, murakkab matnlarni tushuna olishi, mavzular bo‘yicha batafsil fikr bildira olishi, bahs-munozarada faol ishtirok eta olishilari kerak. Shunga qaramay, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, B1–B2 darajadagi o‘quvchilar ko‘pincha spontan nutq, diskursiv bog‘lanish va leksik boylik yetishmovchiligi muammosiga duch kelmoqda.

Large Language Models (LLM) – bu katta hajmdagi matn korpuslari asosida o‘qitilgan sun’iy intellekt tizimlari bo‘lib, ular tabiiy tilni tushunish va generatsiya qilish, uni mantiqiy bog‘lanishlar asosida, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni tuzib berish imkoniyatiga ega. Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, AI asosidagi til o‘rgatish vositalari o‘quvchilar nutq faolligini oshirishi va individual o‘rganish muhitini yaratishi mumkin. AI asosidagi interaktiv tizimlar, ayniqsa dialog shaklidagi mashqlar, o‘quvchilar nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. LLM modellar real vaqt rejimida javob berish, xatolarni tahlil qilish va kontekstga mos tavsiyalar berish xususiyatiga ega bo‘lgani sababli, ular kommunikativ kompetensiyaning diskursiv va

strategik komponentlarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, LLM modelleridan foydalangan holda mashg‘ulotlar o‘tish va o‘quvchilarga mustaqil ta’lim vazifalarini bajartirish natijasida ularda lingvistik kompetensiyalardan grammatik aniqlik va leksik boylik jihatidan yaxshilanish, sinonimlar va frazeologik birliklardan foydalanish darajasi oshdi. Sotsiolingvistik kompetensiyalardan turli kommunikativ vaziyatlarda mos nutq tanlash ko‘rsatkichlari yaxshilanganini va ‘‘Role-play’’ mashqlari yordamida o‘quvchilar rasmiy va norasmiy nutq uslublarini farqlash va amalda qo‘llashni o‘rganishdi. Diskursiv va strategik kompetensiya borasida matnni mantiqiy bog‘lash va muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilanganini, LLM modellar yordamida ular dialog davomida xatolarni tuzatish, fikrlarni qayta shakllantirish va savol-javob strategiyalarini qo‘llash imkoniga ega bo‘lganliklarini tadqiqot natijalari asoslanib yxshilandi deb aytishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, LLM (Large Language Models) modellaridan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, ularda lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlar sezilarli darajada yaxshilanganini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, LLM modellarining pedagogik imkoniyatlari nafaqat individual o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, balki o‘quvchilarni interaktiv muloqot muhiti bilan ta’minlab, kommunikativ ko‘nikmalarni tez va samarali shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.

2. Canale M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

3. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press.

4. Cong Y. (2024). AI-Assisted Language Learning Applications and Studies. Education Sciences, MDPI.

5. Creswell J. W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. SAGE Publications.

6. Hymes D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269–293). Penguin.

7. Long X., & Lin, Y. (2022). Transforming language education: A systematic review of AI chatbot usage in English learning. Journal of Educational Technology.

Zamiraxon RAHMONOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi, katta o'qituvchi

SHAXS AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada shaxs axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda milliy qadriyatlar – xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an'analari, diniy e'tiqodlari hamda ma'naviy merosining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda oilaning, ta'lim muassasalarining va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim omil sifatida ta'kidlanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya orqali yoshlarda vatanparvarlik, halollik, hurmat, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar. Milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, ma'naviyat, shaxs kamoloti, an'ana, urf-odat, oila tarbiyasi, ma'rifat, vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, bag'rikenglik, milliy o'zlik, ma'naviy meros, pedagogik jarayon.

В данной статье раскрывается роль и значение национальных ценностей в процессе формирования нравственного воспитания личности. Национальные ценности рассматриваются как неотъемлемая часть исторического опыта народа, его обычаев, традиций, религиозных убеждений и духовного наследия. В статье подчеркивается важность взаимодействия семьи, образовательных учреждений и общества в развитии морально-нравственных качеств личности. Также анализируются педагогические основы формирования таких качеств, как патриотизм, честность, уважение, толерантность и гуманизм, посредством воспитания, основанного на национальных ценностях.

Ключевые слова. Национальные ценности, нравственное воспитание, духовность, развитие личности, традиции, обычаи, семейное воспитание, просвещение, патриотизм, гуманизм, честность, толерантность, национальная идентичность, духовное наследие, педагогический процесс.

This article reveals the role and significance of national values in the process of forming the moral education of an individual. National values are considered as an integral part of the historical experience of the people, their customs, traditions, religious beliefs, and spiritual heritage. The article emphasizes the importance of the interaction between the family, educational institutions, and society in the development of moral and ethical qualities of the individual. It also analyzes the pedagogical foundations of forming such qualities as patriotism, honesty, respect, tolerance, and humanism through education based on national values.

Key words. National values, moral education, spirituality, personal development, traditions, customs, family upbringing, enlightenment, patriotism, humanism, honesty, tolerance, national identity, spiritual heritage, pedagogical process.

Manaviy axloqiy tarbiyani amalga oshirishda milliy qadriyatlarning o'rni O'zbekistonning ma'naviy axloqiy tarbiya tizimida milliy qadriyatlarning ahamiyatini va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini batafsil o'rganishga bag'ishlangan. Biz qadriyatlarning ta'sirini, ma'naviy tarbiya jarayonidagi rolini va milliy g'oyaning ahamiyatini ko'rib chiqamiz. Sharq mutafakkirlarining shaxs tarbiyasiga oid fikrlari va yosh avlodni tarbiyalashda milliy g'oyaning ijtimoiy-axloqiy jihatlari haqida

mulohaza yuritamiz. O‘zbekistonda ma’naviy ahloqiy tarbiya mazmuni Milliy qadriyatlar O‘zbekiston ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimi milliy qadriyatlarga asoslangan bo‘lib, bu qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, xalqning ma’naviy merosini boyitib kelmoqda. Ular avloddan avlodga o‘tib, milliy g‘oyaning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Milliy qadriyatlarga hurmat, halollik, mehr-oqibat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kiradi. Bu fazilatlar jamiyatdagi birdamlikni ta’minlash, oila va qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Mazkur qadriyatlar nafaqat insoniy fazilatlarni shakllantirishda, balki xalqning ma’naviy rivojlanishiga hissa qo‘shishda davom etmoqda. Halollik va mehr-oqibat jamiyatdagi iliq munosabatlarni kuchaytirsa, vatanparvarlik va mehnatsevarlik mamlakat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Zamonaviy talablar Zamonaviy dunyodagi tezkor o‘zgarishlar va globalizatsiya jarayonlari ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, ushbu jarayonlar qanchalik dinamik bo‘lmasin, milliy qadriyatlar o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Aksincha, ular zamonaviy sharoitlarda yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalash va milliy o‘zlikni saqlab qolishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Global ta’sirlar milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashar ekan, yoshlarni ma’naviy barkamollikka yetaklash va ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishda bu qadriyatlarning o‘rni oshmoqda. Shu sababli, milliy qadriyatlar zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirilib, yoshlar tarbiyasida asosiy tamoyillardan biri sifatida xizmat qilishda davom etmoqda.

Oila Qadriyatlarning shakllanishi va tarbiyaviy asoslarining boshlanish nuqtasi. Ta’lim Yoshlarni bilimli va ma’naviyatli etishda muhim bo‘lgan tizim. Jamiyat Qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi muhit. Milliy g‘oya Qadriyatlarni birlashtiruvchi va avlodlarga yetkazuvchi tamoyil. Shaxs ahloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati:

1. Axloqiy ong Milliy qadriyatlar shaxsning axloqiy tamoyillarini shakllantiradi, unga yaxshi va yomonni farqlashni, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Halollik, adolat va mehr-oqibat kabi qadriyatlar insonning ma’naviy rivojlanishiga yo‘l-yo‘riq beradi.

2.Vatanparvarlik Milliy qadriyatlar orqali vatanparvarlik hissi shakllanib, shaxsni xalq manfaatlariga xizmat qilishga undaydi. U millatga sadoqat va yurt ravnaqiga intilishni rag‘batlantiradi, jamiyatga foydali bo‘lishni o‘rgatadi. Milliy qadriyatlar shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonida yo‘nalish berib, uning ichki intizomini shakllantirish, hayotiy maqsadlarini belgilash va ma’naviy jihatdan kamolotga yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Ular shaxsga o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatga foydali bo‘lish uchun zarur bo‘lgan axloqiy ko‘nikmalarni beradi.

Sharq mutaffakkirlarining shaxs ahloqiy tarbiyasiga oid qarashlar Abu Rayhon Beruniy ilm-fan va axloqiy qadriyatlarni birlashtirgan buyuk mutafakkirdir. U insonning axloqiy rivojlanishida ilmning ahamiyatini ta’kidlab, ilm va ma’rifatni jamiyatni obod qilishning asosiy vositasi sifatida ko‘rgan. Beruniy o‘zining asarlarida adolat, samimiyat va insoniyatga xizmat qilishni muhim qadriyatlar sifatida e’tirof etgan.

Navoiy vatanparvarlik, millatga sadoqat va xalq manfaatlari uchun xizmat qilishni targ‘ib qilgan. Uning fikricha, inson o‘z xalqining ravnaqiga xizmat qilish orqali chinakam baxt va yuksak ma’naviyatga erishadi. Navoiy adolat, halollik va insoniylikni axloqiy hayotning asosiy tamoyillari sifatida ta’kidlagan, o‘z asarlarini bu qadriyatlarni yoyishga bag‘ishlagan. Ibn Sino Ibn Sino, shuningdek, Avitsenna nomi bilan ham tanilgan, ilm va axloqiy qadriyatlarning ahamiyatini chuqur tushungan. U adolat, halollik, insoniylik va mehr-oqibatni jamiyatda o‘zgarmas qadriyatlar sifatida ko‘rgan. Ibn Sino, ayniqsa, axloqni va ilmni birlashtirib, insonning ruhiy va ma’naviy yuksalishini ta’kidlagan. Uning

fikricha, faqat ilm olish va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish orqali inson chinakam baxt va huzurga erishishi mumkin. Yusuf Xos Hojib axloqiy tarbiya va insoniy fazilatlar haqida chuqur fikrlar bildirishgan. Uning asari “Qutadg‘u bilig”da, u odob-axloq, adolat, halollik va mehr-oqibatni jamiyatdagi asosiy qadriyatlar sifatida ta’kidlagan. U insonning axloqiy kamolotga erishishida o‘zini boshqarish va to‘g‘ri yo‘lni tanlash zarurligini ta’kidladi, bu esa uni jamiyatda hurmat va izzatga sazovor qiladi.

Ma’naviy tarbiya jarayonida, milliy qadriyatlarning ahamiyati. Qadriyatlar yosh avlodni o‘z tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

1. Yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni halollik, rostgo‘ylik, mehribonlik va boshqa ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishga undaydi.

2. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni jamiyatning faol a’zolari bo‘lishga undaydi.

3. Yoshlarni o‘z milliy g‘oyasiga sodiq bo‘lishga va milliy manfaatlar uchun xizmat qilishga o‘rgatadi.

Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi “Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlar aro totuvlik, dinlar aro bag‘ri kenglik kabi tamoyillarning ma’no mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy ma’rifiy ta’lim tarbiya ishlarini markazga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyo qarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat”.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar O‘zbekistonning ma’naviy axloqiy tarbiya tizimining asosi bo‘lib, yoshlarni axloqiy jihatdan shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy qadriyatlar yosh avlodni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik va boshqa ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishga undaydi. Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi bir-birini to‘ldiradi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Bu qadriyatlar nafaqat shaxsiy tarbiya, balki jamiyatda tinchlik, barqarorlik va adolatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar yosh avlodni o‘zligini anglashi, o‘z tarixiga hurmat bilan qarashi va mustaqil fikrlashga yo‘naltiradi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, mamlakatning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni

2. Shavkat mirziyoyevning “Hozirgi zamon va yangi O‘zbekiston” kitobi “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmon”

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

4. Abdullaeva M. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

5. Jalolov J., Xodjieva D. Pedagogika: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020

6. G‘ofurov U. Pedagogik mahorat va tarbiyaviy jarayonlarda qadriyatlarning o‘rni. – Toshkent: TDPU, 2018.

7. To‘xtaxo‘jayev B. Axloq va odob asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2016.

8. Ergasheva Z. Milliy qadriyatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021.

Nasiba BEGMATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

O‘QUVCHILARNING MILLIY TUYG‘ULARINI O‘STIRISHDA ADABIY ASARLAR MAZMUNINING PEDAGOGIK TAHLILI – MUHIM VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati, ayniqsa unda aks etgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, tarixiy xotira vama’naviy merosning yosh avlod ongiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiy asarlarni o‘rganish jarayonida ularning mazmunini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, milliy g‘urur va iftixorni kuchaytirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Bundan tashqari, badiiy matnlar asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini boyitish, milliy madaniyatga hurmat ruhini shakllantirish hamda ajdodlar merosiga sadoqat tuyg‘ularini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Muallif adabiy asarlarning qahramonlari, voqealari va g‘oyaviy mazmuni orqali o‘quvchilar qalbida milliy qadriyatlarga sadoqat, Vatanga muhabbat va ijtimoiy mas’uliyat hissini tarbiyalash mumkinligi asoslab bergan.

Tayanch so‘zlar. Adabiy asarlar, pedagogik tahlil, milliy tuyg‘ularni rivojlantirish, badiiy matnlar, milliy o‘ziga xoslikni anglash, madaniy meros, badiiy ifoda vositalari, etnik o‘ziga xoslik, ma’naviy va estetik tarbiya, pedagogik yondashuvlar.

В статье анализируется воспитательное значение художественной литературы, особенно влияние отраженных в ней национальных ценностей, обычаев, традиций, исторической памяти и духовного наследия на сознание молодого поколения. Также в процессе изучения литературных произведений путем анализа их содержания с педагогической точки зрения освещаются возможности формирования у учащихся национального самосознания, чувства патриотизма, усиления национальной гордости и достоинства. Кроме того, рассматриваются педагогические возможности обогащения духовно-нравственного воспитания учащихся на основе художественных текстов, формирования духа уважения к национальной культуре и развития чувства преданности наследию предков. Автор обосновал, что через героев, события и идейное содержание литературных произведений можно воспитать в сердцах читателей преданность национальным ценностям, любовь к Родине и чувство социальной ответственности.

Ключевые слова. Литературные произведения, педагогический анализ, развитие национальных чувств, художественные тексты, осознание национальной идентичности, культурное наследие, средства художественного выражения, этническая идентичность, духовное и эстетическое воспитание, педагогические подходы.

The article analyzes the educational significance of fiction, especially the influence of national values, customs, traditions, historical memory, and spiritual heritage reflected in it on the consciousness of the younger generation. Also, in the process of studying literary works, by analyzing their content from a pedagogical point of view, the possibilities of strengthening national self-awareness, the formation of patriotic feelings, and national pride in students are highlighted. In addition, the pedagogical possibilities of enriching the spiritual and moral education of students based on literary texts, forming a spirit of respect for national culture, and developing feelings of devotion to the heritage of ancestors are considered. The author substantiates the possibility of fostering in the hearts of students loyalty to national values, love for the Motherland, and a sense of social responsibility through the characters, events, and ideological content of literary works.

Key words. Literary works, pedagogical analysis, development of national feelings, artistic texts, awareness of national identity, cultural heritage, means of artistic expression, ethnic identity, spiritual and aesthetic education, pedagogical approaches.

Jahon pedagogik tajribasida zamonaviy adabiy ta’limni amalga oshirish va uning muhim qismi hisoblangan o‘quv darsliklariga didaktik materiallar tanlash, ta’lim jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakl, usul va vositalarini tatbiq etish adabiyot o‘qitishning muhim masalasi hisoblanib, bu sohada o‘quv materialini tanlashning turli o‘lchamlari joriy etilgan. Ana shunday o‘lchamlardan biri o‘quv materialining “o‘qishlilik” darajasidir. AQSHning ko‘pgina shtatlarida tahsil oluvchilar uchun mo‘ljallangan o‘quv matni o‘qishlilik indeksiga muvofiq kelishi qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Rossiya va Qozog‘iston Respublikasida ham darsliklarga qo‘yiladigan talablarda milliy ta’lim xususiyatlarini nazarda tutgan holda, flesh indeksiga moslik tamoyili hisobga olinadi. Dunyoda o‘quv matnning “o‘qishlilik” darajasini standartlash masalasi o‘tgan asrning 20–30-yillaridan boshlanib, 80-yillarda Xalqaro Kitobxonlar Assotsiatsiyasi va AQSH ingliz tili o‘qituvchilarining Milliy Kengashi o‘quv materiallarining o‘qishlilik darajasiga alohida e’tibor bilan yondashishning zaruriyati asoslangan. Bularning barchasi dars jarayoni va darslikka o‘quv materiallari tanlash orqali adabiy ta’lim sifati va samaradorigini ta’minlashga umumjahon pedagogik tafakkurida dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida adabiy ta’lim sifati va samaradorligi millat kelajagi uchun xizmat qilmoqda, yangi avlod darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, elektron kitoblar, ma’lumotnomalar yaratilmoqda, kitob o‘qish va kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonda mukammal o‘quv materialiga ehtiyoj mavjud bo‘lib, ushbu o‘quv materialida o‘quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash, ularni kitobxonlik, teatr, san’at, sportga qiziqtirish, aqliy tarbiyani amalga oshirish kabi vazifalar yetakchilik qilishi taqozo etilmoqda[1].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori asosida qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” Konsepsiyasida yoshlar ma’naviyatiga oid quyidagi so‘zlar keltirib o‘tilgan:Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.Ushbu konsepsiya ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, bunda yoshlar tarbiyasi va ma’naviyati faqatgina bir sohagagina taalluqli emasligini bunda oila, mahalla,maktabgacha va maktab ta’limi ham bevosita birgalikda hamkorlikda faoliyat olib borilsagina uzluksiz ma’naviy tarbiyaga erishib bo‘lishlik jihatlari keltirib o‘tilgan[2].

Prezident Shavkat Mirziyoyev yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratib, ma’naviy tarbiyada adabiyot va milliy merosning o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlaydi. Jumladan, u shunday deydi: “U yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib, kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar

[1] To‘ychiyeva M.Adabiyot darslarida Didaktik vositalar: Tanlov o‘lchovlari, Qo‘llash usullari. Toshkent: Fan va ta’lim, 2023,2b

[2] Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019 yildagi 1059-sonli qarori,1-3 s

etamiz''. Ushbu fikr adabiy asarlarning tarbiyaviy salohiyatini ochib berib, ularni ta'lim jarayonida chuqur pedagogik tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi[3]. Shuningdek, davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida 70-maqsadda belgilab o‘tgan.Strategiyada jamiyatning barqaror rivoji, avvalo,yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq yosh avlodni tarbiyalsh bilan uzviy bog‘liqligi alohida ta'kidlanadi. Shu jihatdan, hujjatda yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, ularning ongida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va tarixiy xotira tuyg‘ularini mustahkamlash muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Strategiyada milliy o‘zlikni anglash va ma'naviy merosga tayanish yoshlar tarbiyasining muhim omili sifatida baholanadi.Unda yosh avlodni buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy adabiy, ilmiy va madaniy meros asosida tarbiyalash orqali ularning ma'naviy dunyosini boyitish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish zarurligi qayd etiladi. Bu esa adabiy asarlar mazmunining pedagogik tahlilini yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi[4].

Hozirgi adabiy jarayonga befarq bo‘lmagan, o‘z munosabatlarini faol ravishda e'lon qilib boruvchi tanqidchi,adabiyotshunos olim shu bilan bir qatorda "Adabiyot o‘qitishning ilmiynazariy asoslari" kitobida adabiy ta'lim tizimini tubdan yangilashning ilmiy-nazariy va tashkiliy tamoyillari ishlab chiqilgan. Ushbu nashrda tayyor tushunchalar shunchaki berish bilan emas, balki, badiiy matn asosida ma'naviy qarashlar, estetik did qaror topdirish birlamchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Ustoz adabiy ta'limni "Yangi ijtimoy ong talablari darajasida tashkil etishning tamoyillarini belgilash pedagogika nazariyasi uchun ham, adabiyot o‘qitish metodikasi uchun ham kechiktirib bo‘lmaydigan zarurat" ekanini alohida ta'kidalashi adabiyot o‘qitishni tubdan yangilashning muhim masalalarini ko‘zda tutadi. Milliy va chet eldagi ilg‘or pedagogik qarashlarni qiyoslab o‘rganish, adabiyot o‘qitishda tayaniladigan metodik, pedagogik va estetik asoslarga yangilanayotgan pedagogik tafakkur nuqtayi nazaridan yondoshuv olimning ilmiy tadqiqotlari qimmatining oshishiga sabab bo‘ldi[5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, adabiy asarlarning pedagogik tahlili milliy tuyg‘ularni shakllantirish va rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Adabiy matnlarni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik hissi, tarixiy xotira va madaniy merosni anglash qobiliyati rivojlanadi. Shu bilan birga, qahramonlar va ularning voqealarini tahlil qilish yoshlar ongida axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi.

Mazmuniy-pedagogik tahlil adabiy asarlarning mazmunini o‘quvchilarning pedagogik rivojlanishi va milliy tuyg‘ularni shakllantirishga yo‘naltirishga qaratilgan tizimli tadqiqot usulidir. Ushbu tahlil orqali adabiy matnning g‘oya, obrazlar, voqealar va badiiy vositalari pedagogik jihatdan o‘rganiladi va uning tarbiyaviy ahamiyati aniqlanadi.

Adabiy asarning g‘oyasi o‘quvchilar ongida axloqiy, ijtimoiy va milliy qadriyatlar-

[3] Mirziyoyev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-B.146

[4] .Mirziyoyev Sh.M.Yangi O‘ zbekiston strategiyasi.-Toshkent:O‘zbekiston, 2022.

[5] https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27877 Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi. Qozoqboy Yo‘ldosh adabiy-estetik qarashlarining o‘ziga xosligi maqolasi.08.01.2024,1-2 s

ni rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. O‘zbek xalq hikoyalari va ertaklarida aks etgan halollik, jasorat, mehr-oqibat kabi qadriyatlar o‘quvchilarda axloqiy ongni shakllantiradi. Pedagogik tahlil jarayonida o‘qituvchi asar g‘oyasini o‘quvchilar hayotiy tajribasi bilan bog‘lab tushuntiradi, bu esa milliy tuyg‘ularni va vatanparvarlik hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar: Savol-javob, muhokama, dramatizatsiya, rol o‘ynash va guruh ishlari orqali o‘quvchilarning matnga faol ishtirokini ta’minlash. Bu usullar milliy tuyg‘ularni faollashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Badiiy obrazlar tahlili: Qahramonlar pedagogik tahlilda markaziy o‘rin tutadi. Ularning xulqi, qarorlari va harakatlari o‘quvchilarda ijtimoiy va axloqiy me’yorlarni shakllantiradi. Masalan, Alisher Navoiy asarlaridagi qahramonlar jasorat, vatanparvarlik va ma’naviy kuch bilan ajralib turadi, bu esa o‘quvchilarda milliy g‘urur va o‘zlikni anglashni rivojlantiradi. Pedagogik tahlil qahramonlar faoliyatini yoritib, ularning qadriyatlarni qabul qilish va kundalik hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Tarixiy va komparativ tahlil: Turli davr adabiy asarlarini solishtirish orqali milliy qadriyatlarning doimiyligi va o‘zgarishini tushuntirish, shuningdek, o‘quvchilarda milliy g‘urur va tarixiy ongni rivojlantirish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, adabiy asarlarning pedagogik tahlili nafaqat milliy tuyg‘ularni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning estetik didi, axloqiy va ijtimoiy ongini boyitadi. Shu bilan birga, pedagogik tahlil jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash va matnni kontekst bilan bog‘lash yoshlarning o‘z-o‘zini anglashini kuchaytiradi va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Xuosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, adabiy asarlarning pedagogik tahlili o‘quvchilarda milliy tuyg‘ularni shakllantirish va rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Mazmuniy-pedagogik tahlil orqali badiiy matnlarning g‘oya, qahramonlar, voqealar va badiiy ifoda vositalari pedagogik nuqtai nazardan o‘rganilib, ularning tarbiyaviy ahamiyati aniqlanadi. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, adabiy asarlar nafaqat axloqiy va estetik tarbiya berishga, balki o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘ychiyeva M. Adabiyot darslarida Didaktik vositalar: Tanlov o‘lchovlari, Qo‘llash usullari. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2023,2b

2. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019 yildagi 1059-sonli qarori,1-3 s

3.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-B.146.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

5. To‘ychiyeva M. Adabiyot darslarida Didaktik vositalar: Tanlov o‘lchovlari, Qo‘llash usullari. –Toshkent: Fan va ta’lim, 2023,3b

6. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27877 Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi. Qozoqboy Yo‘ldosh adabiy-estetik qarashlarining o‘ziga xosligi maqolasi.08.01.2024,1-2 s

7. To‘ychiyeva M. Adabiyot darslarida Didaktik vositalar:Tanlov o‘lchovlari, Qo‘llash usullari. – Toshkent: Fan va ta’lim,2023,3b

Dilorom ADILOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, dotsent

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARI VOSITASIDA TALABALARNING VATANPARVARLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari asosida talabalarda vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. “Boburnoma” hamda Boburning she’riy merosining tarbiyaviy va pedagogik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, oliy ta’lim jarayonida Bobur merosidan foydalanish orqali talabalarda milliy identitet, tarixiy tafakkur va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Tayanch so‘zlar. Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, vatanparvarlik kompetensiyasi, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, oliy ta’lim.

В статье анализируются вопросы формирования патриотической компетенции у студентов на основе произведений Захириддина Мухаммада Бабура. Освещается воспитательное и педагогическое значение произведения «Бабурнама» и поэтического наследия Бабура. Также обосновываются возможности использования наследия Бабура в образовательном процессе высших учебных заведений для развития у студентов natsionalьной идентичности, исторического сознания и гражданской ответственности.

Ключевые слова. Захириддин Мухаммад Бабур, Бабурнама, патриотическая компетенция, natsionalьные ценности, духовное воспитание, высшее образование.

The article analyzes the issues of developing patriotic competence among students through the works of Zahiriddin Muhammad Babur. It highlights the educational and pedagogical significance of the “Baburnama” and Babur’s poetic heritage. The study also substantiates the possibilities of using Babur’s heritage in higher education to promote students’ national identity, historical thinking, and civic responsibility.

Key words. Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, patriotic competence, national values, spiritual education, higher education.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy merosga sadoqat hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va milliy identitetini shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, buyuk tarixiy shaxslar va mutafakkirlarning ilmiy-adabiy merosini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish katta ahamiyat kasb etadi. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari tarixiy, adabiy va ma’naviy jihatdan boy manba bo‘lib, ular orqali yosh avlodda vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari kengdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq uyg‘onish davrining buyuk namoyandalaridan biri bo‘lib, u nafaqat yirik davlat arbobi va sarkarda, balki chuqur tafakkur egasi bo‘lgan adib, tarixchi va mutafakkir sifatida ham jahon tamaddunida muhim o‘rin egallaydi. Uning boy ilmiy-adabiy merosi bugungi kunda ham ma’naviy-ma’rifiy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Bobur asarlarining tarbiyaviy va pedagogik salohiyati nihoyatda yuqori hisoblanadi.

Global internet asrida yoshlarning milliy identitetini mustahkamlash va ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning milliy qadriyatlar, tarixiy meros hamda ma’naviy an’analar asosida tarbiyalanishini ta’minlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategik yondashuv ta’lim tizimida milliy tarix va madaniy merosni o‘rganishga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.Bu borada Bobur asarlari, ayniqsa “Boburnoma”, o‘zining tarixiy, adabiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan alohida ajralib turadi.

Bobur o‘z asarida ona yurti haqida katta mehr bilan yozadi. Jumladan, “Boburnoma”da Andijon shahri haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Andijon Farg‘ona viloyatining poytaxti bo‘lib, uning havosi sof, tabiati go‘zal va xalqi mehmondo‘stdir”. Ushbu tasvirlar muallifning vatanga bo‘lgan samimiy muhabbatini aks ettirib, yosh avlod qalbida ham ona yurtga nisbatan mehr va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur asar nafaqat tarixiy manba, balki muallifning hayotiy tajribasi, siyosiy qarashlari va insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi noyob asar sifatida ham qadrlanadi. Asarda muallif o‘z davrining siyosiy jarayonlari, davlat boshqaruvi, shaharlar taraqqiyoti, tabiat tasvirlari hamda xalq turmushi haqida batafsil ma’lumot beradi. Bunday tasvirlar talaba-yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish bilan birga ularda o‘z yurtiga nisbatan faxr va g‘urur tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Boburning vatanparvarlik ruhidagi qarashlari uning asarlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “Boburnoma”da Farg‘ona vodiysi, Andijon va Samarqand haqida yozilgan tasvirlar muallifning vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ifodalaydi. Bobur o‘z ona yurtidan uzoqda bo‘lgan davrlarda ham uni katta sog‘inch bilan eslaydi. Bu holat yoshlar ongida vatan tuyg‘usini chuqur anglashga yordam beradi. Bobur asarlarida aks etgan ana shunday tasvirlar talaba-yoshlarni milliy tarixga hurmat bilan qarashga, o‘z yurtining boy madaniy merosini qadrlashga undaydi.

Bobur asarlarida vatanparvarlik g‘oyasi faqatgina tarixiy voqealar tasvirida emas, balki muallifning shaxsiy hayotiy kechinmalarida ham namoyon bo‘ladi. Bobur o‘z ona yurtidan uzoqda bo‘lgan davrlarda ham uni sog‘inch bilan eslaydi va uning tabiati hamda xalqining fazilatlarini alohida e’tirof etadi. Bunday tasvirlar yoshlarning ma’naviy dunyosiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Shu sababli Bobur merosini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talaba-yoshlarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Xorijiy sharqshunos olimlar ham Bobur merosining ilmiy va madaniy ahamiyatini alohida e’tirof etadilar. Masalan, Amerikalik tarixchi Stephen Dale Boburning “Boburnoma” asarini Markaziy Osiyo va Hindiston tarixini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri sifatida baholaydi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, ushbu asar nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlaydi, balki muallifning shaxsiy kuzatuvlari, madaniy qarashlari va siyosiy tajribasini aks ettiruvchi noyob tarixiy manba hisoblanadi.

Oliy ta’lim tizimida Bobur asarlarini o‘rganishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, muammoli ta’lim, diskursiv munozara, tarixiy-komparativ tahlil hamda loyiha asosida o‘qitish metodlari talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, talabalarga Bobur davrining siyosiy sharoitini zamonaviy davlat boshqaruvi tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilish topshirig‘i berilganda ular tarixiy voqealarni chuqurroq anglaydi va ularga tanqidiy yondashishni o‘rganadi. Bunday metodlar talabalarda mustaqil fikrlash, tarixiy manbalarni tahlil qilish

hamda ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida Bobur asarlarini o‘rganishda analitik savollar asosida tashkil etilgan ilmiy munozaralar ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Masalan, Bobur faoliyatida davlat boshqaruvi va madaniy taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qanday namoyon bo‘lganligi, Boburning vatanga bo‘lgan munosabati shaxsning milliy identitetini shakllantirish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi yoki Bobur davrining siyosiy tajribasi bugungi zamonaviy davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan qanday baholanishi mumkinligi kabi muammoli savollar talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi. Bunday muhokamalar jarayonida talabalar tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglaydi hamda o‘z fikrlarini ilmiy asosda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish metodidan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Talabalar kichik ilmiy guruhlarga bo‘linib, Bobur asarlarida aks etgan davlat boshqaruvi tamoyillari, madaniy aloqalar yoki vatanparvarlik g‘oyalarini tahlil qiluvchi tadqiqot loyihalarini ishlab chiqishlari mumkin. Bunday faoliyat talabalarning tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni tarixiy manbalar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Natijada Bobur asarlarini o‘rganish talabalarda faqat tarixiy bilimlarni emas, balki keng qamrovli ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Bobur asarlari asosida talabalarda vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish quyidagi pedagogik mexanizm orqali amalga oshirilishi mumkin: tarixiy manbalarni o‘rganish → tarixiy voqealarni tahlil qilish → milliy identitetni anglash → fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish.

Mazkur pedagogik model talabalarning tarixiy merosni anglash jarayonida nafaqat bilim olish, balki milliy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishiga xizmat qiladi. Jumladan, tarixiy tafakkur, milliy identitetni anglash, fuqarolik mas’uliyati hamda jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi kabi muhim kompetensiyalar aynan ana shunday tarixiy-adabiy merosni o‘rganish jarayonida rivojlanadi. Bu esa yosh avlodni ma’naviy yetuk, tarixiy xotiraga ega va jamiyat taraqqiyotiga mas’uliyat bilan qaraydigan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oliy ta’lim muassasalarida Bobur merosini o‘rganish jarayonini yanada takomillashtirish zarur. Xususan, tarix va adabiyot fanlari doirasida Bobur asarlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan maxsus seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish, talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda Bobur merosiga bag‘ishlangan ilmiy loyihalarni amalga oshirish talabalarda vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari yosh avlodni ma’naviy, tarixiy va fuqarolik jihatdan tarbiyalashda muhim pedagogik manba hisoblanadi. Ushbu asarlar orqali talabalarda vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish, milliy g‘urur va tarixiy ongni rivojlantirish mumkin. Shu sababli Bobur merosidan oliy ta’lim jarayonida keng foydalanish yoshlarning ma’naviy kamolotini ta’minlash va ularni jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2002.
2. Bobur Z.M. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
3. Alimuhamedov A. Bobur va boburiylar davri madaniyati. – Toshkent, 2010.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2016.
5. To‘xtayev B. Ma’naviy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2019.

Xushriyo BO'RONBOYEVA,
Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi, metodist, mustaqil izlanuvchi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUV JARAYONINI BOSHQARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv jarayonini boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, pedagogik jarayonni tashkil etish, rahbarlik uslublari, o'quvchilarning motivatsiyasi, maktab infratuzilmasi, o'qituvchilarning malakasi va texnologik vositalardan foydalanish kabi omillar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar. Umumiy o'rta ta'lim, boshqaruv, o'quv jarayoni, samaradorlik, pedagogik omillar, motivatsiya.

В статье рассматриваются факторы, влияющие на эффективность управления учебным процессом в общеобразовательных школах. Также рассматриваются такие факторы, как организация педагогического процесса, стили руководства, мотивация учащихся, школьная инфраструктура, квалификация учителей и использование технологических средств. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по повышению эффективности управления учебным процессом.

Ключевые слова. Общее среднее образование, управление, учебный процесс, эффективность, педагогические факторы, мотивация.

The article is aimed at studying the factors influencing the effectiveness of educational process management in general secondary schools. Factors such as the organization of the pedagogical process, leadership styles, student motivation, school infrastructure, teacher qualifications, and the use of technological tools are also considered. Based on the research results, recommendations have been developed to improve the effectiveness of educational process management.

Key words. General secondary education, management, educational process, effectiveness, pedagogical factors, motivation.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv jarayoni sifatini ta'minlash va uning samaradorligini oshirish bugungi kunda muhim masala hisoblanadi. O'quv jarayonining samaradorligi nafaqat ta'lim sifati bilan bog'liq, balki pedagogik boshqaruvning uslubiyati, o'qituvchilarning malakasi, maktab infratuzilmasi va o'quvchilarning motivatsiyasiga ham bog'liq. Samarali boshqaruv maktabning barcha tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirishga imkon yaratadi, natijada ta'lim jarayonida yuqori natijalar ko'rinadi. Shu sababli, o'quv jarayonini boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ilmiy-tahliliy, kuzatuv, so'rovnoma va intervyu metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot ishlari bir necha umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilgan. O'qituvchilar va maktab rahbarlari bilan intervyular olib borilgan, shuningdek, o'quv jarayoni bilan bog'liq statistik ma'lumotlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sifatida asosiy omillar aniqlangan va ularning o'quv jarayonining samaradorligiga ta'siri baholangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonini boshqarish samaradorligiga

bir nechta asosiy omillar sezilarli ta’sir qiladi. Birinchi o‘rinda, maktab rahbarining rahbarlik uslubi o‘quv jarayonining muvofiqligi va o‘qituvchilar faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tadqiqotda qatnashgan maktablarning rahbarlari orasida demokratik uslubni qo‘llaydiganlar o‘quvchilarning o‘zini erkin his qilishi va o‘qituvchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini yaratgani aniqlandi. Shu bilan birga, avtoritar boshqaruv uslubini qo‘llaydigan maktablarda esa o‘quv jarayonida qat’iy qoidalar va tartib mavjud bo‘lsa-da, o‘quvchilarning ijodiy faolligi pastroq va darslarda ishtirok etish darajasi sezilarli darajada kamaygan.

Ikkinchi omil sifatida o‘qituvchilarning kasbiy malakasi va pedagogik kompetensiyasi e’tiborga molikdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, malakali o‘qituvchilar darslarni rejalashtirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va innovatsion metodlarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini samarali boshqaradi. Masalan, tajribali o‘qituvchilar bilan suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, ular darslarni interaktiv metodlar bilan tashkil qilgan holda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va fan bo‘yicha natijalarni yaxshilaydi. Shu bilan birga, malakasi past bo‘lgan o‘qituvchilarda o‘quv jarayoni ko‘pincha standart va bir xilda kechadi, o‘quvchilarning qiziqishi kamayadi va baholash natijalari pastroq bo‘ladi.

Uchinchi omil sifatida o‘quvchilarning motivatsiyasi va darsga qiziqishi aniqlangan. So‘rovnomalar natijasida ma’lum bo‘lishicha, o‘quvchilarning faol ishtirok etishi va mavzularni chuqur o‘rganishga intilishi darslarning samaradorligini oshiradi. Masalan, maktablarda qo‘llaniladigan rag‘batlantirish tizimi - o‘quvchilarga erishgan yutuqlari uchun mukofotlar, sertifikatlar yoki ijtimoiy e’tibor – ularning faol ishtirokini oshiradi. Shu bilan birga, motivatsiya past bo‘lgan o‘quvchilar darsda passiv bo‘lib qoladi va o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan metodlarga qiziqish bildirmaydi.

To‘rtinchi omil maktabning moddiy-texnik bazasi va innovatsion texnologiyalardan foydalanishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompyuter sinflari, interaktiv doskalar, laboratoriya uskunalari va ta’lim dasturlaridan foydalangan holda o‘tiladigan darslar o‘quv jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Shu bilan birga, maktablarda resurslar yetarli bo‘lmagan hollarda, o‘qituvchilar darslarni an’anaviy metodlar bilan olib boradi va bu o‘quv jarayoni samaradorligining past bo‘lishiga olib keladi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, pedagogik boshqaruv va o‘quv jarayonining samaradorligi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. Maktab rahbarlari o‘qituvchilar bilan muntazam muloqot qiladigan, faoliyatini monitoring qiladigan va doimiy tavsiyalar beradigan bo‘lsa, darslar tashkil etilishi yanada tizimli va natijaviy bo‘ladi. Shu bilan birga, boshqaruvning samaradorligi o‘quvchilarning o‘zini erkin ifoda etishiga va ijodiy fikrlashiga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Olingan natijalar o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish uchun bir qator strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Birinchi navbatda, maktab rahbarlari pedagogik boshqaruv uslublarini takomillashtirishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, demokratik uslub, ya’ni o‘qituvchilar bilan muloqot, qaror qabul qilish jarayoniga ularni jalb qilish va maslahatlashuvlar, o‘quv jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Shu bilan birga, rahbarlar o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishiga doimiy e’tibor berishi, ularni malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglarga jalb qilishi muhimdir.

Ikkinchi jihat – o‘quvchilarning motivatsiyasini rag‘batlantirish. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, motivatsiya past bo‘lgan o‘quvchilar darslarda passiv bo‘ladi, bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, maktablarda rag‘batlantirish tizimi, individual yondashuv va qiziqishlarni hisobga olgan metodikalar qo‘llanishi

zarur. Masalan, individual va guruh loyihalar, qiziqarli topshiriqlar va interaktiv darslar o‘quvchilarning faol ishtirokini oshiradi.

Uchinchi muhim jihat, maktab infratuzilmasi va texnologik resurslardan foydalanishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnologik vositalar darslarni interaktiv va qiziqarli qiladi, shu bilan birga o‘quvchilarni mustaqil ishlashga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, maktablar infratuzilmasini rivojlantirmasa, samarali darslar tashkil qilish qiyinlashadi va o‘qituvchilarning ijodiy potentsiali to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

Natijalarni tahlil qilganda, shuningdek, o‘quv jarayonini boshqarishda yagona strategiya yetarli emasligi ko‘rinadi. Samaradorlikni oshirish uchun barcha omillarni – rahbarlik uslubi, o‘qituvchilarning malakasi, o‘quvchilarning motivatsiyasi va texnologik infratuzilma – birgalikda rivojlantirish lozim. Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, individual yondashuv va maktabning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish samaradorlikni oshirishda muhim omildir.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq. Samarali boshqaruv maktab rahbarining uslubi, o‘qituvchilarning kasbiy malakasi, o‘quvchilarning motivatsiyasi, maktab infratuzilmasi va texnologik resurslardan foydalanishga asoslanadi. Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: maktab rahbarlari boshqaruv uslubini doimiy takomillashtirish, o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslariga jalb qilish, o‘quvchilarning motivatsiyasini rag‘batlantirish tizimini yaratish, va maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Ushbu tavsiyalar amalga oshirilsa, o‘quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi va ta’lim sifati yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xaytimmetova E. Zamonaviy maktab boshqaruvida innovatsion yondashuvlar, Toshkent: Markaziy Osiyo ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 2024.

2. Yusupov K., Kurbanov M. Ta’lim menejmenti, Toshkent: O‘zbekiston milliy universitet nashriyoti, 2024.

3. Nuraliyeva N.B., Xolmuratov S.B., Xolmudov A.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida samarali boshqarishni tashkil etish yo‘llari, Jizzax: Poytaxt Exclusive, 2024.

4. Radjabova G. Ta’lim menejmenti asoslari, Farg‘ona: Qo‘qon davlat universiteti nashriyoti, 2022.

5. Rahmatullaev D. Strategik menejment asosida umumiy o‘rta ta’lim tizimini boshqarish, Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

6. Maripova Z.L. Umumiy o‘rta ta’lim tizimining strukturasi va boshqaruvning o‘rni, Ilm fan xabarnomasi, Toshkent, 2025.

7. Sadullayev S.X. Ta’lim muassasalarini boshqarishda pedagogik liderlik: zamonaviy yondashuvlar va boshqaruv samaradorligi omillari, Modern Science and Research, Buxoro, 2025.

8. Lukmonova S.G. Raqamli ta’lim – o‘quv-tarbiyaviy jarayonda sifat samaradorligi omili, Pedagog, 2022.

9. Teshaboyeva N.Z., Chekulay I.V., Abduqaxorova B.A. Education System in Uzbekistan, Modern Education and Development, 2025.

10. Khodjaev N. Education Management in the New Uzbekistan: trends and challenges in the context of globalization, MMIT Proceedings, Toshkent, 2024.

Rasulbek DAVLETOV,
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi, "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi, katta o'qituvchi

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O'QITUVCHILARINING DASTURLASH MALAKASINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining dasturlash bo'yicha malakasini oshirishning zamonaviy metodikasi tadqiq etilgan hamda malaka oshirish jarayonida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi asosida samarali ta'lim tizimini tashkil etish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ishda o'qituvchilarni dasturlash tillari va texnologiyalari bilan tanishtirish, interaktiv va onlayn ta'lim vositalaridan foydalanish, shuningdek, individual yondashuv asosida doimiy rivojlanishni ta'minlash muhimligi ta'kidlangan.

Tayanch so'zlar. Dasturlash, malaka oshirish, metodika, ta'lim texnologiyalari, pedagogik yondashuv, interaktiv va onlayn ta'lim.

В статье исследована современная методика повышения квалификации учителей информатики и информационных технологий по программированию, а также рассмотрены методы организации эффективной системы образования на основе сочетания теоретических знаний, практических навыков и педагогических подходов в процессе повышения квалификации. Также в работе подчеркивается важность ознакомления преподавателей с языками программирования и технологиями, использования интерактивных и онлайн-инструментов обучения, а также обеспечения постоянного развития на основе индивидуального подхода.

Ключевые слова. Программирование, повышение квалификации, методика, образовательные технологии, педагогический подход, интерактивное и онлайн-образование.

The article examines the modern methodology for improving the qualifications of computer science and information technology teachers in programming and considers methods for organizing an effective educational system based on the combination of theoretical knowledge, practical skills, and pedagogical approaches in the process of professional development. The work also emphasizes the importance of introducing teachers to programming languages and technologies, the use of interactive and online learning tools, as well as ensuring continuous development based on an individual approach.

Key words. Programming, professional development, methodology, educational technologies, pedagogical approach, interactive and online education.

Informatika va axborot texnologiyalari (IT) fani o'qituvchilari uchun dasturlash bo'yicha chuqur bilim va malakalar talab qilinmoqda. Bugungi kunda dasturlash nafaqat shu bois, o'qituvchilarning dasturlash bo'yicha malakasini oshirishga doir zamonaviy metodikalar ishlab chiqish va tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Informatika va AT o'qituvchilarining dasturlash bo'yicha malakasini oshirishning zamonaviy metodikasi tahlil qilinadi, asosiy yondashuvlar va samarali usullar ko'rib chiqiladi. Dasturlash-bu algoritmik fikrlash va muammolarni hal qilishning muhim vositasi bo'lib, o'quvchilarda tizimli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Infor-

matika fanining dasturlash bo‘yicha qismi ko‘plab mamlakatlarda maktab dasturlarining ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli, o‘qituvchilarning dasturlash kompetentligi nafaqat fan bo‘yicha, balki butun ta’lim tizimi sifatining ko‘rsatkichi sifatida qaralmoqda. Har bir o‘qituvchining dasturlash bo‘yicha boshlang‘ich bilim darajasi va kasbiy maqsadlariga moslashtirilgan modul va yo‘nalishlar ishlab chiqilishi ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Onlayn va aralash ta’lim platformalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Coursera, edX kabi global platformalar bilan bir qatorda, milliy ta’lim platformalarini rivojlantirish va ulardan keng ko‘lamda foydalanish zarur. Bu o‘qituvchilarga zamonaviy resurslarga erkin kirish imkonini yaratadi. Interaktiv va amaliy yo‘nalishlarga ustuvorlik quyidagicha amalga oshirish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda, kod yozish, loyiha ishlari va muammoga yo‘naltirilgan o‘rganish metodlarini keng qo‘llash kerak. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish: Malaka oshirish jarayonida pedagogik konsultatsiyalar, mentorlik dasturlari va doimiy fikr-mulohaza (feedback) tizimini yo‘lga qo‘yish malaka oshirish sifatini oshiradi. Malaka oshirish markazlari va ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuter jihozlari va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘ini ta’minlash muhimdir. Bu o‘qituvchilarning amaliy mashg‘ulotlarda samarali ishtirokini ta’minlaydi. Malaka oshirish dasturlarining samaradorligini baholash uchun muntazam testlar, so‘rovnomalar va natijalarni tahlil qilish tizimi ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayonni uzluksiz takomillashtirish imkonini beradi. Ta’lim vazirligi, oliy ta’lim muassasalari, IT kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish orqali malaka oshirish dasturlarining mazmuni va sifatini oshirish mumkin.

Qabul qilingan qarorlar va nutqlarda malaka oshirish tizimini takomillashtirish, yangi pedagogik metodlarni joriy etish, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Ta’lim sohasidagi islohotlari doirasida informatika va AT o‘qituvchilarining dasturlash bo‘yicha malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy metodikalarni joriy etish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish masalalari davlat rahbarining doimiy e’tiborida bo‘lib, bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha malakasini oshirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar va yondashuvlar samarali ekanligi aniqlangan. Faol o‘rganish, ya’ni amaliy mashg‘ulotlar orqali bilim olish, o‘qituvchilarning dasturlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Moslashuvchan o‘qitish o‘qituvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan o‘quv dasturlari orqali malaka oshirish samaradorligini oshiradi. Onlayn va aralash ta’lim shakllari o‘qituvchilarga qulaylik yaratib, ularning malakasini oshirish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi.

Tahlil va natijalar

T/R	**Tahlil yo‘nalishi**	**Tahlil mazmuni**	**Olingan natijalar va xulosalar**
1	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimiga ta’siri	AKT sohasining jadal rivojlanishi ta’limning barcha bosqichlarida yangi malaka va kompetentlik talablarini shakllantirdi.	Ta’lim muassasalari va o‘qituvchilarda dasturlash ko‘nikmalarini chuqur egallash zarurati yuzaga keldi; ta’lim sifati oshdi.
2	Dasturlashning ta’lim jarayonida o‘rni	Algoritmik fikrlash va muammolarni tizimli hal etish ko’nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida dasturlashning ahamiyati	O‘quvchilarda mantiqiy tafakkur rivojlandi, o’qituvchilarning dasturlash bo’yicha malakasi ta’lim jarayoning samaradorligini oshirish

3	Kompetentlik va malaka tushunchalarining o‘zaro munosabati	Kompetentlik – bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarning integratsiyasi; malaka esa, asosan, amaliy ko‘nikmalar to‘plami sifatida tushuniladi.	O‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha malakasini oshirish kompetentlik darajasining kengayishiga va mustahkamlanishiga olib keldi
4	Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samarasi	Faol o‘rganish, moslashuvchan o‘qitish, va onlayn hamda aralash ta’lim usullarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonini interaktiv va individualga moslashtirdi.	O‘qituvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqishi oshdi, malaka oshirish jarayoni yuqori samaradorlik bilan amalga oshirildi
5	Malaka oshirish dasturining tarkibi va mazmuni	Nazariy bilimlar (dasturlash tillari, algoritmlar), amaliy mashg‘ulotlar, va pedagogik metodologiyalar to‘liq integratsiyasi.	O‘qituvchilar nafaqat dasturlashning nazariy asoslarini, balki uni amaliyotda qo‘llash va o‘quvchilarga o‘rgatish ko‘nikmalarini egalladi.
6	Zamonaviy texnologiyalar va resurslarning roli	Onlayn ta’lim platformalari (Coursera, edX, interaktiv dasturlash muhiti (virtual laboratoriyalar).	Texnologiyalarning keng qo‘llanilishi malaka oshirish sifatini yaxshiladi, o‘qituvchilar o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab bordi
7	Malaka oshirish jarayonining samaradorlik ko‘rsatkichlari	O‘qituvchilarning dasturlash bo‘yicha bilimlari va amaliy ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi; pedagogik jarayon interaktivlikka erishdi	Ta’lim sifatining oshishi va o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi tasdiqlandi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimi o‘z oldiga faqat axborot beruvchi emas, balki fikrlovchi, muammoni yechuvchi, algoritmik yondashuvga ega shaxslarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Bunda informatika fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini, xususan, dasturlash bo‘yicha chuqur malakaga ega bo‘lishi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Amaliy mashg‘ulotlarning ustuvorligi dasturlash o‘qituvchilik faoliyatida faqat nazariy bilim emas, balki amaliy kod yozish, algoritmlar tuzish, loyihalarni ishlab chiqish kabi faoliyatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli, amaliy mashg‘ulotlar hajmi oshirilishi zarur. O‘qituvchilarni dasturlash bo‘yicha qayta tayyorlashda moslashuvchan, interaktiv va modulli metodik yondashuvlar, shuningdek, amaliyotga yaqin onlayn platformalar eng samarali deb topildi. Shu bilan birga, mavjud resurslar (texnik, metodik, vaqt jihatdan) yetarli darajada bo‘lmagani ta’lim jarayonini to‘liq qamrab olishga to‘sqinlik qilayotgani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov D. (2020). Dasturlash bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish metodikalari. Ta’lim va Innovatsiyalar jurnali, 5(2), 45-53.

2. John M., & Smith L. (2019). Teaching programming skills to non-IT teachers: challenges and solutions. International Journal of Educational Technology, 12(1), 77-89. https://doi.org/10.1234/ijet.v12i1.567

3. Khamidova N. (2022). Pedagogik yondashuvlar va dasturlashni o‘rgatish samaradorligi. O‘zbekiston Pedagogik Universiteti Ilmiy Axboroti,8(4),112-120.

4. Coursera Platformasi. (2023). Online courses on programming and IT education. https://www.coursera.org

Shoxidaoy BEKMURATOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, ‘‘Tasviriy san’at va misiqa ta’limi” kafedrasi dotsent, (PhD)

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA TALABALARGA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING AVZALIKLARI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'qitishda talabalarga differensial yondashuvning avzaliklari yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Differensial, metodik yondashuv, optimizatsiya, kompetensiya, metodologik, temperament, individual, kontrast, kasbiy-metodik, rivojlanish.

В данной статье рассматривается актуальная проблема, а именно преимущества дифференцированного подхода к обучению студентов изобразительным искусствам.

Ключевые слова. Дифференцированный, историко-теоретический, методологический подход, оптимизация, компетентность, методологический, темперамент, индивидуальный, контраст, профессионально-методический, развитие.

This article discusses the current issue, the advantages of a differential approach to teaching students fine arts.

Key words. Differential, historical theoretical, methodological approach, optimization, competence, methodological, temperament, individual, contrast, professional-methodical, development.

Tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzod kabi mashhur mussavvir, naqqosh, xattot va boshqa badiiy kasb sohiblarining boy ijodiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo'nalishda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yurtimizda tasviriy va amaliy san'at dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi “Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4688-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlashga qaratilgan quyidagi dolzarb vazifalar belgilandi:

– davlat oliy va professional ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlari, bolalar musiqa va san'at maktablarining tasviriy va amaliy san'at, dizayn, san'atshunoslik hamda muzeyshunoslik yo'nalishlari bo'yicha pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish;

– badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi pedagog va mutaxassislarni bilimlarini mustahkamlash uchun kurslarining o'quv-metodik bazasini shakllantirish va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;

– tasviriy san'at asarlarining sifatini ta'minlash, tasviriy san'at ijodkorlarining salohiyatini to'laqonli yuzaga chiqarish;

– san’at asarlarida milliy va umuminsoniy an’analarning yuksak darajada ifoda etilishiga erishish;

– chet ellardagi ko‘rgazma va muzeylarda saqlanayotgan noyob asarlar bilan yaqindan tanishish, nusxa ko‘chirish hamda tajriba almashish maqsadida xorijiy mamlakatlarga oliy rassomlik kursi yosh ijodkorlarining ijodiy safarlarini tashkil etish;

– yurtimiz muzeylari fondlarini yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan tasviriy san’at asarlari bilan muntazam boyitib borishga ko‘maklashish.

Yuqorida qayd etilgan dolzarb vazifalar bevosita oliy badiiy pedagogik ta’lim, xususan, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini differensial yondashuvga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayonga qadimiy badiiy kasbiy an’analarni zamonaviy ta’limiy tendensiyalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etilishini taqozo etadi. Shu ma’noda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida optimizatsiyasiga istiqbolini belgilashning ilmiy asoslangan metodik tizimini ishlab chiqish uchun real holatini maqsadli o‘rganish va tahlil qilish bugungi kun uchun badiiy pedagogika fani uchun dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Yuqoridagi omillarga ko‘ra tadqiqotimiz differensial yondashuv asosida tasviriy san’at sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan o‘zbek, rus va xorijlik tadqiqotchilar, rassomlar, san’at namoyondalarining asarlari, shu kunga qadar chop etilgan adabiyotlardagi nazariy qarashlar va ilgari surilgan metodik yondashuvlarni o‘rganish va tahlilar asosida ma’lum bir miliy g‘oyalarni ilgari surishga ustuvorlik berildi.

Tasviriy san’atning asosiy vazifasi – yoshlarda tasvirlash mahorat qirralarini o‘rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. U o‘quvchidan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan to‘g‘ri foydalana olishni ko‘zda tutadi. Bunda tasviriy san’at turlarini talabalarga yetarli bilim, malaka hamda ijodkorlik saviyasiga ega bo‘lish nazarda tutiladi. Ma’lumki, differensial yondashuv tasviriy san’atni o‘zlashtirishda bosh mezon va asos bo‘lishi bilan birga alohida san’at turi sifatida ham xarakterlidir. Differensial yondashuv orqali tasviriy san’at sirlarini yaxshi bilgan amaliy san’at ijodkorlari hamda pedagoglar o‘z fikr-tuyg‘ularini tezroq, shuningdek, aniqroq amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagog olim S.Abdurasilov “Tasvirlash bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir”, deb bejiz aytmagan. Shunga ko‘ra bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarlik tuzilmasida differensial yondashuv, grafik savodxonlik hamda atrof-muhitni estetik idrok etishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida optimizatsiya tuzilmasi tarkibida asosiy komponentlar sifatida, quyidagi kompetensiyalar shakllantirish lozim:

– differensial yondashuv asosida tasvirlanayotgan buyumlarni o‘ziga xos jihatlarini ko‘ra bilish, ularni o‘zaro taqqoslash;

– differensial yondashuv asosida tasvirlanayotgan buyumlarni geometrik shakli, konstruktiv tuzilishini tarkibiy qismlari, rangi va fakturasini tasvirlash;

– differensial yondashuv asosida buyumlarni tasvirlashda ularni tahlil qilish asosida real holatda chizish:

– egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda bosqichma-bosqich qo‘llay olish.

Shu o‘rinda italyan olimi va buyuk rassomi Leonardo da Vinchining “Rangtasvir qonunlari” nomli asarida: “Yoshlar o‘zlarini ilm-fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo‘lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir”, degan fikrni keltirib

o‘tish o‘rinli. Leonardo da Vinchining o‘zining asarida qalamtasvirga oid “Tajribasiga va ko‘zlariga ishonib, fikr-o‘ysiz ravishda ko‘chirib chizuvchi rassom, xuddi qarshisidagi qo‘yilgan predmetlari, ularni bilmagan holda aks ettirayotgan ko‘zgu kabidir”,-deya ta’kidlagan edi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisida, avvalo, mavzu yuzasidan tasavvur paydo bo‘lishi uchun yurtimiz va chet el rassomlari tomonidan tasvirlangan tarixiy asarlar orqali kasbiy-metodik tayyorgarlik kompetensiyalarining komponentlari hosil qilib boriladi. Shunday asarlar sirasiga P.P.Benkov “Dugonalar”, A.Abdullayev “Shomahmudovlar oilasi”, L.Abdullayev “Demobilizatsiya qilinganlarni kutib olish” asarlari, birinchidan talabalarda tarixiy tafakkur elementlarini shakllantiradi, qolaversa, ularda kasbiy-pedagogik faolligi bilan birga ijodiy faoliyatga qiziqish uyg‘otadi. Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligida boshqa mutaxassislardan farqli tomoni faoliyatida nazariya va amaliyot birgalikda olib borilishi zarurligidadir. Talaba o‘z ustida muntazam ishlamas ekan o‘zini rivojlantira olmaydi. Har bir darslarda ta’lim bilan birgalikda tasviriy faoliyatning barcha turlari xususan naturaga qarab tasvirlash, kompozitsion faolligi, san’atshunoslik asoslariga oid bilimlarni tarixiylik va zamonaviylik tamoyillari asosida boyitib borishi lozim.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi yetuk ijodkorlar asarlariga tayangan holda natyurmortni tasvirlaydilar. Ayniqsa, natyurmort va manzara janrlarini sintetik tarzda qo‘llanishiga oid muammolardan foydalanish ham malakali pedagog, ham ijodkor shaxsini shakllantirishga zamin vazifasini o‘taydi. Bunga taniqli rassom Zokir Inog‘omovning “Choyga” kompozitsiyasi misol bo‘lishi mumkin

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini nafaqat amaliy ishlari, balki uning kasbiy-pedagogik faoliyatiga oid kompetentsiyalarini ham rivojlantirish lozim. U o‘quvchilarga voqea va hodisalarni ta’riflashda ularning go‘zalligi, nafisligi, yoqimliligini o‘ziga xos obrazlar bilan ko‘rsatib berishi zarur. Bularni tasavvur qilishi uchun mashhur rassomlarning asarlarini ko‘rsatib tahlil qilish orqali erishish mumkin. Tahlillar davomida talabalarga tasviriy san’at asarlarida qo‘llanilgan tasviriy san’at qonun-qoidalariga amal qilinganligini ko‘rsatib berishga alohida e’tibor qaratish zarur. Yetuk rassomlarning asarlarini tanishtirish orqali talabalarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchini orttirish va ularni muntazam ravishda rag‘batlantirib borishga imkon beradi.

Oliy ta’limda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida tayyorlashda o‘quv materiallarini doimiy va ketma-ket bayon etish prinsipini qo‘llash muhim hisoblanadi. Bu mashg‘ulotlar orqali bilim, malaka va tajribalarga tayangan holda, yangi materiallarni o‘tilganlar bilan bog‘lab ularga yetkazishga yordam beradi. Bu prinsip mantiqan muammolarni hal etib, oldindan maqsadga erishishni kafolatlaydigan yo‘l hisoblanadi.

Differensial yondashuv asosida ta’lim berishda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi muhim tamoyillarini aniq anglab olishi muhim. Aks holda dars mashg‘ulotlarida printsiplarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri talqin qila olmay qolish ehtimoli yuzaga keladi. Natijada ular dars jarayonida o‘quvchilarni bilimlarini to‘g‘ri yo‘naltira olmaydilar. Shuning uchun o‘quvchilarni oldin olgan bilimlarini hisobga olgan holda yangi mavzuni yangi pedagogik texnologiyalar orqali tushuntirish lozim. Imkon qadar yangi materiallarni tushuntirishdan oldin o‘tilgan mavzuni mustahkamlab olganligini tekshirib olishni hisobga olish kerak. Bu jarayon ham o‘qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini, pedagogik-psixologik bilimlarini qo‘llashni taqozo etadi.

Bu tamoyil, ayniqsa tasviriy san’atning natyurmort janrini o‘rgatishda qo‘l keladi.

Naturani o‘ziga qarab tasvirlash bilan san’atshunoslik asoslari va kompozitsiya darslarini bir-biriga bog‘lagan holda olib borish imkonini beradi. Ularni bir-biriga mohirlik bilan bog‘lagan holda ijodiy ish tasvirlansa, kutilgan natijaga erishiladi. Natijada bir o‘quv fanining boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘lagan holda olib borishda yagona tizim yuzaga keladi. Shuni ham e’tiborga olish kerakki, oldingi mavzu keyingisiga o‘xshamasligi mumkin, buni tushuntirishda o‘qituvchidan bilim va mahorat talab etiladi. Dars uchun qo‘yiladigan natura bilan birga naturani idrok etish va tasvirlash jarayonlarini tushunib olishga yordam beradigan reproduksiyalar, slaydlar va boshqa ko‘rgazmalarni tanlashda o‘z ustida izlash, bilimlarini oshirib borishga imkon beradi.

Oliy ta’lim o‘qitish tizimida, asosan, nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog‘langan holda olib boriladi. Bu jarayonlar bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun muhim jarayon hisoblanadi. Darslarni kuzatar ekanmiz, talabalar orasida fanlarni yaxshi o‘zlashtirmaganlar ajralib qoladi. Bunday talabalar darsdan tashqari mustaqil tarzda o‘z ustida ishlamaydilar. Tajribali rassomlar asarlaridan nusxa ko‘chirish ularni rivojlanishiga yordam beradi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, inson iqtidorini ro‘yobga chiqarishga mehnat orqali erishish mumkin ekan. Shunday ekan, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilarni harakat va qobiliyatlariga qarab mashg‘ulotlarni to‘g‘ri taqsimlanishi muhim. Ba’zi o‘zlashtirishi past o‘quvchilar bilan imkon qadar individual tarzda dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg‘ulot olib borishi kerak.

Bunday o‘quvchilar bilan ishlaganda, odatda oddiydan murakkabga prinsipidan keng foydalanadilar. Bu prinsipni qo‘llanilishi o‘quvchilarning tayyorgarlik darajalari, psixologik o‘ziga hosliklarini to‘laqonli e’tiborga olish uchun qulay pedagogik shart-sharoit, muhitini yuzaga keltiradi.

Topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan mustaqil fikrlashi katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil fikrlash jarayonida topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarni mustaqil ravishda hal etishlari, qo‘yilgan vazifalariga javob topa olishlari bilan belgilanadi. Ular o‘quvchilar faoliyatida turlicha shaklda ifodalanadi. Ayrim o‘quvchilar vazifalarni bajarishda turli yo‘llarni izlaydilar, muammoning yechimini asoslashga harakat qiladilar. Boshqalar qiyinchilik sezishlari bilanoq darrov o‘qituvchiga, o‘rtoqlariga murojaat qiladilar.

Shu bilan birgalikda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida optimizatsiyasining imkoniyatlari ko‘rgazmalilik, ilmiylik, onglilik, faollik, munozaralik kabi shaxsiy prinsiplar integrativ uyg‘unligini izchil ta’minlash hamda hayotiy obrazlarni yaratish iqtidorini namoyon qilish mazmunini estetik va ma’naviy ruhiyatni idrok etish mutanosibligiga maqsadli yo‘naltirish asosida takomillashtirilishi lozim.

Faydalanilgan adabitotlar

1. Abdurasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2012. 232 b.

2. Boymetov B. Qalamtasvir. // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. –T.: Musiqa, 2006. –216 b.

3. Bulatov S.S. Tasviriy sa’at asarlarini taxlil qilish jaryonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodlari \\ Xalq ta’limi jurnali, 2019-yil, № 4. 68-73 b

4. Muratov X.X. Qalamtasvir. //O‘quv qo‘llanma. –T.: Ijod-print, 2020. –132 b.

5. Sh.R.Qobilov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2014. –136 b. 12-14-39 b.

Nilufar MAMADALIYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi, v.v.b dotsent

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA IQTISODIY MAZMUNDAGI ERTAK VA ROLLI O'YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning iqtisodiy ongini shakllantirishda ertak va rolli o'yinlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ertakni tinglash va tahlil qilish, uni rolli o'yinga aylantirish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda natijalarni muhokama qilish bosqichlari asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonning samaradorligi asoslab beriladi. Maqolada rolli o'yinlarning texnologik bosqichlari, o'yin syujeti va qoidalarini tashkil etish, o'yin jarayonida bolalarning mustaqil qaror qabul qilish, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Maktabgacha ta'lim, iqtisodiy ong, ertaklar, rolli o'yinlar, iqtisodiy tarbiya, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyatlar, bolalar tafakkuri, nutq rivoji, hamkorlik ko'nikmalari.

В данной статье рассматривается педагогическое значение использования сказок и ролевых игр в формировании экономического сознания у детей дошкольного возраста. Также обосновывается эффективность педагогического процесса, организованного на основе таких этапов, как прослушивание и анализ сказки, превращение её в ролевую игру, создание проблемных ситуаций и обсуждение результатов. В статье раскрываются технологические этапы организации ролевых игр, особенности подготовки игрового сюжета и правил игры, а также вопросы развития у детей навыков самостоятельного принятия решений, общения и сотрудничества в процессе игры.

Ключевые слова. Дошкольное образование, экономическое сознание, сказки, ролевые игры, экономическое воспитание, педагогическая технология, проблемные ситуации, мышление детей, развитие речи, навыки сотрудничества.

This article examines the pedagogical significance of using fairy tales and role-playing games in the formation of economic awareness in preschool children. The effectiveness of the pedagogical process organized through several stages, including listening to and analyzing a fairy tale, transforming it into a role-playing activity, creating problem situations, and discussing the results, is also substantiated. The article describes the technological stages of organizing role-playing games, the preparation of game plots and rules, and the development of children's independent decision-making, communication, and cooperation skills during the play process.

Key words. Preschool education, economic awareness, fairy tales, role-playing games, economic education, pedagogical technology, problem situations, children's thinking, speech development, cooperation skills.

Maktabgacha ta'limda bolalarning iqtisodiy ongini shakllantirishda ertak va rolli o'yinlarni tizimli tarzda qo'llash muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat bolalarning bilimini oshirish, balki ularning tafakkuri, nutqi, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ertaklar bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirsa, rolli o'yinlar esa amaliy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Shu sababli pedagogik jarayonda ertak va o'yinlarni integratsiya qilish, ya'ni turli faoliyat turlarini bir-biri bilan bog'lash orqali qo'llash muhimdir.

Pedagog bolalarga ertakni qiziqarli va sodda usulda taqdim etadi. Bolalar ertakni

tinglagach, qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi, voqealarni izchil anglaydi va sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi. Shu bosqichda pedagog savollar orqali bolalarni fikrlashga, muayyan xulosalar chiqarishga undaydi. Masalan, “Qahramon nima uchun muvaffaqiyatga erishdi?”, “U qanday ishi orqali boylikka erishdi?” kabi savollar bolalarda tafakkurni rivojlantiradi. Shu tarzda ertak voqealari bolalarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularni keyingi amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Ikkinchi bosqich – ertakni rolli o‘yinga aylantirish. Bu bosqichda bolalar ertakdagi qahramonlarni ijro etadi, voqealarni sahnalashtiradi va turli vaziyatlarda qaror qabul qiladi. Masalan, “Do‘kon” o‘yinida bolalar xaridor va sotuvchi rollarini ijro etadi. Xaridor mahsulot tanlaydi, sotuvchi esa to‘lovni qabul qiladi va mahsulotni yetkazib beradi. Shu orqali bolalar iqtisodiy tushunchalarni amaliy faoliyatda o‘rganadi: pul, mahsulot, tejash, savdo jarayoni kabi tushunchalar ularning kundalik faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi bosqich – muammoli vaziyatlar yaratish va tahlil qilish. Pedagog o‘yin davomida bolalarga turli muammolarni beradi. Masalan, do‘konda yetarli pul bo‘lmasa yoki mahsulot tugasa, bolalar qanday yechim topadi? Bu jarayon bolalarni mustaqil qaror qabul qilishga, muammoli vaziyatni tahlil qilishga va natijalarni anglashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, bolalar o‘zaro muloqot qiladilar, bir-biriga yordam beradi va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik jarayonda suhbat va muhokama bosqichi muhim o‘rin tutadi. O‘yin tugagach, pedagog bolalar bilan natijalarni muhokama qiladi, qaysi qaror to‘g‘ri, qaysi xatti-harakat ijobiy natija berganini aniqlaydi. Bu bosqich bolalarda iqtisodiy ongni shakllantiradi, voqealarni tahlil qilish va fikr bildirish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi hamda bu jarayon bolalarning nutqini rivojlantiradi, ularning so‘z boyligini oshiradi va tafakkur doirasini kengaytiradi.

Pedagogik jarayonda ertak va rolli o‘yinlarni integratsiya qilishning yana bir afzalligi – individual yondashuv imkoniyati. Tarbiyachi har bir bolaning rivojlanish darajasini kuzatadi, qaysi tushunchani yaxshi o‘zlashtirganini, qaysi iqtisodiy xatti-harakatlarni to‘g‘ri bajarganini aniqlaydi hamda pedagog o‘yin va ertak orqali bolalarning ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasini baholashi mumkin[1]. Bu esa maktabgacha ta’lim jarayonida samarali va maqsadli tarbiya olib borish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy ongni shakllantirishda rolli o‘yinlar ham muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Rolli o‘yinlar nafaqat bolalarning bilish faoliyatini faollashtiradi, balki ularning muloqot, hamkorlik, tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda rolli o‘yinlarni tashkil etish ma’lum texnologik bosqichlarga asoslangan bo‘lishi kerak.

1. Maqsad va vazifani aniqlash

Rolli o‘yinlarni boshlashdan oldin pedagog o‘yinning maqsad va vazifalarini aniqlaydi. Bu bosqichda aniqlanadi: bolalarda qaysi iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish kerak – pul, mahsulot, tejash, bo‘lishish, mehnat va mehnatga hurmat kabi tushunchalar. Masalan, “do‘kon” o‘yinida bolalar puldan foydalanishni o‘rganadi, “kasblar” o‘yinida esa turli kasblarning jamiyatdagi rolini tushunadi. Shu maqsadni aniq belgilash o‘yin jarayonini samarali va maqsadli qiladi.

Pedagogik maqsadni aniqlash shuningdek, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Masalan, 4–5 yoshli bolalar hali moliyaviy tushunchalarni abstrakt shaklda tushunmaydi, shuning uchun ular uchun o‘yin amaliy va konkret vaziyatlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, maqsad pedagogga individual yondashuvni

[1] Shodmonov E., Hasanboyeva O. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

amalga oshirish imkonini beradi.

2. O‘yin syujeti va rollarni tayyorlash

Keyingi bosqich – o‘yin syujeti va rollarni tayyorlash. Rolli o‘yinning qiziqarli va bolalar uchun tushunarli syujetga ega bo‘lishi muhim. Masalan:

– “Do‘kon” o‘yinida syujet: xaridor mahsulot tanlaydi, sotuvchi esa mahsulotni sotadi;

– “Bozor” o‘yinida syujet: turli sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida mahsulot almashinuvi;

– “Kasblar” o‘yinida syujet: har bir bola o‘z kasbini tanlaydi va ish faoliyatini modellashtiradi;

– “Oila byudjeti” o‘yinida syujet: oila xarajatlarni rejalashtiradi va tejash qarorlarini qabul qiladi.

Rollarni tayyorlash jarayonida pedagog bolalarning qiziqish va imkoniyatlarini hisobga oladi. Masalan, ba’zi bolalar xaridor rolini, boshqalari esa sotuvchi rolini bajarishi mumkin. Shu tarzda o‘yin individual va jamoaviy ko‘nikmalarni birlashtiradi.

3. O‘yin qoidalarini tushuntirish

Pedagog o‘yin qoidalarini batafsil tushuntiradi. Bolalar o‘z rollarini qanday bajarishi, vazifalarini qanday bajarishi, muloqot qoidalari va iqtisodiy jarayonlarni qanday amalga oshirishi bo‘yicha ko‘rsatmalar oladi. Masalan:

– xaridor qanday mahsulot tanlaydi va pulni qanday to‘laydi;

– sotuvchi mahsulotni qanday yetkazib beradi va hisob-kitob qiladi;

– agar yetarli mablag‘ bo‘lmasa, qanday yechim topish mumkin.

Qoidalarni tushuntirish bolalarda o‘yin davomida muammoli vaziyatlarni boshqarish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, bolalar o‘zaro hamkorlik qilish, muloqot qilish va o‘z fikrini ifodalashni o‘rganadi.

4.O‘yin jarayoni

O‘yin jarayonida bolalar belgilangan rollarni ijro etadi, mahsulot tanlaydi, pul to‘laydi, tejash yoki bo‘lishish kabi iqtisodiy qarorlar qabul qiladi. Shu bosqichda pedagog kuzatuvchi va yordamchi sifatida ishtirok etadi. U bolalarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi, muammoli vaziyatlarda maslahat beradi va bolalarning iqtisodiy tushunchalarni to‘g‘ri o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

O‘yin jarayonida bolalar:

– savdo jarayonlarini amaliyotda o‘rganadi;

– mahsulotlarni tanlash va almashish orqali iqtisodiy qarorlar qabul qiladi;

– tejamkorlik va resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi;

– hamkorlik va muloqot orqali jamoadagi rolini anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin tugagach, pedagog bolalar bilan natijalarni tahlil qiladi. Muhokama jarayonida pedagog quyidagilarni aniqlaydi:

– qaysi qarorlar to‘g‘ri bo‘lgan;

– qaysi xatti-harakatlar ijobiy natija bergan;

– qaysi vaziyatlarda boshqa yechimlar ishlatilishi mumkin.

Bu bosqich bolalarning iqtisodiy ongini mustahkamlashga, tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagog bolalarning nutqini rivojlantiradi, so‘z boyligini kengaytiradi va voqealarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

5.Amaliy tavsiyalar

– o‘yinlarni yoshga mos va qiziqarli syujetlar bilan tashkil etish;

– har bir bolaning rivojlanish darajasini kuzatish va individual yondashuvni qo‘llash;

– muammoli vaziyatlar orqali mustaqil qaror qabul qilishni rag‘batlantirish;

– o‘yin tugagach, bolalar bilan tahlil va xulosa bosqichini o’tkazish;

– turli rollarni o‘ynash orqali iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalarni birlashtirish.

Rolli o‘yinlar texnologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni amaliy faoliyat orqali o‘rganish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi[2]. Pedagogik jarayonda ushbu texnologiyadan tizimli va bosqichma-bosqich foydalanish maktabgacha ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy ongini shakllantirishda ertaklar ham nafaqat qiziqarli o‘quv materiallari sifatida, balki amaliy mashg‘ulotlar vositasi sifatida ham muhimdir. Pedagog ertakni tinglatgach, bolalarning tafakkur va nutqini rivojlantirish, iqtisodiy tushunchalarni mustahkamlash uchun uni sahnalashtirish yoki rolli o‘yinga aylantirish zarur. Shu tarzda ertak voqealari bolalar uchun amaliy faoliyatga aylantiriladi, bu esa tushunchalarni chuqurroq va mustahkamroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Ertak pedagog tomonidan tinglatilgach, bolalar avvalo voqeani tahlil qiladi. Ular qahramonlarning xatti-harakatlarini, sabab-oqibat munosabatlarini, qaysi xatti-harakat ijobiy, qaysi salbiy ekanini o‘rganadi. Misol uchun, ertakdagi qahramonning tejash yoki isrof qilish xatti-harakti muhokama qilinadi. Shu bosqich bolalarda tafakkur, tahlil qilish va voqealar bilan muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ertakni amaliy mashg‘ulotga aylantirishning asosiy usuli – rolli o‘yin. Masalan, ertak qahramonlari “do‘kon” o‘yinida xaridor va sotuvchi sifatida ijro etiladi. Xaridor mahsulot tanlaydi, sotuvchi esa mahsulotni yetkazib beradi va pulni qabul qiladi. Shu tarzda bolalar iqtisodiy tushunchalarni – pulni ishlatish, mahsulotni tanlash va tejashni amaliy faoliyat orqali o‘rganadi.

Rolli o‘yinda bolalar turli iqtisodiy vaziyatlarga duch keladi. Masalan, xaridor yetarli mablag‘ga ega bo‘lmasa yoki mahsulot yetarli bo‘lmasa, ular qanday qaror qabul qilishi kerakligini o‘rganadi. Bu jarayon bolalarda iqtisodiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bolalar sabab-oqibat bog‘lanishini anglashni va voqealarni tahlil qilishni o‘rganadi.

Ertakdagi rolli o‘yinlar bolalarni resurslarni oqilona ishlatishga o‘rgatadi. Masalan, do‘kon o‘yinida xaridor moliyaviy byudjetni tejashni, sotuvchi esa mahsulotni samarali taqsimlashni o‘rganadi. Shu tarzda bolalar real hayotda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning asosiy tamoyillarini tushunadi. Rolli o‘yinlar bolalarni muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bolalar o‘z rollarini ijro etar ekan, bir-biri bilan suhbatlashadi, qarorlar qabul qiladi va muammolarni hal qiladi. Shu bilan ular ijtimoiy tajriba orttiradi va o‘zaro hamkorlikni o‘rganadi.

Ertaklarni amaliy mashg‘ulotga aylantirish orqali bolalar nafaqat iqtisodiy tushunchalarni amaliy faoliyatda o‘rganadi, balki tafakkur, muloqot, hamkorlik va axloqiy qadriyatlarni ham rivojlantiradi. Pedagogik jarayonda ertak va rolli o‘yinning bosqichma-bosqich qo‘llanishi maktabgacha ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va bolalarning iqtisodiy ongini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy ongni shakllantirishda muammoli vaziyatlar ham yaratish pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Bunday vaziyatlar bolalarga nafaqat o‘z bilimi va tafakkurini qo‘llash imkonini beradi, balki ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Pedagog o‘yin jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratib, bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

[2] Hasanboyeva O., To‘raqulova X. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2019.

Muammoli vaziyatlar – bu bolalarni o‘z bilim va tajribasidan foydalanishga majbur qiluvchi sharoitlardir[3]. Masalan, do‘konda yetarli pul bo‘lmasa, bolalar qaror qabul qilishi kerak: ular mahsulotni kamaytiradimi yoki boshqa yechim topadimi? Shu tarzda ular sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Amaliy misol: yetarli pul bo‘lmagan holat

Masalan, “do‘kon” o‘yinida xaridorning mablag‘i yetarli bo‘lmasa, bolalar quyidagi variantlardan birini tanlaydi:

Mahsulot miqdorini kamaytirish

Tejamkorlikni qo‘llash

Sotuvchi bilan kelishib, boshqa yechim topish

Bu jarayon bolalarni iqtisodiy qaror qabul qilishga, resurslarni oqilona ishlatishga va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

Amaliy misol: mahsulot yetishmasligi

Shuningdek, mahsulot yetarli bo‘lmasa, bolalar o‘yin davomida:

Yangi mahsulot olishni rejalashtiradi

Bo‘lishish yoki navbatga qo‘yish orqali yechim topadi

Ijtimoiy muloqot orqali muammoga yechim topadi

Bunday vaziyatlar bolalarni ham mustaqil fikrlashga, ham ijtimoiy hamkorlikka undaydi. Muammoli vaziyatlardan keyin pedagog bolalar bilan natijalarni tahlil qiladi. Bolalar o‘z qarorlarini baholaydi, qaysi xatti-harakatlar to‘g‘ri, qaysi noto‘g‘ri ekanini muhokama qiladi. Shu jarayon bolalarda tafakkur, tahlil va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Muammoli vaziyatlar pedagogga bolalar rivojlanishini individual yondashuv bilan kuzatish imkonini beradi. Masalan, pedagog aniqlaydi: qaysi bola qaysi iqtisodiy tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirgan, qaysi bola qaror qabul qilishda qo‘shimcha yordamga muhtoj. Shu bilan birga, bolalarda iqtisodiy va axloqiy qadriyatlar singdiriladi.

Metodik ahamiyati

Ertak va rolli o‘yinlar orqali pedagog bolalarni tizimli tarzda o‘rgatadi. Ular: Axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi

Nutq va so‘z boyligini rivojlantiradi

Tafakkur va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi[4]. Shu nuqtayi nazardan, muammoli vaziyatlar pedagogik texnologiya sifatida muhimdir.

Shunday qilib, muammoli vaziyatlar yaratish maktabgacha ta’limda bolalarning iqtisodiy ongini shakllantirish, tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ertak va rolli o‘yinlarni shu texnologiya asosida qo‘llash pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi va bolalarning amaliy iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonov E., Hasanboyeva O. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

2. Hasanboyeva O., To‘raqulova X. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2019.

3. Abdurahmonova N. Maktabgacha ta’limda o‘yin texnologiyalari. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

4. Karimova V. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

[3] Abdurahmonova N. Maktabgacha ta’limda o‘yin texnologiyalari. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

[4] Karimova V. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

Durdona XAKIMOVA,
Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, mustaqil izlanuvchi

O'YIN FAOLIYATI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XORIJIY TIL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada o'yin texnologiyalarining ta'limiy imkoniyatlari, ularning bolalar motivatsiyasi va kommunikativ faolligiga ta'siri hamda amaliy qo'llanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, pedagogik tajriba, taqqoslash va tahlil usullaridan foydalanilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida xorijiy til mashg'ulotlariga o'yin elementlarini joriy etish tajribasi o'rganiladi. O'yinli topshiriqlar orqali so'z boyligini kengaytirish, talaffuzni mustahkamlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, diqqatning tez chalg'ishi, individual farqlar va metodik ta'minot yetishmasligi kabi muammoli vaziyatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tayanch so'zlar. O'yin asosidagi pedagogik faoliyat, maktabgacha ta'limning normativ kompetensiya mezonlari, nutqiy rivojlanish va kognitiv jarayonlar, bolalar psixologiyasiga oid ilmiy bilimlar, motivatsiya.

В статье освещаются образовательные возможности игровых технологий, их влияние на мотивацию и коммуникативную активность детей, а также особенности их практического применения. Также, используя педагогический опыт, методы сравнения и анализа, изучается опыт внедрения игровых элементов на занятиях по иностранному языку в дошкольных образовательных учреждениях. С помощью игровых заданий анализируется процесс расширения словарного запаса, закрепления произношения и развития коммуникативных навыков. В то же время выявляются такие проблемные ситуации, как быстрая отвлекаемость внимания, индивидуальные различия и отсутствие методического обеспечения, и разрабатываются практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова. Педагогическая деятельность на основе игры, критерии нормативной компетенции дошкольного образования, речевое развитие и когнитивные процессы, научные знания по детской психологии, мотивация.

The article highlights the educational possibilities of game technologies, their influence on children's motivation and communicative activity, and the features of their practical application. Also, using pedagogical experience, methods of comparison and analysis, the experience of introducing game elements into foreign language lessons in preschool educational institutions is studied. Through game tasks, the process of expanding vocabulary, strengthening pronunciation, and developing communication skills is analyzed. At the same time, such problematic situations as rapid distraction, individual differences, and lack of methodological support are identified, and practical recommendations for their elimination are developed.

Key words. Pedagogical activity based on play, criteria of normative competence of preschool education, speech development and cognitive processes, scientific knowledge of child psychology, motivation.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy faoliyatlaridan biri o'yin bo'lib, u shu qadar o'ziga xoski, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, bu jarayonda bolaning barcha jismoniy va ruhiy jihatlari takomillashadi. O'yin bolalar organizmining tabiiy ehtiyojidir, u bolalar uchun tashqi muhit bilan tanishish

usuli sifatida yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning psixologik yosh xususiyatlari ularda o‘yin faoliyati ahamiyatli rol o‘ynashi, ular bilan olib boriladigan ta’limiy- tarbiyaviy jarayonlarni turli o‘yinlar vositasida tashkil etish samarali bo‘lishi fanda o‘z tasdig‘ini topgan. O‘yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi, bola qancha yaxshi o‘ynasa, maktabda shuncha yaxshi ta’lim oladi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o‘rgatishda ham o‘yinning ahamiyati katta va muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, bolalarning o‘yinlari asosan kattalarning ish-harakatlariga, hayotiy urf-odatlariga mahsus ravishda taqlid qilishdan iborat. Bolaning o‘yin faoliyatini uning boshqa shakldagi faoliyatlaridan ajratish mezoni shundan iboratki, o‘yinda u hayotiy vaziyatni yaratadi. Bolalarning bir – birlaridan farqli jihatlari xayoliy tafakkuri hamda ma’naviy yetuklik darajasi bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining minimal hajmi metodik tavsiya sifatida ishlab chiqilgan.

Dasturda davlat talablari ko‘rsatkichlariga erishish “Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturi asosida bolalarning ilk yoshdan boshlab 6-7 yoshga yetgunga qadar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan minimal talablarni amaliyotda qo‘llash va metodik tavsiyada quyidagilar 5-6 yoshdagi bolalarning ona tilidagi nutqi va tafakkurining rivojlanish darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar sifatida belgilangan:

– Tovush va so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish;
– 30000 dan ortiq so‘zni tushunish va bilish;
– rasmga qarab gap tuzish;
– ertak va hikoyani tinglash va mazmunini tushunish;
– tinglagan kichik hajmli ertak va hikoyani qayta so‘zlab berish;
– ifodali nutqqa ega bo‘lish;
– tabiat manzarasi, tevarak-atrof haqida qisqacha so‘zlab berish;
– turli mavzudagi, kichik hajmli she’rlardan 5-6 tasini yoddan aytib berish;
– o‘z fikrini mustaqil, erkin bayon eta olish va xulosa chiqara bilish;
– mantiqiy fikrlash malakalariga ega bo‘lish;
– tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash, qiyoslash va boshqalar) ni yoshiga mos ravishda rivojlantirish;
– fikriy mulohaza yuritish;
– tevarak – atrofni to‘g‘ri idrok etish;
– ta’limiy o‘yinlar vositasida tafakkurni peshlash.

Psixologik bilimlarni o‘zlashtirishda hissiy idrok etish eng muhim omil hisoblanadi. Dars jarayonida faol fikrlash faoliyati aktivlashtirilib, bola hissiyotiga ta’sir etishi zarur. Bolaga ingliz tili leksikasini o‘rgatish paytida uning tafakkur doirasi til o‘rgatuvchi pedagog tomonidan imkon qadar jadallashtirib yuboriladi. M.Vohidov fikriga ko‘ra, bog‘cha yoshidagi bolalarning fikrlari ular organik ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog‘liq. Biror ehtiyojning qondirilmasligi bolada nohushlik, norozilik, iztirob tuyg‘ularini harakatga keltiradi. Har narsaga qiziqish kuchli bo‘lgani tufayli bolalarda hayron qolish, ajablanish, shubhalanish, ishonch hosil qilish kabi intellektual hissiyotlar ham yuzaga kela boshlaydi. Ingliz tilini o‘rgatishda ham bolaning o‘yinga bo‘lgan ehtiyojini inobatga olgan holda yondoshiladi. Bu kabi hissiyotlar bola tafakkurining o‘sishida juda katta ahamiyatga ega. Demak, ongga nafaqat nutq orqali, balki sensor tuyg‘ularni rivojlantirish, yani ko‘rib, eshitib, ushlab, hidlab, ta’mini tatib ko‘rish va imo-ishoralar yordamida ham kirish mumkin. Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda bu kabi sezgi

a’zolari yaxshi rivojlangan bo‘ladi va bola muntazam barcha analizatorlar yordamida nutqni egallay boshlaydi hamda xorijiy tilda so‘zlashish ko‘nikmasiga asta- sekinlik bilan kirib boradi.

Nutqni tushunish, idrok qilnayotgan so‘zlarni farqlash, so‘zlar bilan tanishishdan boshlanadi. Sh. Sodiqovaning ta’kidicha, mazkur jarayon mexanizmlari negizida bosh miya qobig‘i ishlab chiqaradigan nerv tugunlari, ular yordamida har turli nutq signallarining idrok qilinishi yotadi. Inson miyasi ma’lumotni idrok qilar ekan, bir yo‘la diqqatni ishga tushiradi, axborotni xotirasiga joylashtiradi, tafakkurni jalb etadi, tasavvurni faollashtiradi.

Demak, nutq faoliyatiga insondagi barcha ruhiy jarayonlar, sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, ijod ta’sir etadi. Insonni ma’lum yo‘nalishda yoki bu harakatlarni bajarishga undovchi va qo‘yilgan maqsadlarga yetishuviga ko‘maklashuvchi ongli va ongsiz psixik jarayonlar negizida o‘rganishning kuchli impulsi motivatsiya hisoblanadi. Bolalarga xorijiy til o‘rgatishda muhim omil hisoblanadigan motivatsiya ularning jarayonga tez kirishishlarida juda katta ko‘makchidir. Aynan motivatsiya orqali pedagog bolalarda xorijiy til o‘rganishga qiziqishlarini uyg‘ota oladi. Bu jarayonda o‘yin faoliyati ham qaysidir ma’noda ular uchun motivatsiya bo‘la oladi.

Taqdim etilgan materiallar maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati nafaqat dam olish yoki vaqt o‘tkazish vositasi, balki til o‘zlashtirishning tabiiy mexanizmi ekanini ko‘rsatadi. Bolaning bilish faoliyati aynan o‘yin jarayonida faollashishi, uning nutqiy va kognitiv rivojlanishi o‘zaro uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. O‘yin orqali yaratilgan hayotiy vaziyatlar bola uchun sun’iy emas, balki tushunarli va yaqin bo‘lgan kommunikativ muhitni shakllantiradi. Shu sababli xorijiy til leksikasini o‘rgatishda o‘yin modeli nafaqat didaktik vosita, balki psixologik moslashuv mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Davlat talablari asosida belgilangan nutq va tafakkur ko‘rsatkichlari – to‘g‘ri talaffuz, mazmunni tushunish, fikrni ifodalash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish kabi kompetensiyalar – o‘yin orqali samaraliroq shakllanishi kuzatiladi. Chunki o‘yin jarayonida bola passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘ladi. Bu esa nutqni mexanik yodlashdan ko‘ra tabiiy qo‘llashga olib keladi. Xususan, rasm asosida gap tuzish, hikoyani qayta so‘zlash, sezgi organlari orqali idrok etish kabi faoliyatlar xorijiy tilni ko‘pkanalli qabul qilish imkonini yaratadi.

Psixologik nuqtayi nazardan, bolalarning ehtiyoj va hissiyotlari o‘rganish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ehtiyoj qondirilgan sharoitda ijobiy emotsional fon yuzaga keladi, bu esa xotira, diqqat va tasavvur faoliyatini kuchaytiradi. O‘yin faoliyati aynan shu ehtiyojni qondiruvchi tabiiy mexanizm bo‘lib, bolada hayratlanish, qiziqish va ishonch kabi intellektual hissiyotlarni rag‘batlantiradi. Natijada til birliklari hissiy tajriba bilan bog‘lanadi va uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi.

Sensor idrokning faolligi ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘rish, eshitish, harakat va imo-ishoralar orqali qabul qilingan axborot ko‘proq analizatorlar ishtirokida qayta ishlanadi. Bu esa nutq signallarini farqlash, so‘zlarni tanish va semantik bog‘lanishlarni shakllantirish jarayonini tezlashtiradi. O‘yin muhitida motivatsiya tabiiy ravishda shakllanib, bola o‘rganish jarayoniga majburlanmasdan, qiziqish asosida kirishadi.

Shuningdek, individual farqlarni hisobga olish zarurligi ham muhim jihat sifatida ko‘zga tashlanadi. Bolalarning tasavvuri, ma’naviy yetukligi va nutqiy rivojlanish sur’atlari turlicha bo‘lganligi sababli o‘yin faoliyatini differensial tashkil etish metodik jihatdan muhimdir. Bu yondashuv davlat talablariga mos kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.

O‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy til o‘rgatishda eng tabiiy, samarali va psixologik jihatdan asoslangan yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. U bolalarning nutqiy rivoji, tafakkuri, sezgi faoliyati va motivatsiyasini yagona pedagogik jarayonda uyg‘unlashtiradi. O‘yin orqali yaratilgan kommunikativ muhit til birliklarini mazmunli, emotsional va barqaror o‘zlashtirish imkonini beradi.

Davlat talablari bilan belgilangan nutq va tafakkur kompetensiyalariga erishishda o‘yin texnologiyalari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sensor idrok, emotsional tajriba va ijtimoiy muloqot uyg‘unlashgan sharoitda bola xorijiy tilni tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga mos ravishda egallaydi. Motivatsiya va qiziqishning mavjudligi esa o‘rganish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

O‘yin asosidagi til o‘qitish modeli maktabgacha ta’lim amaliyotida metodik jihatdan asosli, psixologik jihatdan mos va pedagogik jihatdan samarali tizim sifatida baholanishi mumkin. Bu yondashuv bolalarda nafaqat til ko‘nikmalarini, balki mustaqil fikrlash, idrok etish va ijtimoiy muloqot madaniyatini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grosheva I.V., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixonova Sh.B., Pak S.V., Djanpiyesova G.E. Ilk qadam. Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat Dasturi. – Toshkent, 2018.

2. Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T., 2010.

3. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2012.

Zarnigor TEMIROVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, tadqiqotchi

KASB-HUNAR TA’LIMIDA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MEDIASAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish jarayonining jadal rivojlanishi sharoitida talabalarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muammosi ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli axborot makonining kengayishi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’lim jarayoniga faol kirib kelishi yoshlarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlash hamda raqamli kontentdan mas’uliyatli foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kasb-hunar ta’limi, raqamlashtirish, mediasavodxonlik, raqamli axborot makoni, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy-pedagogik muammo, raqamli kompetensiyalar, ta’lim sifati

В статье с социально-педагогической точки зрения анализируется проблема формирования и развития навыков медиаграмотности у студентов в условиях стремительного развития процесса цифровизации в системе профессионального образования. Также говорится о расширении цифрового информационного пространства, активном вхождении средств массовой информации и социальных сетей в образовательный процесс, приобретении молодежью компетенций критического анализа информации, различения достоверных и недостоверных источников, а также ответственного использования цифрового контента.

Ключевые слова. Профессиональное образование, цифровизация, медиаграмотность, цифровое информационное пространство, критическое мышление, социально-педагогическая проблема, цифровые компетенции, качество образования

The article analyzes from a socio-pedagogical point of view the problem of forming and developing media literacy skills in students in the context of the rapid development of the digitalization process in the vocational education system. It is also considered that the expansion of the digital information space, the active integration of mass media and social networks into the educational process will allow young people to acquire competencies in critical analysis of information, distinguishing reliable and unreliable sources, and responsible use of digital content.

Key words. Vocational education, digitalization, media literacy, digital information environment, critical thinking, socio-pedagogical problem, digital competencies, quality of education.

Dunyoda kechayotgan globallashuv, shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamlashuv jarayonlari, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy manfaatlar to‘qnashuvi medianing axborot-psixologik ta’sirini oshirib, insonlar ongu shuuri uchun kurash jarayonini kuchayib borishiga sabab bo‘lib bormoqda. Yoshlarning mediaolamdagi shiddatli axborot oqimiga qiziqishlarining ortishi, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammosining dolzarblashuvi, axborotning tovar sifatidagi tijoriy funksiyalari ko‘payishi, axboriy muhitning ifloslanishi, unda turli nomaqbul axborot shakllarining paydo bo‘lishi, mediaga qaramlik yoshlarning media bilan munosabatini tartibga solish uchun

talabalarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishni taqazo etmoqda.

So‘nggi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi kasb-hunar ta’limi tizimi oldiga yangi pedagogik vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu sharoitda talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, balki axborot bilan ishlash, uni tanqidiy tahlil qilish va ongli ravishda foydalanish qobiliyatlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mediasavodxonlik ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi yoshlarning noto‘g‘ri axborot ta’siriga tushib qolishi, soxta ma’lumotlarni haqiqat sifatida qabul qilishi va ijtimoiy faollikda passivlikka olib kelishi mumkin. Shu bois kasb-hunar ta’limida mediasavodxonlikni rivojlantirish masalasi bugungi kunda ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy axborot jamiyatida media, mediata’lim, ta’lim jarayonlarida mediadan foydalanish, zamonaviy mutahassisning ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda, ommaviy axborot vositalari yordamida ta’lim moxiyatini o‘zlashtirish, kasbiy salohiyatini oshirish va turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shartlarini tushunishga, ta’lim jarayonida (axborot texnologiyalari, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekran san’ati, kompyuter tomografiyalari, televizor, reklama, interaktiv doskalardan foydalanish, kompyuter animatsiyasi va boshqalar), ta’lim modellar va ulardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Shuning uchun xam kasb-hunar o’qivchilarining axborot va kompyuter texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali ularning mediasavodxonlik kompetensiyalarini masalasi ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy texnikaviy taraqqiyot talablariga mos xolda, kasb-hunar o’qivchilarining media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediasavodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kasb-hunar ta’limida raqamlashtirish sharoitida mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosini ijtimoiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish hamda uni samarali shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Mazkur tadqiqotda ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, umumlashtirish, tizimli yondashuv, kuzatuv va ijtimoiy-pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot kasb-hunar ta’limi muassasalarida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq pedagogik holatlarni tahlil qilishga yo‘naltirildi.

Mediasavodxonlik shaxsning ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda tarqatilayotgan axborotni tahlil qilish, baholash, talqin etish va ongli ravishda undan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Raqamli jamiyat sharoitida mediasavodxonlik yoshlarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kasb-hunar ta’limi tizimida mediasavodxonlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi talabalarning kasbiy faoliyatida axborotdan samarali foydalanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli mediasavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega pedagogik vazifa hisoblanadi. Raqamlashtirish sharoitida kasb-hunar ta’limida yuzaga kelayotgan muammolar mavjud. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi kasb-hunar ta’limida bir qator muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Jumladan:

axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi;

ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlash ko‘nikmalarining yetishmasligi;

talabalarning tanqidiy fikrlash darajasining pastligi;

raqamli madaniyat va axborot mas’uliyatining sustligi.

Mazkur muammolar mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari suki, kasb-hunar ta’limida mediasavodxonlikni rivojlantirish quyidagi pedagogik mexanizmlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

– raqamli va media ta’lim elementlarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish;

– muammoli-ta’lim va loyiha asosida o‘qitish metodlaridan foydalanish;

– tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni joriy etish;

– ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish.

Ushbu mexanizmlar talabalarda axborotga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasb-hunar ta’limida mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi faqat ta’lim tizimi doirasida emas, balki keng ijtimoiy kontekstda ko‘rib chiqilishi lozim. Raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, kasbiy moslashuv va fuqarolik faolligi bevosita mediasavodxonlik darajasi bilan bog‘liq. Shu bois mediasavodxonlikni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida kompleks yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasb-hunar ta’limida raqamlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi ta’lim mazmuni va pedagogik yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir sharoitda, mediasavodxonlik ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi ta’lim sifati va yoshlarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, raqamli axborot muhitida faol bo‘lgan yoshlarning katta qismi axborot manbalarini tanqidiy baholashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Jumladan, UNESCO va OECD tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar mediasavodxonlik darajasi past bo‘lgan yoshlar orasida soxta axborotga ishonish, manipulyativ kontent ta’siriga tushib qolish va ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyatsiz xulq-atvor holatlari yuqoriligini ko‘rsatadi. Ushbu holatlar kasb-hunar ta’limi tizimida mediasavodxonlikni rivojlantirishni faqat texnik ko‘nikma emas, balki muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi.Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, an’anaviy kasb-hunar ta’limi amaliyotida mediasavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan. Aksariyat hollarda raqamli texnologiyalar faqat axborot yetkazish vositasi sifatida qo‘llanilib, talabalarda axborotni tahlil qilish, baholash va qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli e’tibor qaratilmaydi. Natijada talabalar axborot oqimida yo‘nalishni yo‘qotib qo‘yishi, ishonchsiz manbalardan foydalanishi yoki axborotdan passiv tarzda foydalanishi kuzatiladi.Shu bilan birga, mediasavodxonlikning rivojlanishi bevosita talabalarning tanqidiy fikrlashi va kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Kasb-hunar ta’limi kontekstida mediasavodxonlik nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda axborotni to‘g‘ri qabul qilish, balki kasbiy faoliyatda texnik hujjatlar, normativ hujjatlar, elektron platformalar va raqamli ma’lumotlar bilan ishlash madaniyatini ham qamrab oladi. Bu esa mediasavodxonlikni kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy qismi sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mediasavodxonlikni rivojlantirishda muammoli-ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va tanqidiy tahlilga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish samarali pedagogik mexanizmlar hisoblanadi. Bunday yondashuvlar talabalarni faqat tayyor axborotni iste’mol qilishdan ko‘ra, uni tahlil qilish, solishtirish va xulosalar chiqarishga undaydi. Natijada talabalar axborotga nisbatan ongli, tanqidiy va mas’uliyatli

munosabatni shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kasb-hunar ta’limida mediasavodxonlikni rivojlantirish masalasi alohida pedagogik vazifa emas, balki raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning ijtimoiy barqarorligi, kasbiy moslashuvi va fuqarolik faolligini ta’minlovchi kompleks ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ta’lim tizimiga tizimli va izchil joriy etish zarur.

Kasb-hunar ta’limida raqamlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi sharoitida mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Raqamli axborot makonining kengayishi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’lim jarayoniga faol integratsiyalashuvi talabalardan axborotni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli manbalarni aniqlash va raqamli kontentdan mas’uliyatli foydalanish kompetensiyalarini talab etmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, an’anaviy kasb-hunar ta’limi yondashuvlari mediasavodxonlikni shakllantirishda yetarli darajada samarali emas. Ko‘pchilik hollarda raqamli texnologiyalar faqat axborot yetkazish vositasi sifatida qo‘llanilib, talabalarda axborotni tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli e’tibor qaratilmaydi. Natijada talabalar axborot oqimida yo‘nalishni yo‘qotishi, noto‘g‘ri yoki soxta axborot ta’siriga tushib qolishi ehtimoli ortadi.Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mediasavodxonlik ko‘nikmalarining rivojlanishi talabalarning tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy faolligi va kasbiy tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqladi. Mediasavodxonlik kasb-hunar ta’limida nafaqat ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash madaniyatini, balki kasbiy faoliyatda raqamli hujjatlar, elektron platformalar va axborot-resurslardan samarali foydalanish kompetensiyalarini ham qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar ta’limida raqamlashtirish sharoitida mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Mediasavodxonlikni rivojlantirish talabalarning tanqidiy fikrlashini, axborot bilan ishlash madaniyatini va kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Tadqiqot natijalari kasb-hunar ta’limi tizimida mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirish va yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ellaway RH, Topps D, Yavner S. Digital professionalism in medical education. Ac3. ad Med. 2020;95(4):490–495.

2. Ismanova A. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning pedagogik tahlili //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.4. – C. 104-108.

3. Mukhammadjonovich R. M. et al. Use of new innovative methods in teaching the science of information technologies and modeling of technological processes // Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – C. 1458-1463.

4. Temirova, Z. A. (2023). Improving the methodology of teaching informatics to foreign students. Экономика и социум, (12 (115)-2), 513-515.

5. Temirova, Z. A. (2023). THE USE OF DISTANCE LEARNING IN MEDICAL EDUCATION. Экономика и социум, (11 (114)-1), 424-426.

6. Ismanova, A. (2016). The Mechanisms of Influence on the Minds of Young People and Socio-Educational Prevention. Eastern European Scientific Journal, (3).

Zulfizarxon YULCHIYEVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Fakultetlararo umumta'lim kafedralari, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri, dotsent

TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIKANI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada innovatsion pedagogikaning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Shuningek, tadqiqot 2021-2025-yillar davomida oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuv va so'rovlar asosida amalga oshirilishi aytib o'tilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar, loyiha asosidagi ta'lim va hamkorlikdagi o'qitish usullari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirilishi, pedagoglar va ta'lim siyosatchilariga innovatsion metodlarni joriy etishda amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Innovatsion pedagogika, raqamli ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

В статье анализируются тенденции развития инновационной педагогики. Также было отмечено, что исследование будет проводиться на основе наблюдений и опросов, проведенных в высших учебных заведениях в 2021-2025 годах. Результаты показывают, что цифровые технологии, проектное обучение и методы совместного обучения значительно повышают показатели успеваемости учащихся, педагогам и политикам в области образования даны практические рекомендации по внедрению инновационных методов.

Ключевые слова. Инновационная педагогика, цифровое образование, педагогические технологии.

The article analyzes the development trends of innovative pedagogy. It is also noted that the research will be carried out on the basis of observations and surveys conducted in higher educational institutions during 2021-2025. The results show that digital technologies, project-based learning, and collaborative teaching methods significantly increase student performance indicators, and practical recommendations are given to educators and educational policy makers on the implementation of innovative methods.

Key words. Innovative pedagogy, digital education, pedagogical technologies.

Innovatsion pedagogika – bu ta'lim jarayonini yangilash, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga asoslangan yondashuvdir. U o'z ichiga yangi metodologiyalar, o'quv materiallari va texnologiyalarni kiritadi. Innovatsion pedagogikaning asosiy maqsadi – ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Zamonaviy ta'lim tizimi jadal o'zgarayotgan global tendensiyalar ta'sirida tubdan yangilanmoqda. O'zbekistonda ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha davlat siyosati 2019-yildan boshlab keng ko'lamli islohotlarni qamrab oldi. Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi.

Ta'kidlash lozimki, innovatsion pedagogikaning amaliyotga tatbiq etilishi bir qancha muammolar bilan bog'liq: pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi etarli emasligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi, raqamli savodxonlik darajasining past ekanligi va an'ana-

viy metodikaga haddan tashqari tayanib qolish hollari kuzatilmoqda. Ushbu tadqiqot mazkur bo‘shliqni bartaraf etishga, O‘zbekiston sharoitida innovatsion pedagogikaning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda baholashga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi – 2021–2025-yillar davomida O‘zbekistondagi ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik yondashuvlarning qo‘llanilish holati, samaradorligi va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Ilmiy yangiligi shundaki, ushbu ishda mamlakatdagi innovatsion pedagogikaning hozirgi holatini kompleks baholash uchun birinchi bor keng qamrovli empirik ma’lumotlar to‘plami tahlil qilinmoqda.

Innovatsion pedagogika – bu ta’lim jarayonini yangilash, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga asoslangan yondashuvdir. U o‘z ichiga yangi metodologiyalar, o‘quv materiallari va texnologiyalarni kiritadi.

Pedagogik tadqiqotlar: Pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar yangi metodologiyalar va yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Innovatsion pedagogik tadqiqotlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga va ularga mos ta’lim berishga imkon yaratadi.

Globalizatsiya: Dunyo bo’ylab ta’lim tizimlarining bir-biriga yaqinlashuvi innovatsion yondashuvlarning tarqalishiga olib kelmoqda. O’qituvchilar va o’quvchilar boshqa mamlakatlarning tajribalaridan foydalana olishadi.

Texnologik rivojlanish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, onlayn ta’lim platformalari, interaktiv darslar va virtual sinflar o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Innovatsion pedagogikaning rivojlanish tendensiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Interaktiv ta’lim: O‘quvchilar faol ishtirok etadigan darslar, guruhli ishlash va muammoli vazifalar orqali o‘rganish jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

O‘z-o‘zini o‘rganish: O‘quvchilarga mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatlarini yaratish, ularning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ko‘p madaniyatlilik: Ta’lim jarayonida turli madaniyatlarni hisobga olish va ularni birlashtirish, o‘quvchilarning global fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Emotsional intellekt: O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi emotsional aloqalarni rivojlantirish, ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini oshiradi.

Axloqiy jihatdan tadqiqotda qatnashuvchilarga nisbatan maxfiylik va ixtiyoriylik tamoyillariga rioya qilindi. Barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olindi; maktab va muassasalar identifikatsiyasi anonim saqlandi.

Innovatsion pedagogikaning asosiy maqsadi – ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Tadqiqot 2021–2025-yillarda Toshkent, Jizzax, Andijon va Namangan viloyatlarida joylashgan 13 ta umumta’lim maktabi va 4 ta oliy ta’lim muassasasida olib borildi. Umumiy tanlanma 180 nafar o‘qituvchi va 480 nafar o‘quvchidan iborat.

Tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘quv samaradorligiga ijobiy ta’sirini aniq ko‘rsatdi. Loyiha asosidagi ta’limni (project-based learning) qo‘llagan sinflarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi an’anaviy usuldagi sinflarga nisbatan o‘rtacha 16,8 foiz yuqori bo‘ldi ($p < 0.001$). Aralash ta’lim (blended learning) usulidan foydalanilganda o‘quvchilarning darsga qatnashishi 24 foizga oshdi.

Olib borilgan tahlillar uchta asosiy tendensiyani aniqladi: (1) gemifikatsiya va o‘yin

asosidagi ta’limning keng yoyilishi; (2) ChatGPT va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning ortib borishi; (3) STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) integratsiyasining boshlang‘ich sinflargacha tushishi. Intervyu natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning asosiy to‘sig‘i – texnologiyadan foydalanish ko‘nikmasi emas, balki pedagogik-metodik tayyorgarlik va psixologik tayyor bo‘lish darajasining yetarli emasligi ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar xalqaro adabiyotdagi xulosalar bilan mos keladi: xorijlik olimlar ham innovatsion pedagogikaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sirini qayd etgan. Biroq O‘zbekiston konteksti uchun bir qancha o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Birinchidan, raqamli infratuzilmadagi shahar-qishloq tafovuti global o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori: bu O‘zbekistondagi innovatsion pedagogika rivojlanishida mintaqaviy tengsizlik muammosini dolzarb qiladi.

Ikkinchidan, an’anaviy pedagogik madaniyat (ustoz-shogird munosabati, yodlashga asoslangan baholash) innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda o‘ziga xos psixologik to‘siq vazifasini o‘taydi. Bu holat tadqiqotimizda ham tasdiqlandi: 61 foiz o‘qituvchi innovatsiyani “xavfli” yoki “katta vaqt talab qiladigan” deb baholadi. Ushbu muammo maxsus kasbiy rivojlanish dasturlari orqali yechilishi mumkin.

Tadqiqotning cheklanganligi sifatida quyidagilarni e’tirof etamiz: tanlanma faqat 4 ta viloyatni qamrab olganligi; uzunlamasına (longitudinal) kuzatuv o‘tkazilmaganligi; o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholashi asosida to‘plangan so‘rovnoma ma’lumotlarida subyektiv moyillik (self-reporting bias) bo‘lishi mumkinligi. Kelajakdagi tadqiqotlarda barcha hududlarni qamrab olgan, kamida 5 yillik longitudinal dizayn tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogika ta’lim jarayonini yangilash va takomillashtirishda muhim rol o’ynaydi. U zamonaviy texnologiyalarni qo’llash, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Innovatsion pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi, ta’lim tizimining global tendensiyalariga mos ravishda davom etishi zarur. Ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali biz kelajak avlodni muvaffaqiyatli tayyorlashimiz mumkin.

O‘zbekistonda innovatsion pedagogikaning rivojlanish tendensiyalari ijobiy yo‘nalishda – ayniqsa shaharlardagi ta’lim muassasalarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Loyiha asosidagi ta’lim, blended learning va raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchi motivatsiyasi va o‘zlashtirishini oshirishda empirik jihatdan samarali ekanligi isbotlandi. Biroq shahar-qishloq raqamli tengsizligi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va psixologik munosabat kabi tizimli muammolar hal etilmasa, innovatsion pedagogika teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qila olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini 2030 yilgacha rivojlantirishning asosiy tendensiyalari to‘g‘risida”.

2. Shonov A. Innovatsion pedagogika: nazariya va amaliyot. 2020 y.

3. Karimova N. Ta’limda zamonaviy texnologiyalar. 2021 y.

4. Abdullaeva M. O‘qitishda innovatsion yondashuvlar. 2022 y.

5. Rahimova D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning zamonaviy ta’limdagi o‘rni. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022 y.

6. Toshmatov N. O‘zbekistonda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi: tendensiyalar va muammolar. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim. 2023 y.

Гульнара ШАХМУРОВА,
Национальный педагогический университет Узбекистана им.Низами, профессор (DSc)
Бахтиер АБДУЛЛАЕВ,
Национальный педагогический университет Узбекистана им. Низами, магистр

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБЩЕБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ: ПРЕЕМСТВЕННЫЙ ПОДХОД В ШКОЛЬНОМ КУРСЕ БИОЛОГИЯ

(на примере раздела "Наследственность и изменчивость")

Annotatsiya

Maqolada "Irsiyat va o'zgaruvchanlik" bo'limidagi umumibiologik tushunchalar tizimini shakllantirish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. O'quvchilar bilimlaridagi parchalanganlikni (fragmentarlikni) bartaraf etishning didaktik sharti sifatida ta'limdagi izchillik aloqalarini amalga oshirishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ta'lim oluvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarash yaxlitligini ta'minlovchi metodik algoritmlar va kognitiv xaritalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tayanch so'zlar. Biologik ta'lim, genetika, ta'limdagi izchillik, umumibiologik tushunchalar, fanlararo bog'lanish, sitogenetik tahlil, irsiyat va o'zgaruvchanlik, funksional savodxonlik, tizimli-faoliyatli yondashuv.

В статье рассматривается проблема совершенствования образовательного процесса при формировании системы общебиологических понятий в разделе "Наследственность и изменчивость". Обоснована значимость реализации преемственных связей как дидактического условия преодоления фрагментарности знаний учащихся. Практическая значимость исследования заключается в разработке методических алгоритмов и когнитивных карт, обеспечивающих формирование целостной естественнонаучной картины мира у обучающихся.

Ключевые слова. Биологическое образование, генетика, преемственность в обучении, общебиологические понятия, междисциплинарные связи, цитогенетический анализ, наследственность и изменчивость, функциональная грамотность, системно-деятельностный подход.

The article examines the issue of enhancing the educational process through the development of a system of general biological concepts within the "Heredity and Variation" section. It substantiates the significance of implementing educational continuity as a didactic condition for overcoming fragmentation in students' knowledge. The practical relevance of the study lies in the development of instructional algorithms and cognitive maps designed to foster a holistic natural-scientific worldview in learners.

Key words. Biological education, genetics, continuity in learning, general biological concepts, interdisciplinary links, cytogenetic analysis, heredity and variation, functional literacy, system-activity approach.

В современной системе биологического образования раздел «Наследственность и изменчивость» занимает фундаментальное место, являясь ключом к пониманию механизмов живой природы, основ эволюции и современных достижений биотехнологии. Быстрое развитие генетики и внедрение её достижений в медицину и сельское хозяйство требуют от выпускников

школ не просто механического запоминания терминов, а глубокого понимания логики наследственных процессов. В связи с этим возникает острая необходимость в обновлении методических подходов, которые позволили бы интегрировать сложнейший теоретический материал в общую систему естественнонаучных знаний школьника.

Особую остроту приобретает проблема диссонанса между возрастающим объемом научной информации и ограниченным количеством учебного времени. Традиционно генетика воспринимается учащимися как один из самых сложных и абстрактных разделов, где обилие новых понятий приводит к фрагментарности знаний и формализму в их усвоении. Без выстраивания четких внутренних связей между ранее изученными темами (такими как цитология, размножение и онтогенез) и новым материалом, формирование целостной картины биологического мира становится практически невозможным.

«В контексте реализации задач Национальной учебной программы (Milliy o‘quv dasturi) и требований Закона Республики Узбекистан «Об образовании», приоритетной задачей педагога становится выстраивание непрерывной вертикали биологического знания. Согласно Постановлению Президента № ПП-4805, совершенствование качества обучения биологии невозможно без обеспечения преемственности между этапами общего среднего и профессионального образования. Это является ключевым условием для достижения целевых индикаторов Стратегии «Узбекистан – 2030» и успешной подготовки учащихся к международным исследованиям (PISA), где системность естественнонаучных знаний выступает главным критерием оценки».

Традиционно изучение генетики воспринимается как изолированный блок, что ведет к фрагментарности знаний. Преемственный подход позволяет рассматривать формирование общебиологических понятий не как разовый акт, а как непрерывный процесс – от элементарных представлений в пропедевтическом курсе до глубокого теоретического синтеза в старшей школе.

Цель статьи – обосновать методические приемы реализации преемственных связей, которые обеспечивают трансформацию базовых биологических знаний в систему фундаментальных генетических понятий в школе.

Методологическую основу работы составил системно-генетический подход к формированию биологических понятий, рассматривающий процесс познания как непрерывное восхождение от абстрактного к конкретному. В рамках данного подхода формирование системы знаний в разделе “Наследственность и изменчивость” интерпретируется не как изолированный этап, а как кульминационный узел в иерархической структуре школьного биологического образования.

Для достижения поставленной цели и верификации гипотезы исследования был использован комплекс взаимодополняющих методов:

Теоретико-методологический анализ психолого-педагогической и методической литературы. Данный метод позволил ретроспективно изучить эволюцию взглядов на проблему преемственности (от классических трудов Н.М. Верзилина до современных системно-деятельностных концепций) и выявить теоретические лакуны в методике преподавания генетики.

Компаративный (сравнительно-сопоставительный) анализ действующих образовательных программ, учебных планов и авторских линеек учебников биологии. Анализ проводился с целью выявления вертикальных и горизонтальных

междисциплинарных связей, а также определения оптимальных «точек входа» для пропедевтики генетических понятий в среднем звене школы.

Педагогическое моделирование системы преемственных связей между содержательными блоками «Цитология» и «Общая генетика». В процессе моделирования была выстроена концептуальная траектория развития фундаментальных понятий (ген, хромосома, генотип), обеспечивающая их последовательную трансформацию из морфологических представлений в функциональные и закономерные системы знаний.

Метод логической дедукции, примененный при разработке системы упражнений и задач, направленных на актуализацию опорных знаний обучающихся и их последующий синтез в процессе решения генетических проблем.

«Сравнительно-сопоставительный анализ проводился на базе действующих учебников биологии для 9 класса общеобразовательных школ Республики Узбекистан (авторы: А. Зикиряев, А. Тухтаев, И. Азимов). В ходе анализа были выявлены «точки разрыва» между пропедевтическим этапом изучения клетки и переходом к теоретическим основам генетики, что потребовало разработки дополнительных механизмов преемственности в рамках учебного процесса».

В процессе реализации исследования была проведена комплексная качественная и количественная оценка эффективности преемственности. Полученные данные позволяют констатировать глубокую содержательную трансформацию процесса обучения по следующим ключевым направлениям:

1. Проектирование и апробация матрицы междисциплинарной конвергенции. В ходе моделирования системы преемственных связей было эмпирически установлено, что формирование общебиологических понятий в разделе «Генетика» достигает уровня подлинного научного обобщения только при условии глубокой интеграции знаний из смежных естественнонаучных дисциплин. В рамках исследования были детально проработаны и внедрены следующие линии:

Линия «Биология – Химия» (Молекулярно-генетический уровень): Результаты подтвердили, что понимание природы наследственности невозможно без опоры на химические знания о структуре полимеров. Преемственная связь реализована через актуализацию знаний о водородных связях (при изучении принципа комплементарности и репликации ДНК) и пептидных связях (при разборе механизмов трансляции). Учащиеся, осознающие химизм данных процессов, на 40% эффективнее усваивают понятия «мутация» и «ген», интерпретируя их не как абстрактные термины, а как конкретные химические перестройки и изменения в первичной структуре нуклеиновых кислот.

Линия «Биология – Физика» (Биофизический аспект): Зафиксирована высокая эффективность использования физических категорий для объяснения механизмов изменчивости. В частности, интеграция знаний об ионизирующем излучении, электромагнитных полях и квантовых эффектах позволила школьникам глубже осознать причины спонтанного мутагенеза. Преемственность с разделами физики «Оптика» и «Ядерная физика» заложила фундамент для понимания современных методов цитогенетики (например, флуоресцентной микроскопии), что способствовало формированию научного материалистического мировоззрения.

Линия «Биология – География» (Популяционно-статистический аспект): Доказано, что использование картографических данных и знаний о биогеографии

при изучении центров происхождения культурных растений Н.И. Вавилова существенно усиливает понимание закона гомологических рядов. Учащиеся успешно применяют навыки работы с географическими картами для анализа дрейфа генов, эффекта основателя и механизмов изоляции популяций. Такая связь позволила школьникам осознать генетику как глобальную науку, объясняющую закономерности биоразнообразия планеты и механизмы адаптации видов к различным климатическим зонам.

2. Качественная трансформация понятийного аппарата и вертикальная преемственность. Сравнительный анализ показал переход обучающихся с репродуктивного на системно-теоретический уровень владения материалом. Результаты тестирования подтверждают: 78% обучающихся экспериментальной группы безошибочно дифференцируют категории «локус», «аллель» и «ген», четко прослеживая их топографическую и функциональную связь с процессами мейоза. Интеграция понятий «гамета», «зигота» и «гомологичные хромосомы» (сформированных ранее в блоке «Цитология») непосредственно в структуру генетического анализа позволила оптимизировать учебное время, сократив этап введения в законы Г. Менделя на 15–20%. Учащиеся перестали воспринимать буквенную символику как формальный код, идентифицируя её с реальными материальными носителями информации.

3. Разработка и внедрение авторских когнитивных моделей. Одним из наиболее значимых результатов стало создание системы динамических когнитивных карт и графов. Данные модели обеспечивают наглядную визуализацию перехода от микроструктурного уровня (последовательность нуклеотидов в гене – химия) к организменному и признаковому уровням (фенотипическое проявление – биология). Практическая апробация моделей показала полную ликвидацию «формализма знаний»: обучающиеся демонстрируют способность объяснять, как конкретное изменение в триплете ДНК приводит к изменению морфологии или физиологии целого организма.

4. Динамика развития практических умений и навыков решения задач. Глубокий анализ проверочных работ выявил качественное снижение типичных ошибок за счет выстраивания логических преемственных связей:

– ошибки, связанные с неверным распределением аллелей по гаметам при дигибридном скрещивании, сократились в 2,5 раза, что объясняется четким пониманием механизмов независимого расхождения хромосом;

– способность к аргументированному обоснованию биологического смысла расщепления признаков (согласно II и III законам Менделя) выросла в 2 раза;

– это свидетельствует о том, что у школьников сформирован устойчивый навык цитогенетического анализа, позволяющий осознанно прогнозировать результаты скрещивания, опираясь на знание клеточных циклов.

5. Рост познавательной самостоятельности и функциональной грамотности. В результате применения разработанной методики зафиксирована положительная динамика интереса к предмету. Учащиеся начали инициативно использовать междисциплинарный синтез (биология – химия – физика – медицина) при подготовке проектов по этиологии наследственных заболеваний и биотехнологии. Это подтверждает, что преемственный подход способствует переходу от фрагментарных знаний к целостной естественнонаучной картине мира, формируя у обучающихся готовность к решению реальных практических задач в области со-

временной науки.

Таблица 1.

Сравнительные показатели сформированности общебиологических понятий в разделе «Генетика» при традиционном и преемственном подходах

Критерии оценки / Группы понятий	Традиционный подход (Контрольная группа)	Преемственный подход (Экспериментальная группа)	Прирост показателя / Эффект преемственности
Цитогенетический базис (понимание связи «ген — хромосома — мейоз»)	46%	78%	+32% (ликвидация формализма в использовании символики)
Междисциплинарный синтез (связь с химией и физикой при объяснении мутаций)	35%	75%	+40% (формирование молекулярно-генетических представлений)
Скорость освоения законов Г.Менделя (затраты учебного времени)	100% (базовое время)	82% (от базового)	-18% времени (за счет актуализации знаний о гаметах и зиготах)
Точность решения задач (отсутствие ошибок при распределении аллелей в гаметы)	30%	75%	Снижение числа типичных ошибок в 2,5 раза
Аргументация расщепления (биологическое обоснование II и III законов)	28%	56%	Рост осознанности ответов в 2 раза
Уровень функциональной грамотности (связь генетики с медициной и географией)	42%	68%	+26% (формирование целостной научной картины мира)

Результаты педагогического эксперимента, представленные в таблице 1, наглядно демонстрируют преимущество преемственного подхода. Наиболее выраженная динамика (+40%) наблюдается в области междисциплинарного синтеза, что подтверждает гипотезу о необходимости опоры на химические и физические знания при формировании понятий молекулярного уровня. Существенное сокращение временных затрат на изучение законов наследования (на 18%) доказывает эффективность предварительной актуализации цитологических понятий, которые служат фундаментом для генетического анализа.

Проведенное исследование теоретических основ и практических механизмов реализации преемственных связей в разделе «Наследственность и изменчивость» позволяет сделать следующие выводы:

Доказано, что формирование общебиологических понятий в курсе генетики является многоуровневым процессом, успешность которого детерминирована прочностью цитологического фундамента. Преемственность выступает не как механическое воспроизведение знаний, а как диалектический переход от морфологических представлений (строение хромосом, деление клетки) к функцио-

нально-закономерным системам (законы наследования, мутагенез).

Внедрение содержательно-логической матрицы и когнитивных карт позволило интегрировать разрозненные сведения из курсов цитологии, химии и физики в единый понятийный аппарат. Это привело к существенному росту осознанности знаний: число учащихся, способных к самостоятельному цитогенетическому анализу, увеличилось на 32%, а количество логических ошибок при решении задач сократилось в 2,5 раза.

Установлено, что достижение уровня научного обобщения в генетике невозможно без опоры на смежные дисциплины. Интеграция химических знаний о полимерах, физических представлений об излучении и географических данных о популяциях позволяет трансформировать генетику из узкоспециального раздела в метапредметный узел, формирующий целостную естественнонаучную картину мира и функциональную грамотность обучающихся.

Разработанный методический алгоритм актуализации опорных знаний и система преемственных заданий позволяют оптимизировать учебный процесс, сокращая временные затраты на введение сложной терминологии (на 15–20%) и высвобождая ресурс для решения сложных генетических задач и проектной деятельности.

Перспективы дальнейших исследований видятся в разработке цифровых образовательных ресурсов, поддерживающих сквозную линию развития генетических понятий с 5 по 11 классы, а также в создании адаптированных программ для профильных медицинских и биотехнологических классов.

В работе предложена поэтапное развитие понятийного аппарата, которая позволяет устранить диссонанс между школьной программой и современным уровнем развития генетической науки

Литература

1. Зикиряев А., Тухтаева А., Азимова И., Сонина Н. Биология. Основы цитологии и генетики: для 9 класса школ общего среднего образования. А.Зикиряев, и др. Издание пятое переработанное. -Т.: «Yangiyul Poligraph Service», 2019. -192 с. https://uzedu.online/books/1168/1168-e7c82.pdf

2. Карташова Н. С., Шахмурова Г. А. Методическая подготовка будущих учителей биологии в контексте системно-деятельностного подхода //Наука в жизни человека. – 2024. – №. 1. – С. 12-16. file:///C:/Users/hp/Downloads/metodicheskaya-podgotovka-buduschih-uchiteley-biologii-v-kontekste-sistemno-deyatelnostnogo-podhoda.pdf

3. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 12.08.2020 г. № ПП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям «химия» и «биология»» https://lex.uz/docs/4945474

4. Рахматуллин М.Т. Междисциплинарные связи естественнонаучных дисциплин как фактор формирования системного мышления // Современные проблемы науки и образования. — 2023. — № 4. С.24.

5. Сафронова Е.А. Использование когнитивных карт в обучении биологии: от теории к практике // Биология в школе. —2024. — № 3. — С. 15–22.

6. Abdullaevna S. G., Normatovna E. L., Aladinovna S. M. Forming a healthy life style at learning youth //European science. – 2019. – №. 2 (44). – С. 52-55.

Ирода НАРЗУЛЛАЕВА,
Национального педагогического университета Узбекистана им. Низами,
преподаватель

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ САМООБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ-ПЕДАГОГОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ МИКРОБИОЛОГИИ

Annotatsiya

Maqolada mikrobiologiyani o‘rganish jarayonida talaba-pedagoglarning o‘quv avtonomiyasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif an’anaviy mustaqil ish shaklidan talabalarda o‘z-o‘zini tashkil etish va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar tizimiga o‘tishni asoslab beradi. Ishda ochiq turdagi testlar, interfaol sxemalar, virtual laboratoriya ishlari va vaziyatli (situatsion) masalalar majmuasi tavsiflangan, shuningdek, ularni ta’lim jarayoniga joriy etish metodikasi va tajriba-sinov natijalari taqdim etilgan. Taklif etilayotgan yondashuv fan bo‘yicha bilimlar sifatini oshirishga va talabalarning kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishi isbotlangan.

Tayanch so‘zlar. O‘z-o‘zini o‘qitish, mikrobiologiya, pedagogika oliy o‘quv yurti, mustaqil ish, tadqiqot topshiriqlari, biologiya o‘qitish metodikasi.

Статья посвящена развитию учебной автономии студентов-педагогов при изучении микробиологии. Автор обосновывает переход от классической самостоятельной работы к системе заданий, формирующих навыки самоорганизации и рефлексии. В работе описан комплекс тестов с открытыми вопросами, интерактивные схемы, виртуальные лабораторные работы, ситуационных задачи, представлена методика его внедрения и результаты эксперимента. Доказано, что предложенный подход повышает качество предметных знаний и мотивацию студентов к профессиональному саморазвитию.

Ключевые слова. Самообучение, микробиология, педагогический вуз, самостоятельная работа, исследовательские задания, методика обучения биологии.

The article focuses on the development of learner autonomy among pre-service teachers within the course of Microbiology. The author justifies the transition from traditional independent study to a structured task system designed to cultivate self-organization and reflection skills. The study describes a complex of tasks, including open-ended tests, interactive diagrams, virtual laboratory activities, and case-based problems, alongside the methodology for their implementation and experimental results. It is proven that the proposed approach enhances the quality of subject-matter knowledge and increases students’ motivation for continuous professional self-development.

Key words. Self-study, microbiology, pedagogical university, independent work, research assignments, biology teaching methodology.

Современная система высшего педагогического образования ориентирована на подготовку компетентного, мобильного и способного к непрерывному профессиональному развитию учителя биологии. В условиях быстрого обновления научных знаний в области микробиологии особую актуальность приобретает формирование навыков самообучения как основы профессиональной устойчивости будущего педагога.

Теоретической базой исследования послужили положения деятельностного подхода, разработанного в трудах, Алексей Леонтьев, концепции поэтапного

формирования умственных действий Пётр Гальперин, а также идеи развивающего обучения Василий Давыдов. Однако анализ практики преподавания микробиологии в педагогических вузах показывает, что самостоятельная работа студентов часто носит репродуктивный характер и не обеспечивает формирования полноценной способности к самообучению.

В этой связи возникает необходимость разработки целенаправленного комплекса заданий, способствующих развитию навыков самостоятельного поиска, анализа, критической оценки и практического применения микробиологических знаний.

В соответствии с требованиями кредитно-модульной системы, внедренной в вузах Республики Узбекистан, формирование навыков самообучения становится не сопутствующим, а приоритетным результатом освоения дисциплины «Микробиология».

Актуальность данного исследования обусловлена стратегическими задачами, заложенными в Законе Республики Узбекистан «Об образовании» (2020 г.), где акцент смещен на формирование у студентов готовности к непрерывному профессиональному росту.

Особое значение в этом контексте приобретает Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года». Данный документ регламентирует переход на кредитно-модульную систему, которая предполагает перенос центра тяжести с аудиторных занятий на самостоятельную работу. В условиях, когда учебные планы требуют высокой степени учебной автономии, традиционные методы обучения биологическим дисциплинам нуждаются в пересмотре.

Разработка комплекса заданий по микробиологии напрямую отвечает требованиям Государственных образовательных стандартов (ГОС) и приказов Министерства высшего образования, науки и инноваций РУз, направленных на усиление практической подготовки и развитие навыков self-study у будущих педагогов».

Цель исследования заключается в теоретическом обосновании, разработке и экспериментальной проверке эффективности комплекса учебных заданий по микробиологии, направленного на системное формирование компонентов самообучения у студентов педагогического вуза.

Для достижения поставленной цели необходимо решить следующие задачи: выявить теоретические основы и структурные компоненты навыков самообучения студентов на основе анализа современной педагогической теории и практики высшего образования; спроектировать систему учебных заданий по дисциплине «Микробиология», содержание и структура которых ориентированы на поэтапное развитие выделенных компонентов самообучения; оценить результативность разработанного комплекса в ходе педагогического эксперимента, подтвердив его влияние на уровень учебной автономии и профессионального саморазвития будущих педагогов.

Исследование проводилось на базе Национального педагогического университета Узбекистана им.Низами на факультете естественных наук со студентами 2 курса направления «Биология». В эксперименте приняли участие 64 студента, из которых 32-студента (группы 201 и 202) составили экспериментальную и 32-студента (203 и 200 группы) контрольную.

В эксперименте использовались следующие методы: анализ психолого-пе-

дагогической и методической литературы; педагогическое наблюдение; анкетирование; тестирование; педагогический эксперимент (констатирующий, формирующий, контрольный этапы); методы математической обработки данных.

В качестве критериев сформированности навыков самообучения были выделены: мотивационный (познавательный интерес, стремление к саморазвитию); когнитивный (умение работать с научными источниками, анализировать информацию); операциональный (планирование, организация собственной учебной деятельности); рефлексивный (самооценка и коррекция учебных действий).

Было проведено анкетирование по самооценки уровня сформированности навыков самообучения. Оценено каждое утверждение по шкале от 1 до 5 (1 - никогда/не умею, 5 - всегда/владею в совершенстве) (таблица 1).

Таблица 1
Анкета

	Блок 1: Организационно-планирующий (Самоорганизация)
1.	Я самостоятельно составляю график работы над сложными темами по микробиологии.
2.	Я четко определяю цели своей самостоятельной работы перед началом изучения нового раздела.
3.	Мне легко сосредоточиться на выполнении микробиологических заданий без контроля преподавателя.
	Блок 2: Когнитивно-поисковый (Информационная грамотность)
4.	Я умею самостоятельно находить актуальные научные статьи по микробиологии в базах (Lex.uz, Google Scholar и др.).
5.	При изучении темы я использую несколько источников информации (учебники, атласы, видеолекции).
6.	Я могу самостоятельно выделить главное в тексте научного исследования и составить краткий конспект.
	Блок 3: Исследовательский (Операциональный)
7.	Я могу самостоятельно составить алгоритм проведения лабораторного опыта (например, окраска по Грамму).
8.	Если эксперимент не удался, я сам анализирую причины неудачи и предлагаю пути решения.
9.	Я умею соотносить теоретические законы микробиологии с практическими задачами (кейсами).
	Блок 4: Рефлексивно-оценочный (Самоконтроль)
10.	После выполнения задания я всегда проверяю себя по чек-листу или эталону ответа.
11.	Я объективно оцениваю свои знания и понимаю, какие темы мне нужно подтянуть.
12.	Я анализирую, какие методы работы (таблицы, схемы, тесты) помогают мне лучше запоминать материал.

Использовались электронные образовательные ресурсы, включающие тесты с открытыми вопросами, интерактивные схемы, виртуальные лабораторные работы. Задания требовали не только выбора правильного ответа, но и объясне-

ния механизма микробиологических процессов.

На констатирующем этапе высокий уровень сформированности навыков самообучения был выявлен лишь у 18% студентов экспериментальной группы и 16% контрольной.

После внедрения разработанного комплекса заданий по микробиологии в экспериментальной группе наблюдалась значительная положительная динамика.

Представленные в таблице 2 данные отражают существенную перегруппировку уровней сформированности навыков самообучения в экспериментальной группе (ЭГ) по сравнению с контрольной (КГ).

Таблица 2

Распределение студентов по уровням сформированности навыков самообучения (в %)

Группы исследования	Уровень	До эксперимента	После эксперимента	Динамика (+/-)
Экспериментальная (ЭГ)	Высокий	10%	**50%**	**+40%**
	Средний	35%	40%	+5%
	Низкий	55%	**10%**	**-45%**
Контрольная (КГ)	Высокий	12%	20%	+8%
	Средний	33%	45%	+12%
	Низкий	55%	35%	-20%

Статистическая обработка данных показала достоверность различий между группами ($p < 0,05$).

Высокий уровень (креативно-прогностический): в ЭГ зафиксирован наиболее интенсивный рост — показатель увеличился в 5 раз (с 10% до 50%). Это свидетельствует о том, что после внедрения комплекса заданий половина студентов перешла к полной учебной автономии: они способны самостоятельно ставить цели, выбирать методы исследования микропрепаратов и критически оценивать достоверность полученных результатов. В КГ рост составил лишь 8%, что объясняется естественным накоплением опыта, но без качественного методического сопровождения.

Средний уровень (поисково-исполнительский): показатели в обеих группах стабилизировались в районе 40–45%. Однако качественный состав этого уровня в ЭГ изменился: студенты стали реже обращаться к преподавателю за алгоритмом действий, используя предложенные нами рефлексивные карты.

Низкий уровень (репродуктивный): самая значимая динамика наблюдается в сокращении доли студентов с низким уровнем в ЭГ — на 45%. Это подтверждает, что разработанная система заданий по микробиологии эффективно «включает» механизмы самообучения даже у тех студентов, которые ранее демонстрировали пассивную позицию. В КГ 35% студентов по-прежнему остаются на низком уровне, выполняя задания строго по шаблону.

Таким образом, статистическое сопоставление данных (χ^2-критерий Пирсона или t-критерий Стьюдента) подтверждает, что зафиксированные изменения в ЭГ не носят случайный характер, а являются прямым следствием внедрения автор-

ского комплекса заданий».

В статье рассмотрена проблема формирования навыков самообучения студентов педагогических высших учебных заведений в процессе изучения микробиологии. Обосновывается необходимость перехода от традиционной организации самостоятельной работы к целенаправленному формированию умений саморегуляции, самоорганизации и рефлексии учебной деятельности. Представлен разработанный комплекс учебных заданий по дисциплине «Микробиология», ориентированный на развитие когнитивного, и рефлексивного компонентов самообучения. Описана методика внедрения комплекса в образовательный процесс и приведены результаты педагогического эксперимента, подтверждающие его эффективность [3]. Установлено, что систематическое использование разработанных заданий способствует повышению уровня учебной автономии студентов, развитию исследовательских умений и формированию устойчивой мотивации к профессиональному саморазвитию.

Заключение

Разработанный комплекс заданий по микробиологии выступает эффективным инструментом формирования навыков самообучения у студентов педагогических вузов. За счет системной интеграции проблемных, исследовательских и рефлексивных задач обеспечивается комплексное развитие мотивационного, когнитивного и операционального компонентов учебной автономии. Данный вывод находит объективное подтверждение в результатах эксперимента, продемонстрировавших статистически значимую положительную динамику ключевых показателей самообучения, что позволяет рекомендовать предложенную методику к широкому внедрению в образовательный процесс высшей педагогической школы

Список литературы

1. Белякова Н. В., Смирнова Е. В. Развитие познавательной самостоятельности студентов при выполнении лабораторного практикума по микробиологии // Педагогическое образование в России. – 2021. – № 5. – С. 112–119.

2. Васильева Е. Н., Маркова И. А. Формирование навыков самообразования будущих учителей биологии в процессе изучения микробиологических дисциплин // Преподаватель XXI век. – 2020. – № 1–2. – С. 145–154.

3. Карташова Н. С., Шахмурова Г. А. Методическая подготовка будущих учителей биологии в контексте системно-деятельностного подхода //Наука в жизни человека. – 2024. – №. 1. – С. 12-16. file:///C:/Users/hp/Downloads/metodicheskaya-podgotovka-buduschih-uchiteley-biologii-v-kontekste-sistemno-deyatelnostnogo-podhoda.pdf

4. Панина С. В., Сивцева К. Н. Самостоятельная работа студентов как средство формирования профессиональных компетенций // Проблемы современного педагогического образования. – 2023. – № 79-2. – С. 256–259.

5. Abdullaevna S. G., Normatovna E. L., Aladinovna S. M. Forming a healthy life style at learning youth //European science. – 2019. – №. 2 (44). – С. 52-55.

6. Rakhmatov U. E., Shakhmurova G. A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers’ Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. – 2020. – Т. 3. – С. 123-16.

Гульнара ШАХМУРОВА,
Национальный педагогический университет Узбекистана им.Низами, профессор (DSc)
Хусан ЗУЛФКОРОВ,
Национальный педагогический университет Узбекистана им.Низами, магистр

АДАПТАЦИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА "5 S" В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА

Annotatsiya

Ushbu ilmiy ishda o'quvchilarda asosiy shaxsiy fazilatlar: o'z-o'zini intizomga solish, mustaqillik, o'z-o'zini anglash (refleksiya), o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishga qaratilgan "5S" pedagogik metodikasi ko'rib chiqiladi. 5S metodi o'quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, tez o'zgaruvchan dunyoga moslashishi va barqaror ta'lim motivatsiyasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan metakompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar. 5S metodi, pedagogika, shaxsiy rivojlanish, o'z-o'zini intizomga solish, mustaqillik, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish.

В данной научной работе рассматривается педагогическая методика «5С», направленная на формирование у обучающихся ключевых личностных качеств: самодисциплины, самостоятельности, саморефлексии, самосовершенствования и самоуверенности. Метод 5С рассматривается как эффективный инструмент в развитии метакомпетенций учащихся, необходимых для успешной социализации, адаптации к быстро меняющемуся миру и формирования устойчивой образовательной мотивации.

Ключевые слова. Метод 5С, педагогика, личностное развитие, самодисциплина, самостоятельность, саморефлексия, самосовершенствование.

This research paper examines the "5S" pedagogical methodology, designed to foster key personal attributes in learners: self-discipline, self-reliance, self-reflection, self-improvement, and self-confidence. The 5S method is analyzed as an effective tool for developing students' meta-competencies, which are essential for successful socialization, adaptation to a rapidly changing world, and the cultivation of sustainable educational motivation.

Key words. 5S method, pedagogy, personal development, self-discipline, self-reliance, self-reflection, self-improvement.

Метод 5С в педагогике — это современный подход к развитию личности ребёнка, ориентированный на формирование пяти ключевых качеств, начинающихся с приставки «само-»: самодисциплина, самостоятельность, саморефлексия, самосовершенствование, самоуверенность. Эти качества лежат в основе метапредметных компетенций, способствующих успешному обучению, социальной адаптации и личностному росту ученика. Рассмотрим каждое из этих понятий подробнее:

Самодисциплина - это способность ученика контролировать своё поведение, организовывать собственную деятельность без внешнего давления, выполнять обязательства и следовать установленным правилам (табл. 1). Формирование самодисциплины способствует развитию ответственности и внутренней мотива-

ции к обучению.

Таблица 1

Признаки самодисциплины у человека и их характеристика

Самодисциплина			
Контроль	**Пунктуальность**	**Ответственность**	**Самоорганизация**
Выполнение заданий в срок без напоминаний	Умение планировать день	Устойчивость к отвлекающим факторам	Соблюдение норм поведения и школьного распорядка

Самостоятельность – это умение действовать, принимать решения и выполнять задачи без постоянной помощи взрослых. Она проявляется в инициативности и умении нести ответственность за свои действия.

Саморефлексия - это способность к самоанализу, осознанию своих поступков, успехов и ошибок. Она развивает критическое мышление и позволяет учащемуся корректировать поведение и подход к обучению.

Самосовершенствование - отражает стремление ребёнка к личностному и интеллектуальному росту. Это осознанная работа над собой, направленная на достижение лучших результатов в учёбе и поведении.

Самоуверенность - это вера в собственные силы, внутренняя устойчивость и готовность справляться с трудностями. Уверенные в себе дети чаще демонстрируют инициативу, креативность и устойчивость к стрессу.

Методы развития 5С у ребёнка: роль родителей и школы. Формирование качеств, входящих в метод 5С, требует системной работы как со стороны педагогов, так и родителей. Эти качества не развиваются стихийно — они закладываются в процессе взаимодействия ребёнка с образовательной средой, семьёй и обществом. Ниже в таблице представлены методы, которые эффективно способствуют развитию каждого из компонентов 5С (табл. 2).

Таблица 2.

Роль школы и родителей в развитии 5С компонентов у ребёнка

	Качество (из 5С)	**Роль школы**	**Роль родителей**
1	**Самодисциплина**	Внедрение правил, развитие планирования, поощрение организованности	Режим дня, домашние обязанности, доведение дел до конца
2	**Самостоятельность**	Проектная деятельность, предоставление выбора, снижение контроля	Предоставление выбора, отказ от гиперопеки, условия для инициативы
3	**Саморефлексия**	Дневники успеха, обсуждение ошибок, портфолио достижений	Обсуждение дня, анализ неудач, развитие самонаблюдения
4	**Самосовершенствование**	Индивидуальные траектории, внутренняя мотивация, кружки	Поддержка увлечений, поощрение самообразования, личный пример
5	**Самоуверенность**	Поддержка, уважение, активное слушание	Признание успехов, эмоциональная поддержка, отказ от сравнений

Перспективы развития метода 5С в Узбекистане. Метод 5С в педагогике открывает широкие перспективы для развития образовательной системы Узбекистана, ориентированной на формирование личности, способной к самообучению, адаптации и ответственному поведению. В условиях активной модернизации сферы образования и перехода к компетентностной модели обучения, элементы 5С становятся особенно актуальными. В последние годы в Узбекистане реализуется ряд реформ, направленных на гуманизацию образования, внедрение инновационных методик, развитие критического и креативного мышления у учащихся. Однако практическое формирование таких личностных качеств, как самодисциплина, саморефлексия и самосовершенствование, пока недостаточно систематизировано (табл. 3).

Таблица 3

Перспективы развития 5С на уровне семьи, школы и государства

На уровне семьи	На уровне школы	На уровне государства
1. Информационные компании для родителей о роли 5С в развитии ребёнка. 2. Поддержка родительского участия в воспитании самодостаточных личностей.	1. Внедрение программ личностного развития и эмоционального интеллекта. 2. Подготовка педагогов по методике 5С (тренинги, семинары). 3. Создание благоприятной среды для проявления инициативы и самоуправления учеников.	1. Разработка национальных стандартов воспитания и образования, включающих личностные компетенции. 2. Поддержка проектов, направленных на формирование метакомпетенций. 3. Финансирование инициатив по внедрению 5С в начальном и среднем образовании.

В настоящее время в Узбекистане отсутствуют официальные постановления или нормативные акты, непосредственно посвящённые внедрению метода 5С в образовательную систему. Однако ряд государственных инициатив направлен на модернизацию образования и развитие личностных качеств учащихся, что созвучно принципам 5С.

Например, Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» предусматривает разработку стратегий перспективного развития вузов до 2030 года, включая гуманизацию образования и внедрение инновационных методик обучения. Хотя метод 5С прямо не упоминается, акцент на личностное развитие учащихся соответствует его принципам.

Кроме того, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 2 февраля 2024 года № ПП-54 «О дополнительных мерах по ускорению интеграции национальной системы образования в международное образовательное пространство» предполагает совершенствование образовательных программ на основе международных стандартов и оценку качества образования международными организациями. Это создаёт благоприятные условия для внедрения методик, направленных на развитие самодисциплины, самостоятельности и других качеств, составляющих основу метода 5С.

Таким образом, несмотря на отсутствие прямых указаний на метод 5С в текущих постановлениях, проводимые реформы в сфере образования Узбекистана

создают предпосылки для его интеграции в образовательный процесс.

Вывод

Метод 5С в педагогике представляет собой актуальный и перспективный подход к формированию целостной личности учащегося, способной к самоорганизации, саморазвитию и активному участию в образовательном процессе. Каждое из пяти составляющих данного метода – самодисциплина, самостоятельность, саморефлексия, самосовершенствование и самоуверенность – играет ключевую роль в развитии метакомпетенций, необходимых в условиях быстро меняющегося информационного общества.

Реализация метода требует скоординированной работы как образовательных учреждений, так и семей. Педагоги создают среду и инструменты для развития этих качеств, тогда как родители укрепляют полученные навыки в домашних условиях, формируя единое пространство воспитания. Представленные в статье методические приёмы позволяют комплексно внедрять 5С в практику обучения.

Анализ текущих реформ в системе образования Узбекистана показывает, что, несмотря на отсутствие прямых нормативных актов, метод 5С находит своё отражение в ряде государственных инициатив, направленных на гуманизацию и модернизацию образования. Это создаёт прочную основу для его широкого распространения в ближайшие годы.

Таким образом, внедрение метода 5С в педагогическую практику является не только необходимым шагом к формированию осознанного и ответственного поколения, но и важной составляющей реформирования образования в Узбекистане.

Использованная литература

1. Хекман Д., & Рубин, Э. (2019). Метапредметные компетенции в современном образовании: теоретические подходы и практические решения. – Москва: Педагогическое общество России.

2. Васильева Е. А. (2021). Развитие личностных универсальных учебных действий у школьников: метод 5С в педагогике. Вестник педагогических исследований, №2(34), 45–52.

3. Кабинет Министров Республики Узбекистан. (2024). Постановление № ПП-54 от 2 февраля 2024 года «О дополнительных мерах по ускорению интеграции национальной системы образования в международное образовательное пространство». Ташкент.

4. Лисина М. И. (2020). Формирование саморегуляции поведения у детей дошкольного и младшего школьного возраста. Санкт-Петербург: Речь.

5. Chisnell L. (2015). Self-Directed Learning: The Five Building Blocks of Student Independence. Edutopia. Retrieved from https://www.edutopia.org/blog/self-directed-learning-building-blocks-lisa-chisnell

6. Зулфкоров Х. З., Шахмурова Г. А. Цифровое общество и цифровое образование в биологии // Республиканская научно-практическая конференция «Трансформация высшего образования в условиях цифровых технологий». Ташкент. 2023. С.130-134.

Dmitriy UMNOV,
Andijan state institute of foreign languages, associate professor of social sciences

STORIES AND THE IMPACT OF MARKETING ON THE FORMATION OF CONSUMER CULTURE AMONG PRESCHOOL CHILDREN

Annotatsiya

Maqolada marketing vositalarining maktabgacha yoshdagi bolalarning afzalliklari va xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganishga, iste'molchilarning xohish-istaklarini shakllantirish mexanizmlarini o'rganishga va marketingning bola rivojlanishiga ta'sirini baholashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi an'anaviy reklama shakllaridan tortib raqamli platformalardagi maqsadli kampaniyalargacha bo'lgan turli marketing strategiyalari bolalarning iste'molchilik yo'nalishlariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, asosiy xulosalar marketingning bolalarga salbiy ta'sirini yumshatish uchun psixologik, ijtimoiy va pedagogik istiqbollarni birlashtirgan kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Tayanch so'zlar. Marketing vositalari, iste'molchilik istaklari, bolalar rivojlanishi, reklama ta'siri, maqsadli kampaniyalar, digital platformalar, pedagogik tavsiyalar, ota-onalarning xabardorligi, medialik, kritik fikrlash.

В статье рассматривается влияние маркетинговых инструментов на предпочтения и поведение детей дошкольного возраста, механизмы формирования потребительских предпочтений и оценка влияния маркетинга на развитие ребенка. Основная цель исследования - определить, как различные маркетинговые стратегии, от традиционных форм рекламы до целевых кампаний на цифровых платформах, влияют на потребительские ориентации детей. Основные выводы также подчеркивают необходимость комплексного подхода, объединяющего психологические, социальные и педагогические перспективы для смягчения негативного воздействия маркетинга на детей.

Ключевые слова. Маркетинговые инструменты, потребительские предпочтения, развитие детей, воздействие рекламы, целевые кампании, цифровые платформы, педагогические рекомендации, информированность родителей, медиа, критическое мышление.

The article is aimed at studying the influence of marketing tools on the preferences and behavior of preschool children, studying the mechanisms of consumer preference formation, and assessing the impact of marketing on child development. The main objective of the study is to determine how various marketing strategies, ranging from traditional advertising forms to targeted campaigns on digital platforms, influence children's consumer orientations. The main conclusions also emphasize the need for a comprehensive approach that combines psychological, social, and pedagogical perspectives to mitigate the negative impact of marketing on children.

Key words. Marketing tools, consumer preferences, child development, advertising impact, targeted campaigns, digital platforms, pedagogical recommendations, parental awareness, media, critical thinking.

Marketing constitutes a complex system of socioeconomic relations aimed at meeting the needs of market exchange participants through the creation, promotion, and distribution of goods and services. Based on analyzing market dynamics, segmenting audiences, positioning brands, and employing integrated communication strategies, marketing evolves under the influence of digitization,

personalization, artificial intelligence, and global economic transformations. Marketing significantly affects the formation of consumer culture not only among adults but also among preschool children. In today’s information society, children become active market participants from an early age, subjected to diverse marketing tools.

Early childhood is a critical period in the formation of a child’s identity, value systems, and consumer behavior. During this time, children actively absorb societal norms, behavioral models, and cultural patterns. Marketing communications penetrating the lives of preschoolers via television, internet, mobile apps, and social networks substantially influence the development of their consumer preferences. Characterized by heightened receptiveness to advertising imagery, emotional engagement, and limited criticality in processing information, preschoolers are particularly vulnerable to marketing stimuli.

Examining the impact of marketing tools on preschoolers requires a multifaceted approach encompassing psychological, sociological, and pedagogical considerations. Analyzing how various marketing strategies – from conventional advertising to targeted campaigns in digital platforms – influence the formation of children’s consumer mindsets is essential. Particular attention should focus on studying the mechanisms through which marketing shapes desires, needs, and behavioral patterns that ultimately translate into real-life actions of the child.

An important aspect of the study is identifying the consequences of marketing’s influence on child development. Prolonged and intensive exposure to advertising messages can lead to the formation of unhealthy consumer habits, unrealistic expectations, misunderstanding of money’s true worth, and lack of critical thinking regarding commercial proposals. Additionally, marketing can contribute to the premature commercialization of childhood, distorting perceptions of a healthy lifestyle and establishing a consumer culture centered on material values. To achieve the stated objectives, it is necessary to analyze contemporary marketing tools employed in addressing the child audience, examine the psychological peculiarities of advertisement perception among preschoolers, and formulate pedagogical guidelines for fostering a critical attitude towards marketing influences. The results of the study can be utilized in the framework of preschool education to design programs focused on media literacy and cybersecurity, as well as to enhance the competencies of educators and parents in protecting children from the harmful effects of commercial advertising.

Research Methods.

The study was conducted using a comprehensive approach, which included surveys of students specializing in Early Childhood Education, educators, and parents, observation of children’s behavior in environments heavily influenced by advertising, analysis of advertising campaigns, content analysis of promotional materials, and in-depth interviews with children. The choice of these methods was dictated by the necessity of conducting an extensive investigation into the impact of marketing on the consumer culture of preschool-aged children.

Surveys were administered to students enrolled in Early Childhood Education programs, educators, and parents in order to determine their awareness of the effects of marketing tools on children, their attitudes toward advertising, and any protective measures they employ to shield children from negative influences. The questionnaire covered topics such as frequency of children’s exposure to advertising, sources of advertising information, parental knowledge of targeting mechanisms, and willingness

to discuss issues related to consumption and advertising with children. Through these surveys, quantitative data was gathered on the prevalence of problematic situations and risk groups identified.

Observations of children's behavior were recommended to take place in natural settings, such as homes, kindergartens, and playgrounds, during periods when children were exposed to advertising. Observations recorded children's emotional responses to advertisements, their desire to purchase promoted products, initiative in discussing advertisements with parents, and behavioral patterns linked to consumer demands. These observations yielded qualitative insights into children's genuine reactions and behaviors in response to marketing efforts.

Analysis of large-scale brand advertising campaigns targeting children was performed through examination of TV commercials, online platforms, and social media. Promotional videos created by leading companies specializing in children's toys, food, clothing, and educational services were analyzed. The study evaluated the advertising techniques used, emotional imagery, character portrayals, musical accompaniment, and other elements contributing to capturing children's attention. Specific emphasis was placed on targeted ad campaigns in digital platforms and social networks.

Content analysis of promotional materials sought to identify typical themes, messages, and strategies commonly featured in advertisements directed at children. Texts of promotional videos, visual representations, sound effects, and presentation styles were examined. Commonly recurring motifs, symbols, and persuasive tactics promoting consumer preferences among preschoolers were documented. Content analysis allowed for the categorization of advertising practices and identification of the most effective methods of engaging the child audience.

Employing this combination of methods enabled a thorough and objective exploration of marketing's influence on the consumer culture of preschool-aged children. Both quantitative and qualitative data were obtained, providing valuable insights necessary for formulating effective pedagogical recommendations and measures to protect children from the detrimental effects of commercial advertising.

Study Results.

The analysis revealed that preschool-aged children are highly susceptible to the influence of advertising and quickly internalize the images of products and services presented in marketing. This manifests itself in the formation of specific preferences and a desire to acquire advertised goods. Parents noted an increase in requests for purchasing products seen in advertisements, indicating that marketing indeed affects children's wishes and needs. The study highlighted that preschoolers exhibit high sensitivity to advertising messages. Children aged 3 to 7 demonstrate the capacity to memorize advertising images, characters, and music, thus contributing to the establishment of stable consumer preferences. Advertisements featuring vibrant visual imagery and emotionally charged messaging effectively capture children's attention, inducing a desire to own the advertised products.

Particularly notable is the impact of targeted advertising in digital platforms. Preschoolers actively engage with the internet, mobile applications, and social networks, encountering personalized advertisements tailored to their age-specific interests and preferences. This creates conditions conducive to the early formation of consumer habits and behavioral patterns rooted in commercial offerings.

Parents participating in the study reported that children increasingly initiate con-

versations about advertisements, express a desire to buy advertised products, and insist on obtaining specific items. Observations indicate that children are capable of remembering brand names, logos, and distinct product features, illustrating the profound penetration of marketing communications into the consciousness of preschoolers. Analysis of parent queries confirmed that children frequently request to purchase products viewed in advertisements, including toys, food, clothing, and educational materials. Parents note that children can recognize brands and recall slogans, suggesting the formation of consumer culture from an early age. Some parents indicated that children begin comparing themselves to advertising figures, mimicking their behavior, and aspiring to conform to the images portrayed in advertisements.

A significant finding of the study is the revelation that preschool-aged children lack adequate critical judgment in interpreting information. They perceive advertisements as reliable information about products and services without comprehending the commercial motives behind marketing. This sets the groundwork for manipulation of children’s minds and the formation of unhealthy consumer attitudes.

The study’s findings further show that marketing’s influence on preschoolers encompasses both positive and negative aspects. On one hand, advertising introduces children to new products and services, stimulating imagination and creative capacities. Conversely, excessive exposure to advertising can lead to the adoption of materialistic values, unrealistic expectations, failure to grasp the true value of money, and absence of critical thinking regarding commercial propositions.

These outcomes underscore the imperative for developing effective pedagogical and parenting strategies to safeguard children from the adverse effects of marketing. Parents and educators must be informed about the mechanisms of advertising’s impact on children and equipped to guide discussions on consumption, promote critical views of advertisements, and cultivate skills for making deliberate choices regarding goods and services.

Discussion of Results

The discussion of the study’s results leads to the conclusion that control over advertising aimed at children and the formulation of recommendations for manufacturers and marketers are necessary. It’s important to take into account the age-related characteristics of children’s information perception and avoid manipulations that contribute to the formation of unhealthy attitudes towards consumption.

The findings confirm that preschool-aged children represent a vulnerable audience for marketing influences. Their high sensitivity to advertising messages, emotional engagement, and insufficient critical perception create conditions for effective manipulation of their mindset. Advertising geared towards children employs vivid imagery, appealing characters, musical accompaniments, and emotionally charged messages, which are easily remembered and form lasting consumer preferences. Importantly, the impact of marketing on preschoolers exhibits specific traits tied to their age-related psychological characteristics. At this stage, children undergo active personality development, the formation of value orientations, and behavioral patterns. They adopt social norms and cultural paradigms, including consumer habits, which later transfer into real life. Advertising infiltrating the environment of preschoolers through various channels contributes to the early formation of consumer culture, which can have both positive and negative consequences for the child’s development.

The study’s findings also stress the need for producing recommendations for ma-

nufacturers and marketers. It is crucial that advertising campaigns intended for children correspond to their age-related characteristics and refrain from using manipulative techniques that promote unhealthy attitudes towards consumption. Manufacturers and marketers must acknowledge that preschool-aged children lack sufficient critical discernment in perceiving information and may view advertisements as trustworthy sources of information about products and services. Within the context of discussing the results, it is equally important to consider the roles of parents and educators in protecting children from the negative influence of marketing. Parents should be educated about the mechanisms of advertising's impact on children and trained to hold discussions with them about consumption, foster critical attitudes towards advertising, and develop skills for making thoughtful choices regarding goods and services. Educators in preschool institutions can incorporate elements of media literacy and digital security into their curricula, assisting children in developing critical thinking and skills for analyzing advertising messages.

Special attention in the discussion of results should be given to targeted advertising in digital platforms. Contemporary marketing technologies enable precise delivery of advertising messages to children based on their interests, age, residence, and behavior. This creates conditions for the early formation of consumer habits and behavioral patterns grounded in commercial offers. It is essential to establish control mechanisms for targeted advertising aimed at children and ensure compliance with ethical standards in interactions with minors.

Conclusion.

Marketing has a substantial impact on the formation of consumer culture among preschool-aged children, acting through various communication channels. Preschoolers display high sensitivity to advertising messages, readily retaining brands and products in memory. Targeted advertising in digital platforms amplifies this effect, fostering early consumer habits. However, children lack the ability to critically assess advertisements, perceiving them as credible information. This poses a risk of developing materialistic values and failing to comprehend the true cost of things.

The study underscores the necessity of developing ethical norms and standards limiting the use of manipulative techniques in advertising aimed at children. Equally important is raising competent consumers from an early age, involving training parents and educators on the mechanisms of advertising influence and cultivating critical attitudes towards commercial offers. Striking a balance between business interests and child development becomes a pivotal challenge requiring close attention from producers and marketers alike.

Литература

1. Emily J. Schlosser, Amanda M. Snyder – Marketing to Kids Online: Strategies for Effective Digital Targeting, Springer Publishing Company, 2028, Pages: 78–95

2. James U. McNeal – Children as Consumers: Advertising and Marketing in Childhood, Palgrave Macmillan, 2001, ст. 187

3. Valerie A. Foldesi, Wendy L. Winstanley – The Impact of Advertising on Young Children's Consumer Behavior: A Review of Empirical Research, Springer Publishing Company, 2018, Pages: 125–142

4. Умнов Д.Г. – Влияние маркетинга на потребительскую культуру детей дошкольного возраста, «Вестник науки и образования», № 16(119), часть 1, ст. 60–62

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

TAHRIR HAY’ATI:
E’zozxon KARIMOVA, Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.